

55.05 3-94 73
40-31

M.L. YADGAROVA
R.B. QURBONOV

BANK

AUDITI



65.053-ya23
ya-31

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

M.L. YADGAROVA, R.B. QURBONOV

BANK AUDITI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta
maxsus ta'lim vazirligi tomonidan
darslik sifatida tavsiya etilgan*

**TOSHKENT
«IQTISOD-MOLIYA»
2019**

UO‘K: 336.71:657.6(075.8)

KBK: 65.053ya73

**Taqrizchilar: *i.f.n.*, prof. T.M. Karaliev;
i.f.n., dots. F.T. Abduvoxidov**

Ya 31 Bank auditi: *Darslik* / M.Yadgarova, R.Qurbonov; – T.: «Iqtisod-Moliya», 2019. – 320 b.

Ushbu darslik “Bank auditi” fani bo‘yicha tasdiqlangan fan va ishchi dasturlari asosida tayyorlangan bo‘lib, unda bank auditining asoslari va mazmuni bayon etilgan.

Bank auditi darsligida O‘zbekiston Respublikasi banklarida audit o‘tkazish tartibi, audit o‘tkazishning maqsadi, vazifalari ko‘rsatib o‘tilgan. Unda bank auditining shakllanishi, O‘zbekistonda bank auditining huquqiy, iqtisodiy asoslari va rivojlanishi, banklarda ichki audit tekshiruvlarini o‘tkazish tartibi, auditorlik tashkilotlari hamda auditorlarning huquq va majburiyatlari, naqd pul va boyliklarni audit qilish tartibi, kassa va kassa operatsiyalarini auditi, Markaziy bank tomonidan auditorlarga setifikat berish va auditorlarni malaka attestatsiyasidan o‘tkazish, banklarda audit o‘tkazish uchun sertifikatlar berish va uni bekor qilish tartiblari, mijozlarga ko‘rsatilgan hisob-kitob operatsiyalarining auditi, chet el valyutasidagi operatsiyalarini va uning hisobini audit qilish tartibi, pul muomalasiga doir ishlarni auditdan o‘tkazish, bank debitor va kreditorlari holatini hamda bank kapitalini audit qilish tartibi nazariy jihatidan hozirgi zamon talablari asosida yoritib berilgan.

Jumladan, darslik bank auditini o‘rganuvchi iqtisodiy oliy o‘quv yurtlari bakalavr ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan. Bundan tashqari, darslikdan iqtisodchilar, hisobchilar, bank kollejlari o‘quvchilari va o‘qituvchilari ham foydalanishlari mumkin.

UO‘K: 336.71:657.6(075.8)

KBK: 65.053ya73

© M.Yadgarova, R.Qurbonov, 2019

© «IQTISOD-MOLIYA», 2019

ISBN 978-9943-13-849-0

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti qolaversa, xalqaro ijtimoiy va iqtisodiy aloqalarning globallashuvi sharoitida barcha xo'jalik yurituvchi subyektlardagi kabi anklarda ham bajarilayotgan operatsiyalar buxgalteriya hisobida bog'ga olib boriladi. Ushbu ma'lumotlar bank faoliyati ustidan nazorat qilish, uning rivojlanish istiqbollarini belgilash va faoliyat natijalariga baho berish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy pirovard maqsadi — mamlakat iqtisodiyotida bozor munosabatlari tamoyillarini to'liq qaror toptirishdan iboratdir. Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni shakllantirish yo'lida izchil islohotlar olib borilayotgan hozirgi bosqichda tijorat banklarining mamlakat iqtisodiyotidagi roli tobora oshib bormoqda.

Prezidentimiz o'z Farmonida "O'tgan yillarda mamlakatimizda auditning normativ-huquqiy va uslubiy bazasi shakllantirildi, shuningdek, auditorlik faoliyatini litsenziyalashning soddalashtirilgan va muddatsiz tizimi joriy etildi, bu auditorlik xizmatlari bozorining shakllanishiga va mahalliy auditorlik tashkilotlari auditorlik kompaniyalarining yirik xalqaro tarmoqlariga kirishini ta'minlashga imkon yaratdi. Shu bilan birga, qator muammolar va kamchiliklar auditorlik faoliyatining yanada rivojlanishiga, boshqarishga oid qarorlarni qabul qilish va korporativ boshqaruv sifatini oshirish uchun auditorlik xizmatlarining ahamiyatini oshirishga to'sqinlik qilmoqda!"¹ deya ta'kidlaganlari bejiz emas.

Hozirgi davrda O'zbekistonda bank auditi bo'yicha tijorat banklari moliyaviy holatini tahlil qilishning o'ziga xos tizimi tashkil qilingan. Shuningdek, tijorat banklari Markaziy bankka har oy faoliyatining ko'p sohalarini o'z ichiga olgan ma'lumotlar, balans hisoboti, iqtisodiy normativlar hisob-kitobi, foyda va zararlar hisobotlarini taqdim etadilar. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida tijorat banklari oldiga bozor

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish sharoitida talablarini to'g'risida"gi Qarori. PQ-3946, 2018-yil19-sentyabr.

414 303

konyunkturasi o'zgarishi talablariga moslashgan holda moliyaviy-iqtisodiy murakkabliklarni yengish, banklararo raqobat kurashida raqobatbardosh bo'lish hamda ular faoliyatini yanada rivojlantirish vazifalarini qo'yimoqda. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda tijorat banklari moliyaviy natijalarini tahlil qilishni, bank auditini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish, umuman bank moliyasini mohirona boshqarishni talab etadi.

1-bob. BANK AUDITINING MAZMUNI, MAQSADI VA VAZIFALARI

1.1. Bank auditining mohiyati va mazmuni

1.2. O‘zbekiston Respublikasida bank auditi va uning shakllanishi, maqsad va vazifalari

1.3. O‘zbekistonda bank auditining huquqiy-iqtisodiy asoslari va rivojlanishi

1.1. Bank auditining mohiyati va mazmuni

Ma'lumki, tijorat banklari faoliyatiga real baho berish va omonatchilar, kreditorlar va investorlarning bank faoliyati to'g'risida aniq ma'lumotlarga ega bo'lishlarida audit tekshirishlari muhim ahamiyatga egadir.

Audit tushunchasi – xo'jalik subyektlari faoliyatining yakunlarini xolisona baholash bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan bog'liqdir. Chunki rejali xo'jalik yuritish usulida to'la mustaqil bo'lmagan korxonalarni audit qilishga zaruriyat yo'q bo'lib, ularni taftish qilish kerak edi. Shuning uchun barcha davlat vazirliklarida taftish boshqarmasi mavjud bo'lib, bu boshqarmalar rejali xo'jalik yuritishda muhim rol o'ynagan.

Davlat banki tizimida ham taftish boshqarmasi mavjud bo'lib, barcha Davlat banki bo'limlari yilda bir marta rejali taftish qilinar edi. Bundan tashqari, ayrim masalalar bo'yicha rejadan tashqari tezkor tekshiruvlar tashkil qilingan.

Audit atamasi lotincha «audit» eshitmoq so'zidan olingan bo'lib, turli mulk shaklidagi korxonalar va tashkilotlarning buxgalteriya hisobini yuritish, moliyaviy hisobotlarining haqqoniyligini tekshirish jarayonini anglatadi. Shu o'rinda aytish joizki, bank auditi auditning muhim bo'lagi hisoblanadi.

Bank auditi auditning muhim bo'limi bo'lib, mustaqil nazorat qiluvchi subyekt sifatida bank tomonidan berilayotgan moliyaviy

axborotlarning haqiqiylikini tasdiqlaydi. Undan kutilayotgan maqsad bank faoliyatining barcha qirralari bo'yicha faktlarni yig'ish va baholash, hisobotlarni tekshirish, ularning me'yoriy hujjatlarga mos ravishda bajarilgan yoki bajarilmaganligini tekshirishdan iborat.

Bank auditning *predmeti* maxsus fan sifatida ma'lum maqsadga qaratilgan va bir qancha vazifalarni bajaradi. Auditning predmeti banklar, ularning moliyaviy faoliyatlari hisoblanadi. Ma'lumki, tijorat banklari o'z ustaviga asosan faoliyat yuritadi. Ushbu faoliyat jarayonida moliyaviy, moddiy va nomoddiy resurslardan foydalaniladi. Bank aktivlari doimiy ravishda daromad, foyda olishga qaratilgan bo'ladi. Lekin, ushbu natijalarga faqat qabul qilingan qonun-qoidalar, tegishli me'yoriy hujjatlarga to'liq amal qilgan holda erishish mumkin. Har bir bank o'zining hisob siyosati, depozit va kredit siyosatini belgilaydi va unga asosan faoliyat yuritadi. Bank auditida banklarning qabul qilingan qonunlarga monandligi, ma'lumotlarning haqqoniylikini tekshiradi. Bank auditining predmetiga bank moliyaviy hisobotining to'g'riligi, bank kengashi tomonidan tasdiqlangan siyosatga to'liq amal qilinishini tekshirish ham kiradi.

Jahon iqtisodiyotiga jadal sur'atlar bilan integratsiyalashayotgan O'zbekistonda hozirgi kunda xalqaro moliyaviy hisobotlar va audit standartlariga o'tish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Hozirgi kunda sohaga oid normativ-huquqiy baza zamon talablariga mos ravishda takomillashtirilib borilmoqda.

Taraqqiyotning ko'p asrlik tarixi davomida audit passiv "hisobot tinglash"dan professional faoliyat turiga o'tdi. Auditni tashkil etishning har bir bosqichi iqtisodiy munosabatlarning muayyan darajasiga to'g'ri keldi, chunki audit har doim muayyan iqtisodiy muhit talab qiladigan vazifalarni amalga oshirdi.

Aynan audit tadbirkorlik subyektining moliyaviy holatiga oid ishonchli ma'lumot olishda asosiy vosita hisoblanadi, chunki buxgalteriya hisobida buzilish xavfi mavjud bo'lgan.

Auditga oid manbalarda ta'kidlanishicha, uni quyidagi shart-sharoitlar keltirib chiqargan:

- axborot yetkazib beruvchilar (ma'muriyat) bilan axborotlardan

foydalanuvchilar (davlat organlari, banklar, aksiyadorlar, kreditorlar) manfaatlarining mos kelmasligi, natijada, ular o'rtasida ziddiyatli vaziyatlar yuzaga kelganida ma'muriyat tomonidan noto'g'ri ma'lumotlar berilishi;

- noto'g'ri axborotlarga asoslangan holda xo'jalik qarorlarining qabul qilinishi natijasida noqulay iqtisodiy ahvolda tushib qolinishi yoki inqirozga yuz tutilishi;

- iqtisodiy axborotlarning haqqoniyligini tasdiqlash uchun zarur maxsus bilimlarga ehtiyoj;

- axborotlardan foydalanuvchilarda ma'lumotlarni bevosita baholash va sifatini aniqlash uchun maxsus malaka, vaqt va materiallar yetishmasligi va h. k.

Mana shu muammolarni hal qilishga yordam beradigan auditorlik xizmatlari shakllana boshladi. Uning asosiy vazifasi axborotlardan foydalanuvchilarga taqdim qilinadigan hisobotlar to'g'risida xolis fikr-mulohazalar bildirishdir. Auditorlar yetarli bilim va tajribaga, shuningdek, buxgalteriya hisobi hujjatlari va asoslovchi ma'lumotlarni olish huquqiga ega bo'lganliklari uchun bu vazifani malakali darajada bajaradilar. Bundan tashqari, ular korxonada ma'muriyatiga bo'ysunmaydigan va uning tazyiqlaridan holidirlar.

Ayrim manbalarga ko'ra buxgalter-auditor kasbi XVII asrning o'rtalarida Yevropaning aksiyadorlik kompaniyalarida aksiyadorlar, kreditorlar va soliq xizmati xodimlari o'rtasidagi munozarali masalalarni hal qilib berish zarurati tufayli shakllana boshlagan. O'sha paytlarda mustaqil faoliyat ko'rsatib, korxonaning ishlab chiqarish moliya faoliyati to'g'risida aniq xulosa beradigan mutaxassislariga ehtiyoj kuchaygan.

Natijada, 1862-yili Angliyada, 1867-yili Fransiyada, 1937-yili esa AQShda majburiy audit to'g'risidagi qonun qabul qilingan. Hozirgi paytda bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda o'zining tashkiliy huquqiy infratuzilmalariga ega bo'lgan audit institutlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Auditorlik kasbi turli xil mamlakatlarda turlicha nomlanib kelingan. Masalan, Amerikada jamoatchi-buxgalter, Fransiyada

buxgalter ekspert yoki schyotlar bo'yicha komissar, Germaniyada xo'jalik nazoratchisi, yoki kitoblar (Das Buch) nazoratchisi, qator anglo-saksoniya mamlakatlarida kompaniyaning moliyaviy faoliyatini nazorat qiladigan taftishchi kabilar.

Audit rivojlanishining har bir bosqichi uning evolyutsion bosqichlari doirasida uchta klassik iqtisodiy nazariya bilan taqqoslandi: mutanosiblik nazariyasi, nazorat qilish nazariyasi, konsalting nazariyasi. I.V.Fedorenko va G.I.Zolotaryov ta'kidlaganidek, "auditning fan sifatida shakllanishi XIX asrning oxiridan boshlab tarixiy jihatdan boshlanib, hozirgi kunda ham davom etmoqda"².

Respublikamizda auditing rivojlanishiga muhim bir qadam 1992-yil 9-dekabrda "Audit" to'g'risidagi qonunni qabul qilinishi hisoblanadi. Mazkur qonunga ko'ra auditorlik faoliyatini tashkil etish, auditorlarning huquq va majburiyatlari, turlari to'liq yoritiladi. Banklarni va boshqa kredit tashkilotlarini auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning o'ziga xos jihatlari O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki tomonidan belgilanadi. 2000-yil 20-mayda qonun qayta tahrir qilinib, korxon va tashkilotlarning, jumladan banklarning faoliyatini audit tekshiruvidan o'tishiga asos bo'ladi.

Audit olib borish tartibi hukumat qarorlari va idoraviy yo'l-yo'riqlar bilan tartibga solinadi yoki yo'naltiriladi, faoliyatning muayyan qirralaridagi og'ishlarni vaqti-vaqti bilan nazorat etib turadi. Asl hujjatlar va buxgalteriya qaydlari, naqd pul vositalari, material-xomashyo qiymatini diqqat va e'tibor bilan kompleks ravishda o'rganadi. Moliyaviy hisobotning haqqoniyligi bo'yicha o'z fikrini bildiradi. Moliya xo'jalik faoliyatini tahlil qiladi, aktiv va passivlarini baholaydi.

Mijozning moliyaviy holatini yaxshilash, investorlar, kreditorlarni jalb etishga yordam beradi, moliya, soliq va boshqa sohalarga maslahat beradi. Audit xulosasi barcha jismoniy va yuridik shaxslar uchun, hokimiyat va sud idoralari uchun huquqiy hujjat hisoblanadi. Bu xulosa matbuotda ham e'lon qilinishi mumkin. Auditing taftishdan asosiy farqi

² Федоренко И.В. Развитие аудита как науки / Федоренко И.В., Золотарева Г.И.// Аудит и финансовый анализ. - 2010. - № 2. - С. 214.

ham mana shunda. Rejali xo'jalik yuritish usulida iqtisodiy-moliyaviy jihatdan to'la mustaqil bo'lmagan korxonalarni audit tekshiruvlardan o'tkazishga zarurat tug'ilmas edi. Chunki, ularni taftish qilishning o'zi yetarli edi. Shuning uchun barcha vazirlik, idoralarda taftish boshqarmalari faoliyat yuritardi.

Davlat banki tizimida ham taftish boshqarmasi mavjud bo'lib, barcha davlat banki bo'limlari yilda bir marta reja asosida taftish qilinar edi. Bundan tashqari ayrim masalalar bo'yicha ko'zda tutilmagan tezkor tekshiruvlar tashkil etilardi. O'zbekistonda auditning tarkib topishi mislsiz tarixiy o'zgarish – bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan izohlanadi. Chunki bozor iqtisodiyotida tadbirkorlik subyektini boshqarish vazifasi professional menejerlar qo'liga o'tadi, natijada tashkilot moliyaviy holatini mustaqil nazorat qilishga ehtiyoj tug'iladi. Kapitallarni jamlashda aksiyalashtirish, qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi, korporativ boshqaruv tizimining yo'lga qo'yilishi mustaqil moliyaviy ekspertiza natijalari oshkoraligini ta'minlash zaruratini tug'diradi. Chunki moliyaviy hisobotlar tashkilot bilan aloqada bo'lgan barchani-rahbarlar, xodimlar, mijozlar, mulkdorlar, kreditorlar, investorlar, davlat va hokimiyat organlarini mustaqil auditorlar tasdiqlaydigan axborotlar qiziqtiradi, hisobotlar boshqa tashkilotlarning banklar bilan hamkorlik qilishi uchun ishonch uyg'otadi. Binobarin mamlakatimizda audit turli guruhlarning qiziqishi va talablariga javob tariqasida paydo bo'ldi. Davlat esa, auditning rivojlanishi va takomillashishi uchun barcha choralarni ko'rib bormoqda.

1844-yilda Angliyada aksiyadorlik kompaniyalarining buxgalteriya schyotlarini, aksiyadorlarga taqdim etiladigan hisobotlarini yiliga kamida bir marta mustaqil buxgalterlar majburiy tekshiruvdan o'tkazishi belgilangan qonunlar chiqarilgan. Shunday qilib, dastlab auditorlik vazifalari aniq belgilanmagan bo'lib, barcha investorlar, aksiyadorlar, kreditorlar auditorlarni o'zlarining himoyachisi sifatida qabul qilganlar.

Angliyaning audit rivojlanishidagi tajribasi boshqa mamlakatlar, avvalo, AQSh, Fransiya va Germaniyaga, keyin esa Rossiyaga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Shunday qilib, Angliyadan keyin 1867-yilda Fransiyada

audit to'g'risidagi qonun qabul qilindi. Germaniyada auditga 1870-yilda asos solindi.

Auditorlarni aksiyadorlar oldidagi mas'ul shaxslar deb qarash "Kompaniyalar to'g'risida"gi qonun chiqarilishi bilan o'zgargan. Ushbu qonunga muvofiq, barcha kompaniyalar o'zlarining moliyaviy hisobotlarida foyda va zararlarni majburiy ravishda ko'rsatishlari belgilab qo'yildi³.

1.2. O'zbekiston Respublikasida bank auditi, uning shakllanishi, maqsad va vazifalari

Tijorat banklarida o'tkazilayotgan auditorlik tekshirishlari sifati va ta'sirchanligini oshirish, tashqi audit faoliyatini takomillashtirish, auditorlik firmalari o'rtasida erkin va sog'lom raqobat munosabatlarini kuchaytirish hamda aholi va sarmoyadorlarning bank tizimiga bo'lgan ishonchini yanada oshirish maqsadida 1996-yil 24-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank auditi tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilingan edi.

Mazkur farmon talablarini bajarilishini ta'minlash va Respublikada bank auditini mustahkamlash maqsadida o'tgan davr mobaynida Markaziy bank tomonidan bir qator ishlar amalga oshirildi.

Auditorlik tekshiruv qay tarzda o'tkazilishiga ko'ra **majburiy** va **tashabbus** tarzidagi (ixtiyoriy) auditorlik tekshiruvlarga bo'linadi. Shuningdek, auditorlik tekshiruv nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qilish organlarining tashabbusiga ko'ra ham o'tkazilishi mumkin.

"Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonunga muvofiq faoliyat turiga ko'ra quyidagi iqtisodiy subyektlar har yili majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tkaziladi:

- Aksiyadorlik jamiyatlari;
- Banklar va boshqa kredit tashkilotlari;
- Investitsiya fondlari hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'larini jamlab turuvchi boshqa fondlar;

³ Казакова Н. А. Аудит. Учебник и практикум для академического бакалавриата. М. Юрайт. 2016 г

- Manbalari yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari bo‘lmish xayriya fondlari va boshqa ijtimoiy fondlar;

- Sug‘urta tashkilotlari;

Bank auditining maqsadi:

• tekshirilayotgan bankning moliyaviy hisobotining ishonchliligi bo‘yicha xulosa berish;

• moliyaviy bozorga ishonchli axborot berishni ta‘minlash.

Bank auditining vazifalari:

• Banklarning moliyaviy hisobotini tahlil qilish va ishonchliligini tasdiqlash;

• Banklar faoliyatining realligi va unga obyektiv baho berish;

• aksiyadorlar, investorlar, kreditorlar va boshqa tashqi foydalanuvchilar huquqlarini himoya qilish;

• Bank faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tegishli takliflar ishlab chiqish.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi bank tizimiga kiruvchi tijorat banklari auditini o‘tkazish borasidagi ishlarni muvofiqlashtirish maqsadida tijorat banklariga litsenziyalar berish va ular faoliyatini tartibga solish departamenti tarkibida “Auditni muvofiqlashtirish bo‘limi” tashkil etildi.

Shuningdek, mazkur farmonga muvofiq tijorat banklarida audit tekshiruvlarini o‘tkazish, auditorlik firmalari va auditorlarga banklarda audit o‘tkazishga ruxsat berishning huquqiy asoslarini yaratish maqsadida Markaziy bank tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bank auditini o‘tkazishga qo‘yadigan talablari to‘g‘risida”gi, “Bank auditini o‘tkazish huquqini beruvchi sertifikatni berish, bekor qilish va auditorlarni malaka attestatsiyasidan o‘tkazish to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi bank auditini o‘tkazish uchun sertifikat berish va auditorlarni malaka attestatsiyasidan o‘tkazish komissiyasi to‘g‘risida”gi nizomlar ishlab chiqildi.

Bundan tashqari “O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida ichki audit xizmati to‘g‘risida nizom” namunasi ishlab chiqildi.

Farmonning 1-bandi 3-xat boshiga asosan Respublika hududida ish

yurituvchi auditor firmalari va auditorlarga tijorat banklarida auditorlik tekshirishlarini o'tkazish huquqini beruvchi 6 ta sertifikatlar hamda 10 ta malaka sertifikatlari berildi.

Farmondan keyin "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank auditini o'tkazish uchun sertifikat berish va auditorlarni malakasi bo'yicha attestatsiya komissiyasi" tomonidan quyidagi xalqaro auditorlik konsalting firmalariga bank auditini o'tkazish huquqini beruvchi tegishli sertifikatlar berilgan:

1. "Kupers end Laybrand" (2-sonli sertifikat (litsenziya) O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 1996-yil 14-noyabrda berilgan);

2. AOZT "Deloitte & Touche" (3-sonli sertifikat (litsenziya) O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 1996-yil 14-noyabrda berilgan);

3. "Artur Andersen" (4-sonli sertifikat (litsenziya) O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 1996-yil 14-noyabrda berilgan);

4. "Ernst & Young" (5-sonli sertifikat (litsenziya) O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 1996-yil 30-dekabrda berilgan);

5. "KPMJ" (6-sonli sertifikat (litsenziya) O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 1996-yil 30-dekabrda berilgan);

Ushbu auditorlik firmalari bank va moliya sohasida konsalting xizmatlari ko'rsatish va audit o'tkazish bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlarni egallaydi.

Bundan tashqari "O'zbankaudit" aksionerlik jamiyatiga 1996-yil 3-oktyabrda bank auditini o'tkazish huquqini beruvchi 1-sonli sertifikat (litsenziya) va 4 ta auditorga malaka sertifikati berilgan.

Tijorat banklarida audit tekshiruvlari o'tkazish uchun jahon banki mutaxassislari bilan birgalikda texnik topshiriqlar ishlab chiqilgan edi va bu texnik vazifalar Markaziy bank boshqaruvida 1997-yil 10-mayda tasdiqlandi.

Markaziy bank boshqaruvi topshirig'iga muvofiq mutaxassislardan tomonidan bank auditini o'tkazish xususida tuziladigan

shartnomalarning namunasi ishlab chiqildi va 1996-yil 16-dekabrda 416-sonli farmoyishiga asosan auditorlik firmalari bilan tijorat banklarida audit o'tkazish uchun shartnomalar tuzish komissiyasi tuzildi. Chunki Prezident Farmonlariga muvofiq tijorat banklarini xalqaro auditdan o'tkazish bilan bog'liq barcha xarajatlar Markaziy bank hisobidan amalga oshirilishi kerak edi.

Prezident farmonini bajarish borasida O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarini guruhlariga, auditor Firmalariga taqsimlash, hamda ularda operatsion audit o'tkazish uchun tashqi auditorlarga beriladigan texnik topshiriqlarni va auditorlik xizmatiga haq to'lash to'g'risida 1997-yil mayda Markaziy bank boshqaruv qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorga asosan tijorat banklarida audit o'tkazish uchun banklar auditor firmalariga quyidagi tartibda taqsimlangan:

- "Deloitte & Touche" auditorlik firmasi:

1. AT "Paxta bank";
2. AT "Asaka bank";
3. KB "UT bank";
4. AT "Savdogarbank";
5. AT "Ipak yo'li";
6. AT "Aloqabank";
7. AT "Xalq banki"

- "Artur Andersen" auditorlik firmasi:

1. AT "Aviabank";
2. AT "Tadbirkorbank";
3. AT "Toshuyjoyjamg'armabank";
4. AT "Ilmtexbank";
5. AT "Parvina bank";

- "KPMJ" auditorlik firmasi:

1. AT "Sanoatqurilishbank";
2. AT "G'allabank";
3. KB "Privatbank";
4. ATBB "Turonbank";
5. AB "Legkombank";
6. AB "Trastbank";

7. DAY “Zaminbank”;

- “Kupers end Laybrand” auditorlik firmasi:

1. AT “Andijonbank”;

2. AT “Investbank”;

3. XB “Umarbank”;

4. XB “Olimbank”;

- “Ernst & Young” auditorlik firmasi:

1. TIF “Milliy bank”.

Auditorlik firmalariga va auditorlarga banklarda audit o‘tkazish uchun Markaziy bank tomonidan beriladigan sertifikatlarni olish tartibini yanada takomillashtirish hamda tijorat banklarida audit tekshiruvlarini bank nazorati bo‘yicha xalqaro Bazel komiteti talablariga muvofiqlashtirib, amaliyotga yangicha mazmunda joriy etish maqsadida Jahoni bank ekspertlari ishtirokida 1998-yilda mazkur me‘yoriy hujjatlar qayta ishlab chiqildi. Shu o‘rinda ta’kidlash jo‘zki, yuqorida keltirilgan auditorlik kompaniyalaridan “Artur Andersen” 2002-yilda bankrotlikka uchraydi. Hozirgi kunda respublikamizda katta to‘rtlik auditorlik kompaniyalaridan «Praysvoterxaus Kuperc», «Ernst & Young», «Deloitte & Touche», hamda «Grant Thornton» kompaniyalari respublikamizda faoliyat yuritmoqda.

Xususan, Markaziy bankda faoliyat ko‘rsatgan “Barents grupp - LLS” konsalting firmasi maslahatchilari bilan hamkorlikda Markaziy bank mutaxassislari tomonidan “O‘zbekiston Respublikasida banklarni audit qilish to‘g‘risida”gi nizom, “Tijorat banklarining ichki auditiga qo‘yiladigan talablar” ishlab chiqilib, Adliya vazirligidan ro‘yxatdan o‘tkazildi.

Ushbu me‘yoriy hujjatlarni ishlab chiqilishi tijorat banklarida o‘tkazilayotgan ichki va tashqi audit tekshiruvlarini Markaziy bank tomonidan tartibga solish jarayonini ancha yaxshiladi.

Tijorat banklarida sifatli audit tekshiruvlarini o‘tkazilishini ta‘minlash maqsadida Markaziy bank tomonidan Jahon banki mutaxassislari bilan birgalikda tashqi audit tekshiruvlarini o‘tkazishga texnik topshiriqlar ishlab chiqilib, barcha auditorlik firmalari va tijorat banklariga yetkazildi.

Shuningdek, respublikada xizmat ko'rsatayotgan tijorat banklari faoliyatiga real baho berish, bank tizimiga bo'lgan ishonchni mustahkamlashda banklarda auditorlik tekshiruvlari sifati va ta'sirchanligini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligini xolisona tahlil etilishini ta'minlash va audit tekshiruvlarini xalqaro andozalar darajasida tashkil etish maqsadida 1999-yil 18-sentyabrda Markaziy bankning "O'zbekiston Respublikasida banklarni audit qilish to'g'risida" 1998-yil 4-iyuldagi 403-sonli Nizomiga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Yuqorida nomlari ko'rsatib o'tilgan nizomlar asosida Markaziy bankda auditorlarga sertifikatlar berish va auditorlar malakasini attestatsiya qilish bo'yicha komissiya tuzilgan bo'lib, mazkur komissiya tomonidan auditorlik firmalariga bank auditi o'tkazish huquqini beruvchi sertifikatlar hamda mazkur auditorlik firmalarining auditorlariga malaka sertifikatlari beriladi.

Mazkur auditorlik firmalar tomonidan amaldagi qonunchilikka asosan respublikada faoliyat ko'rsatib kelayotgan 1999-yil 1-yanvar holatiga 31 ta tijorat banklarida tashqi audit tekshiruvi o'tkazilib, tekshiruv yakunlari bo'yicha balans, foyda va zararlar to'g'risida hisobotlar matbuotda e'lon qilindi. Shundan, 14 ta tijorat bankida xalqaro auditorlik firmalari tomonidan audit tekshiruvlari o'tkazildi.

Auditorlik firmalarining banklardagi audit tekshiruvlari bo'yicha taqdim etgan xulosalari Markaziy bank tomonidan tahlil qilinib, audit tekshiruvi xulosalarida ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish, tijorat banklari faoliyatini kuchaytirishga doir tavsiyanomalarni bajarilishini ta'minlash maqsadida Markaziy bank tomonidan tijorat banklari Kengashlari va Boshqaruvi raislariga aniq ko'rsatmalar berildi va ushbu ko'rsatmalarni bajarilishi qattiq nazorat ostiga olindi.

Shu bilan birga, Markaziy bank tomonidan banklarda audit o'tkazish huquqiga ega bo'lgan auditorlik firmalari o'rtasida sog'lom raqobatni kuchaytirish maqsadida respublikada faoliyat ko'rsatayotgan boshqa auditorlik firmalarini banklarda audit o'tkazish jarayoniga jalb etish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Shuningdek, bank tizimini iqtisodiyotda tobora kuchayib boryotgan o'zgarishlar bilan baravar qadam tashlash, tijorat banklari xodimlarining bilim va ko'nikmalarini oshirib borish maqsadida Jahon

bank ekspertlari bilan bilan hamkorlikda Markaziy bank tomonidan tashqi audit masalalariga bag'ishlangan seminarlar o'tkazildi.

Jumladan, Amerika Xalqaro rivojlantirish agentligi (USAID) ekspertlari bilan birgalikda Markaziy bank tomonidan 1998-yil 14-18 dekabr kunlari "Moliyaviy hisobotlarning xalqaro andozalari" mavzusida, 1999-yil 15-19 noyabr kunlari "Tijorat banklarida tashqi audit" mavzusida seminarlar tashkil etilib, mazkur seminarlarda tijorat banklaridan 298 ta xodim ishtirok etdi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1998-yil 4-iyul 405-sonli "Tijorat banklarining ichki auditiga qo'yiladigan talablari to'g'risida"gi nizomiga muvofiq, barcha tijorat banklarida ichki audit xizmati tashkil etildi.

Bankda amalga oshirilayotgan operatsiyalarni balansda to'g'ri aks ettirilishini ta'minlash, buxgalteriya hisobini to'g'ri yo'lga qo'yishda ichki audit xizmatining roli muhimdir. Shu bois ham barcha tijorat banklarida ichki audit xizmati bevosita bank Kengashiga bo'ysundirilgan.

Ichki auditorlarning asosiy vazifasi bank tomonidan olib borilayotgan faoliyatni qonunchilikka va boshqa me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini hamda ichki nazorat tomonidan olib borilayotgan faoliyatni nazorat qilishdan iboratdir. Ushbu vazifalarni bajarish maqsadida tijorat banklari ichki auditorlari tomonidan bank moliyaviy hisobotlari joriy audit tekshiruvidan o'tkazib borilmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aksiyadorlik tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 1998-yil 2-oktyabrda PF-2084-sonli farmoniga muvofiq, tijorat banklarida aksiyadorlar rolini oshirish va banklarning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash maqsadida har chorakda bank Kengashida ichki audit xizmati rahbarining hisobotini tinglash amaliyotga joriy qilindi.

Tijorat banklari ichki auditiga oid me'yoriy hujjatlar bank nazoratini amalga oshirishda muhim ahamiyatga egadir.

Markaziy bankning tijorat banklari ichki auditiga bo'lgan talablarini yangi tahrirda qabul qilinishi tartibga solish jarayonini ancha yaxshiladi. Mazkur o'zgargan talablarni tijorat banklari tomonidan qisqa muddatlarda bajarilishini ta'minlash uchun Markaziy bank Amerika

Xalqaro rivojlantirish agentligi (USAID) va Xolis Guruh auditorlik firmasi bilan birgalikda 1999-yil 13-15 dekabr kunlari "Tijorat banklarida ichki audit" mavzusida seminar o'tkazilib, seminarda tijorat banklaridan 78 ta xodim ishtirok etdi.

1999-yilda Markaziy bank Jahon banki bilan birgalikda bank tizimini isloh qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan respublika moliya institutlarini rivojlantirish zayomini o'zlashtirishga kirishdi. Mazkur zayomning ahamiyatli tomonlaridan biri tijorat banklarida ichki auditni rivojlantirishni ta'minlash borasida texnik yordam ko'rsatishdan iboratdir.

Shunga asosan ushbu zayom hisobidan tijorat banklariga ichki audit xizmati faoliyatini yanada takomillashtirishda ko'mak berish maqsadida Markaziy bankda xorijiy maslahatchilar ish olib bormoqda.

Ushbu maslahatchilarning asosiy vazifasi tijorat banklari ichki audit xizmatlari faoliyatini o'rganib chiqib, uning faoliyatini jahon andozalari darajasida tashkil etishga ko'mak berishdan iboratdir.

1.3. O'zbekistonda bank auditining huquqiy iqtisodiy asoslari va rivojlanishi

«Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi qonunning «Banklarda hisob yuritish va hisobot, banklarni nazorat qilish» deb nomlangan VI-bobida banklarda buxgalteriya hisobi yuritish va hisobot qoidalari Markaziy bank tomonidan O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro standartlarga muvofiq belgilanishi, Markaziy bank qonun hujjatlariga muvofiq banklar faoliyatini nazorat qilib borishi aytilgan. Qonunning 43-moddasi butunlay auditga bag'ishlanib, unda shunday deyiladi: «Banklarning faoliyati qonun hujjatlariga muvofiq auditorlik tekshirishlarini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan auditorlar tomonidan har yili tekshirib turilishi lozim. Audit, xususan, kapitalning yetarliligini baholash, ssudalarni tasniflash, ssudalar bo'yicha zararlarni qoplash, riskni va likvidlikni o'lchashni o'z ichiga oladi. Banklar qonun hujjatlariga muvofiq ichki auditorlik dasturlarini ishlab chiqishlari va amalga oshirishlari ham shart».

O'zbekistonda bank auditiga bunchalik katta e'tibor qaratilayotganining o'z sabablari bor. Chunki davlat nazorati organlarining tijorat banklarining operatsiyalarni o'tkazish va ularning hisobini rasmiy jihatdan olib borishiga qo'yiladigan barcha talablarga rioya etilishi mamlakat kredit tizimining sifati va ishonchliligini ta'minlaydi. Bu talablar, birinchi navbatda, banklarga jalb etilgan omonatchilar va mulkdorlar kapitalining yo'qotishlar riskini bartaraf etish yoki uni eng past darajaga tushirish sharti bilan bank operatsiyalarining daromadliligini maqbul darajada ta'minlashga qaratilgan.

Agar biz jahon mamlakatlari kredit tizimining tarixiy rivojiga nazar solsak, bank va ular mijozlarining ko'p bor xonavayron bo'lganiga guvoh bo'lamiz. Shu bois ular faoliyati ustidan O'zbekistonda davlat nazorati o'rnatilishi zarurligini tushunishga olib keldi. Misol uchun, 1929-1933 yillarda ro'y bergan buyuk inqiroz AQSh iqtisodiyotiga katta zarba berdi. Bu holni tahlil etgan «The VapKeg» jurnali quyidagi xulosani chiqaradi: "Amerika bank tashkilotining qoniqarsiz ahvoli va uni keskin o'zgartirish zarurati shunda bo'ldiki, bu tizim tadbirkorlik hamjamiyatiga ham, alohida shaxsga ham xizmat qila olsin". Inqiroz quyidagilarni oshkor etdi⁴:

1. Amerika banklari tashkilotining nosog'lom tabiati banklarning turli sabablar bilan xonavayron bo'lishiga olib keldi.

2. Amerika bank tizimi iqtisodiy inqiroz va stresslar paytida jamiyat manfaatlarini ta'minlashga noqobil bo'lib chiqdi.

3. Federal Rezerv Tizimi (o'sha davrda, inqiroz paytida) pul bozorini nazorat ham, muvofiqlashtira ham olmadi.

AQShning «buyuk inqiroz» yillaridagi audit va bank nazorati tahlili sohadagi ishlarni butunlay qayta ko'rib chiqishga olib keldi. Prezident F.Ruzvelt boshchiligidagi hukumat bank tizimini markazlashtirish siyosatini yuritdi va bu siyosat mamlakatda bank nazorati va auditini yangi bosqichga olib chiqdi. Keyinchalik depozitlarni sug'urtalash siyosatining kengayib borishi AQSh moliya tarixida banklarni Umumfederal nazorati ostiga olish imkonini berdi⁵.

⁴ http://economic-definition.com/Economic_Crisis/Velikaya_depressiya_Great_Depression

⁵ И.А. Дьяконова «Американский аудит в годы «великого кризиса» Бизнес и банки, 1999 г., ноябрь, №44

Umuman olganda, «buyuk inqiroz»dan keyingi yillarda ham moliyaviy boʻronlar u yoki bu mamlakatda turli shakllarda yuz berib turdi va ularning tahlili hamda jahon iqtisodiyotining integratsiyalashuv jarayoni banklar ustidan maxsus davlat nazoratining oʻrnatilishi va kuchaytirilishini tushunishga olib keldi. Bu sohadagi tajribalarni umumlashtirish, muvofiqlashtirish maqsadida 1975-yili Bank nazorati boʻyicha, Bazel komiteti tuzildi. Oʻzbekiston ham bu komitetga 1995-yildan buyon aʼzo boʻlib kirgan.

1992-yil 9-dekabrda respublikamizda “Auditorlik faoliyati toʻgʻrisida”gi qonun qabul qilinib, 2000-yil 20-mayda qayta nashr qilinadi. Qonunda auditorlik faoliyati, auditorlarning huquq va majburiyatlari, turlari, prinsiplari toʻliq yoritiladi. Banklarni va boshqa kredit tashkilotlarini auditorlik tekshiruvidan oʻtkazishning oʻziga xos jihatlari Oʻzbekiston Respublikasining Markaziy banki tomonidan belgilanadi.

2000-yil 4-noyabrda 982-sonli Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan «Oʻzbekiston Respublikasida banklarni auditorlik tekshiruvini toʻgʻrisida»gi nizom qabul qilinadi. 2004-yil 20-aprelda 992-sonli “Tijorat banklarining ichki auditiga bank tomonidan qoʻyiladigan talablar toʻgʻrisida”gi nizomga asosan barcha tijorat banklarida ichki audit xizmati tashkil etiladi.

Oʻtgan yillarda mamlakatimizda auditning normativ-huquqiy va uslubiy bazasi shakllantirildi, shuningdek, auditorlik faoliyatini litsenziyalashning soddalashtirilgan va muddatsiz tizimi joriy etildi, bu auditorlik xizmatlari bozorining shakllanishiga va mahalliy auditorlik tashkilotlari auditorlik kompaniyalarining yirik xalqaro tarmoqlariga kirishini taʼminlashga imkon yaratdi.

19-sentyabr, 2018-yilda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1946 “Oʻzbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori qabul qilindi.

Respublikamizda auditorlik faoliyatining yanada rivojlanishiga toʻsqinlik qilayotgan muammo va kamchiliklar, korporativ boshqaruv sifatini oshirish uchun auditorlik xizmatlarining ahamiyatini oshirishga qaratilgan muhim vazifalar belgilab berilgan.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 4-apreldagi PQ-615- “Auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish

hamda ular ko'rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to'g'risida" qarori qabul qilinadi:

- auditorlik tashkilotlari ochiq aksiyadorlik jamiyati shaklidan tashqari barcha tashkiliy-huquqiy shaklda tashkil etilishi va faoliyat yuritishi mumkin, bunda ustav kapitalining kamida 51 foizi mazkur auditorlik tashkilotining bir yoki bir nechta shtatdagi auditorlariga tegishli bo'lishi shart. Auditor o'zi ishlayotgan faqat bitta auditorlik tashkilotining ta'sischisi bo'lishi mumkin;

- auditorlik tashkiloti o'zining asosiy ish joyi bo'lgan auditorgina auditorlik tashkilotining rahbari bo'lishi mumkin;

- attestatsiyadan o'tmagan rahbar ikki yil mobaynida auditorlik tashkiloti rahbari sifatida faoliyat yuritish huquqiga ega emas;

- auditorlik tekshiruvlari turiga qarab litsenziyalarning differensiyalanishi;

- faqat tashabbuskorlik asosida auditorlik tekshiruvini amalga oshiruvchi auditorlik tashkilotlari eng kam oylik ish haqining 1500 barobari miqdoridan kam bo'lmagan ustav kapitaliga va shtatida kamida 2 nafar auditorga ega bo'lishi;

- aksiyadorlik jamiyatlari, banklar va sug'urta tashkilotlaridan tashqari xo'jalik yurituvchi subyektlarda tashabbuskorlik asosida va majburiy auditorlik tekshiruvlarini amalga oshiruvchi auditorlik tashkilotlari eng kam oylik ish haqining 3000 barobari miqdoridan kam bo'lmagan ustav kapitaliga va shtatida kamida 4 nafar auditorga, ularning bittasi xalqaro buxgalter sertifikatiga ega bo'lishi;

- barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarda auditorlik tekshiruvini o'tkazuvchi auditorlik tashkilotlari eng kam oylik ish haqining 5000 barobari miqdoridan kam bo'lmagan ustav kapitaliga va shtatida kamida 6 nafar auditorga, ularning ikkitasi xalqaro buxgalter sertifikatiga ega bo'lishi shart;

- auditorlik tashkilotiga uning shtatidagi auditorlarning eng kam soniga nisbatan qo'yilgan talabi mazkur auditorlik tashkiloti asosiy ish joyi hisoblangan auditorlik shtati auditorlarning belgilangan eng kam soni bilan to'liq to'ldirilishini nazarda tutadi;

- auditorlik tashkiloti ustav kapitalining kamida ellik foizi muassislar (ishtirokchilar)ning pul mablag'laridan, qolgan qismi esa

auditorlik tashkiloti faoliyatini amalga oshirishda bevosita foydalaniladigan moddiy boyliklardan shakllantiriladi.

Bank auditi hozirgi vaqtda banklarning barqarorligini ta'minlashda alohida o'rin tutadi. "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonunga ko'ra, Banklarni va boshqa kredit tashkilotlarini auditorlik tekshiruvdan o'tkazishning o'ziga xos jihatlari O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki tomonidan belgilanadi. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi. Markaziy bank tomonidan beriladigan, banklarni tekshirish huquqini beruvchi malaka sertifikatiga ega kamida ikki nafar auditori bor auditorlik tashkilotlariga banklarni tekshirish huquqini beruvchi sertifikat muddatsiz beriladi

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va atamalar

Audit, mustaqil nazorat, buxgalteriya hisoboti, soliq deklaratsiyasi, auditorlik xizmati, buxgalteriya hisobotini tuzish bo'yicha tamoyillar, taftish, ixtiyoriy audit, majburiy audit, tashqi audit, ichki audit, auditorlik xizmatlari bozori.

O'z bilimini tekshirish bo'yicha savollar

1. Bank auditi deganda nimani tushunasiz?
2. Mustaqillik yillarida bank auditini rivojlanishi.
3. "Bank auditi tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmon qachon qabul qilingan va uning mohiyati.
4. Auditorlik firmalariga va auditorlarga sertifikatlar kim tomonidan beriladi?
5. Qanday nufuzli auditorlik firmalarini bilasiz?

2-bob. BANK AUDITINING TASHKIL QILINISHI VA TURLARI

2.1. Bank auditining metodi va turlari

2.2. Ichki audit tekshiruvlarini o'tkazish tartibi

2.3. Tijorat banklarida tashqi audit

2.4. Auditorlik tashkilotlari va auditorlarning huquq va majburiyatlari

2.1. Bank auditining metodi va turlari

Auditorlik xizmatlari auditorlik tekshiruvlarini va "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonunning 17-moddasida nazarda tutilgan quyidagi xizmatlarni o'z ichiga oladi. Auditorlik tashkilotlari quyidagi professional xizmatlarini ko'rsatishlari mumkin: buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish, qayta tiklash va yuritish; moliyaviy hisobotni tuzish, milliy moliyaviy hisobotni buxgalteriya hisobi xalqaro standartlariga o'tkazish, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliya-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish, buxgalteriya hisobi, soliq solish, rejalashtirish, menejment va moliya-xo'jalik faoliyatining boshqa masalalari yuzasidan konsalting xizmati, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblarni tuzish, xo'jalik yurituvchi subyekt taftish komissiyasining (taftishchisining) vazifalarini amalga oshirish vazifalari yuklatilgan.

Auditorlik tekshiruvi o'tkazilishining majburiy yoki majburiy emasligiga ko'ra 2 ga bo'linadi:

1. Majburiy audit;
2. Tashabbuskorlik auditi.

"Tijorat banklarining ichki auditiga Markaziy bank tomonidan qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi nizomda ichik auditga quyidagicha ta'rif berilgan.

Ichki audit – bank xodimlarining o'z vazifalarini samarali bajarishlarida yordam berish maqsadida bank faoliyatini tekshirish va baholash uchun bank ichida doimiy asosda tuzilgan mustaqil ekspertiza.

Ichki auditning asosiy maqsadi bo'lib Ichki audit xizmati tomonidan bank rahbariyatiga bank faoliyatining nazorati va natijalari bo'yicha obyektiv tahlil, baho, tavsiyalar va ma'lumotlar taqdim etish orqali bank Kengashi va Boshqaruviga bank faoliyati maqsadiga erishishida ko'maklashish hisoblanadi. Bankda tashkil etilgan Auditorlik qo'mitasi tarkibiga bank Kengashining kamida uchta a'zosi kiritilishi kerak. Auditorlik qo'mitasi tarkibiga kiruvchi bank Bank Kengashi tegishli ichki nazorat tizimini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash maqsadida Auditorlik qo'mitasini tuzishi lozim va ushbu qo'mita tarkibiga faqatgina bank Kengashi a'zolari kiritilishi lozim.

Keyingi 27-yil mobaynida auditorlik faoliyati 3 xil rivojlanish bosqichidan o'tdi:

1. *Tasdiqlovchi audit* – bunda asosan hisob registrlari va hujjatlar tekshirildi.

2. *Maqsadli sistemali audit* – bu bosqichda muomala (operatsiya)larni nazorat qilish sistemasini kuzatish imkoniyati yaratildi.

3. *Tavakkalchilikka asoslangan audit* – sistemani nazorat qiluvchi shaxslar tomonidan qabul qilingan boshqaruv qarorlariga baho beriladi.

Maqsadli sistemali audit – shakllanishi bilan auditorlar ichki nazorat orqali ekspertiza o'tkaza boshladilar. Buning oqibatida shu narsa isbotlandiki, agar ichki nazorat tizimi samarali tashkil qilingan bo'lsa, xato va kamchiliklarni aniqlash uchun muhim tekshirishlar o'tkazishga hojat qolmaydi.

Tavakkalchilikka asoslangan audit – yoppasiga yoki tanlov yo'li bilan o'tkaziladigan tekshirish bo'lib, ubank faoliyati sharoitidan kelib chiqadi va asosan tor doiradagi bank operatsiyalarini tekshirish bilan yakunlanadi.

Audit tekshiruvlarini o'tkazish metodlari quyidagicha:

1. Muhimlilik darajasi bo'yicha:

- to'liq tekshirish;
- tanlab tekshirish.

2. O'tkazish usuliga ko'ra:

- hujjatli tekshiruv;
- dalilli tekshiruv;

- analitik tekshiruv;
- kombinarli tekshiruv.

Audit dalillari quyidagi yo‘llar bilan olinishi mumkin:

- inspeksiya;
- nazorat qilish;
- so‘rovnoma;
- tasdiqlash;
- qayta hisobga olish;
- analitik jarayon.

Ichki audit funksiyalari:

- bank rahbariyati bilan birgalikda faoliyat yuritish;
- bank xodimlari o‘z vazifalarini samarali bajarishlarida yordam

berish;

- moliyaviy hisobotni (oylik, choraklik, yillik) joriy auditorlik tekshiruvidan o‘tkazish;

- operatsiyalar yoki dasturlarning natijalari ularning oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalarga mos kelishi hamda rejaning bajarilishini aniqlash maqsadida ularni tekshirish;

- buxgalteriya, operatsion va ma‘muriy nazorat tizimlarining monandligini baholash;

- bank faoliyatini tashqi auditga tayyorlash.

Auditorlik faoliyati prinsiplari:

- mustaqillik;
- xolislik;
- erkinlik;
- malakalilik;
- maxfiylik.

Davlat organlarining auditorlik xizmatlariga munosabati turlicha. Masalan, AQSh va Buyuk Britaniyada auditorlik tashkilotlari mustaqil bo‘lib, ular auditorlarni o‘zlari tayyorlaydilar, tegishli malakaviy unvonlarni beradilar va keyinchalik ham ularning o‘z vazifalarini vijdonan, halol bajarishlarini nazorat qilib turadilar. Boshqa Yevropa mamlakatlarida auditorlik faoliyati hukumat organlari tomonidan tashkil qilinadi.

Bozorning kengayishi bilan auditorlik firmalari ko'rsatadigan xizmatlar turlari va hajmlari ham ortib boradi.

Ko'plab firmalar odatdagi buxgalteriya hisobiga oid maslahatlar va xizmatlardan tashqari soliqqa tortish, boshqaruv faoliyati va axborotlarni olish texnologiyasi, marketing, moddiy ishlab chiqarish zarurliklarini baholash, iqtisodiy rejalashtirish va istiqbolni belgilash, bank va sug'urta ishlari bo'yicha ham xizmat ko'rsata boshladilar.

Bozor iqtisodi rivojlangan mamlakatlarda moliyaviy nazoratning quyidagi tashkiliy tizimidan foydalaniladi:

1. Davlat moliyaviy nazoratining oliy organi *hisob-kitob palatasi* yoki *davlat bosh auditorlik apparati* bo'lib, u bevosita parlament yoki prezidentga bo'ysunadi. Uning asosiy vazifasi davlat byudjetining xarajatlar qismini umum nazorat qilishdir.

2. *Soliq boshqarmasi*. Hukumatga yoki moliya vaziriga bo'ysunadi, davlat byudjeti daromadlar qismining to'ldirilishini nazorat qiladi.

3. *Vazirliklardagi nazorat taftish bo'linmalari* byudjet tomonidan mablag' bilan ta'minlanib, davlat moliyaviy nazoratining oliy organi yoki tegishli vazirlikka bo'ysunadi. Asosiy vazifasi byudjet mablag'larining to'g'ri sarflanishini nazorat qiladi.

4. *Mustaqil auditorlik moliyaviy nazorat balans* ma'lumotlarining to'g'riligini, amalga oshirilgan muomalalarning qonuniyligini shartnoma asosida nazorat qiladi. Nodavlat sektoridagi korxonalar va tashkilotlarga ham shartnoma asosida hisob va moliya ma'lumotlari bo'yicha maslahat (konsultatsiya) beradi.

1-jadval

Tashqi va ichki auditni qiyosiy tavsifi⁶

| Taqqodlash elementlari | Ichki audit | Tashqi audit |
|-------------------------------|--|--|
| Obyekti, doirasi | Rahbariyat tomonidan belgilanadi. Rivojlanishning boshida maqsadi aktivlarni saqlash va zarar ko'rishning oldini olishdir. Axborotlar tizimining funksional auditiga ko'proq e'tibor beriladi. | Maqomi bilan aniqlanadi. Asosan moliyaviy hisobot va axborotni ishonchligining auditi katta o'rin tutadi. Ayrim mamlakatlarda ishlab chiqarish faoliyatining auditi rivojlangan. |

⁶ Barinoy B. Tijoont banklarida ichki audit. Monografiya, 2006 y

| | | |
|----------------|--|---|
| Malakasi | Boshqaruv strukturasi tomonidan aniqlanadi. Mustaqilligi cheklangan va malakasi kamroq | Qat'iy belgilangan. Yuqori darajada mustaqillikka ega |
| Metodlari | Asosan har xil metodlari qo'llaniladi | Farqli tekshirishlarni detallashtirishda va aniqligida |
| Maqsadi | Reja yoki rahbariyat tomonidan belgilanadi | Qonunlardan, sud organlaridan va tashqi talablardan kelib chiqadi |
| Hisobot berish | Rahbariyat oldida | Manfaatdor guruh yoki tashkilot rahbariyati oldida Bundan tashqari qo'shimcha xizmat sifatida bo'lishi mumkin. |

Auditorlik tekshiruvdan oldin audit guruhi boshlig'i tomonidan dastur ishlab chiqiladi va unda quyidagilar ko'rsatiladi:

- auditning maqsadi;
- tekshiriladigan bankning ko'lami va hisob bo'limlari;
- guruh a'zolari o'rtasida vazifalarning birlashtirilishi;
- tekshirish boshlanishi va tugatilishining muddati va davom etish muddati.

2.2. Ichki audit tekshiruvlarini o'tkazish tartibi

Respublikamizda ichki auditni tashkil etishning umumiy qoidalari O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida", "Markaziy bank to'g'risida", "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonunlari hamda "Tijorat banklarining ichki auditiga Markaziy bank tomonidan qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi nizomga va bank va auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan.

Audit xizmati xodimlarining soni ichki audit vazifalarini samarali hal etish va uning maqsadlariga erishish uchun yetarli bo'lishi lozim.

Audit xizmati tekshiruvlari jarayonida aniqlangan huquqbuzarlik holatlari to'g'risida bank Kengashiga axborot berishi lozim.

Audit xizmatini bosh ichki auditor boshqaradi, u bank departamenti rahbari maqomiga ega.

Bosh auditorning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- audit xizmati xodimlari uchun zarur bo'lgan audit dasturi, yozma ravishda ichki audit siyosati va jarayonlarini ishlab chiqish. Bosh auditor belgilangan hujjatlarning ichki audit standartlariga muvofiqligi uchun javobgar;

- audit xizmati xodimlari tomonidan amalga oshiriladigan Audit xizmati faoliyatining yozma ishlarini bajarilishini ta'minlash;

- audit xizmatiga malakali va yetarli ma'lumotga ega bo'lgan xodimlarni tanlash va ularning ish faoliyati ustidan bevosita nazorat o'rnatish;

- xodimlarning malaka darajalarining oshirib borilishini ta'minlash;

- bank Kengashi va Boshqaruvi bilan birgalikda ishlash, shu jumladan ichki audit faoliyati oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarilishi va ichki audit tizimi ishlari to'g'risida bank Kengashi yoki Auditorlik qo'mitasiga muntazam ravishda hisobot berib borish. Xususan, Audit xizmati Auditorlik tekshiruvi rejasining bajarilishi to'g'risida bank Kengashi va Auditorlik qo'mitasiga axborot berib borishi shart;

- har chorakda Audit xizmati faoliyati natijalari to'g'risida Auditorlik qo'mitasiga hisobot berib borish;

- ichki auditorlar ishlarini muvofiqlashtirish;

- tashqi auditorga ko'maklashish;

- lavozim yo'riqnomasiga muvofiq boshqa masalalar.

Bosh auditor auditorlik tekshiruvlari jarayonida aniqlangan qoidabuzarliklarni o'z vaqtida bartaraf etish bo'yicha ko'rilgan choralarini baholash uchun javob beradi.

Bank Kengashi bosh auditorning har chorakdagi ma'ruzalarini tinglashi lozim.

Audit xizmati mustaqildir va u bevosita bank Kengashi yoki uning Auditorlik qo'mitasiga bo'ysunadi.

Bankning hududiy filiallarida tayinlangan barcha Audit xizmati xodimlari bevosita bosh auditorga bo'ysunishlari lozim.


Audit xizmati xodimlari ular tomonidan tekshirilayotgan faoliyatlardan mustaqil bo'lishi lozim.

Bosh auditor yoki Audit xizmati xodimlariga nisbatan bo'ladigan

har qanday tazyiq to'g'risida bank Kengashi raisiga darhol bildirilishi lozim.

Bosh auditor bank Kengashi qaroriga asosan tayinlanadi va o'z xizmat vazifasidan ozod etiladi. Audit xizmati xodimlari Bosh auditor taqdimnomasiga muvofiq bank Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Audit xizmatining mustaqilligini ta'minlash maqsadida Audit xizmati xodimlarining ish haqlari bank Kengashi tomonidan belgilanadi. Bosh auditor har yili Audit xizmatining yillik xarajatlar smetasini ishlab chiqishi va uni bank Kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etib borishi lozim.



1-rasm⁷. Ichki audit tekshiruvlarini o'tkazish tartibi

⁷ Karimov N.F. Tijorat banklarida ichki audit: Monografiya. O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi.- T.: O'zbekiston Respublikasi FA "Fan" nashriyoti, 2006. -262 b.

Bank Kengashi Audit xizmati xarajatlar smetasiga istisnoli o'zgartirish kiritish huquqiga ega. Shuningdek, bank Kengashining qaroriga ko'ra Audit xizmati xodimlarini qo'shimcha moddiy rag'batlantirish nazarda tutilishi mumkin.

Ichki audit tekshiruvlari bankning barcha filiallarida va bosh bankda yiliga kamida bir marta o'tkaziladi. Ichki audit xizmatining ishi aniq rejalashtirilgan bo'lishi kerak. Ichki audit tekshiruvlari dastur asosida olib boriladi va dastur bank kengashi raisi tomonidan tasdiqlangan bo'ladi. Ichki audit xizmati xodimlari bank operatsiyalarini harakatdagi qonunlar, Markaziy bank va tijorat bankining me'yoriy hujjatlari asosida to'liq, aniq va o'z vaqtida o'tkazilishi hamda ularni hisob va hisobotlarda to'g'ri va to'liq aks ettirilganligini tekshiradilar hamda ularning haqqoniyligiga baho beradilar.

2-jadval

Ichki auditning asosiy ishi

| Faoliyatiga tavsif | Plyus | Minus |
|---|---------------------------------|--|
| Tekshiruv jarayonida nazorat jarayonini samaradorligi va riskni kamaytirish uchun ularni yetarligiga o'tibor qaratish | Obyektivlikni saqlash | Tekshiruv qiyinligi |
| Boshqaruvdan holi | Mustaqillikni saqlash | To'g'ridan-to'g'ri yordamning mavjudligi |
| Jarayonlarni to'g'rilashga tavsiyalar beradi | Salbiy sabablarga barham berish | Murakkab tadbirlar rejasi |

2004-yil 20-apreldagi "Tijorat banklarining ichki auditiga bank tomonidan qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi nizomga asosan barcha tijorat banklarida ichki audit tashkil etiladi. Ichki audit tekshiruvi yakunlangandan so'ng zudlik bilan auditorlik hisoboti tayyorlanadi.

Auditorlik hisoboti zaruriy tarzda javobgar auditorlar tomonidan imzolanadi. Auditorlik hisobotlari to'g'ridan-to'g'ri Bank Kengashiga

yoki Auditorlik Qo‘mitasiga beriladi. Hisobotning bir nusxasi esa Bank boshqaruviga taqdim qilinadi. Quyida misol keltiramiz.

3-jadval⁸

| Aniqlangan kamchiliklar mazmuni | Aniqlangan kamchiliklar asosi | Kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha berilgan tavsiyalar |
|---|--|---|
| Mijozlar bilan tuzilgan hisob kassa xizmati ko‘rsatish shartnomalaridagi huquqshunos imzosi mavjud emas, mijoz boshqa bankka ketayotganda hujjatlarni rasmiylashtirishdagi kamchiliklar | 3028-yo‘riqnoma bo‘yicha mijozlar bilan tuzilgan hisob kassa xizmati ko‘rsatish shartnomalarida huquqshunos imzosi mavjud bo‘lishi lozim | Filialda joriy nazorat va yakuniy nazoratni kuchaytirish, 3028-yo‘riqnoma bo‘yicha ish tashkil qilish |
| Aksariyat yuridik shaxslardan kassa buyurtmanomali olinmagan hamda kassa qoldig‘i limiti o‘rnatilmagan | 639-sonli nizomga muvofiq Bank kassalarida naqd pul qoldiqlariga limitlar o‘rnatiladi. Ichki tartibga asosan yuridik shaxslardan kassa buyurtmanomali har oyda olinadi | Yuridik shaxslardan kassa buyurtmanomali olish va kassa qoldig‘i limitlarini o‘rnatish |
| Kunlik kassa hujjatlaridagi, kirim kassa hujjatlaridagi kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslik choralari ko‘rish | 1831-yo‘riqnomaga asosan banklarda kassa ishi tashkil etiladi | Filialda joriy nazorat va yakuniy nazoratni kuchaytirish lozim |
| (Xalqaro pul o‘tkazmalari bo‘yicha) Pirmamatov Ozodbek Pirmamat o‘g‘li tomonidan yozilgan yozma tilxatda summa so‘z bilan ustiga yozib to‘g‘irlangan | Respublikamiz qonunchiligiga asosan pul hisob-kitob hujjatlari to‘ldirilganda bo‘yash, ustiga chizish va boshqa shunga o‘xshash holatlarga yo‘l qo‘yilmaydi | Ushbu kamchilik bo‘yicha barcha mas‘ul xodimlarga tegishli ko‘rsatmalar berish va kelgusida takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaslik |
| (Xalqaro pul o‘tkazmalari bo‘yicha) Yo‘ldashev Anvarjon tomonidan yozilgan yozma tilxatda summa so‘z bilan noto‘g‘ri yozilgan | | Ushbu kamchilik bo‘yicha barcha mas‘ul xodimlarga tegishli ko‘rsatmalar berish va kelgusida takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaslik |

⁸Bank auditorlik hisobotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

2018-yil mart oyida A Bosh bank Ichki Audit bo‘limi xodimlari tomonidan Samarqand filialida o‘tkazilgan audit tekshiruvi davomida pul muomalasi va kassa operatsiyalari bo‘yicha aniqlangan kamchiliklar quyidagilar hisoblanadi:

Ichki audit tekshiruvlari davomida quyidagilarga e‘tibor berish bilan bankning umumiy ahvoriga baho berish zarur:

- bank binosining umumiy tashqi va ichki holatiga baho berish;
- arxiv holati va arxiv ishlarining yuritilishi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 147- sonli yo‘riqnomasi talablariga javob berishi;
- kompyuter xonasining axborotlar xavfsizligi talablariga javob berishi, kompyuterlar saqlanishi ahvoli;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, Hukumat qarorlarining mavjudligi va ularning jamoada o‘rganilishi hamda ularning bajarilishi ahvoli;
- bankda harakatdagi barcha hujjatlarning ish vaqtida va undan keyin yuritilishi, saqlanishi, umuman mavjud barcha yig‘ma jildlar ahvoli;
- madaniyat va ma‘rifat burchaklarining ahvoli;
- iqtisodiy va texnik o‘quvlar o‘tkazish, yosh mutaxassislar bilan ishlash ahvoli.

Ichki audit tekshiruvlari bank faoliyatini tekshirish davomida quyidagi masalalarni yoritib berishi lozim:

- bank balansining har bir hisobvarag‘i qoldig‘ining haqqoniyligiga baho berish bilan birga tekshiriladigan davrda ushbu hisobvaraqdagi operatsiyalarning qonuniyligi ham biryo‘la tekshiriladi;
- bankning depozit, kredit, pul muomalasi, hisob-kitob, kassa, valyuta va boshqa operatsiyalari bo‘yicha o‘tkazilgan muomalalarning to‘g‘riligi va asosliliigi;
- bankda iqtisodiy normativlarning saqlanishi mablag‘larning yetarlicligi, aktivlar sifati, bank rentabelligi, foyda olish va boshqalar;
- ustav fondini belgilangan me‘yorga yetkazish uchun olib borilayotgan ishlar;

- bankning o'z kreditorlari va omonatchilari oldida majburiyatlarini bajara olishi;

- bankning joriy yilda biznes rejani bajarish borasidagi olib borayotgan ishlari va muammolari;

- ichki nazoratning ahvoli, tuzilayotgan hisobotlarning o'z vaqtida va to'g'ri tuzilib, tegishli joylarga taqdim etilishi;

- dehqon fermer xo'jaliklariga, o'rta va kichik biznes bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlarga berilgan kreditlar, ularni berilish darajasi va sharoitlari;

- xodimlarning kasb mahorati va ijro intizomi;

- rahbarlarning ishni qay tarzda tashkil etganligi hamda bank daromadini oshirish va xarajatlarni kamaytirish borasida olib borilayotgan ishlar.

Tekshiruv boshlashdan oldin oxirgi oyning birinchi sanasiga va tekshirish kuniga bank balansi talab qilinadi hamda shu balans ma'lumotlarini tahlil qilish bilan filialda yalpi ichki audit tekshiruvi boshlanadi. Masalan bank riskini hisobga olgan holda auditni tashkil etish mumkin.

Riskni hisobga olgan holda ichki audit tekshiruvlarini tashkil etish:

1. Baholash mezonlari: moliyaviy risk va ularni o'lchash.
2. Yillik rejalashtirish: riskka moyillikni aniqlash va resurslarni taqsimlash;
3. Tekshiruvni rejalashtirish: risklarni qisqartirish;
4. Tekshiruvni o'tkazish: auditorlik jarayoni;
5. Natijalarni baholash: riskka muvofiqligi;
6. Boshqaruvchilar uchun hisobot: riskka muvofiq bo'lishi uchun nima qilish kerakligi.

Tekshiruv rejasini tayyorlash

Nazorat muhiti baholanadi: mavjud ma'lumotlar, xodimlarning chuqur bilimliligi, vazifalarning muhimligi va boshqalar xodimlarga yetkazilganligi.

Aniqlangan muammo va kamchiliklarni hal qilish bo'yicha taqdim qilingan tavsiyalarda muammolarning qisqacha izohi, ularni bartaraf

etishga doir talab etiladigan chora-tadbirlar va ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirishga shaxsan javobgar bo'lgan shaxslar hamda ularni bajarish muddatlari o'z aksini topadi.

Bank Boshqaruvi yoki filial rahbariyati audit tekshiruvlari natijasida aniqlangan xato-kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'rilishini ta'minlash lozim.

Ichki audit xizmati tomonidan tekshirish natijalari bo'yicha taqdim qilingan tavsiyalarning bajarilishi muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ushbu tavsiyalarning bajarilib borilishini doimiy nazorat qilinishini ham ichki audit xizmati xodimlari ta'minlaydilar. Ichki audit xizmati xodimlari tomonidan aniqlangan xato va kamchiliklar bo'yicha audit boshlanishidan tugaguncha tuzatishga imkon beriladi.

Xato va kamchilikka yo'l qo'ygan xodimlarga audit xizmati xodimi tomonidan amaliy yordam va maslahatlar beriladi. Biroq audit tekshiruvlari bir filialda ko'p hollarda bir oydan ortiq davom etmasligi sababli, audit tekshiruvlari tugaganidan so'ng bir oy muddat ichida dalolatnomada aks ettirilgan xato va kamchiliklarni tuzatilganligi haqida rasmiy javob xati berishligi bank rahbariyatiga yuklatiladi. Ichki audit tekshiruvlari natijasida tuzilgan dalolatnoma barcha xodimlar o'rtasida muhokama qilinib, tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

«Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonunning 11-moddasiga muvofiq: «Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvi xo'jalik yurituvchi subyektning yoki boshqa auditorlik tekshiruvi buyurtmachilarining qaroriga binoan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda o'tkazilishi mumkin. Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvining predmeti, muddatlari va boshqa shartlari auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi bilan auditorlik tashkilotlari o'rtasida tuziladigan auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi shartnomada belgilab qo'yiladi».

Audit xizmatiga quyidagi vazifalar yuklatiladi:

- o'tkazilgan ichki audit tekshiruvi natijalariga asoslangan bankning real holati va ichki nazorat tizimining samaradorligi to'g'risidagi ishonchli va mustaqil axborot bilan bank Kengashini ta'minlash;
- ichki nazorat tizimining samaradorligi va monandligi hamda ichki auditni o'tkazish bo'yicha qabul qilingan jarayonlarning amaliyligini tahlil qilish va baholash;

- bank faoliyati oldiga qo'yilgan maqsadga erishishda ma'muriy va operatsion jarayonlarning samaradorligini kuzatish;

- tavakkalchiliklarni boshqarish jarayonlari va tavakkalchiliklarni baholash uslubiyotining samaradorligi va qo'llanilishini kuzatish;

- moliyaviy axborot tizimini, shuningdek, elektron axborot tizimi va elektron bank xizmatini kuzatish;

- buxgalteriya hisobvaraqlari va moliyaviy hisobotlarning saranjom-sarishtaligi aniqligi va ishonchligini kuzatish;

- bank Kengashi talablariga binoan maxsus tekshirishlarni o'tkazish yoki o'tkazishda amaliy yordam berish.

Audit xizmati, shuningdek, quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- bank rahbariyati bilan birgalikda faoliyat yuritish;

- bank xodimlari o'z vazifalarini samarali bajarishlarida yordam berish;

- moliyaviy hisobotni (oylik, choraklik, yillik) joriy auditorlik tekshiruvidan o'tkazish;

- operatsiyalar yoki dasturlarning natijalari ularning oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarga mos kelishi hamda rejalashtirilganidek bajarilishini aniqlash maqsadida ularni tekshirish;

- buxgalteriya, operatsion va ma'muriy nazorat tizimlarining monandligini baholash.

Bundan tashqari, Audit xizmati:

- ichki nizom, yo'riqnoma, tartib va boshqa hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etadi;

- malaka oshirish va tajriba almashish maqsadida O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari va boshqa tashkilotlarning o'xshash xizmatlari bilan hamkorlik qiladi;

- amaliy nazoratni maqbul xarajat bilan tatbiq etishda yordam beradi;

- tekshirish materiallarini umumlashtiradi va tekshirish natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni Auditorlik qo'mitasi va bank rahbariyatiga taqdim etadi, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun chora ko'rish to'g'risida Auditorlik qo'mitasi va bank rahbariyatiga takliflar beradi.

Tijorat banklari faoliyatida ichki auditning bosqichlari, tasniflash belgilari va mezonlari⁹.

| Audit bosqichlari | Tasniflash belgisi | Tasniflash mezonlari |
|-------------------------|---|--|
| I. Bujalash (tashish) | 1. Tekshiruv vaqti | 1.1. Rejaga ko'ra 1.2. Rejadan tashqari |
| | 2. O'tkazish turi | 2.1. Hujjatli 2.2. Vizual |
| | 3. Tekshiruv turi | 3.1 Rejaga ko'ra 3.2 Rejadan tashqari |
| | 4. Uslubiyotiga ko'ra | 4.1 Moslik auditi 4.2 Tahliliy tekshiruv |
| | 5. Takroriylikiga ko'ra | 5.1 Uzlaksiz audit 5.2 Davriy audit |
| | 6. Tekshiruv yo'nalishiga ko'ra | 6.1 Moliyaviy audit 6.2 Boshqaruv auditi 6.3 Xo'jalik auditi 6.4 Ijtimoiy audit |
| II. Auditni olib borish | 1. Nazorat obyektiga ko'ra tekshiruv yo'nalishlari | 1.1 Buxgalteriya hisobi tizimi 1.2 Ichki nazorat tizimi 1.3 Boshqaruvning turli bo'g'inlari |
| | 2. Auditorlik tekshiruvining maqsadi va hajmiga ko'ra | 2.1 Tashkiliy audit 2.2 Funktsional audit 2.3 Maxsus audit |
| | 3. Auditning yo'nalishlariga ko'ra | 3.1 Tashkiliy-huquqiy audit 3.2 Moliyaviy-tahliliy audit 3.3 Kompyuter auditi |
| | 4. Mulkdor manfaatlari bo'yicha tekshiruvni tashkil etish shakllariga ko'ra | 4.1 Moliya-xo'jalik faoliyati auditi 4.2 Maxsus audit 4.3 Mufassal auditorlik tekshiruvi 4.4 Balansni hisob-tahliliy tekshirish 4.5 Asoslilik va haqqoniyligini tasdiqlovchi tekshiruv |
| | 5. Hujjatlarni tekshirishni tashkil etish usuliga ko'ra | 5.1 Kompleks audit 5.2 Tanlab tekshirishga asoslangan audit 5.3 Oraliq audit 5.4 Cheklangan audit 5.5 Tizimli audit |

⁹ Kuznetsov H.G. Tijorat banklarida ichki audit. Monografiya. O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi. T. O'zbekiston Respublikasi FA "Fin" mahiyoti, 2006. -262 b.

| Audit bosqichlari | Tasniflash belgisi | Tasniflash mezonlari |
|-------------------|--|---|
| III. Xulosa | Audit natijalarini rasmiylashtirish shakliga ko'ra | 1.Oraliq dalolatnoma bilan rasmiylashtirilgan 2.Xulosalar bilan rasmiylashtirilgan 3.Maxsus xulosa bilan rasmiylashtirilgan 4.Axborotnoma bilan rasmiylashtirilgan |

Audit xizmati xodimlarining vakolatlari va javobgarligi

Audit xizmati xodimlari tekshiruv o'tkazish jarayonida quyidagi vakolatlarga egadirlar:

- bank rahbariyati va xodimlaridan bank faoliyatiga bog'liq bo'lgan barcha zarur hujjatlarni yoki audit predmeti hisoblangan hujjatlarni talab qilish;

- ichki auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish jarayonida tug'ilgan savollar bo'yicha bank rahbarlari va xodimlaridan tushuntirishlar olish. Audit xizmati xodimlari lozim bo'lganda qiziqtirgan savollari bo'yicha yozma ravishda tushuntirishlar olish huquqiga ega;

- zarur hujjatlardan nusxalar olish;

- zarur bo'lganda bankda belgilangan tartibda (kelgusida saqlanishi gumon bo'lgan) hujjatlarning asl nusxalarini olish;

- tekshirish o'tkazish maqsadida bankning barcha binolariga, shuningdek, elektron va qog'oz aktivlariga kirish;

- auditorlik tekshiruvini o'tkazilgandan so'ng tekshirish jarayonida aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarning bajarilishini nazorat qilish.

Audit xizmati xodimlari quyidagilar uchun javobgardirlar:

- tekshirish natijalarini buzib ko'rsatish;

- qonun hujjatlariga muvofiq bank sirini tashkil etuvchi har qanday ma'lumotlarning maxfiyiligini ta'minlamaslik;

- bankning tegishli bo'limlaridan olingan hujjatlar butunligini ta'minlamaslik va qaytarmaslik.

Ichki audit xizmati xodimlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi hamda ichki auditorlar javobgarligini belgilovchi bankning ichki nizomlariga binoan javobgar bo'ladilar.

Audit xizmati xodimlariga nisbatan qo‘yilgan talablar.

Auditorlar quyidagi talablarga javob berishlari kerak:

- bajarayotgan vazifalari xarakteriga mos bo‘lgan oliy ma‘lumotga ega bo‘lishlari;

- bankning pul muomalasi, kredit, valyuta, depozit operatsiyalari yoki buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limlarida kamida bir yil ish stajiga ega bo‘lishlari kerak. Bosh auditor uchun bankning yuqoridagi bo‘limlarida kamida uch yil yoki tijorat bankida rahbarlik lavozimida kamida bir yil ish stajiga ega bo‘lish talab etiladi;

- bank qonunchiligi sohasida bilimlarga ega bo‘lishlari, shu jumladan Markaziy bankning me‘yoriy hujjatlarini bilishlari;

- respublikada belgilangan buxgalteriya hisobi hamda umumqabul qilingan buxgalteriya hisobi va audit xalqaro standartlari qoidalarini qo‘llash bo‘yicha bilimlarga ega bo‘lishlari, shuningdek, xalqaro standartlardagi o‘zgarishlarga muvofiq maxsus kurslarda muntazam o‘qishni o‘tkazishlari.

Bank Kengashi va Auditorlik qo‘mitasi bosh auditor bilan birgalikda Audit xizmatining har bir xodimi kasbiy mahoratini uning axborot tanlash, tekshiruvlar o‘tkazish, xulosalarni baholash va tayyorlash jarayonidagi kasbiy mahorati darajasini e‘tiborga olib, baholab borishlari lozim. Shu munosabat bilan moliya sektori rivojlanishi natijasida bank faoliyati murakkablashib borayotganini hamda Audit xizmati bajarishi lozim bo‘lgan vazifalar ortib borayotgani hisobga olinishi lozim.

Audit xizmati xodimlarining kasbiy ko‘nikmalari ularni muntazam va uzluksiz o‘qitib borish orqali oshirilishi lozim. Audit xizmati xodimlari tegishli banklardan bank sohasini kompyuterlashtirish sharoitida audit o‘tkazish bo‘yicha zaruriy bilim va malakaga ega bo‘lishlarida yordam olish imkoniyatiga ega bo‘lishlari lozim.

Ichki audit bank Kengashi tomonidan tasdiqlangan Auditorlik tekshiruv rejasi muvofiq o‘tkaziladi. Auditorlik tekshiruv rejasi asosida batafsil auditorlik dasturi tayyorlanadi. Auditorlik tekshiruv rejasi ishlab chiqish uchun javobgarlik Auditorlik qo‘mitasiga, auditorlik dasturini ishlab chiqish va bajarish uchun javobgarlik esa bankning Bosh auditoriga yuklatiladi.

Audit xizmati ishining samaradorligi va monandligini ta'minlash maqsadida auditorlik tekshiruv rejasi bank Kengashi tomonidan bir yilda kamida bir marta tegishli yilning 1 yanvariga qadar qayta ko'rib chiqilishi va tasdiqlanishi lozim.

Auditorlik dasturi auditorlik tekshiruv maqsadini aniq belgilashi va izohlab berishi, shuningdek, batafsil ish rejasi, auditorlik tekshiruvini o'tkazish grafigi hamda ko'rilayotgan har bir soha uchun zaruriy tartiblar izohini o'z ichiga olishi lozim.

Dastur qamrov doirasi auditorlik maqsadlariga erishish uchun yetarli bo'lishi lozim. Har bir dastur talab qilinayotgan ishning aniq va qisqa tarzda izohlab berishi lozim hamda operatsiyalarning xususiyati va mukammalligiga qarab bir yoki bir nechta bo'limlar faoliyatini qamrab olishi mumkin. Dasturga kiritilgan tartiblar amalga oshirilayotgan operatsiyalar yoki boshqa omillar hajmi va murakkabligiga qarab o'zgartirilishi mumkin.

Tijorat banklarida ichki audit bir yilda kamida bir marta o'tkazilishi lozim.

Ichki auditorlik tekshiruvini o'tkazish davriyligi audit o'tkazish lozim bo'lgan har bir sohaga bog'liq bo'lgan tavakkalchilik darajasini baholashga asoslangan bo'lishi lozim.

Ichki audit hajmi bank ichki nazorat tizimining yetarli bo'lishi va samaradorligini hamda yuklatilgan majburiyatlarni bajarishdagi ishlar sifatini tekshirish va baholashni o'z ichiga olishi lozim.

Audit xizmati amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq moliyaviy hisobotning ishonchliligi va to'g'riligini tekshirishi lozim.

Ichki audit tekshiruvini o'tkazish jarayonida bank operatsiyalari va hisobotlarga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan qoida, reja, tartib va qonun hujjatlariga rioya etilishi tekshirilishi, shuningdek, bank tomonidan ularga amal qilish darajasi aniqlanishi lozim.

Audit xizmati tekshiruv vaqtida kapitalning yetarlilik darajasini baholash, aktivlarning tasniflanishi, tavakkalchilikni boshqarishni va likvidlilikni baholash, o'tkazilgan bank operatsiyalarini buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotda o'z vaqtida, to'liq va aniq aks ettirilishini baholash kabi savollarga javob berishi lozim.

Audit xizmati aktivlarning saqlash usullarini va zarurat tug'ilganda ularning mavjudligini tekshirishi lozim.

Ma'lumki amaliyotda ichki audit xizmatining pirovard faoliyati faqat amalga oshirilgan tekshiruvlar soni, aniqlangan noqonuniy to'lovlar va talon-taroj qilingan mablag'larning qiymatiga ko'ra baholanmoqda. Shuningdek, tekshiruvlarni o'tkazish muddatlari va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish borasida olib borilgan chora-tadbirlarning qay darajada bajarilayotganligi haqidagi masalalariga ham yetarlicha e'tibor berilmayapti.

Ushbularni bartaraf etish maqsadida, ichki audit faoliyati sifati va samaradorligini baholashning uch bosqichidan iborat tizimini yaratish zarur.

Birinchi bosqichda auditni rejalashtirish darajasi, tekshiruvni olib borish sifati va tekshirishning belgilangan muddatlariga rioya qilish nazorat qilinadi.

Ikkinchi bosqich – bo'linmalarning muayyan davrdagi faoliyati, ish rejasining bajarilishi darajasi, uni rejalashtirish, o'tkazish va ichki auditorning bilim saviyasi attestatsiyasi natijalariga ko'ra baholanadi.

Uchinchi bosqichda umuman ichki audit xizmati sifati va samaradorligining umumiy ko'rsatkichi quyidagi o'rta geometrik formula asosida hisoblanadi:

Bu yerda: $AHS = \sqrt{TRB \cdot TJD \cdot RD}$ (1)

AHS - auditorlik xizmati samaradorligi ko'rsatkichi;

TRB - joriy yildagi tekshiruv rejasini bajarilishi;

TJD - tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinishi darajasi;

RD - rentabellik darajasining bajarilishi.

Ammo amaliyotda bank kengashlari faoliyatida va bank ichki audit xizmatini tashkil qilishda kutilgan o'zgarishlar to'lig'icha amalga oshirilmadi. Chunki yirik tijorat banklari kengash a'zolari avvalgidek davlat vazirliklari, korporatsiyalar va Markaziy bank a'zolaridir.

Bunday sharoitda kengash a'zolarining yuqori lavozimlari va mavqei bank ichki audit xizmati ustidan nazorat qilishga, uni zarur darajada tashkil qilishga vaqtlari ham bo'lmaydi.

Tijorat banklarida joriy qilingan ichki nazorat tizimining to'g'ri tashkil etilganligini bank risklaridan himoya qilinganlik darajasiga, uning samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Tijorat banklari ichki nazorat o'limi qanchalik takomillashgan bo'lsa, bank boshqaruvi tomonidan

qabul qilingan qarorlar ijrosining samarasi shuncha yuqori bo'ladi. Ushbu tizimdagi uzilish esa bank moliyaviy holatiga to'g'ridan-to'g'ri salbiy ta'sir qiladi.

2.3. Tashqi audit tekshiruvlarini tashkil qilish

“O‘zbekiston Respublikasi banklarida audit tekshiruvlarini o‘tkazish to‘g‘risida” nizomga¹⁰ asosan tijorat banklari auditorlik tekshiruvlarini o‘tkazish uchun Markaziy bankning banklarda audit tekshiruvlarini o‘tkazish huquqini beruvchi sertifikatga ega bo‘lgan auditorlik tashkilotini mustaqil ravishda tanlaydi deb ko‘rsatilgan.,

Banklarning auditorlik tekshiruvlari har yili yillik hisobot bo‘yicha o‘tkaziladi. Tekshiruv natijalari bo‘yicha hisobotning to‘g‘riligini tasdiqlaydilar, shuningdek, banklarning yillik hisobotiga ilova qilingan holda rasmiy auditorlik xulosasini beradilar. Auditorlik xulosasisiz bankning yillik hisoboti Markaziy bank tomonidan qabul qilinmaydi va matbuotda chop etilmaydi.

Auditorlik hisobotida audit amaldagi qonunchilik va auditning xalqaro andozalariga muvofiq o‘tkazilgani to‘g‘risida fikr bildirilmasa, auditorlik hisoboti mazkur nizom talablariga javob bermaydi deb hisoblanib, ushbu auditorlik hisoboti Markaziy bank tomonidan qabul qilinmaydi. Bu bilan Markaziy bank bank auditi o‘tkazilayotganda me‘yoriy hujjatlarga, tartib va metodologiyaga rioya etilishini nazorat qiladi. Bu vazifa bilan Markaziy bankning “Tijorat banklariga litsenziya berish va ular faoliyatini tartibga solish departamenti” shug‘ullanadi.

Bank auditining o‘ziga xos qiyinchiligidan biri ichki va tashqi audit tekshiruvlari ma‘lumotlarining maxfiyligidir. Chunki Markaziy bankning “O‘zbekiston Respublikasi banklarida audit tekshiruvlarini o‘tkazish to‘g‘risida”gi nizomning 9.5 bandiga ko‘ra auditor ish davomida o‘ziga ma‘lum bo‘lgan maxfiy axborotlarni sir saqlanishini ta‘minlashi va alohida ruxsatsiz uchinchi shaxslarga oshkor etmasligi shart deb belgilab qo‘yilgan.

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi banklarida audit tekshiruvlarini o‘tkazish to‘g‘risida nizom” Adliya vazirligidan 04.11.2000y. 982-son bilan ro‘yxatga olingan.

Bank majburiy auditorlik tekshiruvidan bo‘yin tovlaganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi. Undirilgan jarima solish to‘g‘risidagi qaror topshirilgan kundan boshlab 10 kun ichida to‘lanib, to‘liq miqdorda respublika byudjetiga o‘tkaziladi. Agar jarima o‘z vaqtida to‘lanmasa, soliq qonunchiligiga muvofiq penya hisoblangan holda so‘zsiz undirib olinadi.

Jarima undirilishi xo‘jalik yurituvchi subyektni majburiy auditorlik tekshiruvdan o‘tishdan ozod qilmaydi. Majburiy auditorlik tekshiruvidan bo‘yin tovlaganligi uchun undiriladigan jarima stavkalari eng kam oylik haqining 100 baravaridan 500 baravarigacha taqabulashirilgan.

Bu yerda bank boshqaruvi bankning yillik faoliyati bo‘yicha moliyaviy hisobot tayyorlash uchun javobgardir. Bank kengashi esa mulakali auditor jalb qilishni ta‘minlashga javobgardir.

Tashqi audit tekshiruvi natijasida kapitalning yetariligi, kreditlarning tasniflanishi, kreditlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarga qarshi zaxiralarni tashkil qilinishi, bank boshqaruvi jarayonida va bank siyosati bo‘yicha tavsiyalar bergan holda tavakkalchilik hamda likvidlikni boshqarish bo‘yicha savollarga javob berishi kerak. Bundan tashqari auditorlar tomonidan banklarning moliyaviy hisobotlarini buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga mos kelishi, Markaziy bank tomonidan o‘rnatilgan tartib-qoidalar, shu jumladan iqtisodiy normativlarga rioya qilinishi, banklarda korporativ boshqaruv sifati va samaradorligi holatiga aniq baho berilishi shart. Firibgarlik, qalbakilashtirish hamda qasddan analitik hamda sintetik hisobga o‘zgartirishlar kiritish, bank qonunchilik hujjatlarini buzish faktlarini o‘chishga e‘tibor qaratish kerak.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarini tashqi auditdan o‘tkazishda auditorlik tashkilotlari oldiga yangi talablar qo‘yilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning 10-moddasiga muvofiq banklar har yili majburiy auditorlik tekshiruvdan o‘tishlari lozimligi belgilangan. Tashqi auditning asosiy buyurtmachilari davlat boshqaruv organlari, ta‘sischilar, investorlar, kreditorlar, soliq idoralari, markaziy bank va boshqalar manfaatdorlar hisoblanadi.

“Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonunning 43-moddasida: “Banklarning faoliyati qonun hujjatlariga muvofiq auditorlik tekshiruvlarini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo‘lgan auditorlar tomonidan har yili tekshirilib turilishi lozim. Audit, xususan, kapitalning yetarililigini baholash, ssudalarni tasniflash, ssudalar bo‘yicha zararlarni qoplash, tavakkalchilikni va likvidlikni o‘lchashni o‘z ichiga oladi” deb ta’kidlangan.

Tashqi auditning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- bank faoliyatiga oid qabul qilingan qonunlar, nizomlar va boshqa me‘yoriy hujjatlarga to‘liq amal qilinishini tekshirish;

- bank mulkidan maqsadli foydalanishni va samaradorligini tekshirish;

- chetdan jalb qilingan sarmoyalardan to‘g‘ri foydalanishini tekshirish;

- soliqqa tortiluvchi ko‘rsatkichlar, soliqlarning to‘g‘ri hisoblanishini va byudjetga to‘liq o‘tkazilishini tekshirish;

Tashqi audit betaraf va daxlsiz auditorlar va auditorlik tashkilotlari tomonidan o‘tkaziladi. Ushbu tashqi auditning asosiy obyektlari quyidagilardan iborat: moliyaviy natijalar; o‘zaro hisob-kitoblar operatsiyalari, shu jumladan eksport – import, barter operatsiyalari, qimmatbaho qog‘ozlar, kreditlash bilan bog‘liq operatsiyalar.

Tashqi audit – banklarning buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotining haqiqiylikni obyektiv baholash maqsadida shartnoma asosida auditorlik kompaniyalari yoki yakka auditorlar tomonidan o‘tkaziladi. Tashqi auditning asosiy xususiyatlaridan biri – bu mijoz bankka nisbatan hech qanday manfaati bo‘lmagan, ya‘ni uning ta‘sischisi, boshlig‘i yoki boshqa lavozimida ishlamaydigan, mustaqil, xolis auditor tomonidan o‘tkazilishidadir. Agarda auditor tekshirayotgan bankning mijoz, ta‘sischisi, yoki boshqa aloqador shaxs bo‘lsa, u holda auditorlik faoliyati uchun berilgan litsenziya bekor qilinishi ham mumkin.

Tashqi audit bankning moliya faoliyatini baholash hamda uning moliyaviy hisobotini tasdiqlash uchun o‘tkaziladi. Bundan tashqari

tashqi audit bank xarajatlarini minimallashtirish va foydani maksimallashtirish maqsadida ularning faoliyatini yaxshilash, hisob ishlarini tashkil qilish, valyuta operatsiyalarni tashkil qilish, banklarning qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarini rivojlantirish, soliqqa tortish bo'yicha takliflar beradi. Tashqi audit natijalari bankning buxgalteriya hisobi holati, ichki nazorat tizimi ahvoli, yillik moliyaviy hisoboti ishonchligini tasdiqlovchi xulosada bayon qilinadi.

Auditning maqsadi auditor bankka nima maqsadda kelganligi va tekshirish bank uchun qanday ahamiyatga ega bo'lishi bilan belgilanadi. Audit davomida ish olib boriladigan tekshiruv obyektlari dasturda ko'rsatiladi. Eng avvalo, bank faoliyatida va uning moliyaviy natijalarining shakllanishida eng muhim ahamiyatga ega bo'lgan moliyaviy ko'rsatkichlari tanlab olinadi.

Agar tekshirilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar bazasi noto'g'ri tanlansa, bunga auditor javobgar hisoblanadi. Har bir tekshiriladigan bazada tekshirish turi – to'liq yoki tanlov yo'li bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan tijorat banklari har yili bir marotaba majburiy auditdan o'tkazilishi lozim.

Banklarni auditorlik tekshiruvdan o'tkazishning o'ziga xos xususiyatlari O'zbekiston Respublikasining Markaziy bank tomonidan belgilanadi.¹¹

Banklar «O'zbekiston Respublikasi banklarida audit tekshiruvlarini o'tkazish to'g'risida»gi nizomga asosan tijorat banklari faoliyati har yili O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining banklarda audit tekshiruvlarini o'tkazish huquqini beruvchi sertifikatiga ega bo'lgan auditorlik tashkilotlari tomonidan tekshirilishi shart.

Auditorlik tashkilotlari audit tekshiruvi natijalari bo'yicha banklarning moliyaviy hisobotlarining to'g'riligi va haqqoniyligini ushbu Talablarni inobatga olgan holda muvofiq tasdiqlaydilar (yoki tasdiqlamaydilar) hamda banklarning yillik hisobotiga ilova qilinadigan rasmiy auditorlik xulosalarini beradilar.

Banklar har yilgi moliyaviy hisobotni unda ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligini auditorlar tasdiqlagach, hisobot yili tugaganidan so'ng birinchi maygacha e'lon qilishlari shart.

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.07.1996 yildagi PF-1500 –sonli "Respublikada bank auiditi tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmoni.

Auditorlik tashkiloti tomonidan haqqoniyligi tasdiqlanadigan va matbuotda chop etiladigan bankning moliyaviy hisobotlari milliy valyuta – soʻmda tuzilishi shart. Tomonlarning oʻzaro kelishuviga asosan, mazkur hisobotlar boshqa valyutalarda ham tuzilishi mumkin.

Auditorlik tashkiloti bir bankning auditorlik tekshiruvini uch yildan ortiq ketma-ket oʻtkazish huquqiga ega emas. Banklarda auditorlik tekshiruvini oʻtkazish jarayonida auditorlar bilan hamkorlik qilish maqsadida bankning masʼul xodimlaridan iborat ishchi guruh tashkil etiladi. Mazkur ishchi guruh tarkibi bank boshqaruvi raisining farmoyishiga asosan tayinlanadi. Banklarda moliyaviy yil yakunlari boʻyicha oʻtkaziladigan auditorlik tekshiruvlari hisobot yili tugaganidan keyingi yilning 20 apreliga qadar toʻliq yakunlanishi shart. Tijorat banklarida auditorlik tekshiruvlari yakunlangach, oʻn kun muddat ichida auditorlik hisoboti va xulosasi, shuningdek, auditorlik tashkiloti tomonidan haqqoniyligi tasdiqlangan bankning moliyaviy hisobotlarining asl nusxalari bank tomonidan Markaziy bankka davlat tilida va rus tilida taqdim etilishi lozim. Banklar «Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining chop etiladigan yillik moliyaviy hisobotlariga qoʻyiladigan talablar toʻgʻrisida»gi nizomga asosan banklar auditorlik tekshiruvi tugallangandan soʻng 10 kun ichida auditorlik tashkilotlari tomonidan haqqoniyligi tasdiqlangan moliyaviy hisobotlar toʻplamini matbuotda chop etilishini taʼminlashlari va uch kun muddat ichida Markaziy bankka ushbu nashr nusxasini taqdim etishlari shart.

Banklar auditorlik tekshiruvi oʻtkazish toʻgʻrisidagi shartnomani tuzishda yuqorida qayd etilgan muddatlarni eʼtiborga olmagan taqdirda, Markaziy bank ularga nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan choralarni qoʻllaydi. Auditorlar tekshiruv jarayonida bankdan, bank Kengashi va Boshqaruvidan mustaqil boʻlishlari shart. Tekshiruvni amalga oshiruvchi auditorlar bank bilan aloqador shaxs, shuningdek, shaxsiy, moliyaviy va oʻzaro ish munosabatlariga ega boʻlmasliklari lozim.

Auditorning ishchi dasturi¹²

| № | Rejalashtirilgan ish turlari | O'tkazish vaqti | Ijrochi auditor | Izoh |
|----|---|-----------------|-----------------|------|
| A | B | C | D | E |
| 1 | Ishchi guruhning barcha a'zolari vazifalari, xususan auditning umumiy rejasi nizomlari bilan tanishish | | | |
| 2 | Bank ichki nazorati holatini audit qilish | | | |
| 3 | Bankning ta'sis va qayd etish hujjatlarini audit qilish | | | |
| 4 | Bank ushbu fondi va boshqa fondlarning shakllantirilishini audit qilish | | | |
| 5 | Mijozlarga hisob-kassa xizmatini ko'rsatishni audit qilish | | | |
| 6 | Plastik kartoçkalar bo'yicha hisob yuritilishini audit qilish | | | |
| 7 | Kassa operatsiyalarini audit qilish | | | |
| 8 | Valyuta operatsiyalarini audit qilish | | | |
| 9 | Eksport-import operatsiyalari, valyuta nazoratini amalga oshirish | | | |
| 10 | Bankning aktiv-passiv operatsiyalari va ularning hisobotda aks ettirilishini audit qilish | | | |
| 11 | Kredit operatsiyalarini audit qilish | | | |
| 12 | Depozit operatsiyalarni audit qilish | | | |
| 13 | Qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilgan operatsiyalarni audit qilish | | | |
| 14 | Intergulteriya hisobi yuritilishi va uning tashkil etilishini audit qilish | | | |
| 15 | Bank tasarrufida qolgan foyda hisobini audit qilish | | | |
| 16 | Bankning soliq qonunchiligiga rioya etilishini audit qilish | | | |
| 17 | Honoriy muhbiriyatlarni audit qilish | | | |
| 18 | Bank foydasini shakllantirish va undan to'g'ri foydalanishni audit qilish | | | |
| 19 | Iqtisodiy me'yorlarga rioya etilishini audit qilish va tahlil etish | | | |
| 20 | Bank moliyaviy hisobotlarini audit qilish | | | |
| 21 | Bankning tarkibi tahlili | | | |
| 22 | Foyda va zararlar tarkibini tahlili | | | |
| 23 | Bank faoliyatining natijalari tahlili | | | |
| 24 | Audit natijalariga tizimli yondashgan holda bayon etilgan xulosalar | | | |
| 25 | Auditorlar tomonidan ish hujjatlari yuritilishi bo'yicha ish natijalari haqida ish rejasining bajarilishi ustidan nazorat | | | |

¹² Ushbu dasturlar asosida muallif tomonidan yaratildi

So‘nggi yuz bergan moliyaviy inqiroz banklardagi risklarni boshqarish, nazoratdagi kamchiliklarni yuzaga chiqarib qolmay, balki banklarni tashqi auditini sifat darajasini oshirish lozimligini ham yaqqol ko‘rsatdi. Bozordagi barqarorlikni ta‘minlashda banklarning moliyaviy barqarorligi muhim ahamiyatga ega ekanligini bilgan holda, moliyaviy hisobotlar bo‘yicha tashqi audit xulosasi naqadar ahamiyatli ekanligini ko‘rsatadi¹³.

“O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3946 qaroriga asosan auditorlik xizmatlarining ahamiyatini oshirishga to‘sqinlik qilayotgan kamchiliklar aniqlanib, auditorlik faoliyatining yanada rivojlanishiga, boshqarishga oid qarorlarni qabul qilish va korporativ boshqaruv sifatini oshirish uchun:

birinchidan, auditorlik tashkilotlariga ishonch darajasi past, shuningdek, auditorlik tekshiruviga moliyaviy hisobotning haqqoniyligini tasdiqlashning kafolati emas, balki ortiqcha va malol keladigan ma‘muriy tartib-taomil sifatida qaralmoqda;

ikkinchidan, auditorlik tashkilotlarini tanlab olish bo‘yicha mavjud cheklovlar va tanlovlar o‘tkazish amaliyoti ko‘p hollarda insofsiz, shu jumladan narx borasida insofsiz raqobatni keltirib chiqaradi, buning oqibatida auditorlik xizmatlari sifati va auditorlik xulosalarining haqqoniyligi pasaymoqda;

uchinchidan, auditorlarni maxsus tayyorlash va ularning malakasini oshirishning amaldagi tizimi yuzaki tusga ega bo‘lib, professional tayyorgarlikning va auditorlik xizmatlari sifatining zaruriy darajasini, shu jumladan auditorlik faoliyatining xalqaro standartlariga mosligini ta‘minlamayapti, bu esa auditor kasbi nufuzining pasayishiga olib kelmoqda;

to‘rtinchidan, auditorlik tashkilotlari ishi sifatini tashqi nazorat qilishning samarali tizimi mavjud emas, bu litsenziyalovchi organning huquqiy ta‘sir choralari cheklangani sharoitida sifatsiz auditorlik xizmatlarini ko‘rsatish hollariga va auditorlarning insofsiz xatti-harakatlariga nisbatan tezkor chora ko‘rish imkonini bermayapti;

¹³ Consultative Document External audits of banks March 2014. 140 pg. www.bis.org

bashinchidan, auditorlik faoliyatining milliy standartlari umumiy tirof etilgan xalqaro audit standartlariga to'liq mos emas, bu esa xorijiy investorlarda mahalliy korxonalar moliyaviy hisobotlarining haqqoniyligini tushunish ko'nikmasining shakllanishini ta'minlamayapti.

Auditorlik xizmatlari bozorining rivojlanishi uchun sharoitlarni yanada yaxshilash va auditorlik faoliyatini tartibga solishda xalqaro standartlarga muvofiq zamonaviy yondashuvlarni joriy etish maqsadida:

- auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish, shu jumladan xalqaro standartlar asosida, auditorlik xizmatlari sifatini oshirishga va ishbilarmonlar hamjamiyatining auditorlik tashkilotlari ishi natijalariga ishonchini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan auditorlik tashkilotlari ishi sifatini tashqi nazorat qilishning ta'sirchan tizimini shakllantirish;

- yoshlarni auditorlik kasbiga jalb etish, xususan professional jamoat birlashmalarining tegishli oliy ta'lim muassasalari bilan faol hamkorligini ta'minlash;

- auditorlik tashkilotlarining xalqaro auditorlik tarmoqlariga jalb etilganlik darajasini oshirish, shu jumladan auditorlik tashkilotlarini, auditorlarni auditning xalqaro standartlarini qo'llash masalalarida faol uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlashni tashkil etish;

- auditorlar respublika jamoat birlashmalarining xalqaro audit standartlarini belgilovchi xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qilish, ushbu standartlarni qo'llash sohasida jahonning ilg'or tajribasini ommalashtirish bo'yicha faoliyatini faollashtirish.

2019-yilning 1-yanvaridan boshlab:

- tijorat tashkiloti, agar u haqdagi axborot Tadbirkorlik subyektlarining yagona davlat reestriga kiritilgan sanadan boshlab uch oy davomida auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan auditorlik tashkilotlari reestriga kiritilmagan bo'lsa, o'z nomida «auditorlik tashkiloti» so'zlaridan foydalanishga haqli emas;

- auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya litsenziatga barcha turdagi auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish huquqini beradi;

- auditorlik tashkilotining ustav kapitali auditorlik tashkiloti faoliyatini amalga oshirishda bevosita foydalaniladigan mol-mulkdan, shu jumladan pul mablag'laridan shakllantiriladi;

- auditorlik tashkiloti asosiy ish joyi hisoblangan auditorlarning eng kam soni kamida to'rt nafar shtatdagi auditoridan iborat bo'ladi;

- aynan bitta xo'jalik yurituvchi subyektning auditorlik tekshiruvi ketma-ket yetti yildan ortiq bo'lmagan muddatda o'tkaziladi;

Faoliyat yuritayotgan auditorlik tashkilotlari 2019-yilning 1-apreliga qadar mazkur qarorda belgilangan shtatdagi auditorlarning eng kam soni to'liq to'ldirilishini ta'minlanishi belgilandi.

2019-yil 1-yanvardan:

- auditorlik tashkilotlari ustav kapitalining eng kam miqdoriga doir;

- auditorlik tashkilotlari rahbarlarining attestatsiyadan o'tishi bo'yicha;

- ustav kapitalida davlat aksiyalari (ulushlari) to'plami 50 foizdan ortiq bo'lgan korxonalarda tashqi auditni o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi va Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan ro'yxat ichidan tanlov asosida tanlash to'g'risidagi talablar bekor qilinsin.

2020-yil 1-yanvardan:

a) hisobot yili yakuni bo'yicha quyidagi shartlardan bir vaqtning o'zida ikkitasiga javob bergan tijorat tashkilotlari ham har yili majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishi lozim:

- aktivlarning balans qiymati eng kam ish haqining 100 ming barobar miqdoridan ortiq bo'lsa;

- mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan tushum eng kam ish haqining 200 ming barobar miqdoridan ortiq bo'lsa;

- xodimlarning o'rtacha yillik soni 100 kishidan ortiq bo'lsa;

b) auditorlik tashkilotlari auditorlik faoliyatini faqat Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi tomonidan nashr etiladigan xalqaro audit standartlari asosida amalga oshiradi;

d) majburiy auditorlik tekshiruvlarini o'tkazuvchi auditorlik tashkilotlari tekshiruvi natijalari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining veb-saytida e'lon qilinadi.

Malaka sertifikatini dastlab besh yillik muddatga berish, navbatdavisini o'n yilga, keyin muddatsiz davrga berish rejalashtirildi.

Xalqaro buxgalter sertifikati mavjud bo'lganda auditor malaka sertifikatini berishni va amal qilish muddatini uzaytirishni, shuningdek, 10 yildan kam bo'lmagan uzluksiz auditor ish staji mavjud bo'lganda auditor malaka sertifikatining amal qilishini muddatsiz davrga uzaytirishni malaka imtihonini topshirmasdan amalga oshirish belgilandi.

Tashqi audit xulosalari ma'lumotlarini tahlil qilish oshkoralikni cheklashligi sababli "bank siri" to'g'risidagi qonun talablaridan kelib chiqib maxfiylik ta'minlanishi zarur

Audit standartlari – o'zining professional faoliyati davomida hamma auditorlar rioya qilishi lozim bo'lgan yagona asos tamoyillaridir.

Auditor va manfaatdor tomon o'rtasidagi yaxshi munosabatlar audit samaradorligini oshirishda muhim bo'lgan elementlardan hisoblanadi. Bank nazorati organlari bank faoliyatini tahlilida manfaatdor tomon hisoblanadi. Nazorat organlari auditorlar olishi imkoniyati bo'lmagan ma'lumotlarni olishi hamda o'z risklarini baholashi mumkin¹⁴.

Auditorlik standartlariga rioya qilish audit sifati darajasini va audit natijalarining ishonchligini ta'minlaydi. Auditorlik standartlari sudda auditorlarning haqqoniy ishlaganligining asosi bo'lib xizmat qiladi. Agar auditor standartdan chekinish qilgan bo'lsa, buning sababini ko'rsatishi lozim

Ma'lumki, xalqaro audit standartlari jahon mamlakatlarida turlicha qo'llaniladi. Bunga asosiy sabab, ushbu mamlakatlarda buxgalteriya hisobining turlicha modellari amal qilishidir. Olimlarning ta'kidlashicha, hozirgi kunda dunyoda buxgalteriya hisobi va audit tizimining quyidagi modellari mavjud:

Auditorlik standartlarining quyidagi jihatlari mavjud:

¹⁴ Audit of banks: 5 years on Inspiring confidence in financial services initiative 80 rg

- unga rioya qilish orqali auditorlik tekshirishning yuqori sifatli bo‘lishi ta‘minlanadi;

- auditorlik tekshirish amaliyotida yangi ilmiy yutuqlarni qo‘llash mumkin;

- muayyan vaziyatlarda auditorning xatti-harakatini aniqlaydi.

Jahon mamlakatlarda buxgalteriya hisobi va audit tizimining turlicha yuritilishi hisob va audit sohasida standartlarni muvofiqlashtirish va tatbiq etishni taqozo etdi.

Xususan, bu tadbir bilan IAPS, audit amaliyoti bo‘yicha xalqaro qo‘mita shug‘ullanadi. IFAC huzuridagi Xalqaro auditorlik amaliyoti qo‘mitasi, yani xalqaro mustaqil auditorlik tashkiloti, (IAPS) auditorlik faoliyati kam taraqqiy etgan davlatlarda ushbu kasbning mavqeini ko‘tarish maqsadida xalqaro auditorlik standartlarini qo‘llashni muvofiqlashtirib turadi.

Bugungi kunga kelib xalqaro audit standartlarini jahon mamlakatlari bo‘yicha qo‘llanilish darajasiga ko‘ra quyidagi ko‘rinishi mavjud:

AQSh, Kanada va Buyuk Britaniyaning auditorlik faoliyatida milliy standartlar amal qilib, xalqaro auditorlik standartlaridan ma‘lumot uchun foydalaniladi;

Avstraliya, Braziliya, Niderlandiya va boshqa davlatlarda xalqaro auditorlik standartlari milliy auditorlik standartlarini ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekistonda ham xalqaro audit standartlari asosida auditning milliy standartlari ishlab chiqilmoqda va amaliyotga tatbiq etilmoqda;

Malayziya va Nigeriyada milliy standartlar ishlab chiqilmaydi, ularning auditorlik amaliyotida xalqaro standartlar to‘lig‘icha amal qiladi.

Har bir mamlakatda auditning standartlarini ishlab chiqishda maxsus tashkilotlar faoliyat yuritadi. Masalan, AQShda standartlarni ishlab chiqish bilan Moliyaviy hisobot standartlarini ishlab chiquvchi kengash (FASB) shug‘ullanadi. Ushbu standartlarning amalda qo‘llanilishini nazorat qilish hukumatning Qimmatli qog‘ozlar va birjalar bo‘yicha komissiyasi (SEC) zimmasiga yuklatilgan. FASB va

31. Uning o'zaro hamkorligi tufayli AQShda audit standartlari qo'llanilishining samarali mexanizmi yaratilgan.

Hozirgi davrda bank nazorati organlari, auditorlar hamda sug'urtachilar bilan doimo muloqotlar olib borish amaliyoti tashkil qilingan. Ushbu muloqotlar auditorlik xulosalarini muhimligini ko'rsatib, bu yuqori darajada tashkil etib kelinmoqda¹⁵.

Tashqi auditda bankning oldingi auditorlik tekshiruvi natijalari bilan ham tanishib chiqishi lozim. Auditorlik xulosasi bankning kelgusidagi barqaror faoliyatiga kafolat bermaydi, lekin o'sha davrdagi bank faoliyati bo'yicha o'zining xolisona fikrini bildiradi.

Auditning vatani hisoblangan Buyuk Britaniyada esa buxgalteriya hisobi va audit siyosati asosan nohukumat tashkilotlar tomonidan olib boriladi. Shu boisdan AQSh va Buyuk Britaniyada qabul qilingan audit standartlari bir-biriga mos tushmaydi. Fransiyada auditning milliy standartlarini Milliy kompaniya qo'mitasi tomonidan ishlab chiqiladi. Ushbu davlatda qabul qilinadigan auditning milliy standartlari xalqaro standartlarga to'lig'icha mos keladi, ayrim mutaxassislarning aytishicha, Fransiyada qabul qilinadigan milliy standartlar «Xalqaro standartlarning fransuzcha varianti» deb yuritiladi.

Umuman olganda, xalqaro auditorlik standartlari jahon miqyosida audit tizimini unifikatsiyalashga xizmat qiladi. Respublikamiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish yo'lida auditorlik faoliyatini xalqaro standartlar asosida tashkil qilish hamda milliy auditorlik standartlarini qabul qilish jarayonida yuqorida sanab o'tilgan mamlakatlar tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

- o'zaro hisob-kitoblarning to'g'ri olib borilishini tekshirish;
- bankning hisob siyosati va unga to'liq rioya qilinishini aniqlash;
- bankning moliyaviy hisobotining asosli ekanligiga va haqqoniy-
ligiga xolisona baho berishdan iboratdir.

Butunjahon mamlakatlari o'rtasida bo'ladigan savdo-iqtisodiy va boshqa ko'rinishdagi aloqalar ular o'rtasida bo'ladigan hisob-kitoblarni

¹⁵ Economic governance support unit The relationship between banking supervisors and banks' external auditors (2014) <http://www.sbp.org.pk>

unifikatsiyalashni taqozo etmoqda. Buning uchun, milliy hisob va audit tizimlarini yaxlit shaklga keltirish talab qilinadi.

2.4. Auditorlik tashkilotlari va auditorlarning huquq va majburiyatlari

Auditor tashkilotlari va auditorlar quyidagi huquqlarga ega:

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki talablariga, shartnomada belgilangan aniq shartlarga muvofiq auditorlik tekshiruvining shakl va usullarini mustaqil ravishda belgilash;

- bank faoliyati to'g'risidagi barcha hujjatlarini, mavjud moddiy boyliklar va qimmatbaho qog'ozlarni tekshirish, vujudga keladigan savollar yuzasidan sharx hamda auditorlik tekshiruvini uchun zarur qo'shimcha ma'lumotlar olish;

- yozma so'rov bo'yicha uchinchi shaxslardan zarur ma'lumotlar olish;

- shartnomaviy asosda auditorlik tekshiruvida qatnashish uchun auditorlarni, auditorlik tashkilotlari yoki ularning xodimlarini jalb etish;

- tekshirilayotgan bank zarur hujjatlarni taqdim etmagan hollarda auditorlik tekshiruvini o'tkazishdan bosh tortish.

Auditorlik tashkilotlari va auditorlarning o'zlari bank faoliyati, buxgalteriya hisobotlarini rasmiylashtarish, shuningdek, ichki auditini tashkil etish va amalga oshirish yuzasidan konsalting xizmatlari ko'rsatadigan banklarda audit o'tkazish huquqiga ega emaslar.

Barcha auditorlik tashkilotlari va auditorlar o'zlari bank auditini o'tkazish uchun zarur deb hisoblagan har qanday ma'lumot va materiallarni olish, ko'rib chiqish va nusxa ko'chirish, shuningdek, auditorlik tekshiruvini o'tkazilishini muhokama qilish uchun bank rahbariyati bilan hech qanday to'sqinliksiz muloqotda bo'lish borasida istisnosiz huquqqa egalar.

Banklarda audit o'tkazuvchi auditorlik tashkilotlari va auditorlar Markaziy bankning audit to'g'risidagi nizomiga muvofiq quyidagi talablarga amal qilishlari shart:

- auditorlik tekshiruvini o'tkazishda qonunchilik hamda Markaziy bank me'yoriy hujjatlari talablariga, jumladan audit jarayoni hamda metodologiyasiga rioya etish;

- quyidagilar haqida buyurtmachi va Markaziy bankka darhol xabar berish;

a) mazkur bank auditorlik tekshiruvini o'tkazishda o'zi qatnasha olinmasligining sabablari to'g'risida;

b) audit jarayonida yuzaga kelgan vaziyat munosabati bilan tekshiruvda qatnashishga qo'shimcha auditorlarni jalb etish zarurligi to'g'risida;

- auditorlik tekshiruvlarini professional audit andozalariga muvofiq ravishda yuqori malaka bilan o'tkazish;

- tekshiruv davomida o'zlari oladigan va tuzadigan hujjatlar butunligini ta'minlash;

- zarurat tug'ilganda barcha ishchi hujjatlarini, hamda ularning nusxalarini Markaziy bankka taqdim etish.

Auditorlar obyektivligi va mustaqilligi

Auditor o'z ishini bajarishi chog'ida halol va samimiy bo'lishi zarur. U xolis bo'lishi hamda shaxsiy xayrixohlik va boshqa ehtiroslar obyektiv fikr yuritishda halal berishiga yo'l qo'ymasligi shart. U tekshiruv natijasidan mutlaqo manfaatdor bo'lmasligi zarur.

Maxfiylik

Auditor ish davomida o'ziga ma'lum bo'lgan maxfiy axborot sir saqlanishini ta'minlashi va alohida ruxsatsiz uchinchi shaxslarga oshkor etmasligi shart. Auditorga maxfiy axborotni sir saqlay olmagani uchun shartnoma shartlariga asosan mas'uliyat yuklatiladi.

Respublikamizda davlat ulushiga ega bo'lgan yirik banklar, xorijiy kapital ishtirokidagi banklar Xalqaro auditorlik kompaniyalari tomonidan tekshiriladi. Xorijiy investorlar asosan Xalqaro auditorlik kompaniyalari tomonidan tekshirib qilingan xulosa natijalariga tayanadilar.

Quyida respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan auditorlik kompaniyalari bo'yicha ma'lumot keltiramiz.

«Katta to'rtlik» auditorlik tashkilotlari xalqaro miqyosda professional tarzda audit bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar tizimi hisoblanib, auditorlik faoliyatidan tashqari soliq, korporativ moliya va boshqa qonuniy xizmatlar bo'yicha konsalting xizmatlarini ko'rsatadi.

Bu kompaniyalar dunyo bo‘ylab davlat va xususiy kompaniyalarni audit qiladi. Statistika e‘tibor beradigan bo‘lsak, «Katta to‘rtlik» xalqaro auditorlik kompaniyalari FTSE 100 indeksidagi kompaniyalarning 99 % ulushini, FTSE 250 Index dagi 96 % ini yillik auditdan o‘tkazadi.

6-jadval

Bank auditini o‘tkazish huquqini beruvchi sertifikatga ega bo‘lgan va faoliyat ko‘rsatayotgan auditorlik tashkilotlar ro‘yxati¹⁶

| № | Auditorlik tashkilotlarning nomi |
|----|-----------------------------------|
| | Xorijiy auditorlik tashkilotlari |
| 1. | «PraysvoterxausKuperc» MCHJ |
| 2. | «Ernst & Young» MCHJ |
| 3. | «Deloitte & Touche» MCHJ |
| 4. | «Grant Thornton» MCHJ |
| | Mahalliy auditorlik tashkilotlari |
| 5. | «PKF MAK ALYANS» MCHJ |

«Katta to‘rtlik»ning har biri yakka tartibdagi kompaniyalardan iborat emas, ular o‘zaro birlashgan professional audit xizmatini ko‘rsatuvchi tarmoq hisoblanadi. Har bir auditorlik tashkiloti mustaqil tarzda boshqariladigan va egalik qilinadigan, boshqa firmalar bilan o‘zaro shartnomalar asosida audit qiluvchi hamda o‘zining mijozlari bilan shartnomalar doirasida faoliyat olib boruvchi kompaniyalar hisoblanadi.

2018-yil 19-sentabrda O‘zbekiston Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi va unda 2020-yil 1-yanvardan boshlab “auditorlik tashkilotlari auditorlik faoliyatini faqat Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi tomonidan nashr etiladigan xalqaro audit standartlari asosida amalga oshiradi”, deb belgilandi¹⁷.

Auditorlik tashkilotlari va auditorlarning o‘zlari bank faoliyati, buxgalteriya hisobotlarini rasmiylashtirish, shuningdek, ichki auditini

¹⁶ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma’lumoti.

¹⁷ “BIZNES - ЭКСПЕРТ №10-2018 | Alisher SATTOROV Auditorlik faoliyati va audit rivojlanishining nazariy asoslari

tashkil etish va amalga oshirish yuzasidan konsalting xizmatlari ko'rsatadigan banklarda audit o'tkazish huquqiga ega emaslar.

Barcha auditorlik tashkilotlari va auditorlar o'zlari bank auditini o'tkazish uchun zarur deb hisoblagan har qanday ma'lumot va materiallarni olish, ko'rib chiqish va nusxa ko'chirish, shuningdek, auditorlik tekshiruvini o'tkazilishini muhokama qilish uchun bank rahbariyati bilan hech qanday to'sqinliksiz muloqotda bo'lish borasida fatisnosiz huquqqa egalar.

Banklarda audit o'tkazuvchi auditorlik tashkilotlari va auditorlar Markaziy bankning audit to'g'risidagi nizomiga muvofiq quyidagi talablarga amal qilishlari shart:

- auditorlik tekshiruvini o'tkazishda qonunchilik hamda Markaziy bank me'yoriy hujjatlari talablariga, jumladan audit jarayoni hamda metodologiyasiga rioya etish;

- quyidagilar haqida buyurtmachi va Markaziy bankka darhol xabar berish:

- a) mazkur bank auditorlik tekshiruvini o'tkazishda o'zi qatnasha olmaganligining sabablari to'g'risida;

- b) audit jarayonida yuzaga kelgan vaziyat munosabati bilan tekshiruvda qatnashishga qo'shimcha auditorlarni jalb etish zarurligi to'g'risida;

- auditorlik tekshiruvlarini professional audit andozalariga muvofiq ravishda yuqori malaka bilan o'tkazish;

- tekshiruv davomida o'zlari oladigan va tuzadigan hujjatlar but saqlanishini ta'minlash;

- zarurat tug'ilganda barcha ishchi hujjatlarini, hamda ularning nusxalarini Markaziy bankka taqdim etish.

Auditorlar obyektivligi va mustaqilligi

Auditor o'z ishini bajarishi chog'ida halol va samimiy bo'lishi zarur. U xolis bo'lishi hamda shaxsiy xayrixohlik va boshqa ehtiroslar obyektiv fikr yuritishda halal berishiga yo'l qo'ymasligi shart. U tekshiruv natijasidan mutlaqo manfaatdor bo'lmasligi zarur.

Maxfiylik. Auditor ish davomida o'ziga ma'lum bo'lgan maxfiy axborot sir saqlanishini ta'minlashi va alohida ruxsatsiz uchinchi shaxslarga oshkor etmasligi shart.

Auditorga maxfiy axborotni sir saqlay olmagan uchun shartnoma shartlariga asosan mas'uliyat yuklatiladi.

Shu o'rinda aytish joizki, tijorat banklarida ichki audit qay darajada tashkil etilganligi tashqi audit tekshiruvlariga ta'sir qiladi. Faoliyati jarayonida ichki audit tekshiruvi davomida bankni tashqi auditga tayyorlab boradi.

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va atamalar

Auditorlik faoliyatini litsenziyalash, auditorlik faoliyatining me'yoriy huquqiy asoslari, malaka sertifikat, auditorlarni attestatsiyadan o'tkazish, audit standartlari, firma ichki standartlari, auditor etikasi, auditor va auditorlik tashkilotlarining mustaqilligi, auditorlik tashkilotlarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi.

O'z bilimini tekshirish bo'yicha savollar

1. Ichki bank auditi qanday o'tkaziladi?
2. Ichki nazoratni tashkil qilishda qanday talablar qo'yiladi?
3. Ma'muriy nazorat nima?
4. Ichki nazoratni aniq va to'g'ri bo'lishi uchun banklarda qanday tamoyillar bo'lishi lozim?
5. Bank tashkiliy tuzilmasini tushuntiring.
6. Aktivlarni butunligi qanday nazorat qilinadi?

3-bob. NAQD PUL VA KASSA OPERATSIYALARINING AUDITI

3.1. Naqd pul va boyliklarni audit qilish tartibi

3.2. Naqd pul va boyliklarni saqlash binolari va ularni qo‘riqlanish auditi

3.3. Kassa va kassa operatsiyalarini auditi

3.1. Naqd pul va boyliklarni audit qilish tartibi

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank Boshqaruvining 2018-yil 28-apreldagi 16/21-sonli qarori bilan tasdiqlangan (№3028) “Tijorat banklarida kassa ishini tashkil etish, naqd pul va boshqa qimmatliklarni inkassatsiya qilishga doir” yo‘riqnomaga asosan bank auditi tashkil etiladi.

Kassa operatsiyalari deganda kassa hujjatlari asosida naqd pul va boshqa qimmatliklarni kirim yoki chiqim qilish, qayta sanash, saralash, o‘rab-bog‘lash, almashtirib berish hamda inkassatorlardan qabul qilib olish yoki ularga tashish uchun topshirish tushuniladi.

Bank kassalaridagi mavjud pul va boyliklar to‘satdan, bir kunning o‘zida, barcha boyliklar, ular bilan o‘tkaziladigan operatsiyalar, pul va boyliklar sanash chog‘ida but saqlanishini to‘liq audit qilish imkoniyatini ta‘minlaydigan, hamda boyliklar yashirilishi, pul va boshqa boyliklardan kamomad borligini yashirishga imkon qoldirmaydigan izchillikda audit qilinadi.

Kassa amaliyotlarining qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini o‘rganishning AUDIT REJASI:

1. Kunlik kassa hujjatlarining saqlanishi va to‘g‘ri rasmiylashtirilishini o‘rganish.
2. Pul omborini ochish, yopish, muhrlash, qo‘riqlash xizmatiga topshirish va qabul qilib olish qoidalariga rioya qilinishini o‘rganish.
3. Kassa tarmog‘ida plombir (klishe)lar, muhrlar va kalitlarni hisobga olish, ulardan to‘g‘ri foydalanish va saqlash jarayonini o‘rganish.

4. Kassa tarmog'ini to'satdan taftish qilishda asosiy e'tibor berilishi lozim bo'lgan jihatlar.

5. Filialda kassa amaliyoti bo'limining texnik jihozlanishi talablariga rioya qilinganligini o'rganish.

Audit qilish boyliklar but saqlanishi uchun javobgar bo'lgan mansabdor shaxslarning ishtirokida o'tkazilishi hamda bank muassasalarida operatsiyalar amalga oshirilishining odatdagi maromini buzmasligi kerak.

Auditdan o'tkazish paytida yuqori lavozimdagi mansabdor shaxslar yo'q bo'lsa, bu holat dalolatnomada alohida qayd etiladi, umumiy dalolatnoma audit rahbarining, hamda mas'ul rahbarlarning imzolari bilan tasdiqlanadi.

Audit qilish rahbari bank muassasasiga kelganidan aylanma (operatsiya) va kechki kassalarda, qayta pul sanash kassasida va kassirlar bilan inkassatorlarning javobgarligida bo'lgan jamiki naqd pulni, zaxira fondlarida bo'lgan pul bileti va tangalarni, chet el valyutasi va boshqa boyliklarni o'z nazoratiga qabul qiladi.

Audit qilish rahbari, uni o'tkazishga kirishar ekan, mansabdor shaxslarning huzurida naqd pul bo'lgan barcha omborlarni o'zining lavozimiga doir so'rg'ichli muhr bilan muhrlab chiqadi. Kassa tarmog'ida joylashgan boshqa omborlar esa audit boshlangan payt ularda pul va boyliklar yo'qligiga ishonch hosil qilish uchun ko'zdan kechiriladi.

Ish kuni tugaganidan so'ng pul omborlari muhrlanishi va boyliklar but saqlanishi uchun javobgar bo'lgan mansabdor shaxslar bilan birgalikda qo'riqlash uchun belgilangan tartibda topshirilishini audit rahbari pul omborlaridagi pul va boyliklarni audit qilish to'liq yakunlanguniga qadar davom ettiradi.

Bu vaqtda mansabdor shaxslarning pul omborlariga faqat audit rahbari ishtirokidagina kirishiga, pul va boyliklarni uning nazorati ostida qo'yishi yoki olishiga ruxsat etiladi.

Audit qilish rahbari muhrining izi taxtachada audit qilinayotgan bank muassasasidagi rahbar xodimlar muhrlarining izidan oldinga joylashtiriladi.

Audit rahbari surg'ichli muhrining uning imzosi bilan tasdiqlangan hamda qo'riqlash uchun topshirish daftaridagi imzosiga qiyoslash uchun namuna hisoblanadigan izi to'liq kartonda "Bankni audit qilish rahbari surg'ichli muhrining izi namunasi" degan matn bilan rasmiylashtiriladi, sana va imzo qo'yiladi, hamda qo'riqlash xizmati boshlig'idan tilxat olib topshiriladi. Pul va boyliklarni audit qilish tugaganidan so'ng audit rahbari tilxatni qaytaradi va surg'ichli muhr izining namunasini yo'q qiladi.

Kassalardagi pul biletleri dastlab bog'lamlar va dastalar, metall tangalar va ish haqi to'lash uchun oldindan tayyorlab qo'yilgan pullar qoplanga birkirilgan yorliqlar va cheklarga qarab tekshiriladi. Umumiy summa hisob yuritish ma'lumotlariga qiyoslanadi.

Shu xil tekshirishdan keyin naqd pul quyidagi tartibda qayta sanaladi:

- oborot va kassa operatsiyalarida bo'lgan pul biletleri, hamda tangalar nazorat tariqasida to'liq donalab birma-bir sanaladi;

- mijozlarga berish uchun oldindan tayyorlab qo'yilgan pul biletleri va tangalar ma'lumotlari cheklardagi summaga qiyoslanadigan yorliqlardagi yozuvlarga qarab tekshiriladi, keyin esa audit rahbari belgilaydigan hajmda bog'lamlar, dastalar, shuningdek, birma-bir va donalab to'liq sanaladi;

- kechki kassadagi naqd pul o'sha kunning o'zida yoki keyingi kun erdalabdan kechiktirmay, birma-bir va tangalar donalab to'liq sanaladi;

- xaltalar ochilganidan keyin pul sanash kassasida bo'lgan pul biletleri va tangalar audit qilish rahbari belgilaydigan hajmda bog'lamlar va dastalar bo'yicha hamda birma-bir va donalab to'liq qayta sanaladi.

Shuningdek, muayyan sanalarning birida bankning savdo va transport korxonalari huzuridagi kassalarda bo'lgan naqd pul tekshiriladi. Pul biletleri bog'lamlar va dastalar bo'yicha, tangalar esa qoplanga birkirilgan yorliqlardagi yozuvlarga qarab sanaladi. Ma'lumotlar kirim hujjatlaridagi umumiy summaga, kirim bo'yicha kassa daftarlariga qiyoslanadi, keyin esa audit qilish rahbar belgilaydigan hajmda birma-bir va tangalar donalab qayta sanaladi.

Agar audit boshlangan paytda pul sanash kassalarida, kechki

kassalarda va inkassatorlarning javobgarligida naqd pulli ochilmagan xaltalar bo'lsa, shu xaltalar va qoplardagi (ochilgan xaltalar va qoplardagi) pul qoldig'i yuk xatlar, tashrif varaqchalari, qabul qilingan naqd pulli xaltalar (qoplar) va bo'sh xaltalar hisobini yuritish daftarlari, ro'yxatlar, yo'l qaydnomalari, yo'nalish varaqlari hamda inkassatorlarga yo'lga chiqish paytida berilgan xaltalar to'g'risidagi ma'lumotnomalarda ko'rsatilgan ma'lumotlar bilan qiyoslanadi. Ular bo'lmagan taqdirda esa bu xil tekshiruv boshqa kunlarda to'satdan o'tkaziladi. Ayni paytda xaltalar va qoplarining butunligi hamda plombalar va muhrlar izi mavjud namunalarga mos kelishi tekshiriladi.

Xaltalar va qoplar shikastlangani, plombalar va muhrlar tegishli namunalarga to'g'ri kelmasligi aniqlangan hollarda shu xaltalar va qoplardagi boyliklar birma-bir, tangalar esa donalab to'liq qayta sanaladi. Zarur hollarda qayta sanashda ishtirok etish uchun tegishli korxonalar, shuningdek, Ichki Ishlar Vazirligining vakillari taklif etilishi mumkin.

Xalq banki muassasalariga yetkazib berilishi kerak bo'lgan, pul va boyliklar solingan xaltalar (puli qayta sanaladigan xaltalar) shu muassasalar xodimlarining huzuridagina ochilishi mumkin.

Audit o'tkazilayotgan kuni "Yo'ldagi qog'oz pullar" 10109 va "Yo'ldagi tangalar" 10111 hisobvaraqlarda pul qoldig'i bo'lgan taqdirda pul 10101 hisobvaraqdan chiqarilib, 10109-hisobvaraqqa o'tkazilishi qay darajada asosli ekanligi tekshiriladi. Bundan tashqari, audit qilish jarayonida Toshkent shahar hisob-kassa Markazi Bosh boshqarmadan jo'natilgan pullar kelib tushgani to'g'risida tasdiqnoma olinishi kerak.

Shuningdek, Xalq banki muassasalariga yetkazish uchun inkassatorlarga berilgan pullarning asosiligi ham tekshiriladi. Xalq banki muassasalariga yetkazib berish uchun ko'rsatilgan summani qiyoslash kerak. Hujjatlarda ko'rsatilgan summani hisob yuritish daftarlaridagi yozuvlarga va Xalq banki muassasalarining talablariga qiyoslash zarur. Agar inkassatorlarga berilgan, lekin jo'natilmagan pul bo'lsa, uning miqdori, xaltalar va tangalarning butunligi, plombalar izining aniqligi va haqiqiyliigi tekshiriladi, hamda xaltalar belgilangan joyga yetkazib berilgani nazorat qilinadi.

Audit qilish rahbarining xohishiga qarab, bu xaltalar ochilishi va ulardagi boyliklar shu xaltalarni qabul qilib olgan inkassatorlar, kassa mudiri, bank muassasasining rahbari yoki bosh buxgalteri ishtirokida bog‘lamlar va dastalar bo‘yicha yoki birma-bir qayta sanalishi mumkin.

Zaxira fondlarida bo‘lgan pul biletlari bog‘lamlar va dastalarga qarab, metall tangalar esa qoplarga birkutilgan yorliqlardagi yozuvlar bo‘yicha tekshiriladi. Pul biletlari va tangalarning umumiy summasi tegishli daftarlar, kundalik balans ma’lumotlariga qiyoslanadi. Daftarlarda chiqarilgan yakunlar turli qiymatdagi alohida qoldiq summalarni hisoblash orqali tekshiriladi.

7-jadval

“A” filialida qayta sanash kassasi bo‘limida inkassatsiya orqali kelgan naqd pullarni sanashda aniqlangan kamomad va ortiqcha pullarni ro‘yxatga olib borish jurnalining yuritilish tahlili (so‘m)

| Kassirlarning F.I.Sh. | Kunlar | | | | Jami |
|---|------------|------------|------------|------------|--------|
| | 02.09.2018 | 03.09.2018 | 04.09.2018 | 05.09.2018 | |
| Umarova L. | -1000 | 200 | 300 | -100 | -600 |
| Niyozova A. | | 500 | -1300 | 400 | -400 |
| Mirtolipova I. | 400 | -100 | 200 | | 500 |
| Tojiyeva A. | -300 | | -1000 | 100 | -1200 |
| O‘raqova M. | -1200 | -700 | | 800 | -1100 |
| Toxirova A. | | 1500 | -2000 | 400 | -100 |
| Yusupova D. | 900 | -1700 | 100 | | -700 |
| Normatova D. | 500 | | | -600 | -100 |
| Qayta sanash kassasidagi jami kunlik kamomad yoki ortiqcha pullar | -700 | -300 | -3700 | 400 | -43006 |

Shu xil tekshiruvdan so‘ng zaxira fondlaridan, Markaziy bank huzuridagi “Davlat belgisi” maxsus ishlab chiqarish birlashmasi, “Toshkent” zarbxonasi, Toshkent shahar XKM va uning Chilonzor filiali bog‘lamlarida bo‘lgan pul biletlari va tangalar audit qilish rahbari belgilaydigan hajmda birma-bir va donalab qayta sanaladi. Zaxira fondidan qayta sanash uchun chiqarilgan naqd pullarni Hisob-kassa Markazining kassirlari auditorlar nazorati ostida qayta sanashlari lozim.

Auditor kassirga pul biletleri va tangalarni sanash uchun berayotganida qog'oz-tasma (yorliq)ni pul biletleri va tangalarning bir qismi bilan birgalikda nazorat uchun o'zida olib qoladi. Pul biletleri yoki tangalar qayta sanalganidan keyin kassir aytgan summa yoki miqdorni auditor o'zida olib qolgan pul biletleri va tangalarning summasi yoki miqdoriga qo'shadi va natija qog'oz-tasma (yorliq)dagi ma'lumotlarga qiyoslanadi.

Umumiy summa o'zaro mos kelganida nazorat uchun qoldirilgan pul biletleri yoki tangalar qayta sanash va dastalar (qoplar)ni umumiy tarzda belgilangan tartibda tayyorlash uchun kassirga beriladi. Mos kelmagan taqdirda esa bu pullar auditor tomonidan qayta sanalishi va ularni dastlab sanagan kassir tomonidan o'rab bog'lanishi kerak. Qog'oz-tasmalar, ustki nakladkalar, yorliq va plombalar bog'lamlar (qoplar)dagi pullar to'liq sanalmaguncha auditorida qolishi zarur.

Pullarni qayta sanashni ularni bog'lamlar va qoplarga sanab joylagan kassa xodimlariga faqat ayrim hollardagina topshirish mumkin. Kirim-chiqim kassasida bitta kassir ishlaydigan bank muassasalarida pulni kassir vaqtincha bo'lmagan paytda uning vazifasini bajaruvchi xodim qayta sanaydi.

Pul sanalganidan keyin dastalardagi qog'oz-tasmalar va bog'lamlar (yorliqlar)dagi nakladkalar auditorlarning imzosi bilan rasmiylashtirilmaydi.

Audit rahbari pul biletleri bog'lamlarini va tanga joylangan qoplarni turli joylardagi pul omborlarida tayyorlanganlarida, o'rab-bog'lash sanasi har xil bo'lgan va turli kassirlar tayyorlaganlaridan tanlab oladi.

To'liq bo'lmagan va yig'ma tarzda tayyorlangan pul biletleri bog'lamlari hamda metall tangali qoplar, o'rami shikastlangan, nakladkalari va yorliqlarida kassirning imzosi bo'lmagan, shuningdek, o'ramida yoki rasmiylashtirilishida boshqa xil kamchiliklari bor pul bog'lamlari va qoplari birma-bir va donalab sanalishi kerak.

Kamomad yoki ortiqcha pul biletleri borligi aniqlangan hollarda ularni tayyorlagan kassirning barcha pul bog'lamlari birma-bir qayta sanalishi zarur. Audit rahbarining xohishiga qarab kamomad yoki

ortiqcha pul chiqqan qoplardagi tangalar ham shunday tekshiruvdan o'tkaziladi.

Buxgalteriya hisobidan o'tkazilmagan tilxatlar va boshqa hujjatlarda ko'rsatilgan summalar kassa qoldig'ini tasdiqlash uchun qabul qilinmaydi va kassidan chiqqan kamomad hisoblanadi. Kassada aniqlangan ortiqcha pul 45994 - "Boshqa foizsiz daromadlar" hisobvarag'iga o'tkazilishi lozim.

Agar audit boshlanishida 90131-"Yo'ldagi muomalaga chiqarilmagan banknotlar" hisobvarag'ida qoldiq bo'lsa, pul biletlari va tangalar "Hisob-kassa Markazlari omborida saqlanayotgan muomalaga chiqarilmagan pullar" nomli 90117-hisobvaraqdan chiqarilishi qay darajada asoslilikini tekshirishi zarur. Ayni vaqtda auditor jo'natilgan boyliklar belgilangan manzilga yetib borganini audit qilish jarayonida Markaziy bankning tegishli Bosh boshqarmasidan tasdiqnoma olish orqali nazorat qilishi kerak.

Markaziy bank muassasalaridan olingan va 93609 "Saqlanayotgan qimmatliklar" hisobvarag'ida o'tkazilgan pullar bog'lamlari va dastalarga qarab, shikastlangan o'ramdagilari esa birma-bir tekshirib chiqiladi. Ularning har bir jo'natma bo'yicha umumiy summasi esa ilova qilingan ro'yxatlardagi ma'lumotlar bilan qiyoslanadi. Bundan tashqari, auditor shu hisobvaraqda turgan pullar kelib tushgan kuniyoq zaxira fondiga yoki aylanma kassasiga o'tkazilmaganining sababini aniqlashi shart.

Boshqa hisobvaraqlardagi boyliklar quyidagi tartibda audit qilinadi:

- "naqd chet el valyutasi" nomli 10511-hisobvarag'ida chet el valyutasi, yo'l cheklari va chet el valyutasidagi boshqa xil to'lov hujjatlari bog'lamlar va dastalarga qarab, tangalar esa qoplar (lotoklar)ga birkutilgan yorliqlardagi yozuvlar bo'yicha tekshiriladi. Bunda erkin ayirboshlanadigan barcha valyuta va unga tenglashtirilgan valyuta hamda xorijiy valyutadagi to'lov hujjatlari yalpisiga birma-bir va donalab tekshiriladi;

- agar audit boshlangan paytda xorijiy valyuta va to'lov hujjatlari ayirboshlash punkti xodimiga hisob berish sharti bilan topshirilgan

bo'lsa, ularning summasi audit ertalab boshlangan holda ayirboshlash punktining avvalgi kun hujjatlari bo'yicha tuzilgan hisobotidagi, audit kunning ikkinchi yarmida boshlangan holda esa, shu kungi hisobotdagi ma'lumotlar bilan qiyoslanishi kerak. Ayni vaqtda ayirboshlash punktiga qo'shimcha boyliklar berish va ular yetarli bo'lishi tartibiga rioya qilinishi tekshiriladi;

- “Oltin va boshqa qimmatbaho metallar” nomli 10200-hisobvaraqa hisobga olingan oltin va boshqa qimmatbaho metallar tarozida tortish orqali, to'liq vaznli tangalar esa donalab tekshiriladi. Banklarning shahar (operatsiya) boshqarmalari (bo'limlari)da O'zbekiston Respublikasi banklarining bo'limlari va agentliklaridan kelgan, qimmatbaho metallar joylangan ochilmagan jo'natmalar ularda ko'rsatilgan ma'lumotlarni bank muassasalarining shu jo'natmalarga tegishli ro'yxatlaridagi va jo'natmalarni hisobini yuritish daftarlaridagi ma'lumotlar bilan qiyoslash orqali tekshiriladi. Ayni vaqtda jo'natmalar o'ramining to'g'riligi ham tekshiruvdan o'tkaziladi;

- Kassirga hisob berish sharti bilan topshirilgan davlat boji markalari yalpisiga donalab, pul omborida bo'lgan markalar esa audit qilish rahbari belgilaydigan hajmda tanlov asosida sanaladi. Amaldagi qoidalarga zid ravishda o'ralgan bog'lamlardagi markalar birma-bir qayta sanalishi shart. Pul omborida va kassirning hisobdorligida bo'lgan markalar bir vaqtning o'zida qayta sanaladi. Agar tekshirishni bir paytning o'zida olib borish imkoni bo'lmasa, avval kassirning hisobdorligidagi markalar, keyin esa pul omborida saqlanayotgan markalar sanaladi. Markalarning umumiy summasi hisob berish sharti bilan topshirilgan va donalab sanalgan turli qiymatdagi qoldiq markalarning summasini pul omborida saqlanayotgan qoldiq markalar summasiga bog'lamlardagi yozuvlarga qarab qo'shish orqali aniqlanadi;

- “Saqlanayotgan qimmatliklar” nomli balansdan tashqari 93609-hisobvaraqa turadigan chet el banklari va muassasalarining yo'l cheklari, Markaziy bankning chet el valyutasini so'mga ayirboshlash to'g'risida 377-shakldagi ma'lumotnoma daftarchalari, omonat daftarchalarining blankalari, mehnat daftarchalari va ularga ilovalar, bog'lamlar va daftarlar bo'yicha qayta sanaladi, ularning umumiy

summasi buxgalteriya va kassadagi analitik hisob ma'lumotlari bilan qiyoslanadi. So'ngra bu hujjatlar (boyliklar) audit qilish rahbari belgilaydigan hajmda birma-bir sanaladi. Ushbu hisobvaraqa hisobga olinuvchi boshqa blankalarni tekshirish zarurati va tartibini ham audit qilish rahbari belgilaydi;

- “Saqlanayotgan qimmatliklar” nomli balansdan tashqari 93609-hisobvaraqa turadigan boyliklar va hujjatlar yalpisiga sanaladi. Bunda muhrlangan ko'rinishda qabul qilingan boyliklar o'ramdagi yozuvga qarab, ro'yxatlar bo'lgan taqdirda esa o'ramda ko'rsatilgan summalarni ro'yxatlarda ko'rsatilgan summalarga qiyoslash orqali tekshiriladi. Saqlash uchun qabul qilingan, o'rami yoki muhri shikastlangan boyliklar ularni topshirgan tashkilotning vakili huzurida tekshiriladi;

- 91816-hisobvaraqa hisobga olinadigan uzoq muddatli qarzarlar bo'yicha majburiyatnomalar va uy sotib olgan fuqarolarning majburiyatnomalari hisoblab chiqiladi va ularning summasi hisob yuritish ma'lumotlari bilan qiyoslanadi. Bundan tashqari, majburiyatnomalar va ularga ilovalar to'g'ri rasmiylashtirilgani, shuningdek, qarzarlar vaqtida qaytarilgani tekshiriladi.

Yuqorida ko'rsatilgan hisobvaraqlarda hisobga olinuvchi boyliklar qayta sanalganidan keyin ular oborot kassasidagi naqd pul va boshqa boyliklar, zaxira fondlari, kundalik balans va analitik hisob daftarlaridagi ma'lumotlar bilan qiyoslanadi.

Audit qilish jarayonida kamomad, to'lovga qobiliyatsiz yoki ortiqcha pul va boyliklar aniqlangan holda dalolatnoma tuziladi. Ana shu asosda kamomad summasidan (xatto yetishmagan pul aniqlangan zahoti joyiga qo'yilgan bo'lsa ham) kamomad yoki to'lovga qobiliyatsiz pul kassa chiqimi hisobidan chiqarilib, 19909-hisobvaraqa o'tkazish orqali undirib olinadi, ortiqchasi esa bank daromadiga olib boriladi. Zaxira fondlarida yetishmayotgan summa shoshilinch tarzda oborot kassasi hisobidan to'ldiriladi. Audit rahbari kassalardagi yirik xatolar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning tegishli Bosh boshqarmasiga o'z vaqtida xabar berilishini nazorat qiladi, hamda bunday hollarga yo'l qo'ymaslik maqsadida ko'rilgan chora-tadbirlarning samaradorligini tahlil qiladi. Davlat boji markalari va

boshqa boyliklar bo'yicha kamomad va ortiqcha pul hisobini yuritish tartibi 42-yo'riqnomaning tegishli bandlarida ko'rsatilgan.

Boyliklar bilan o'tkaziladigan operatsiyalarni hujjatlar asosida audit qilish analitik hisob oborotlarini oldindan yoki keyin hisoblash va olingan yakunlarni oylik oborot qaydnomalaridagi ma'lumotlar bilan qiyoslash orqali amalga oshiriladi. Balansdan tashqari hisobvaraqlar bo'yicha, bulardan tashqari, shu qaydnomalarda ko'rsatilgan qoldiqlar to'g'riligi tekshiriladi.

Balansdagi "Yo'ldagi qog'oz pullar" 10109 va "Yo'ldagi tangalar" 10111 hisobvaraqlar bo'yicha kreditga doir operatsiyalar to'g'riligi va asosli ekanligi tekshiriladi.

Davlat boji markalarining chiqimi audit qilish rahbari belgilaydigan hajmda tekshiriladi.

Chiqim uchun hisobdan chiqarilgan davlat boji markalarining umumiy summasi har bir kun uchun kiritim kassa orderlari va mahalliy byudjet hisobvaraqlaridagi tegishli yozuvlar bilan qiyoslanadi.

Agar markalar audit qilinayotgan muassasadan banklarning boshqa muassasalariga jo'natilgan bo'lsa, markalarni hisobdan chiqarish qanchalik asosli ekanligi dastlabki hujjatlar va markalar olingani to'g'risidagi tasdiqnomalar bo'yicha tekshiriladi.

Kamomadga bog'liq holda chiqim uchun hisobdan chiqarilgan markalar bo'yicha ularning qiymati balansdagi 19909-hisobvaraqa kiritilgani va aybdor shaxslardan undirib olingani aniqlanadi.

Bosh boshqarmalarini audit qilishda shikastlangan markalarni hisobdan chiqarish qanchalik asosli ekanligi ularni yo'q qilish to'g'risidagi dalolatnomalar bo'yicha tekshiriladi.

"Ko'zda tutilmagan holatlar" hisobvarag'i bo'yicha kiritim va chiqim operatsiyalarini amalga oshirish qanchalik asosli ekanligi balansdan tashqari orderlar, boyliklarning ro'yxatlari, ishonchnomalar, tegishli tashkilotlarning talabnomalari, boyliklarni jo'natishga doir pochta kvitansiyalari va boshqa hujjatlar bo'yicha tekshiriladi.

Inkassatsiya apparati kassasini audit qilish boshlanganidan oldingi kunda, hamda kassa audit qilinishi boshlangan kuni operatsiya soatlarida topshirgan tushum, shuningdek, temir yo'l bekatlari aloqa bo'limlari,

jang'arma kassalari va banklarning, savdo hamda transport korxonalari buzuridagi kassalaridan xaltalarda kelib tushgan pul oborot kassasiga to'liq kirim qilingani tekshiriladi. Masalan, kassa 15-yanvarda audit qilinayotgan bo'lsa, inkasso qilingan tushum qanchalik to'liq ko'rsatilgani 14-yanvardagi buxgalteriya hisobiga qarab tekshiriladi.

Bunday audit qilish inkassa qilingan tushumning dalolatnomalarda, inkassatorlardan naqd pulli xaltalar va qoplarni qabul qilib olish hisobini yuritish daftarlarida, yo'l qaydnomalari va ro'yxatlarda ko'rsatilgan turli qiymatdagi qoldiq summalarini hisoblash hamda ortiqcha pul va kamomad summalari hisobga olingan yakunlarni kassa va buxgalteriya daftarlaridagi tegishli ma'lumotlar bilan qiyoslash orqali amalga oshiriladi.

Shu bilan bir qatorda xaltalarning ilova qaydnomalarida ko'rsatilgan sanalar, summalar va raqamlar tashrif varaqchalari va qayd etish daftarlari (yo'l qaydnomalari va ro'yxatlar)dagi ma'lumotlarga qiyoslanadi.

Audit rahbarining ixtiyoriga ko'ra, xaltalarning ilova qaydnomalarida ko'rsatilgan sanalari, summalari va nomerlarini qiyoslash o'rniga inkassa qilingan tushumni ilova qaydnomalari va tashrif varaqchalari bo'yicha hisoblab chiqish mumkin hamda olingan yakunlar qayd etish daftarlari, kassa va buxgalteriya daftarlaridagi ma'lumotlar bilan qiyoslanadi.

Audit qilinayotgan bank muassasasiga kelib tushgan naqd pulning burchasi to'liq kirim qilinganini aniqlash maqsadida keyingi kundagi kassa hujjatlari bo'yicha sanalari tuzatilgan kirim hujjatlari bor yo'qligi, shuningdek, bankka kelib tushgan pul tushumi hisobga to'liq kiritilgani va shu summalar shu kungi kirim kassa hujjatlariga mos kelishi savdo hamda boshqa tashkilotlarning shaxsiy hisobvaraqlari bo'yicha tanlov asosida tekshiriladi.

Chiqim kassa operatsiyalari to'g'ri o'tkazilgani va buxgalteriya hisobida to'g'ri ko'rsatilgani tekshiriladi. Shu maqsadda chiqim kassa hujjatlarining summalari hisoblanadi va hisobot ma'lumotnomalarining umumiy summasi bilan qiyoslanadi, keyin esa kunlar bo'yicha yakunlar balansdagi "Kassadagi banknotlar" 10101 va "Kassadagi tangalar"

10103-hisobvaraqlarning yoki bankning operatsiya kassalaridagi 10101 va 10103-hisobvaraqlarining ombor daftari va sintetik varaqchada ko'rsatilgan debet hamda kredit oborotlariga taqqoslanadi, agar ular o'rtasida farq aniqlansa bunday tekshiruv mas'ul ijrochilar bo'yicha o'tkaziladi.

8-jadval

ATB "A" bank filialida 28.09.2018-yil holatiga chiqim kassa operatsiyalarining tahlili

| T/ R | Chiqim ko'rsatkichlari | simvol | 28.09.2018dagi chiqim | | 1.09.2018-28.09.2018 yilgacha chiqim | |
|---------|---|--------|-----------------------|------|--------------------------------------|------|
| | | | Ming so'mda | % da | Ming so'mda | % da |
| 1 | Ish haqiga beriladigan naqd pullar | 40 | 45858 | 6.4 | 11658312 | 71.6 |
| 2 | Neft mahsulotlari sotib olish uchun berilgan naqd pullar | 43 | 11850 | 1.7 | 358036 | 2.2 |
| 3 | Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotib olish uchun berilgan naqd pullar | 46 | - | - | | |
| 4 | Qishloq xo'jaligi faoliyati subyektlariga berilgan naqd pullar | 47 | - | - | | |
| 5 | Pensiya, nafaqa va sug'urta to'lovlari uchun berilgan naqd pullar | 50 | 8318 | 1.2 | 106039 | 0.7 |
| 6 | Bank kartalari bo'yicha berilgan naqd pullar | 52 | 51186 | 7.2 | 182589 | 1.1 |
| 7 | Boshqa maqsadlarga berilgan naqd pullar | 53 | 222666 | 31.2 | 1098820 | 6.7 |
| 8 | Mikrokreditlarga berilgan naqd pullar | 54 | 152080 | 19.9 | 152080 | 0.9 |
| 9 | Omonatlarni qaytarish uchun berilgan naqd pullar | 55 | 82159 | 11.5 | 1396315 | 8.6 |
| 10 | Pochta aloqasi korxonalariga berilgan pullar | 59 | 150000 | 21 | 1350000 | 8.3 |
| | Chiqim bo'yicha jami | 0 | 715107 | 100 | 16292191 | 100 |

Muayyan vaqt mobaynidagi barcha kassa chiqim hujjatlari (pul cheklari, chiqim kassa orderlari va boshqalar)ning summalari mijozlarning hisob-varaqlari, bank ichidagi va boshqa hisobvaraqlarning debet qismidagi yozuvlarga qiyoslanadi va ayni paytda hujjatlarning rasmiylashtirilishi hamda imzolar va muhrlar bankka berilgan namunalarga mos kelishi tekshiriladi.

ATB "A" bank filialida 2018-yil sentyabr oyida ixtiyoriy 10 ta bank mijoziga naqd pul berilishi grafigiga rioya qilinishi tahlili (kun)

| No | Mijoz nomi | Reja bo'yicha belgilangan sana | Haqiqatda berilgan sana | Kechikish (-), oldindan berilishi (+) kunlari |
|----|-------------------------|--------------------------------|-------------------------|---|
| 1 | № 188-maktab | 3 | 3 | - |
| 2 | Toshkent moliya kolleji | 5 | 7 | -2 |
| 3 | № 12-poliklinika | 4 | 3 | 1 |
| 4 | Baytal Invest | 22 | 25 | -3 |
| 5 | Farrux Nazir ChF | 19 | 21 | -2 |
| 6 | "Altur" OAJ | 15 | 13 | 2 |
| 7 | Vokzal-1 AYoQSh | 7 | 12 | -5 |
| 8 | Axmedov ChP | 17 | 18 | -1 |
| 9 | Pokiza Baraka XF | 26 | 15 | 12 |
| 10 | Sultonov F.R. ChP | 10 | 9 | 1 |

Emissiya-kassa intizomiga rioya etilishi, jumladan, muomalaga pul chiqarishning qonuniyligi tekshirilishi shart. Tekshiruv kassa orderlari va balansdan tashqari orderlar, emissiya telegrammalari bo'yicha o'tkaziladi. Telegrammalarning rasmiylashtirilishi kodlar, kulitlar 04028152-shakldagi qayd etish daftaridagi yozuvlar bo'yicha emissiya ruxsatnomalarining kelgan va foydalanilgan sanasi ular amalda kelgan va foydalanilgan sanaga mos kelishi, shuningdek, ulardan foydalanish muddatlariga rioya etilishi tekshiriladi.

Bunda ushbu kassaning hisobchi-kassirlari operatsiya kuni mobaynida va ish kuni oxirida operatsiya o'tkazish qoidalariga rioya qilishlariga e'tibor beriladi (audit qilish davridagi holatlar kuzatish orqali, bir necha kun avvalgi holatlar esa nazoratchi va hisobchi-kassirning nazorat qaydnomalaridan imzolari orqali ko'rib chiqiladiki, ular kassir qayta sanagan pul summasi nazorat qaydnomasidagi ma'lumotlarga mos kelishi qiyoslanganidan dalolat beradi);

• kassa mudiri (oborot operatsiya kassasining kassiri) ish kuni mobaynidagi kassa oborotlari to'g'risida 04028111-sintetik ma'lumotnomani tuzishi hamda shu ma'lumotnoma yakunlari kassa

oborotlarining summalariga umumiy buxgalteriya daftari va sintetik varaqcha bo'yicha qiyoslanishi;

- ish kuni oxirida bosh buxgalter (uning muovini) oborot (operatsiya) kassasidagi naqd pul va boshqa boyliklar hisobini yuritish daftarida ko'rsatilgan boyliklar qoldig'ini tegishli hisobvaraqlarning qoldig'iga doir ma'lumotlarga sintetik varaqlar bo'yicha qiyoslashi. Bundan tashqari bosh buxgalteriya (uning muovini) daftarchadagi ma'lumotlarni keyin kundalik balans tuzilgan zahoti u bilan uzil-kesil qiyoslashini aniqlash, hisobvaraqlardagi qoldiqlarni 04028120 va 04028141 shakldagi daftarlarda ketma-ket 5-10 kun mobaynida ayniqsatusatishga yo'l qo'yilgan sanalarda kundalik balanslar bilan qiyoslab borish;

Boyliklar but saqlanishi uchun javobgar bo'lgan mansabdor shaxslar (bank muassasasi rahbari, bosh buxgalteri va kassa mudiri) amaldagi naqd pul va boyliklarni ularning har bir harakatida (zaxira fondlariga pul o'tkazilishi yoki zaxira fondlaridan pul olinishida) buxgalteriya hisobidagi, zaxira fondlari hisobini yuritish daftaridagi ma'lumotlarga qiyoslab tekshirilishi, oborot kassadagi naqd pul va boshqa boyliklar hisobini yuritish daftaridagi ma'lumotlarni esa ish kuni tugab, boyliklarni qo'riqlash uchun topshirish paytida tekshirib borishi. Zaxira fondlariga qo'yiladigan pullarni boyliklar but saqlanishi uchun javobgar shaxslar bog'lamlar va dastalar bo'yicha sanashi, hamda orderda ko'rsatilgan summa bilan qiyoslashi kerak;

- pul va boyliklarni bank ichida, shu jumladan, operatsiya zali va boshqa xonalar orqali tashish. Boyliklar liftida tashilgan paytda eshiklar kodi ular binoning istalgan qavatida liftidan foydalanib turgan xodim tomonidagina ochilishini ta'minlashi kerak. Naqd pul, tushum solingan va ochilmagan inkassatsiya xaltalari hamda boshqa boyliklarning bir qismini qabul qilish-topshirish va tashishda summalar berilgani to'g'risidagi hujjatlar to'g'ri rasmiylashtirilgani (imzolar borligi) boyliklarning qolgan qismi saqlanishi qoidalariga rioya etilishi tekshiriladi;

- inkassatsiya qilish va tashishda pul va boyliklar but saqlanishini ta'minlash. Shu jumladan, banklarning savdo va transport korxonalari

huzuridagi kassalarida boyliklar qabul qilinishi-topshirilishi, ayirboshlash punktlarida esa boyliklar tashish uchun olib chiqilishi qoidalariga, pul tushumli inkassatorlik xaltalari kechki kassaga topshirilishi (bir qancha guruh boyliklar solingan xaltalarni bitta kassirga topshirish uchun bir vaqtda tayyorlashiga yo‘l qo‘yilayotgani), muassasalar o‘sha kunning o‘zida qabul qilmagan boyliklar but saqlanishi qoidalariga rioya qilinishi. Katta inspektor boyliklar yetkazib berilishiga tegishli hujjatlarni o‘z vaqtida taqdim etishi. Auditor bu ishlarni shaxsan kuzatish orqali, shuningdek, boyliklar uchun yozilgan hujjatlar asosida tekshiradi:

- kassirlar mijozlarga kassadan pul berish tartibiga rioya qilishlari;
- muassasaning bosh buxgalteri pochta xabarnomalari va 0428126-shakldagi qaydnoma daftar asosida kassa boyliklarni pochta muassasasidan o‘z vaqtida olishi va to‘liq holda kiringa kiritishini har kuni nazorat qilib borishi;

- muhrlar, plombirlar, kassirlarning nomi yozilgan to‘rtburchak muhrlar, kalitlar (shu jumladan, shikastlangan hamda vaqtincha zaxirada turgan kalitlar)ni saqlash qoidalariga rioya etilishi.

Audit qilish jarayonida quyidagi hujjatlar asosida tekshiriladi:

- pul va boyliklarni audit qilish qoidalariga rioya qilinishi va shu maqsad uchun tayinlangan shaxslarning tarkibi to‘g‘risida buyruqlar borligi. Audit o‘tkazishga jalb etilgan xodimlarning tayyorgarlik darajasiga va audit o‘tkazish sifatiga e‘tibor beriladi. Bunda audit dalolatnomalarida ko‘rsatilgan qoldiqlar 04028120 - shakldagi daftarda va balansda ko‘rsatilgan ma‘lumotlarga mos kelishi tekshiriladi. Zaxira fondlaridagi pul va boyliklarning nazorat tariqasida qayta sanalgan summasi ular olib chiqilishiga daxldor. 04028123-shakldagi daftar ma‘lumotlari bilan qiyoslanadi. Audit o‘tkazishga sarflangan vaqt 04028161-shakldagi post daftaridagi qaydlarga qarab aniqlanadi va audit o‘tkazish uchun amaldagi imkoniyat (kassani yopish va boyliklarni qo‘riqlash uchun topshirish vaqti, audit qilish rahbarining qo‘shimcha imzosi borligi) belgilanadi;

- kassadan bank xodimiga hisob berish sharti bilan topshirilgan 0402004- va 0402005-shakldagi kvitansiya daftarchalarining hisobini

yuritish, shu daftar blankalari ishlatilishini nazorat qilish holati. Hisobdor shaxslarda kvitansiya daftarchalari borligi va hisobdor shaxslar vaqtincha almashtirilganda kvitansiyalarning ishlatilmagan blankalarini boshqa shaxsga berish tartibiga rioya etilishi;

- kassa xodimlari va inkassatorlarni ishga qabul qilishni rasmiylashtirish. Ularga maxsus shakldagi guvoynomalar berish, guvoynomalar hisobini yuritish va saqlashning ayrim ko'rsatmalarda xabar qilingan tartibi;

- audit boshlanishidan oldin muhrlar va plombirlar amalda borligi va ular belgilangan namunadagi hisob yuritish daftariidagi ma'lumotlarga mos kelishi (bu daftarni O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki muassasasining rahbari yoki uning yozma farmoyishiga binoan, boyliklar bilan operatsiya o'tkazishga aloqador bo'lmagan xodim yuritadi), kassa xodimlariga birkiritib qo'yilgan plombirlar va muhrlardan to'g'ri foydalanilishi ularning izlarini pul va boyliklar nazorat tariqasida qayta sanalganidan so'ng pul biletlarining bog'lamlarida va tangali qoplarining tizimchalarida qolgan plombirlar va muhrlar iziga qiyoslash orqali tekshiriladi;

- inkassatsiya xaltalarining hisobi yuritilishi, ular inkassatsiya xodimlari yoki kassa mudiriga berilishi tartibi, farqlanuvchi yo'li bo'lgan xaltalarning saqlanishi, berilishi hamda qaytarilishi nazorat qilinishi, shuningdek, metall tangalarni saqlash va tashish uchun xaltalar hisobini yuritish.

Audit qilish jarayonida kassa operatsiyalari bo'limining boshlig'i pul va boyliklar but saqlanishi ta'minlanishi va saqlash qoidalariga rioya etilishi yuzasidan chorak mobaynida o'tkazadigan tekshiruvlarni rejalashtirishning holati va shu tekshiruvlarning sifati, shuningdek, har bir ish sohasidagi kassa ishlarining tashkil etilishi ko'rib chiqiladi.

Audit qilish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni tuzatish va mijozlarga hisob-kassa xizmati ko'rsatishni yaxshilash yuzasidan bank muassasalari ko'rayotgan chora-tadbirlarga alohida e'tibor qaratiladi.

Shuningdek, auditor mijozlar inkasso qilinayotgan pul tushumini qayta sanashiga doir ishlarning ahvolini tahlil etishi lozim.

Bank muassasasini audit qilish jarayonida unga qarashli alohida

kassalar-muayyan Xalq banki bo'limlarida tashkilotlarning tushumi topshiriladigan kassa punktlarida bo'lgan pul va boyliklar, shuningdek, shu kassalarda amalga oshirilayotgan operatsiyalarning qonuniyligi, bu operatsiyalar bankning buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirilishi, pul va boyliklarni saqlash tartibiga rioya qilinishi tekshiriladi.

3.2. Naqd pul va boyliklarni saqlash binolari va ularni qo'riqlanish auditi

Naqd pullar, boyliklar va ular bilan o'tkaziladigan operatsiyalarning qonuniyligini audit qilish bilan bir qatorda pul va boyliklar ish vaqtida, hamda ishdan tashqari vaqtda but saqlanishi ta'minlangani, pul omborlari seyflarni ochish, yopish, muhrlash, qo'riqlash uchun topshirish va qabul qilish qoidalariga rioya etilishi, ularning holati bank muassasalari binolaridagi kassa uzellarining loyihalaniishi va qurilishiga doir texnik talablarga muvofiq tekshiriladi.

Auditor tekshirilayotgan Bosh boshqarmaning rahbari yoki uning kassa ishiga rahbarlik qiluvchi muovini bilan hamkorlikda bank binosi eshiklarining mustahkamligini, ularda ichki tambalar, eshik-derazalar, yerto'la va boshqa xonalarda panjaralar borligi va mustahkamligini ko'zdan kechirib chiqadi. Birinchi qavatdagi xonalarning derazalari tunda ichki eshiklar yoki qalin darpardalar bilan yopilishini tekshiradi.

Pul ombori ko'zdan kechiriladi, zirhli eshiklar butunligi, yetarlicha jihozlangan javonlar borligi va zich yopilishi, ulardagi qulflar butunligi tekshiriladi. Bank muassasalarining kassa xonalaridagi eshik, derazalarning ichki tambalari, kassirlarning boyliklar saqlanadigan ish stollarida shaxsiy qulflar borligi va butunligi ham shu tartibda tekshiriladi. Kassirlar va inkassatorlar zarur bo'lgan pul omborlari bilan ta'minlangani, omborlar ularga qo'yiladigan talablarga mos kelishi tekshiruvdan o'tkaziladi.

Auditor bank binosi, kassa xonalari eshiklari, kassa kabinalarining derazalari, pul omborlari joylashgan javonlarning eshiklari qulf (tamba) bilan berkilishiga ishonch hosil qilishi kerak.

Aniqlangan kamchiliklar kassa xodimlari va boshqa xodimlarga boyliklar but saqlanishi uchun javobgar bo'lgan mansabdor shaxslardan

biri (bank muassasasi rahbari, bosh buxgalteri yoki ularning kassa ishiga rahbarlik qiluvchi o‘rinbosarlari, kassa mudiri)ning huzurida ko‘rsatib o‘tiladi.

Pul omborlarini qo‘riqlash xizmati xodimlariga topshirish va ulardan qabul qilish tartibi ham kuzatish orqali, hamda har bir ombor bo‘yicha post daftarlaridagi yozuvlar bo‘yicha tekshiriladi. Bunda boyliklar but saqlanishi uchun javobgar shaxslar pul omborlarini qabul qilib olishda eshiklar, qulflar, tizimcha, muhr izlari butunligini tekshirishi aniqlanadi.

Ish kunlari pul omborlari ko‘zdan kechirish va tekshirish uchun albatta ochilishi ta‘minlangani, shuningdek, davlat boyliklarini saqlash shart-sharoitlariga rioya qilinishi post daftaridagi yozuvlarga qarab tekshiriladi.

Xavf-xatardan darak berish vositalarining ahvoli bank muassasa rahbari yoki uning boyliklar but saqlanishi uchun javobgarlik zimmasiga yuklatilgan muovini bilan hamkorlikda tekshirib chiqiladi. Pul omborlari, deraza, eshiklar, pol va shiftlardagi lyuklar, boyliklar tashishda foydalaniladigan liftlar, kirish mumkin bo‘lgan boshqa joylar kodlashtirilgani yoki mustahkamlangani, kassa tarmog‘i (uzeli) xavf-xatar va yong‘indan darak beruvchi texnik vositalar bilan jihozlangani ko‘zdan kechiriladi.

Ayni paytda pul sanash kassasi mudiri, oborot, kechki, kirim, chiqim va boshqa xil operatsiya kassalari kassirlarining, shuningdek, muassasa rahbari, bosh buxgalter (yoki ularning zaxira fondlarini saqlash vazifalari ishonib topshirilgan muovinlari), kassa mudirining ish o‘rinlarida, postlarda hamda boyliklar bo‘lgan boshqa xonalarda tugmachali datchiklar borligi tekshiriladi.

Audit rahbarining talabiga ko‘ra, xavf-xatardan darak berish vositalarining to‘g‘ri ishlashi va “Xavf-xatar” degan darak berilishi bilanoq militsiya xodimlari o‘z vaqtida yetib kelishi tekshirib qurilishi lozim. Shuni nazarda tutish lozimki, banklarning viloyat (shahar) boshqarmalari boshliqlariga, kassa operatsiyalari bo‘limlari boshliqlariga, bank bo‘limlari boshqarmavchilariga ichki ishlar organi, idoraga qarashli bo‘lmagan qo‘riqlash xizmati bo‘limi (bo‘linmasi)

boshlig'i yoki ularning muovnlari huzurida qo'riqlanayotgan obyektida xavfli holat e'lon qilish huquqi beriladi.

Xavfli holat e'lon qilingan zahotiy oq bank binosiga kirib-chiqiladigan barcha yo'llar to'silishi, qo'riqlanayotgan obyektlar ustidan nazorat kuchaytirilishi, shuningdek, bank xodimlarining xushyorligi oshirilishi va boyliklar bilan olib boriladigan ishlar to'xtatilishi (pul va boyliklar seyflar hamda javonlarga joylanishi) lozim.

Xavfli holatni tekshirish yakunlanganidan keyin auditor bank muassasasi rahbari yoki uning muovini, audit qilish rahbari, zarurat tug'ilganda esa boshqa auditorlarning ishtirokida xavf-xatardan darak berish pultiga barcha datchiklardan birin-ketin xabar kelib turgani, bevosita militsiya organiga xabar berayotgan tugmachali datchiklar boshqa postlar, shu jumladan bank hovlisidagi post bilan bog'langanini tekshiradi.

Audit qilish jarayonida quyidagilar tekshirilishi shart:

- obyektlar qo'riqlanishi qanday tashkil etilgani, ruxsatnoma berish tartibining ahvoli, bank obyektini qo'riqlash bo'yicha o'rinlar amalda qanchalik to'ldirilgani, shuningdek, bu o'rinlardan belgilangan maqsadda foydalanilishi.

Bu masalalarni tekshirishda bank muassasasi bo'yicha quyidagi xizmat topshiriqlariga amal qilish lozim:

- bank muassasasini qo'riqlash postida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki IIV bilan hamkorlikda 1992-yil 15-aprelda chiqargan 163/25-sonli buyruqda 4-sonli ilovada ko'zda tutilgan zarur hujjatlar borligi, shuningdek, ruxsatnoma berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 1993-yil 23-iyuldagi 42-sonli xatiga muvofiq tashkil etilgani;

- bank muassasasida ruxsatnoma berish tartibining o'ziga xos jihatlari to'g'risidagi buyruq, har bir postda ushbu yo'riqnomaning 3.2-bandiga muvofiq auditorlar bank binosiga va kassa xonalariga hech bir to'siqsiz kirishi to'g'risidagi ko'rsatma ham bo'lgan zarur xizmat hujjatlari borligi;

- obyektida yoki postda muassasa, IIV va yong'indan saqlash organlari rahbari va boshqa mas'ul xodimlarining telefon raqamlari,

texnik aloqa vositalari, ishlatishga tayyor holdagi o't o'chirish vositalari borligi.

Ruxsatnoma berish tartibini tashkil etish masalalari doirasida quyidagilar tekshirilishi shart:

- doimiy, vaqtinchalik, bir martalik va moddiy tovarlar olish uchun beriladigan ruxsatnomalarning blankalari, shuningdek, joriy ehtiyojlar uchun bank xodimlariga maxsus ajratilgan blankalarning zaxirasi saqlanishi qoidalariga rioya etilishi (blankalar temir javonlarda saqlanishi, ularning hisobi belgilangan shakldagi daftarda yuritilishi, ularni olish (berish) tegishli xodimlar tomonidan imzolanib rasmiylashtirilishi kerak);

- ruxsatnomalar blankalarini muddatidan avval muhr va imzo bilan rasmiylashtirish hollari mavjudligi (blankalarni beruvchi bevosita ijrochilarda amalda bo'lgan blankalarni tekshirish orqali aniqlanadi);

- qo'riqlash xizmati xodimlarida doimiy, vaqtinchalik, bir martalik va moddiy tovarlar olish uchun beriladigan ruxsatnomalarni imzolash huquqiga ega bo'lgan shaxslarning imzo namunalari ko'rsatilgan ro'yxat borligi, lavozimidan bo'shagan yoki boshqa ishga o'tgan shaxslarning o'z kuchini yo'qotgan imzo namunalari o'z vaqtida bekor qilinishi (almashtirilishi);

- qo'riqlash xizmati xodimlari mijozlar qaytargan bir martalik ruxsatnomalarni, ularning nazorat talonlarini, shuningdek, moddiy tovarlar olish uchun berilgan ruxsatnomalarni o'z vaqtida (ertasidan kechiktirmay) topshirishi. Bu tekshiruvlar audit qilish mobaynida joriy ehtiyojlar uchun yoziladigan ruxsatnomalarning blankalari berilgan mansabdor shaxslarda bir necha bor o'tkaziladi;

- bank muassasalarining pul tushumini topshiruvchi savdo va boshqa xil tashkilotlar vakillariga doimiy ruxsatnomalar berish to'g'risidagi ko'rsatmalarga rioya etilishi (savdo va boshqa xil tashkilotlarning iltimosnomalari borligi tekshiriladi, keyin esa kechki kassaning ish paytida tekshiruv o'tkaziladi);

- bank xodimlariga va mijozlarga berilgan doimiy hamda vaqtinchalik ruxsatnomalar maxsus shakldagi, sahifalari raqamlangan, rahbarning imzosi va muhri bilan tasdiqlangan daftarda qayd etish tartibiga rioya qilinishi;

- doimiy ruxsatnomalarni yiliga kamida 2 marta (xodimlar bank binosiga kirishi uchun berilgan ruxsatnomalarda nazorat shifr belgilar borligiga qarab, audit rahbarining ixtiyoriga ko'ra tanlab) tekshiriladi, shuningdek, ruxsatnomalarning blankalari har yili 1 dekabrda holatga ko'ra ro'yxatga olinishi tekshiruvdan o'tkaziladi.

3.3. Kassa va kassa operatsiyalarini audit

Markaziy bank huzuridagi tashkilotlarning (Axborotlashtirish Bosh markazi, Bank kolleji va "Davlat belgisi" maxsus ishlab chiqarish birlashmasi fabrikalari) kassasi audit qilinyotganda obyektga kelgan zahoti, kassir va bosh (katta) buxgalterning ishtirokida zudlik bilan audit qilinadi. Amalda bo'lgan pul mablag'lari, pul hujjatlari va qat'iy hisobda turadigan blankalar buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan qiyoslanadi. Kassa naqd pul qoldiqlari, hamda kassada mavjud boshqa boyliklar auditi bevosita muassasaning bosh hisobchisi va kassiri ishtirokida amalga oshirilib, boshqa xodimlarning kassaga kirishi taqiqlanadi.

Xazinada audit o'tkazilayotgan paytda barcha kassa operatsiyalari to'xtatiladi va kassa qoldig'i hisoblanishidan avval kassirdan u barcha naqd pul va jamiki pul mablag'larini bergani to'g'risida tilxat olinadi. Agar kassirning so'nggi kassa hisobotida ko'rsatilmagan pul operatsiyalari bo'lsa, kassirning kassa hisoboti auditor va bosh buxgalter huzurida tuziladi.

Auditor tomonidan kassa naqd pul qoldiqlarini sanash bilan birga kassa chidamli seyf, yong'inga qarshi va ogoh moslamalari bilan jihozlanganligiga, kassa ish kuni oxirida muhrlanib qo'riqlash postiga topshirilishi nazoratdan o'tkazilib, bu haqida dalolatnomada qayd etish lozim.

Amaldagi pul mablag'lari, qimmatbaho qog'ozlar sinchiklab tekshirilganidan keyin alohida dalolatnoma tuziladi. Kassa va kassa operatsiyalarini audit qilishda auditor quyidagilarni aniqlashi zarur:

a) kassa operatsiyalari kirim-chiqim orderlari bilan rasmiylashtirilishi, o'z vaqtida va to'g'ri tuzilishi, pul qabul qilingan va berilgan sanalar, hamda shuning asosi ko'rsatilishi, chiqim hujjatlarida tegishli imzolari borligi;

b) bank hujjatlarini yoki ish haqiga doir hisob-kitoblar bilan bog'liq hujjatlarni imzolash huquqiga ega bo'lgan buxgalter yoki boshqa bir hisobchi xodim kassir vazifasini bajarmayotgani;

d) deponentdagi summalar bankka to'liq va o'z vaqtida topshirilishi, kassadagi naqd pul kundalik qoldig'ining bank belgilab bergan limitiga rioya qilinishi va ular but saqlanishi qanday ta'minlangani;

e) kassirning moddiy javobgarlik haqida kassa operatsiyalarini o'tkazish to'g'risidagi nizomga muvofiq belgilangan shaklda tuzilgan majburiyatnomasining mavjudligi;

f) kassa hujjatlari audit o'tkazilayotgan davr bo'yicha to'liq tekshirishdan o'tkaziladi. Kassa hujjatlarini tekshirilishi birdaniga kassa, hamda moliya tartiblariga rioya qilinishi tekshirilishi hisoblanadi.

10-jadval

ATB "A" bank filialida 28.09.2018-yil holatiga kirm kassa ko'rsatkichlarining tahlili

| T/R | Kirm ko'rsatkichlari | 28.09.2018-yildagi tushum | | 1.09.2018-28.09.2018-yilgacha tushum | |
|-----|--|---------------------------|------|--------------------------------------|------|
| | | Ming so'mda | % da | Ming so'mda | % da |
| 1 | Iste'mol tovarlari sotilishidan savdo tushumi | 19007 | 2.3 | 359486 | 3.2 |
| 2 | Temir yo'l va havo transporti tushumlari hamda mahalliy transport tushumlari | 34776 | 4.2 | 619022 | 5.5 |
| 3 | Turar joy haqi va kommunal xizmatlar uchun to'lovlardan tushumlar | 3194 | 0.4 | 49695 | 0.4 |
| 4 | Tomoshagohlardan tushgan tushumlar | 16158 | 2 | 299615 | 2.7 |
| 5 | Maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarini tushumlari | 770 | 0.1 | 13600 | 0.1 |
| 6 | Soliqlar, yig'imlar, boj va boshqa majburiy to'lovlardan tushgan tushumlar | 9168 | 0.1 | 203909 | 1.8 |
| 7 | Qishloq xo'jaligi faoliyati subyektlaridan tushgan tushumlar | 665 | 0.1 | 169640 | 1.5 |
| 8 | Qishloq xo'jaligi faoliyati subyektlaridan tushgan tushumlar | | | - | |
| 9 | Omonatlarga tushgan tushumlar | 58632 | 7.1 | 1215050 | 10.8 |

| | | | | | |
|----|---|---------------|------------|-----------------|------------|
| 10 | Pochta aloqasi korxonalaridan tushgan naqd pullar | 570 | 0.1 | 17100 | 0.2 |
| 11 | Bank kartalariga tushgan tushumlar | 4302 | 0.5 | 26664 | 0.2 |
| 12 | Mikrokreditlarning qaytarilishi | 570 | 0.1 | 11742 | 0.1 |
| 13 | Boshqa tushumlar | 677794 | 82.1 | 8299060 | 73.5 |
| | Kirim bo'yicha jami | 825606 | 100 | 11284583 | 100 |

Bankdan olingan mablag'lar kiringa to'liq, kiritilgani bank bergan ko'chirmalar va bankdan pul olish uchun yozib berilgan cheklar asosida tekshiriladi. 2-sonli jurnal-order bilan debet "Kassa" va kredit "Bank" summalariga mos kelishi kerak, agarda farq borligi aniqlansa, chek milki, kassa kirim orderi bank ko'chirmalari bilan solishtiriladi, shubha tug'ilgan taqdirda bevosita bank bo'limida ham tekshirilishi mumkin.

Pul mablag'lari belgilangan maqsadda, ish haqi to'lash, xizmat anhuri xarajatlari, ishga vaqtinchalik layoqatsizlik uchun to'lanadigan nafaqalarga ajratilgan xo'jalik xarajatlari va hokazolar uchun ishlatilgani tekshiriladi.

Bankdan olingan pul summalari ish haqi uchun to'g'ri ishlatilganini aniqlash maqsadida uni yozilgan ish haqi to'g'risida bankka taqdim etilgan ma'lumotnoma bilan qiyoslash kerak.

Barcha kirim-chiqim pul hujjatlarini hujjatlar asosida tekshirishda ularning ishonchliligini sinchiklab nazardan o'tkazish kerak. Hisob-kitob to'lov qaydnomalari yozilgan ish haqi summasi bo'yicha ham, uni berish bo'yicha ham tekshiriladi. Bunda hujjatlar, kassa chiqim orderlari, to'lov qaydnomalaridagi imzolar ishonchli ekaniga alohida e'tibor beriladi, "berilsin" degan holatda chiqarilgan yakunlarning to'g'riligini yalpi tekshirish shular asosida olib boriladi, undan tashqari kassa kirim va chiqim hujjatlarini qayd qilish kitobi mavjudligi hamda kim tomonidan qayd qilib borilayotganligi tekshiriladi.

Imzolarning ishonchliligi (haqiqiyli) aynan shu shaxslarning imzolarini boshqa hujjatlar, qaydnomalar, hisobvaraqlardagi imzolariga qiyoslash orqali aniqlanadi.

To'langan hujjatlar yoki xususiy shaxslar bajargan ishlar uchun to'ldirilgan naryadlar ayniqsa sinchiklab tekshirilishi kerak. Bu hisobvaraqlarga qo'yiladigan oddiy talablar, shaxslarning familiyasi,

ismi, otasining ismi, manzili (pasportiga doir to'liq ma'lumotlar) ko'rsatilishidan tashqari shu ishlar bajarilgani to'g'risida tasdiqnoma bo'lishi kerak.

Alohida olingan har bir holda bajargan ishlarning asosli ekanligi, zarurligi, qonuniyligi va maqsadga muvofiqligi aniq belgilanadi.

Kassir to'lov qaydnomalarida summani olmagan shaxslarning familiyasi ro'parasiga "deponentga o'tkazildi" deb qayd etgani, shuningdek, amalda to'langan va qaydnomalar bo'yicha umuman to'lanmagan summalar to'g'risida qaydnomalarda qayd etgani, deponentdagi summalar ro'yxatini tuzgani va kassa hisobotini topshirishda to'lov hujjatlariga ilova qilgani auditdan o'tkaziladi.

Quyidagi keltirilgan kassa kitoblaridagi aylanma va qoldiq mablag'lar tegishli hisobotdagi raqamlar bilan mos kelishi o'rganiladi:

1. №120-shakldagi kitobga milliy valyutadagi kirim va chiqimning umumiy summasini hamda bank ish kuni oxiriga chiqarilgan aylanma kassa qoldig'i yozilgan bo'lishi lozim.

2. №121-shakldagi kitobda naqd xorijiy valyuta va to'lov hujjatlari qoldig'i qayd qilingan bo'lishi lozim.

3. №121a-shakldagi kitobda VASh orqali sotib olingan naqd chet el valyutasining kirim-chiqim va qoldiq summolari qayd qilinishi lozim.

4. №123-shakldagi kitobda pul omboridan nazoratda qayta sanash uchun olib chiqilgan hamda pul omboriga qaytarilgan naqd pul va boshqa qimmatliklar qayd qilib borilishi lozim.

5. №141-shakldagi kitobda naqd pullar zaxirasidagi banknot va tangalar hisobi yuritilishi lozim.

6. №141a-shakldagi kitobda Markaziy bankka topshiriladigan banknot va tangalar hisobi yuritilishi lozim.

7. №142-shakldagi kitobda jismoniy shaxslardan naqd chet el valyutasini sotib olish uchun bankka berilgan madad pullarining hisobi qayd qilib borilishi lozim.

8. №155-shakldagi kitobda kassa mudiri, kirim, chiqim va kechki kassa kassiri tomonidan qabul qilingan yoki topshirilgan naqd pul va boshqa qimmatliklar qayd etilgan bo'lishi lozim.

9. №161-shakldagi kitobda pul omborining ochilishi, yopilishi hamda qo‘riqlash xizmati xodimiga topshirilishi va undan qabul qilib olinishi qayd qilib kelingan bo‘lishi lozim.

10. №171-shakldagi kitobda pul omboridagi qat‘iy hisobda turuvchi blanklar hamda saqlanayotgan qimmatliklar qayd qilingan bo‘lishi lozim.

Yuqoridagi moddiy qimmatliklar va naqd pul mablag‘larini qayd qilish kitoblaridagi ma‘lumotlarning to‘g‘ri kiritilganligini aniqlash uchun qayd qilish kunidagi balans ma‘lumotlari va pul saqlash omboridagi moddiy qimmatliklar qoldiqlari bilan solishtiriladi. Auditor undan tashqari, tekshirilayotgan muassasa ma‘muriyati buyrug‘i bilan komissiya hay‘ati tasdiqlanganligini va ushbu komissiya tomonidan oy yoki chorak oxirida xazina qoldiqlarini to‘satdan tekshirishdan o‘tkazgan yoki o‘tkazmaganligini tekshirishi lozim.

Mavzu bo‘yicha tayanch so‘z va atamalar

Kassa kirim orderlari, kassa chiqim orderlari, kassa kitobi, kassir hisoboti, to‘lov talabnomasi va topshiriqnomasi, bank ko‘chirmasi, inkasso talabnomasi, kartoteka, akkreditivlar, chek daftarchalari, chet el valyutasi, valyuta kurslaridan farqlar.

O‘z bilimini tekshirish bo‘yicha savollar

1. Naqd pullarni audit qilish.
2. Bank auditi deganda nimani tushunasiz?
3. Naqd pullarni audit qilishda kassadagi pullarni sanalish tartibi.
4. Naqd pul va boyliklarni saqlashda binolarga qo‘yiladigan talablar.
5. Naqd pullarni qo‘riqlash tartibi.
6. Kassalarni tekshirish tartibi.
7. Kassa va kassa operatsiyalarini audit qilishda auditor oldiga qo‘yiladigan vazifalar.

4-bob. HISOB-KITOB OPERATSIYALARI AUDITI

4.1. Tijorat banklarida buxgalteriya hisobi auditi

4.2. Ayrim hisob-kitob operatsiyalari auditi

4.3. Pul muomalalariga doir ishlar auditi

4.1. Tijorat banklarida buxgalteriya hisobi auditi

Birinchi navbatda oxirgi sanaga buxgalteriya kunlik balansi talab qilinib, kunlik balans zaruriy tarzda to'liq tahlil qilib chiqiladi. Shundan so'ng sintetik (yig'ma) va analitik (yoyma) hisoblarning bir-biriga mosligi ularni solishtirish yo'li bilai birma-bir tekshiriladi. Bundan tashqari bo'limda mijozlarga hisobvaraqlar va subhisobvaraqlar ochish tartibi, ularning yuridik hujjatlarining to'g'ri rasmiylashtirilganligi va to'liqligi, ochilgan va yopilgan hisobvaraqlarning 61-shakl kitobda o'z vaqtida va to'g'ri ro'yxatga olinishi va qayd qilinishi, mijozlar bilan xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnomalarning to'liq va qonuniy tuzilganligi, mijozlardan ko'rsatilgan xizmatlar uchun xizmat haqlarining to'g'ri va to'liq o'rnatilganligi va hisoblanishi hamda undirilishi, kunlik hujjatlarining rasmiylashtirilishi, qabul qilinishi va o'tkazilishi, bo'limda so'nggi nazoratning yo'lga qo'yilganligi tegishli yo'riqnomalarga asosan ko'riladi.

Buxgalteriya ishlarini tekshirish Markaziy bankning 1831, 3028, 2465-sonli yo'riqnomalariga va "O'zbekiston Respublikasi Tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasiga"ga, ularga kiritilgan qo'shimchalar va o'zgarishlarga hamda Markaziy bankning boshqa meyo'riy hujjatlari asosida amalga oshiriladi. Tekshiruv buxgalteriya bo'limida ishlarning qay darajada yo'lga qo'yilganligini ko'rishdan boshlanadi. Bunda bo'lim ish rejasining va ish tarkibining mavjudligi, xodimlar o'rtasida vazifalarning to'g'ri taqsimlanishi, ularning zaruriy qo'llanmalar bilai ta'minlanganligi, xodimlarning o'z ishlariga oid qo'llanmalarni qay daraja bilishlari darajasi o'rganiladi.

Audit davrida analitik hisob qoldiqlari bilan sintetik hisob qoldiqlari audit rahbari belgilaydigan kunlarning biridagi barcha balans hisobvaraqlari bo'yicha solishtiriladi.

Ijhozlar varaqchalari va daftarlari analitik hisob uchun asos bo'ladigan bankning ichki hisobvaraqlar bo'yicha analitik hisobni sintetik hisob bilan qiyoslash shu varaqchalarda ko'rsatilgan summalar bilan daftarlardagi ochiq summalarni hisoblash orqali amalga oshiriladi. Operatsiya daftarlari yoki sintetik shaxsiy hisobvaraqlar yuritiladigan balans hisobvaraqlari bo'yicha hisobvaraqa yozilgan har bir ochiq summa hisoblanadi, yakuni esa shu hisobvaraqa va balansda chiqarilgan qoldiq bilan eslanadi.

Analitik hisob bilan sintetik hisob qiyoslanganidan keyin kundalik balansning aktiv va passiv qismlari bo'yicha qoldiq summalar hisoblanadi, hamda olingan yakuniy natija balansda chiqarilgan umumiy yakuniy natija bilan taqqoslanadi.

Analitik hisob bilan sintetik hisob qiyoslanganida quyidagilar audit qilinadi:

- * mijozlarning amaldagi hisobvaraqlari orasida qalbaki hisobvaraqlar bor-yo'qligi. Buning uchun har bir shaxsiy hisobvaraqlarning tegishli ma'lumotlari imzolar namunalarining varaqchasi, ochilgan hisobvaraqlarni qayd etish daftari va tekshiruv qaydnomalari bilan eslanadi. Maxsus ruxsatnomalar asosida maxfiy tutiladigan hisobvaraqlarda esa tekshiruv ana shu ruxsatnomalar bo'yicha o'tkaziladi;

- amaldagi ssuda hisobvaraqlari va boshqa aktiv hisobvaraqlar orasida qalbaki hisobvaraqlar bor-yo'qligi. Shu maqsadda muddatli va muddati o'tib ketgan ssuda hisobvaraqlari bo'yicha shaxsiy hisobvaraqlarning qoldiqlari xo'jalik yurituvchi subyektlarning balans hisobotlari, majburiyatnomalar va ssuda bo'yicha qarzdorlik asosli ravishda vujudga kelganini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar bilan eslanadi. Agar biron-bir ssuda hisobvarag'i bo'yicha shunday tekshiruvni o'tkazish imkoni topilmasa, audit jarayonida mijozga ana shu hisobvaraqa bo'yicha tegishli tasdiqнома talab qilinadi. Boshqa aktiv hisobvaraqlar, shu jumladan, kapital qo'yilmalarni, respublika byudjeti chiqimlarini

moliyalash hisobvaraqlari bo'yicha ular ochilishining qonuniyligi, hamda ularda turgan debet qoldiqlari korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning ma'lumotlariga mos kelishi, zarur hollarda esa debet qoldig'i vujudga kelishining to'g'riligi ushbu yo'riqnomaning tegishli bo'limlarida ko'rsatilgan tartibda audit qilinadi.

Zarurat tug'ilganda (audit rahbarining ixtiyoriga ko'ra) analitik hisob bilan sintetik hisob qiyoslangan kuni bankda bo'lgan hisobvaraqlardagi qoldiqlar korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning ma'lumotlari bilan, shuningdek, yakka tartibdagi qarzdorlardan ularning hisobvaraqlaridagi qoldiqlarni ko'rsatuvchi tasdiqnomalar olish orqali yalpisiga yoki tanlab tekshiriladi. Bunda 23404-balans hisobvarag'i bo'yicha kreditni tasarruf etuvchilar kredit qoldiqlari va kassa chiqimlarining summalari to'g'risida tasdiqнома taqdim etadilar. Qoldiqlar to'g'risida mijozlardan olingan tasdiqnomalar shaxsiy hisobvaraqlar bilan tasdiqnomalardagi imzolar va muhr izlari esa bankka berilgan imzolar va muhrlar namunalari bilan qiyoslanadi.

Analitik hisob sintetik hisob bilan qiyoslanganidan keyin davlat, kooperativ, jamoa korxonalari, tashkilotlari, muassasalari, ularning vakolatli tuzilmalariga tegishli hisobvaraqlar yuridik jihatdan to'g'ri rasmiylashtirilgani audit davrida ochilgan barcha hisobvaraqlar bo'yicha yalpisiga, qolganlari bo'yicha esa - audit rahbari belgilaydigan hajmda audit qilinadi.

Buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimini baholashning o'z ahamiyatiga ega bo'lmagan vazifalaridan biri mumkin bo'lgan xatolarni qidirishda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham xatolarni qidirish uchun ularning mavjudligi ehtimoli yuqoriligini ko'rsatuvchi belgilarni ko'rib chiqish yetarlidir.

Bunday xatolarga:

- oldingi davrlarda xatolarning mavjudligi;
- schyotlar bo'yicha odatiy bo'lmagan qoldiqlar, hisobot davrida schyotlardagi xarakterli bo'lmagan o'zgarishlar;
- tarmoq va umumiyqisodiy tavakkalchiliklar;
- boshqaruv faoliyatidagi tavakkalchiliklar;
- hisobni tashkil etishda xatolarning mavjudligi;

- noto'g'ri hisob uslublarining qo'llanilishi;
- aktivlar va majburiyatlarning oshirilgan qiymati;
- chet el valyutasida aks ettirilgan operatsiyalar;
- tizimli bo'lmagan (takrorlanmaydigan) hisob yozuvlari;
- tuzatish yozuvlari;
- yuqori riskli operatsiyalar;
- qalloblik misol bo'la oladi.

Ushbu amal bo'yicha audit jarayonida aniqlangan xatolar quyidagilarga ta'sir ko'rsatishi mumkin:

- mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) tannarxini to'g'ri aniqlashga;
- moliyaviy natijalarni to'g'ri aniqlashga;
- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'g'ri hisoblash va to'lashga. Natijada bularning barchasi moliyaviy hisobotning haqqoniyligiga ta'sir qiladi.

Aniqlangan xatolar va qonunbuzarliklarni tahlil qilish kerak hamda ularning moliyaviy hisobot haqqoniyligiga ta'sirining muhimligini aniqlash lozim.

Xatolarning muhimligi miqdorli va sifatli baholanadi. Miqdorli baholash uchun auditor rejalashtirish bosqichida o'rnatilgan muhimlik darajasi bilan aniqlangan xatolarni solishtiradi. Sifatli baholashda esa auditor o'zining amaliy tajribasi va bilimlariga ko'ra ish yuritadi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, o'tgan yillarda xatolarning mavjudligi auditor ularga yana duch kelishidan dalolat beradi, bu amaliyotdan ham yaxshi ma'lum. Bunday xatolarning mavjudligini xo'jalik yurituvchi subyekt auditor tavsiya qilgan tuzatishlarni hisobga qanday kiritganligini tekshirib aniqlash oson.

Noodatiy moddalar, ularning o'zgarishi, schyotlar bo'yicha xarakterli bo'lmagan qoldiqlar auditor tomonidan moliyaviy hisobotlarni tahlil qilinganida aniqlanadi.

Rejalashtirish bosqichida tarmoq va umumiyqtisodiy tавakkulchilikni ko'rib chiqib, auditor ular buxgalteriya hisobida ma'lumotlarni noto'g'ri aks ettirilishiga olib kelishi mumkinligi borasida qaror qabul qiladi. Masalan, xo'jalik yurituvchi subyektning oliy boshqaruv organining undirilishi mumkin bo'lmagan debitorlik qarzdorliklarini zararga hisobdan chiqarish to'g'risida qaror qabul qilishi natijasida, debitorlik qarzlarning talaygina qisqarishiga olib kelishi

lozim. Agar bu yuz bermasa, debitorlik qarzdorligini baholashda xatoning mavjudlik ehtimoli yuqoridir.

Ochilishi amaldagi qoidalarda ko'zda tutilmagan biron-bir hisobvaraqlar borligi aniqlanganda yoki ba'zi hisobvaraqlar bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyektning tashkil qilish to'g'risidagi hujjat yoki pul hujjatlarini imzolash huquqiga ega bo'lgan shaxslarning imzo namunalari ko'rsatilgan va zarur tarzda tasdiqlangan varaqlar bo'lmagan hollarda auditor hisobvaraqlar ochilishi qonuniy ekanligiga ishonch hosil qilinishi, bank muassasasi rahbari zimmasiga etishmayotgan hujjatlarni talab qilib olish vazifasini yuklashi lozim. Bu hujjatlar taqdim etilmagan taqdirda audit rahbari shu hisobvaraqlar bo'yicha chiqim operatsiyalari o'tkazishni to'xtatish to'g'risida ko'rsatma berishi va zarur hollarda xo'jalik organining yuqori tashkiloti oldiga amalga oshirilgan operatsiyalarni hujjatlar asosida audit qilish to'g'risidagi masalani qo'yishi mumkin.

Ochilgan hisobvaraqlarni qayd etish daftari va tekshiruv qaydnomalarining ma'lumotlari bo'yicha audit davrida yopilgan (shu jumladan, xizmat ko'rsatish uchun boshqa banklarga o'tkazilgan) barcha hisobvaraqlar aniqlanadi va hisobvaraqlarni yopish, ulardagi qoldiq mablag'larni – belgilangan joyga o'tkazish, mijozlar foydalanilmagan pul cheklarini milklari bilan birga to'liq qaytarishi qoidalariga rioya qilinishi (mijozning hisobvaraqlari bo'yicha o'tkazilgan so'nggi pul chekining raqami va mijozlarga qaytarilgan cheklarning raqamlari asosida) audit qilinadi.

Audit rahbarining ko'rsatmasiga muvofiq mijozlar joylashgan yerda muddatsiz depozit hisobvaraqlari, byudjet, ssuda, maxsus qarz hisobvaraqlari va boshqa hisobvaraqlar bo'yicha bankdagi shaxsiy hisobvaraqlar yozuvlari ulardan olingan ko'chirmalarga asoslanadi. Yozuvlarni qiyoslash bilan bir vaqtda quyidagilar ham audit qilinadi: bankdan cheklar bo'yicha olingan pul to'liq kirimi qilingani bank kassasiga badal tariqasida topshirilayotgan pul summasi va kvitansiya sanasi shaxsiy hisobvaraqlardagi ma'lumotlarga mos kelishi, pul saqlash uchun seyflar borligi kassa daftari to'g'ri yuritilishi va rasmiylashtirilgani.

Shaxsiy hisobvaraqlardagi yozuvlarni ulardan olingan ko'chirmalarga qiyoslash uchun tashkilotga borishdan oldin shaxsiy hisobvaraqlarda tekshirilayotgan davrda tashkilotlar yozib bergan va

ishlatilgan barcha pul cheklari ko'rsatilganini tekshirish maqsadida qiymati to'langan cheklar va qabul qilingan summalar to'g'risidagi ma'lumotlarni hisoblab chiqilgan va 10101, 10103 hisobvaraqlarning oboroti bilan qiyoslangan kassa hujjatlari bo'yicha bevosita tanlab olinishi kerak. Shuningdek, imzo namunalari bo'lgan varaqchadan ularga berilgan pul chek daftarchalarining raqamlarini tanlab olish ham zarur.

Bunda nafaqat audit qilinyotgan bank muassasasi bilan bitta ma'muriy hududda joylashgan muassasalar, balki boshqa yerlarda joylashgan va shu bank xizmat ko'rsatadigan mijozlar ham audit rahbari belgilaydigan miqdorda qamrab olinadi.

Balansdagi va ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlari bo'yicha amalga oshirilayotgan operatsiyalarni hujjatlar asosida audit qilish analitik hisobga doir hisobvaraqlar bo'yicha oborotlarni hujjatlar asosida auditdan oldin yoki keyin albatta hisoblab chiqilgan tarzda va ularning yakunlarini idora tekshirgan oylik oborot qaydnomalari bilan qiyoslash orqali amalga oshiriladi.

Hisoblashni bank muassasasi operatori auditorning kuzatuvini ostida hisoblash mashinasida amalga oshirishi mumkin. Hisoblashda bank muassasasi oldindan tuzib qo'ygan hisoblash tasmalaridan foydalanish ta'qiqlanadi.

Agar analitik hisobni sintetik hisob bilan qiyoslash paytida qoldiqlar bo'yicha yoki oborotlar summasini hisoblashda farq aniqlansa, auditor uning sabablarini topishi va bartaraf etish choralari ko'rishi shart.

4.2. Ayrim hisob-kitob operatsiyalarini auditi

Ayrim hisob-kitob operatsiyalarini audit qilish hujjatlarning asl nusxalari asosida olib boriladi. Audit jarayonida quyidagilarni tekshirish zarur:

a) mijozlarning balans hisobvaraqlarida ochilgan hamda audit davrida harakatdagi va yopilgan hisobvaraqlar bo'yicha ularga mablag' o'tkazilishining qonuniyligi, vakolatli muassasalarning hisobvaraqlaridan mablag'larni naqd pulsiz tartibda o'tkazish va naqd pul berish qoidalariga rioya etilishi.

Vakolatli muassasalarning operatsiyalari audit qilinayotgan hisobvaraqlari analitik hisobni sintetik hisobga qiyoslash orqali, ochilgan hisobvaraqlarni qayd etish daftari va imzolar namunalari ko'rsatilgan varaqchalarga qarab aniqlanadi;

b) o'z manzilidan boshqa joyda xo'jalik hisobida bo'lmagan ayrim korxonalari, omborlari, filiallari va hokazolarga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining ayrim ko'rsatmalarida belgilangan hollarda ba'zi tashkilotlar uchun tushumni o'tkazish maqsadida ochilgan ikkilamchi hisobvaraqlari bo'yicha ularning ochilishi va mablag' o'tkazilishi qonuniyligi, turib qolgan mablag'lar yuqori tashkilotlarning hisobvaraqlariga o'z vaqtida va to'g'ri o'tkazilishi.

Audit qilinayotgan bank muassasasining ilova hisobvaraqlari borligi ochilgan hisobvaraqlarni qayd etish daftariga qarab va analitik hisobni sintetik hisob bilan qiyoslash orqali aniqlanadi;

d) Xalq bankining vakillik hisobvarag'i bo'yicha kredit operatsiyalari jismoniy shaxslarning omonatlariga, muassasalar va tashkilotlarning joriy hisobvaraqlariga noqonuniy o'tkazilgan summalarni aniqlash maqsadida audit qilinadi.

Ayni vaqtda Xalq bankida bank xodimlarining imzo namunalari borligi va bank muassasasidan xalq bankining hisobvarag'iga summa o'tkazilgani bo'yicha kelgan hujjatlar to'g'ri rasmiylashtirilgani audit qilinadi.

Shuningdek, bank muassasalarida hisobvarag'i bo'lgan barcha Xalq banki bo'limlariga mablag' o'tkazish uchun hujjatlarning birinchi nusxalari asosida qaydnoma tuzilishiga ham yo'l qo'yiladi.

Vakillik hisobvaraqa boshqa bank muassasalaridan ayrim, omonatchilar yoki muassasalar va tashkilotlar nomiga qonuniy tarzda o'tkazilgani shubha uyg'otadigan summalar kelib tushganida audit o'tkazish rahbari tegishli bank muassasadan shunga doir tasdiqnoma olishi kerak.

Auditor tuman Xalq bankiga borganida Xalq bank belgilangan maqsadli mablag' pensionerlar va omonatchilarning hisobvarag'iga bank muassasalari o'tkazgan to'lovlar summasi o'z vaqtida o'tkazilganini audit qilinadi;

e) 21500, 21700 va 21900-bosh kitoblardagi balans hisobvaraqlari bo'yicha foizlar hisoblanishi va ularning summasi 51700, 51800 va 51900-bosh kitobdagi balans hisobvaraqlarida aks ettirilishi.

Operatsiyalarni audit qilish ushbu yo'riqnomaning boshqa bo'limlarida ko'zda tutilmagan muddatsiz depozit hisobvaraqlari, ssuda va boshqa hisobvaraqlardan mablag' berish va o'tkazishning qonuniyligi hujjatlar va shaxsiy hisobvaraqlar bo'yicha audit rahbari belgilaydigan hajmda tekshirilishi mumkin. Bunda moddiy tovarlar olishga doir orderlar, ayniqsa shu mijozga xizmat ko'rsatmaydigan mansabdor shaxslar imzolagan operatsiyalarga alohida e'tibor qaratish va ayni vaqtda hujjatlar to'g'ri rasmiylashtirilganini tekshirish kerak.

Audit qilinadigan hujjatlar oldindan yoki navbati bilan hisoblanishi, hamda olingan natijalar balans bilan qiyoslanishi zarur.

Buxgalteriya daftari tutiladigan, hujjatlar debetlangan balans hisobvaraqlari raqamlari o'sib boruvchi tartibda tikiladigan bank muassasalarida audit qilinadigan hujjatlar va kassa hujjatlari shu daftardagi yozuvlarga qiyoslanadi.

Hisob yuritishni tekshirish uchun olingan hujjatlar summasi hujjatlarning har bir bog'lami bo'yicha muassasa nomi, sana, ro'yxatlarning raqami va bog'lami, berilgan guruhdagi hujjatlarning narxi, hisoblash va qiyoslashni amalga oshirgan operatorlarning imzolari tushirilgan hisoblash tasmalaridagi summalar bilan qiyoslanadi va shu kundagi barcha tasmalarning yakunlari o'zaro qo'shiladi va olingan ma'lumotlar balans bilan taqqoslanadi.

Hujjatlarni tekshirishning ko'rsatib o'tilgan usullarini qo'llashda audit qilinadigan hujjatlarni alohida jarayonda hisoblashga zarurat qolmaydi.

Ayni vaqtda auditor hujjatlar shakllanishi va bog'lam nuqovalarining yuz tomoni rasmiylashtirilishi to'g'riligini ham tekshiradi.

Filiallararo oborotlarning hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni audit qilish.

Banklar o'rtasidagi hisob-kitoblarni audit qilishda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining buxgalteriya hisobvaraqlar rejasidagi

17305, 23206-“Aniqlanish jarayonidagi tranzaksiyalar”, 17400 va 27400 bosh kitoblardagi hisobvaraqlarini tekshirish orqali amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi banklari o‘rtasida hisob-kitoblarni olib borilishini audit qilish O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tegishli me‘yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Inkasso operatsiyalarini audit qilish.

Inkasso operatsiyalarini audit qilish har bir hisobvaraqdagi kartotekada bo‘lgan hujjatlarni hisoblashdan va hisob natijalarini analitik hisobvaraqlari va balans ma‘lumotlariga qiyoslashdan boshlanadi.

Hujjatlarni audit qilish rahbari belgilagan mijozlar bo‘yicha tanlab hisoblashi mumkin.

Ikki o‘rtada farq chiqqanida uning sabablari kunlar va oylar bo‘yicha kirim-chiqimga doir operatsiyalarni, shuningdek, aniqlangan farqlarni tartibga solish to‘g‘riligini tekshirish orqali aniqlanadi.

90965 - “Inkassoga olingan (ichki) mahalliy veksellar” hisobvaraqa bo‘yicha quyidagilar audit qilinadi:

a) hujjatlar kartotekaga kirim qilinishining asosli ekanligi, ular orasida keyinchalik akseptlangan yoki akseptlanmagan holda haqini to‘lash, shuningdek, balansdan tashqari 90909, 90930, 90951, 90963 va 90979-hisobvaraqlarda hisobga olinishi kerak bo‘lgan hujjatlar bor yoki yo‘qligi;

b) akseptlashdan oldin yoki keyin voz kechish hollarini qabul qilish va hisobini yuritish qoidalariga amal qilinishi.

“Muddatida to‘lanmagan hisob-kitob hujjatlari” nomli 90963-hisobvarag‘i bo‘yicha quyidagilar audit qilinadi:

a) to‘lov talabnomasining orqa tomoniga “Talabnoma 2-kartotekaga qo‘yilgani to‘g‘risida ta‘minotchining bankiga xabar berildi (sana)” deb yozilgan to‘rtburchak muhr urilgani;

b) hujjatlar to‘lovlar navbatiga qarab joylashtirilgani;

d) to‘lov hujjatlarini qaytarib olish uchun bank muassasasining kredit xodimlari va rahbariyati ruxsat belgisi qo‘ygan tegishli hujjatlar borligi.

To'lovchilarga xizmat ko'rsatuvchi bank muassasalarida keluvchi hisob-kitob hujjatlari uchun haq, qanchalik to'g'ri to'lanayotgani audit qilinadi. Jumladan, quyidagilar aniqlanadi:

a) hujjatlar bank muassasasining ekspeditsiyalaridan operatsiya bo'limiga o'z vaqtida tushishi;

b) to'lovlar navbatiga rioya qilinishi;

d) o'z vaqtida to'lanmagan to'lov hujjatlari bo'yicha penyalar o'z vaqtida hisoblangani va undirib olingani;

e) bankning 1834-yo'riqnomasiga 1-ilovaning 14-bandida bayon etilgan hisob-kitoblar bo'yicha bank operatsiyalarini amalga oshirish qoidalariga muvofiq inkasso qilingan to'lovlar FO hisobvaraqlari orqali o'z vaqtida o'tkazilgani.

f) banklarning vakillik hisobvaraqlarini audit qilish.

Banklar o'rtasidagi barcha hisob-kitoblar banklarning vakillik hisobvaraqlari asosida amalga oshiriladi. Vakillik hisobvaraqlari hisob Markazida yuritiladi.

Hisob Markazida Vakillik hisobvaraqlarini tekshirishda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "O'zbekiston Respublikasi banklari o'rtasida hisob-kitoblarni elektron to'lov tizimi haqida" yo'riqnomasining 3,6 bandi bo'yicha har kuni bank ish kuni boshlanishidan oldin vakillik hisobvaraqlarini solishtirib borishni, o'tayotgan to'lovlarning qonuniyligi audit qilinadi.

Banklarning vakillik hisobvaraqlarini audit qilishda vakillik hisobvaraqlari orqali amalga oshiriladigan to'lovlar vakillik hisobvarag'idan mablag' doirasida o'tkazilganligiga, vakillik hisobvaraqlar bo'yicha debet qoldiqda pul qo'yilmaganligi, hisobvaraqsining yuritilayotganligiga alohida e'tibor beriladi.

g) Davlat byudjet" hisobvaraqlari bo'yicha amalga oshiriladigan operatsiyalarni audit qilish.

To'lov hujjatlari to'liq rasmiylashtirilgani hamda korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning hisobvaraqlaridan mablag'lar, shu jumladan ishchi va xizmatchilarning ish haqidan ushlab qolingani soliqlar, pensiya fondi va bandlik fondiga to'langan badallar byudjet daromadi uchun o'z vaqtida o'tkazilgani aniqlanadi.

“Respublika byudjeti qaramog‘idagi tashkilotlarning mablag‘lari” nomli 23404 hamda Mahalliy byudjet tashkilotlarining hisobvaraqlar bo‘yicha tekshirishida quyidagilarga e‘tibor beriladi:

a) hisobvaraqlar ochilishining qonuniyligi va shu hisobvaraqlarni tasarruf etishga berilgan vakolat to‘g‘ri rasmiylashtirilgani; maxsus mablag‘larning joriy hisobvaraqlari bo‘yicha esa bundan tashqari shu chiqimlarning smetasi tasdiqlangani to‘g‘risidagi ma‘lumotnomalar borligi tashkilotlar shu ma‘lumotnomalarni to‘g‘ri berganligi, “Topshiriqnomalarga doir summalar” nomli joriy hisobvaraqlar bo‘yicha ham tegishli moliyaviy organlarning Ruxsatnomalari borligi;

b) maxsus mablag‘lar bo‘yicha shu hisobvaraqlarga summalar o‘tkazish to‘g‘riligi maxsus mablag‘lar smetalarini tasdiqlash to‘g‘risidagi ma‘lumotnomalarda ko‘rsatilgan manbalarga muvofiq, “Topshiriqnomalarga doir summalar” nomli hisobvaraqlarga summalar o‘tkazish to‘g‘riligi esa shu hisobvaraqlar ochilishiga moliya organlari bergan ruxsatnomalarga muvofiq nazorat qilinishi;

d) ko‘rsatib o‘tilgan mablag‘lar belgilangan maqsadlarga sarflanishi;

e) maxsus mablag‘larning joriy hisob-varaqlari bo‘yicha chiqimlar uchun to‘lovlar paytida hisob-kitob-pul hujjatlari va topshiriqnomalarga doir summalar to‘g‘ri rasmiylashtirilgani;

f) bankning ichki hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalarini audit qilish.

Markaziy bank tomonidan Bosh boshqarmalarga 56100 “Xodimlarning ish haqi va boshqa xarajatlar” bosh kitobi bo‘yicha limit o‘rnatiladi.

Bosh boshqarmalarda ushbu o‘rnatilgan limitga asosan ish haqi va mukofot pullari hisoblanadi. Ish haqi hisoblashda O‘zmarkazbank tomonidan tasdiqlangan shtat bankning bank auditi o‘tkazish uchun sertifikat (malaka sertifikatini) berish va auditorlar malakasini attestatsiyadan o‘tkazish komissiyasi tartibi”, “Bank auditi o‘tkazish huquqini olish uchun malaka imtihonlarini o‘tkazish” va “Bank auditi o‘tkazish huquqi uchun sertifikat (malaka sertifikatini) berish” tartibiga asosan beriladi.

Tashqi auditning maqsadi banklarning Buxgalteriya hisobining Xalqaro standartlari (BHXS) mos ravishida tuzilgan moliyaviy hisobotlari haqqoniyligiga nisbatan mustaqil auditorlarning xolisona fikrini bildirishdir. Auditni o'tkazish jarayonida auditorlar bank ichki nazoratidagi kamchiliklar haqida alohida hisobot tayyorlashi kerak.

Tijorat banklarini audit qilish to'g'risidagi nizom quyidagilar bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi:

- Markaziy bankning Bank auditini o'tkazish uchun sertifikat (malaka sertifikatini) berish va auditorlar malakasini attestatsiyadan o'tkazish komissiyasi faoliyati;

- bank auditini amalga oshirish huquqini beruvchi malaka imtihonlarini o'tkazish;

- bank auditini o'tkazish huquqini beruvchi sertifikatlarni olish va uni bekor qilish ;

- auditorlik tashkilot (firma)larning huquq va majburiyatlarini amalga oshirish;

- auditorlik tashkilotlari va auditorlar tomonidan auditni amalga oshirish;

- auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishda Bank kengashi va Boshqaruvi faoliyati.

Auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish tartibi.

Tijorat banklarining auditorlik tekshiruvlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Markaziy bankning me'yoriy hujjatlariga asosan amalga oshiriladi. O'zmarkazbank tomonidan limit o'rnatiladi. Ushbu o'rnatilgan limitga rioya qilinishini tekshirishda ovqat va yo'l-kira puli uchun ochilgan shaxsiy hisobvaraqlar bo'yicha audit qilinadi. Boshqarmada ovqat va yo'l-kira pullari ishchi va xodimlarga faqat ishlagan ish kunlari uchun to'lanishi audit qilinadi.

Boshqaruv apparatini ta'minlash uchun qilingan sarf-xarajatlarning qonuniyligini audit qilishda xodimlarga tegishli bo'lgan ish haqi summalari, shu jumladan to'liq bo'lmagan oy, bayram, dam olish kunlari va ishdan tashqari vaqtlarda, bironing o'rnida vaqtincha ishlab turganlik, o'rindoshlik puli bilan ishlaganlik, navbatdagi ta'tillar, hamda oliy va o'rta o'quv yurtlarining talabalariga beriladigan ta'tillar

uchun, xodim ishdan bo'shayotgan paytda u foydalanmagan ta'til, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik uchun to'lanadigan nafaqa, hamda boshqa mablag'lar to'g'ri hisob-kitob qilingani va to'langaniga e'tibor qilish kerak.

Uzluksiz ishlagan ish stajiga to'lanadigan to'lovlarni O'zmarkazbank Nizomida belgilangan foizlarga nisbatan to'lanishi audit qilinadi. Ushbu to'lovda ustama ish haqi qo'shilmaganligi tekshirilishi shart.

Bosh boshqarmada Markaziy bank tomonidan belgilangan yillik yakuni bo'yicha mukofot pullarini hisoblanishini har bir ishchi va xodimlar uchun ochilgan shaxsiy hisobvaraqlarga kiritilgan ish haqi, ustama ish haqi, ish vaqtidan tashqari ishlagan ish kunlari uchun to'lovlar, mukofot puli, uzluksiz ish stajiga to'lanadigan to'lovlar va ta'til pullarining (O'zmarkazbankning yo'riqnomasida ko'rsatilgan to'lovlarga) yig'indisi belgilangan foizga nisbatan hisoblanishi audit qilinadi.

Markaziy bank tizimida qishloq xo'jalik mahsuloti uchun pullarning to'lanishi O'zmarkazbank tomonidan belgilangan summalar va ko'rsatilgan shartlarga asosan to'lanishining to'g'riligi audit qilinadi.

Bundan tashqari Markaziy bank tomonidan turli xil bayramlarga (31101) ajratiladigan mukofot pullari shoshilinchnomada ko'rsatilgan summalarga asosan to'lanishi audit qilinadi.

Yuqorida ko'rsatilgan barcha to'lovlar ishchi va xodimlar uchun ochilgan shaxsiy hisobvaraqlariga to'liq kiritilishi audit qilinadi.

Markaziy bank ishchi va xodimlarning daromadidan daromad solig'i hisoblanishini O'zbekiston Respublikasi Soliq Qo'mitasining belgilangan soliq shkalasiga asosan har oyda va yil yakuni bo'yicha to'g'ri soliqqa tortilishi audit qilinadi. Ishchi va xodimlarning shaxsiy hisob-kitob varaqasiga kiritilgan barcha to'lovlardan daromad solig'i hisoblanishi shart.

Kasallik varaqalari bo'yicha to'lovlar tekshirilganda quyidagilarga e'tibor berish kerak, ya'ni kasallik varaqalarining o'z vaqtida buxgalteriyaga topshirilishi, xodimlarning kasallik varaqalarida xodimlar bilan ishlash bo'limi tomonidan mehnat stajlarining to'g'ri

qo'yilganligi shu asosda kasaba uyushmasi tomonidan bankning majlis buyonnomasiga asosan foizlarning aniq belgilanishi, kasallik varaqalari bo'yicha nafaqalarni "Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi nizomga asosan nafaqalarni to'g'ri to'langanligi audit qilinadi. Xizmat safari bo'yicha mablag'lar to'g'ri sarflangani va bo'nak hisobotlari o'z vaqtida taqdim etilgani audit qilinadi.

Xizmat safari xarajatlari bo'yicha to'lovlar tekshirilganda quyidagilarga e'tibor berish kerak, ya'ni safar xizmati guvoynomalarining to'g'ri rasmiylashtirilishi, (safari muddatiga rioya qilinishi, safarga borish uchun chiqarilgan buyruq yoki farmoyish raqami, sanasi, yili, xizmat safariga boruvchi xodimning pasport ma'lumotlari borligi, xizmat safari guvoynomasi rahbariyat tomonidan imzo va muhr bilan tasdiqlanganligi, xodimning belgilangan joyga borganligi va u yerdan chiqib ketganligi to'g'risidagi qaydlar sana, yillari va ularning kelib ketganligini tasdiqlovchi imzo va muhr bilan tasdiqlanganligi audit qilinadi

Xizmat safariga borib kelgandan keyin bo'nak hisobotlarini topshirilish muddatiga rioya qilinishi, bo'nak hisobotlarida ko'rsatilgan sarajatlarni to'g'ri aks ettirilganligi va buxgalteriya tomonidan to'lov uchun qabul qilinganligi, hamda ortiqcha olingan bo'nak pullarini o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash hujjatlar asosida ko'rsatiladi

Ishlab turgan pensionerlarga pensiya to'lash qoidalariga rioya qilinishi, shu jumladan pensionerlarga ish joyidan maoshini hisobga olgan holda pensiya to'lashni davom ettirish to'g'risida ijtimoiy-ta'minot bo'limlarining topshiriqnomalari borligi, pensiya xodimi egallab turgan lavozimga va amalda bajarayotgan ishiga qarab to'g'ri belgilangan, pensionerlar ishga qabul qilingani to'g'risida ijtimoiy-ta'minot organlariga o'z vaqtida xabar berilishi audit qilinadi.

Bundan tashqari, mablag'lar ro'znoma va oynomalarga obuna bo'lish uchun sarflanishi me'yorlariga rioya etilishi, mablag'lar ametaning boshqa moddalari asosida to'g'ri va maqsadga muvofiq tarzda ishlatilishi, yetarlicha rasmiylashtirilgan asosiy hujjatlar borligi audiddan o'tkaziladi.

Bank faoliyati bo'yicha operatsiyalar va boshqa xarajatlarni hisobga olib boruvchi hisobvaraqlarda amalga oshirilgan operatsiyalarning qonuniyligi va asosli ekanligi ham shu tarzda audit qilinadi.

Bank rezerv kapitali hisobvarag'i bo'yicha kredit va debet operatsiyalarning to'g'riligi aniqlanadi.

31101-hisobvaraқ bo'yicha operatsiyalarni tekshirishda operatsiyalar o'tkazish va mablag' sarflash o'rnatilgan limit va mablag'lar doirasida amalga oshirilgani aniqlanadi.

31101-hisobvaraқ bo'yicha operatsiyalar to'g'riligini tekshirishda quyidagilarga e'tibor qilish kerak:

- 1) Yillik ish yakunlari bo'yicha mukofot to'lashning to'g'riligi;
- 2) Xodimlarga ko'rsatilgan moddiy yordam qay tarzda hisobga olinishi va berilishi;
- 3) Moddiy rag'batlantirish fondi bo'yicha boshqa xil to'lovlar qay tarzda amalga oshirilishi.

Moddiy rag'batlantirish uchun "O'zbekiston respublikasi Markaziy banki va uning muassasalari xodimlariga ish haqi to'lash to'g'risida"gi nizomga qat'iy rioya qilib sarflanishi zarur.

31101-hisobvaraқ bo'yicha operatsiyalar amalga oshirilishining to'g'riligini tekshirishda, shuningdek, ajratilgan mablag'lar Markaziy bank ruxsatnomalarini hisobga olgan holda belgilangan maqsadda ishlatilishiga e'tibor qilish kerak.

19921-hisobvarag'ida hisobga olingan arzon va tez eskiruvchi buyumlarning xarajatini to'g'ri olib borilishini tekshirishda balansning tegishli xarajat hisobvaraqlari bilan qiyoslanib audit qilinadi. Arzon va tez eskiruvchi buyumlarni chiqim qilishda tuzilgan yo'qotish dalolatnomasi audit qilinadi. 19923-hisobvaraқda ombordagi asosiy vositalar hisobi to'g'ri yuritilayotganligi audit qilinadi. Bankning asosiy vositalarini, mebellarini va jihozlarining butligini audit qilishda 16500-bosh kitobdagi hisobvaraqlar bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalar qonuniyligi tekshiriladi.

16515-hisobvaraқ operatsiyalarini audit qilishda ijaraga olingan binolarni kapital ta'mirlash uchun sarflangan xarajat Shartnoma

shartlariga mos kelishi, ular Boshqaruv apparatini ta'minlash uchun belgilagan chiqimlar smetasi bo'yicha ana shu maqsadda ajratilgan mablag' darajasidan oshib ketmasligi; ijaraga olingan binolarning kapital ta'mirlanishi uchun qilingan xarajatlar 16515-hisobvaraqa, debetiga to'liq o'tkazilgani, bu xarajatlar 56216-hisobvaraqdagi mablag'lar hisobidan o'z vaqtida to'g'ri qoplangani; asosiy vositalar, shuningdek, arzon va tez eskiruvchi buyumlar hisobini yuritish ishlari yo'lga qo'yilishi va asosiy vositalar ro'yxatga olinishining to'g'riligi; binolar, asbob-uskunalar, mashinalar va boshqa jihozlar balans hisobidan chiqarilganining asosli ekanligi va maqsadga muvofiqligi hamda hisobdan chiqarilgan buyumlar (shu jumladan qimmatbaho metallar)ni sotishdan olingan mablag'lar hisobga to'liq olinganiga e'tibor berish kerak. Bank o'z binolariga ega bo'lgan taqdirda ular bankka tegishligini tasdiqlovchi hujjatlar 93609-hisobvaraqda borligi auditdan o'tkaziladi.

Audit jarayonida asosiy vositalar va jihozlar ro'yxatga olingani tanlab auditdan o'tkaziladi.

"Tugallanmagan qurilish" nomli 16505-hisobvaraqa bo'yicha quyidagilar auditdan o'tkaziladi:

- bu hisobvaraqa bo'yicha o'rnatilgan limit doirasida xarajat qilinishi;

• mablag', hamda yetarlicha tasdiqlangan hujjatlar, shu jumladan qurilishdagi obyektlar ro'yxati va qurilish olib borilishiga asos bo'lgan pudrat shartnomalari borligi;

• bajarilgan ish uchun hisob-kitob qilish qoidalariga rioya etilishi;

• kapital qo'yilmalarga ajratilgan mablag'lar belgilangan maqsadda o'z vaqtida va to'g'ri sarflanishi;

• kapital ta'mirlash operatsiyalarini nazorat qilish ham shu tartibda amalga oshiriladi;

• 19909-hisobvaraqaqning "Счета к получению" moddasi bo'yicha haqi to'langan hujjatlar 16529, 16535-hisobvaraqlar daftariga summasi bo'yicha ham, sotib olingan buyumlarning miqdori bo'yicha ham qiyoslanadi. Bunda shuni nazarda tutish kerakki, transport va yuk ortish-tushirish chiqimlari Boshqaruv apparatini ta'minlash smetasiga kiradi yoki buyum qiymatini oshiradi;

- Ko‘rsatib o‘tilgan audit o‘tkazishlar bilan bir qatorda bankning boshqa ichki operatsiyalarning qonuniyligiga ishonch hosil qilish zarur.

16701 hisobvarag‘i bo‘yicha ochilgan “Asosiy vositalar bo‘yicha bankning korxonalari va tashkilotlari bilan hisob-kitoblar” shaxsiy hisobvaraqlar bo‘yicha debet va kredit yozuvlarining asosli ekanligi audit qilinadi.

Kapital qo‘yilmalar bo‘yicha debitorlar va kreditorlar bilan hisob-kitoblar 19909 va 29802, 29896 hisobvaraqlari bo‘yicha quyidagilar audit qilinadi:

- debet operatsiyalarining qonuniyligi;
- boyliklar talon-taroj qilangani, qilanganidan ortiqcha sarflangani, vazifasini suiiste‘mol qilish, kamomaddan kelgan zarar va shu hisobvaraqlarda, shuningdek, zarar hisobiga o‘tkazilgan qarzlar hisobvaraqda turgan boshqa summalarni undirib olish uchun o‘z vaqtida chora ko‘rilishi va ularning samaradorligi;
- hisob berish sharti bilan summalarning topshirilishi va o‘z vaqtida qaytarilishi tartibiga rioya qilinishi.

Bank xodimlarining ish haqidan ushlab qolingan summalar soliqlar, ko‘ngilli ravishda sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha sug‘urta badallari. Kreditga xarid qilingan tovarlar uchun to‘lovlar, ijro varaqalari bo‘yicha uchinchi shaxslar foydasiga ushlab qolingan summalar, shuningdek, omonatga o‘tkazilgan summalar va kasaba uyushmasi badallari hisobini yuritish uchun ochilgan shaxsiy hisobvaraqlarga o‘z vaqtida va to‘liq o‘tkazilgani tegishli orderlar yoki ish haqi berishdagi qaydnomalarning ma‘lumotlari bo‘yicha xonalarda chiqarilgan umumiy yakunlar to‘g‘riligini avvaldan qiyoslagan holda auditdan o‘tkaziladi.

Bundan tashqari, auditor yuqorida ko‘rsatilgan hisobvaraqlarning qoldiqlari belgilangan joylarga (tegishli byudjetlarga, Xalq banki, davlat sug‘urtasi, savdo tashkilotlari va boshqalarning hisobvaraqlariga) o‘tkazilganini audit qilish kerak.

Xo‘jalik va qurilish materiallari hamda boshqa materiallarning shaxsiy hisobvaraqlari bo‘yicha quyidagilar audit qilinadi:

a) haqi to'langan materiallar kirimga to'liq kiritilgani va hisobdan chiqarilishining asosli ekanligi;

b) moddiy boyliklar o'z vaqtida va to'liq ro'yxatga olingani, hamda natijalari buxgalteriya hisobida aks ettirilgani, shuningdek, aniqlangan kamomadlar moddiy javobgar shaxslardan undirib olishga taqdim etilgani;

d) moddiy boyliklar but saqlanishi, ularning buxgalteriya va ombor hisobi to'g'ri yuritilishi, boyliklar saqlanishi zimmasiga yuklatilgan shaxslar bilan to'liq moddiy javobgarlik to'g'risida shartnomalar tuzilgani.

Zarurat tug'ilganda audit jarayonida alohida materiallarning amaldagi miqdori buxgalteriya va ombor hisobi ma'lumotlariga mos kelishi auditdan o'tkaziladi.

Operatsiyalarga bog'liq va xilma-xil daromadlar bo'yicha debet operatsiyalarining asosli ekanligi. Shuningdek, banklardan va mijozlardan undirib olingan foizlar, jarimalar va boshqa summalar hisobvaraqa kreditiga to'liq o'tkazilgani audit qilinadi.

Foizlarni to'lash va undirish, inkassatsiya uchun to'lovlar bilan bog'liq operatsiyalarni audit qilib foizlarni hisoblash qaydnomalarida. Tushum inkassatsiya qilingani uchun to'lov ro'yxatlari (qaydnomalari)da turli qiymatdagi qoldiq summalar hisoblab chiqiladi va olingan yakunlar tegishli hisobvaraqlarning kredit yoki debet qismi yozuvlari bilan qiyoslanadi. Bunda passiv hisobvaraqlar bo'yicha hisoblangan foizlardagi turli qiymatdagi qoldiq summolari mijozlarning muddatli depozit hisobvarag'i va boshqa xil hisobvaraqlarining kredit yozuvlari bilan qiyoslanadi. Ayni vaqtda foiz stavkasi qo'llanishi, hamda hisob-kitob, joriy, qarz va boshqa xil hisobvaraqlar bo'yicha foizlar summasini hisoblash to'g'riligi auditdan o'tkaziladi.

Bundan tashqari, audit jarayonida bankdan olingan summalar hamda, bank undirib olgan foizlar, jarimalar, tushum inkassatsiya qilingani va boyliklar yetkazib berilgani uchun to'lovlar va boshqa summalar to'g'risida ayrim korxonalar va tashkilotlardan ma'lumotnoma so'raladi.

Shuningdek, shaxsiy hisobvaraqlari ko'chirma olib tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlardan shu xil ma'lumotlarni olish, qolaversa, qarz olish uchun taqdim etilayotgan ma'lumotlar ishonchli ekanligini auditdan o'tkazish tavsiya etiladi. Bu ma'lumotlar olingunga qadar mijozlar talab qilgan summalar to'liq o'tkazilgani va hisobdan to'g'ri chiqarilgani audit qilinadi.

Zarurat tug'ilganda korxonalar, tashkilotlar va muassasalarda kapital qo'yilmalar va kapital ta'mir, xo'jalik materiallari va jihozlar sotib olingani, xizmat ko'rsatilgani, fuqarolarning omonatlariga va kreditga xarid qilingan tovarlar uchun mablag' o'tkazish va boshqa xil operatsiyalar bo'yicha muqobil tekshiruvlar olib borish zarur.

4.3. Pul muomalasiga doir ishlarni auditdan o'tkazish

Respublika Markaziy banki iqtisodiyotni pul-kredit siyosati orqali tartibga solib turuvchi organdir. Uning vazifasi pul muomalasining barqarorligini va so'mning xarid quvvatini saqlab turishdan iborat. Uning asosiy harakatlari inflyatsiyaga qarshi izchil kurash olib borishga, ishlab chiqarish barqarorligi uchun zamin yaratishga qaratilmog'i lozim.

“Pul muomalasi” ishlari o'rganilganda quyidagi 2 ta jihatga e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Har yil yakunida keyingi yil uchun mijozlardan Hisob-kitob ma'lumotnomasi (Zayavka-raschet) to'liq hajmda yig'ilganligini (filialga yangi mijoz kelsa, keyingi oydan kechiktirmasdan Hisob-kitob ma'lumotnomasi olingan bo'lishi kerak) o'rganish lozim.

Filial tomonidan “Naqd pullarni berish kalendari”ni ishlab chiqilganligini, tuzilgan ish haqi berish kalendari mijozlar tomonidan tasdiqlab taqdim qilingan hisob-kitob ma'lumotnomalari (заявка-расчет) asosida to'g'ri ishlab chiqilganligini o'rganish lozim bo'ladi.

Bundan tashqari mijozlar tomonidan taqdim qilingan “Hisob-kitob ma'lumotnomalari”da ko'rsatib o'tilgan kunlik kassa qoldiqlariga amal qilinishini, kunlik o'rtacha naqd pul tushumining topshirilish ahvolini, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni olishga bo'lgan talabi to'g'ri ekanligini o'rganish lozim bo'ladi.

Banklarda pul muomalasiga doir ishlar “O‘zbekiston Respublikasi banklarida pul muomalasiga doir ishlarni tashkil etish to‘g‘risida”gi yo‘riqnomaga asosan audit qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasida naqd pul aylanmasini xomcho‘t qilish respublikadagi banklar kassa oborotlari xomcho‘tini tuzish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Respublikadagi banklar kassa oborotlarining xomcho‘ti respublikaning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining taxmin qilinayotgan hisob-kitoblari hamda respublika byudjeti ko‘rsatkichlari asosida tuzilib, banklar kassalariga tushadigan naqd pul tushumining miqdori va manbalarini, banklar kassalaridan beriladigan naqd pul miqdori va ularning aniq maqsadga yo‘naltirilishini, chorak uchun oylarga bo‘lingan holda naqd pul chiqarish yoki ularni muomaladan olish miqdorini belgilaydi.

Mijozlarga kassa xizmatini ko‘rsatmaydigan banklar o‘z mijozlari bo‘yicha kassa oboroti xomcho‘tini tuzadilar va uni mijozga kassa xizmatini ko‘rsatadigan bankka mazkur bank tomonidan belgilangan muddatda taqdim etadilar.

Kassa oborotlari xomcho‘ti quyidagi tushum manbalari va naqd pul berish yo‘nalishlari bo‘yicha tuzilganligi audit qilinadi.

Banklar kassa oborotlarining choraklik xomcho‘tini tuzish uchun bankda talab qilib olunguncha depozit hisobvaraqlariga ega bo‘lgan tashkilotlardan kassa buyurtmalarini oladilar.

Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Respublika Milliy xavfsizlik xizmati, Davlat chegaralarini himoya qilish qo‘mitasi, Favqulodda holatlar vazirligining harbiy qismlari va tashkilotlari banklarga xomcho‘t qilinayotgan chorakda tushadigan hamda beriladigan naqd pullarning umumiy summalariga doir ma‘lumotlarni ma‘lum qiladilar. Banklar bu summalarni kassa oborotlari taxminiga “Boshqa tushumlar” va “Ish haqiga berilgan pullar” moddalari bo‘yicha kiritadilar.

Banklar quyidagilarga alohida e‘tibor bergan holda, tashkilotlardan olingan kassa buyurtmalarini ko‘rib chiqib quyidagilar audit qilinadi:

-tashkilotlar faoliyatlarining xomcho't (prognoz) hisob-kitoblaridan kelib chiqqan holda ularning kassalariga tushadigan pullarning to'liq hisobga olinishi;

-pul tushumlarini ko'paytirish hamda pul mablag'larini sarflashni tejash imkoniyatlari.

-Banklar tashkilotlardan olingan kassa buyurtmasini ko'rib chiqish natajalari bo'yicha zarur bo'lsa, mijoz bilan kelishgan holda, ularga aniqliklar kiritadilar.

Banklar har bir chorakka mo'ljallangan kassa oborotlari xomcho'tini oyma-oy taqsimlab chiqqan bo'lishlari lozim. Bunda quyidagilar hisobga olinadi:

- har bir oydagi kunlar soni va boshqa xususiyatlari;

- chakana tovar aylanmasi, ish haqi fondlari hajmining oylar bo'yicha o'zgarib turishi mumkinligi (sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilishning ayrim tarmoqlarida ishlarning mavsumiy bo'lishi, bayramlarning ta'siri, ishchi va xizmatchilarning ommaviy ravishda mehnat ta'tiliga chiqadigan vaqti va shunga o'xshash holatlardan kelib chiqib);

- aholining soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash muddatlari;

- joylarda kassa resurslarini ko'paytirish hamda mablag'larni sarflashni tejash yuzasidan amalga oshirilayotgan tadbirlar.

Markaziy bank bo'yicha kassa oborotlari xomcho'tni ishlab chiqishda banklar taqdim etgan kassa oborotlari xomcho'ti loyihalaridan, o'tgan davrlarda haqiqatda amalga oshirilgan kassa oborotlari haqidagi hisobot boshlab, to'rt ish kuni mobaynida bank filiallariga yetkazadi.

Banklar pul muomalasining holatini muttasil o'rganishlari va tahlil qilib borishlari hamda uni mustahkamlash uchun amaliy choralar ko'rishlari, tashkilotlar va jismoniy shaxslarning naqd pulga bo'lgan ehtiyojlari uzluksiz qondirilib turishini ta'minlashlari lozim.

Pul muomalasiga doir ishlarni audit qilishda banklarning quyidagilar bo'yicha amalga oshirilgan ishlari tekshiriladi:

- aholining bo'sh pul mablag'larini omonatlarga jalb etishga, jismoniy shaxslarning pul daromadlarini naqd pulsiz tartibda omonatlarga o'tkazilishini kengaytirishga, tovarlar va xizmatlar uchun naqd pulsiz hisob-kitoblarni rivojlantirishga qaratilgan choralar ko'radilar;

- naqd pul oborotini tashkil etadi, tashkilotlarga tushgan pul tushumlarini topshirish tartibi va muddatlarini, tushumdan pul sarflash me'yorlarini hamda ularning kassalardagi qoldiq pullar limitini belgilab beradi. Bunda naqd pullarning tezlik bilan tushib turishini ta'minlashni, pulning qarshi oborotlariga yo'l qo'ymaslikni nazarda tutadilar;

- pul tushumlarining bank kassalariga o'z vaqtida va to'liq tushishi, tashkilotlar tomonidan yuridik shaxslarning kassa operatsiyalarini amalga oshirish qoidalariga rioya qilishi ustidan monitoring olib boradilar;

- tashkilotlarda ish haqi to'lashning belgilangan muddatlariga rioya etilishi monitoringini amalga oshiradilar;

- haqiqatda tushgan tushumlar va berilgan naqd pullarning kassa oborotlari taxminidan farq qilish sabablarini aniqlaydilar hamda naqd pul tushumlarining ko'payishini va pul mablag'larining o'ta tejamkorlik bilan sarflanishini ta'minlash choralarini ko'radilar.

Audit jarayonida aholining pul daromadlari, pul emissiyasi, shuningdek, chakana tovar oboroti va aholiga ko'rsatiladigan pulli xizmat hajmlari o'sishining sur'atlari o'rtasida o'tgan davrda vujudga kelgan nisbatlar ko'rib chiqiladi. Bank muassasalari shu nisbatlarni yaxshilash, qo'shimcha tovarlar va kassa resurslarini izlab topish uchun olib borayotgan ishlarni tavsiflash zarur.

Iqtisodiyot va nazorat ishlarining rejalari, ularga emissiyani qisqartirishga doir qanday masalalar kiritilgani; shuningdek, banklar kengashlarining ish rejalari, bu rejalar pul muomalasidagi ahvol bilan bog'langani ko'rib chiqiladi.

Rejada ko'rsatilgan iqtisodiy, nazorat va kalendar ishlarning bajarilishi, pul-kredit siyosati asosiy yo'nalishlarining bajarilishi, pul-kredit emissiyasini qisqartirish yuzasidan ko'rilgan tadbirlar va olib borilayotgan ishlar tekshiriladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, hokimliklarga pul muomalasi yuzasidan tayyorlanayotgan xatlar mazmun jihatdan sifati ko‘zdan kechiriladi. Bu xatlar tegishli hududdagi iqtisodiyotning ahvolini, xalq xo‘jaligining pul muomalasidagi ahvolga bevosita ta‘sir ko‘rsatuvchi tarmoqlariga tegishli ko‘rsatkichlarni chuqur o‘rganish asosida tuzilishi kerak.

Xalq iste‘moli mollarini ishlab chiqarish bo‘yicha sanoatning, aholiga savdo xizmati ko‘rsatish bo‘yicha savdo tashkilotlarining ishi, savdo, hamda tovar zaxiralarining ahvoli, maishiy xizmat ko‘rsatish va yo‘lovchi tashish transporti, tomoshaxonalarning ishi, ular bo‘yicha naqd pulsiz hisob-kitoblar, jamg‘arma ishining ahvoli va boshqalarni o‘rganish shular jumlasidandir.

Xalq xo‘jaligi tarmoqlaridagi kamchiliklarni bartaraf etish, ular faoliyatini yaxshilash, shu asosda investitsiyani qisqartirish yuzasidan hokimliklarga taqdim etilayotgan takliflar, ularning aniqligi, kerakli joyga mo‘ljallangani tekshiriladi.

Shu takliflar yuzasidan hokimliklar pul muomalasidagi ahvolga qarab ko‘rgan chora-tadbirlar ko‘zdan kechiriladi. Yuqorida qayd etilganlardan tashqari yana quyidagilar tekshiriladi. Audit qilinayotgan davrda qanday masalalar o‘rganilgani, ular qanday tashkilotlar oldiga qo‘yilgani. Kassa intizomi, mayda ulgurji savdoning ahvoli, ular yuzasidan ko‘rilgan choralar. Shu masalalar to‘g‘risida prokuratura bilan o‘zaro munosabatlar.

Viloyat tashkilotlari bilan yozishmalar qanday masalalar qo‘yilgani, ular yuzasidan ko‘rilgan choralar.

Tijorat banklarini pul muomalasi bo‘yicha tekshirish. Bu xil tekshirishlarning sifati, qaysi muassasa tekshirayotgani, bo‘lim boshlig‘i qancha tekshiruv o‘tkazgani, bu tekshiruvlar pul muomalasi sohasidagi ishlarining amaldagi ahvolini aks ettirishi auditdan o‘tkaziladi.

Ishdagi ahvolga qarab qanday choralar ko‘rilgani. Bu choralarning amaldagi ta‘siri. Tijorat banklarida aniqlangan qo‘pol tartibbuzarliklar yuzasidan tijorat banklarining rahbarlari javobgarligini ko‘rib chiqish to‘g‘risida taklif berilgani.

Pul muomalasi bo'yicha banklar kengashlarining materiallari, qanday masalalar qo'yilgani, qay tarzda ko'rib chiqilgani, qabul qilinayotgan qarorlarning aniqligi. Pul muomalasiga tegishli bo'lgan masalalar bo'yicha Respublika Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Markaziy bank Boshqaruvining bayoniy qarorlari bajarilishi auditdan o'tkaziladi.

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va atamalar

Kreditlar va ularni olish shartlari, xizmat safari uchun berilgan bo'naklar, xaridor va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar, da'volar bo'yicha hisob-kitoblar, byudjet va byudjetdan tashqari fondlar, moddiy javobgar shaxslar, ta'sischi bilan hisoblashishlar, soliq to'lagunga qadar foyda.

O'z bilimini tekshirish bo'yicha savollar

1. Mijozlarga hisob-kitob varaqlarini ochish tartibi.
2. Hisob-kitob operatsiyalarining auditi.
3. Chet el valyutasidagi operatsiyalarni auditdan o'tkazish tartibi.
4. Naqd chet el valyutasidagi operatsiyalar qanday audit qilinadi?
5. Inkasso operatsiyalarini audit qilish.
6. Banklarning vakillik hisobvaraqlarini audit qilish tartibi.

5-bob. KREDIT OPERATSIYALARINI RASMIYLASHTIRISH VA HISOBGA OLISH AUDITI (MUAMMOLI KREDITLARNING AUDITI)

5.1. Tijorat banklarining kredit faoliyatini auditdan o'tkazish tartibi va jarayonlari

5.2. Tijorat banklari kredit faoliyati auditini rejalashtirish

5.3. Tijorat banklari kredit siyosati va uning auditi

5.4. Tijorat banklari kredit portfeli va auditi

5.5. Tijorat banklari kredit operatsiyalari hisobi auditi

5.1. Tijorat banklarining kredit faoliyatini auditdan o'tkazish tartibi va jarayonlari

Kreditlar tijorat banklari mahsulotining asosiy turi hisoblanib, bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik subyektlarning joriy va investitsiya xarajatlarini moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadi. Banklar kreditlar orqali o'zlarining faoliyatini moliyaviy asosini yaratadilar.

Kreditlash jarayonini tashkil etishda doimo e'tiborga olinishi zarur bo'lgan bir qator yo'nalishlar ishlab chiqilgan:

Birinchidan, har bir bank mijozni talab va maqsadlarini to'liq tahlil qilib, uni qondirishga e'tibor berishi kerak;

Ikkinchidan, bank kredit jarayonini tashkil etishda kreditni maqsadi, turi yoki ta'minlanishiga taalluqli bo'lgan masalalarni aniqlashi kerak;

Uchinchidan, bank kredit operatsiyasida qatnashuvchi mutaxassislarini amal qilishlari lozim bo'lgan halollik, tartiblilik kabi ma'naviy qadriyatlarni ham aniqlashi zarur.

Kredit hujjatlari yig'majildi bo'yicha quyidagilar auditdan o'tkaziladi:

✓ kredit olish uchun berilgan buyurtmalarning maxsus kitobda ro'yxatdan o'tkazilish tartibi;

✓ ajratilgan kreditlar bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi,

hujjatlarning to'liqligi, kredit qaytarilgan holatda hujjatlarning belgilangan tartibda arxivga topshirilishi;

✓ kreditlarning har bir turiga ochilgan analitik hisoblarning yuritilish tartibi;

✓ kredit bo'yicha hisoblangan foizlarning o'z vaqtida to'g'ri hisoblanishi, ularning tegishli hisobvaraqlarga o'z vaqtida o'tkazilishi;

✓ muddati o'tgan kreditlar hisobini o'z vaqtida buxgalteriya hisobvaraqlarida aks ettirish tartibi;

✓ berilgan kreditlar uchun talab qilib olingan muddatli majburiyatnomalarning to'liqligi va ularning hisobi;

✓ kredit portfeli tekshirilgandan so'ng, yo'l qo'yilgan xatoliklarni ko'rsatib berish hamda ularni bartaraf etish va kredit portfeli sifatini yaxshilash bo'yicha tadbirlar ishlab chiqilishi talab etiladi.

Bank kredit faoliyati auditing asosiy maqsadi kredit operatsiyalarini amalga oshirishda ichki nazorat tizimining ishonchliligini baholashdir.

Banklarda bankning kredit faoliyatini audit qilish dasturlari ishlab chiqilgan bo'lib, shulardan birini ko'rib chiqamiz.

Auditning bu dasturi quyidagi besh bo'limdan iborat:

✓ Kredit portfelinig umumiy tahlili.

✓ Kredit papkalarini o'rganish.

✓ Kredit operatsiyalari bo'limi faoliyati.

✓ Kredit qo'mitasi faoliyati.

✓ Kredit faoliyati tekshiruvlari bo'yicha auditorlik xulosasi.

1. Kredit portfelinig umumiy tahlili bank kredit portfelinig to'liqligini, kredit faoliyati samaradorligining bahosini, bankning boshqa filiallari kredit portfelinig qiyosiy sifat xarakteristikasini ta'minlaydi.

Kredit portfelinig umumiy tahlili quyidagi uch asosiy qismdan iborat:

✓ kredit portfelinig tahlilida kreditlarning joriy holati, muddati, iqtisodiy tarmog'i, foiz stavkasi, ta'minot turi, sifati, moliyalashtirish manbai va kreditning maqsadi ko'rib chiqiladi.

✓ kredit faoliyati samaradorligining bahosi quyidagilarni o'z

ichiga oladi: aktiv operatsiyalar rentabelligining va kreditlar bo'yicha kutiladigan zararlarni qoplash uchun rezervlar bo'yicha xarajatlar darajasining tahlili; foizli daromadlar tarkibi; rezervlarni shakllantirish bo'yicha xarajatlar; foizli xarajatlarni hisobga olgan holda kredit faoliyatining rentabelligi.

✓ bank filiali kredit portfelining holatini xuddi shunday boshqa filiallarniki bilan taqqoslash. Bu jarayon kreditlash samaradorligining haqiqiy bahosini ta'minlaydi.

2) Kredit papkalarini o'rganish tahlili quyidagi 6 qismdan iborat:

✓ kreditni rasmiylashtirish kredit hujjatlarining qonunchilik va ichki normativ talablarga javob bera olishi inventarizatsiyasini ta'minlaydi.

✓ kreditdan foydalanish ssuda hisobvaraqlaridagi qoldiqlarning aniqligini, kredit resurslar sanasining va ularga belgilangan foizlarning to'g'riligini, kreditning moliyaviy loyiha shartlariga muvofiq maqsadli ishlatilganligini tekshirishni ta'minlaydi jarayon quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi:

➤ kredit resurslaridan foydalanish sanasi (davri);

➤ foydalanish summasi;

➤ kredit yo'nalishi-qaysi bankka, qaysi tashkilot hisobvarag'iga, qaysi hujjatlar asosida.

➤ mablag'lardan maqsadli foydalanish.

➤ kredit shartnomasi bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi – barcha muvofiq hujjatlarning vaqtida bankka yetkazilishi, biznes reja ko'rsatkichlarining bajarilishi, kredit bo'yicha qarzdorning to'lov majburiyatlarini amalga oshirishi, kredit bo'yicha foiz va komission haqlarning to'g'ri hisoblanishi.

✓ monitoring-doimiy kuzatuv bo'yicha funksiya va loyiha holatini, qarzdor va ta'minot predmetini baholash:

➤ loyihaning dastlabki monitoringi (kreditni berishgacha);

➤ joyiga borib kreditdan maqsadli foydalanishni tekshirish;

➤ loyihani har kvartalda monitoring qilish;

➤ qarzdorni doimiy monitoring qilish;

➤ ta'minotni har kvartalda monitoring qilish, yilida kamida 2 marta qayta baholash;

- kafil va garantni har kvartalda monitoring qilish;
- loyiha rentabelligining tahlili;
- tekshirish natijalari bo'yicha ma'lumotnoma va aktlarni tayyorlash;

- bankning kredit qo'mitasi tomonidan qarzdorning kreditdan maqsadsiz foydalanganligi, qarzdor yoki kafil moliyaviy holatining, garov predmeti fizik holatining yomonlashgan hollarda adekvat choralarini o'z vaqtida qo'llash to'g'risida qaror qabul qilish;

- muammoli kreditlar va ular bo'yicha foizlarni hisobdan chiqarish bo'yicha masalalarini bank kredit qo'mitasi tomonidan o'z vaqtida hal etilishi bo'yicha qarorlar qabul qilish.

- ✓ kreditning joriy holati bo'yicha ma'lumotlarini ochib berish:

- ssuda va muddati o'tgan qarzdorlik bo'yicha qoldiq;

- qarzdorning moliyaviy holati;

- kreditning umumiy sifati;

- ta'minotning holati;

- shakllantirilgan rezervlar summasi.

f) kredit sifati bo'yicha auditorlik xulosasi-kredit real holatining bahosi va kamchiliklar mavjud bo'lganda ularni to'g'rilash bo'yicha choralar ishlab chiqish;

- ✓ kredit sifati;

- ✓ kredit riski bahosi;

- ✓ shakllantirilgan rezervlar adekvatligi bahosi;

- ✓ tavsiyalar.

3) Kredit operatsiyalar bo'limi faoliyati – ichki nazorat tizimining tarkibiy qismi bo'lgan joriy nazoratni ta'minlovchi mas'ul bank bo'limi ishining samaradorligini baholash;

- ✓ bo'lim to'g'risida nizom va ishchilar bilan tanishish;

- ✓ bo'lim ish rejasi;

- ✓ kredit inspektorlarining majburiyatlari;

- ✓ ishchi va bo'sh o'rinlarning haqiqiy miqdori;

- ✓ ish tartibi;

- ✓ kredit bo'limi xodimlarining ish hajmi (kredit loyihalarining xodimlar o'rtasida taqsimlanishi);

- ✓ muammoli kreditlar bilan ishlash samaradorligi;
- ✓ texnik va iqtisodiy o‘shirlarning davriyligi;
- ✓ kredit ishlarining oldi-berdi aktlarining mavjudligi;
- ✓ nazorat qiluvchi organlar tomonidan tashqi tekshirishlarning miqdori, kamchiliklarni yo‘qotish bo‘yicha choralarning ko‘rilishi.

4) Kredit qo‘mitasi faoliyati-tarkibiy qismning ishini samaradorligini baholash, ya‘ni bankning kredit funksiyasini nazorat qiluvchi mas‘ul shaxsni.

- ✓ kredit qo‘mita tarkibi va kredit faoliyatiga qatnashishi;
- ✓ kredit qo‘mita majlisini tashkil etish tizimi;
- ✓ qarorlarni qabul qilishda jamoaviylik;
- ✓ kredit qo‘mitasi protokollarini akt qilish va saqlash;
- ✓ qarzdorlikni 60-90 kundan ortiq muddatga cho‘zilishi mavjud bo‘lgan hollarda o‘stirmaslik maqomini berish bo‘yicha o‘z vaqtida qarorlar qabul qilish;

- ✓ kreditlarni qayta tasniflash va shakllantirilgan rezervlar adekvatligi bo‘yicha qarorlarni o‘z vaqtida qabul qilish;

- ✓ muammoli kreditlar va ular bo‘yicha foizlarni hisobdan chiqarish bo‘yicha o‘z vaqtida qarorlarni qabul qilish.

5) Kredit faoliyati natijalari bo‘yicha auditorlik xulosasini tayyorlash-tekshirishning yakuniy bosqichi bo‘lib, ichki nazorat tizimini ishonchililigining yakuniy bahosini chiqarishga qaratilgan.

Hujjatlarni tanlama tekshirishda quyidagilar zarur:

- ✓ barcha hujjatlar yig‘indisiga natijalar ekstropolyatsiyasini amalga oshirish;

- ✓ hujjat xatoliklari miqdorini va umumiy hajmdagi ulushini, qiymat xatoliklari va oborotdagi ulushini aks ettirish;

- ✓ ichki nazoratning risk darajasini baholash;

- ✓ ichki nazorat tizimining ishonchililigini baholash;

- ✓ kamchiliklar sodir bo‘lishining asosiy sabablarini aniqlash;

- ✓ aniqlangan kamchiliklarni yo‘qotish bo‘yicha tavsiyalarni tayyorlash.

Xulosa qilib aytganda, ushbu dastur doirasida auditorlik tekshiruvini amalga oshirish kredit faoliyatining barcha ahamiyatga molik bo‘lgan joylarini to‘liq qamrab olishini ta‘minlaydi.

Kredit operatsiyalari yetarli darajada ko'p qirrali va murakkab bo'lib, ularni amalga oshirishda bankda bir qancha xatoliklar va buzilishlar ro'y berishi mumkin. Auditor tijorat banklari kredit faoliyatini audit qilishda ushbu xato va qonunbuzarliklarni o'rganib chiqishi kerak. Ularni kredit ishining alohida yo'nalishi bo'yicha quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- ✓ kredit ishini tashkil etishdagi xatolar;
- ✓ kredit shartnomalari va garov operatsiyalarini rasmiylashtirishdagi xatolar;
- ✓ aktiv va passiv kredit operatsiyalarini amalga oshirishdagi va ularni buxgalteriya hisobida aks ettirishdagi xatolar;
- ✓ ssudalar bo'yicha yo'qotishlar uchun zaxiralarni tashkil qilish va ulardan foydalanishdagi xatolar.

Kredit ishini tashkil etishdagi xatolar:

- ✓ bank kredit siyosati to'g'risidagi nizomning yo'qligi;
- ✓ kredit operatsiyalarini amalga oshirishda limit va cheklovlarning o'rnatilmaganligi;
- ✓ berilgan ssudalarning yetarlicha asoslanmaganligi;
- ✓ qarzdorga kredit berishda uning moliyaviy holati to'liq qilinmaganligi;
- ✓ qarzdorning kredit tarixi o'rganilmaganligi;
- ✓ kreditlanadigan bitimda biznes-reja va texnik-iqtisodiy asos tahlilining qilinmaganligi;
- ✓ kreditni berishda bank tomonidan kredit riskini baholamaslik;
- ✓ berilgan kreditlardan maqsadli foydalanishni nazorat qilmaslik;
- ✓ kredit shartnomalaridan bajarilishi va qarzdor moliyaviy holati ustidan nazoratning bo'sh tashkil qilinganligi;
- ✓ berilgan kreditlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorliklarning kelib chiqishiga sabablarni tahlil qilmaslik.

Kredit shartnomalari va garov operatsiyalarini rasmiylashtirishdagi xatolar:

- ✓ kredit shartnomasida zarur ma'lumotlarning yo'qligi;
- ✓ ba'zi mijozlar kredit papkasining to'liq shakllantirilmaganligi;
- ✓ shartnoma tuzilganda qarzdorning mulk obyektiga egalik

huquqini beruvchi hujjat va sug'urta polisining yo'qligi;

✓ Aktiv va passiv kredit operatsiyalarini amalga oshirishdagi va ularni buxgalteriya hisobida aks ettirishdagi xatolar:

✓ balansdan tashqari hisobvaraqlarda garov predmetining noto'g'ri aks etishi, garov mulki analitik hisobining yo'qligi;

✓ muddati o'tgan kreditlarni tegishli hisobvaraqlarga o'z vaqtida o'tkazmaslik;

✓ balansdan tashqari hisobvaraqlarni o'z vaqtida yopmaslik.

Kreditlash jarayonini tashkil etish, korxon va tashkilotlarni moliyaviy ahvolini tahlil qilish kabi masalalarni to'g'ri amalga oshirish kredit riskini oldini olishga, hamda bank kredit portfelini sifatini yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu kredit siyosati elementlarini to'g'ri tashkil qilinganligini ijobiy natijasi hisoblanadi.

5.2. Tijorat banklari kredit faoliyati auditini rejalashtirish

Auditning samaradorligi uni to'g'ri rejalashtirishga bevosita bog'liqdir. Auditorlik tashkilotlari turli mulkchilik shaklidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatlarini tekshiradi. Ushbu faoliyatlar o'z navbatida bir-biridan farq qiladi. Misol uchun, ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi korxonalarni xo'jalik jarayonlari ko'p hollarda xom ashyolarni sotib olish bilan. Ularni ishlab chiqarishda foydalanish, tayyor mahsulotlar olish va ularni sotish bilan bog'liq bo'lsa, savdo bilan shug'ullanuvchi korxonalarining faoliyatlari esa tovarlarni sotib olish va qayta sotish bilan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini audit qilishga rozilik berish va shartnoma tuzishdan oldin audit rejasi tuziladi.

Auditning rejalashtirilishi ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismi bo'lib o'z ichiga auditorlik tekshiruvini umumiy hajmini aniqlash, audit dasturini tuzish, auditda qo'llaniladigan usullarni belgilash, tekshirish muddatlarini ko'rsatiladigan xizmatlarni va audit xatarini aniqlash kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Maxsus adabiyotlarda auditni rejalashtirishga auditning strategiyasi va taktikasini aniqlash deb ham e'tirof etilgan. Audit strategiyasi qo'yilgan maqsad va vazifalarni

ma'lum ketma-ketlikda va aniq istiqbolga asoslanib bajarilishini ta'minlasa, audit taktikasi esa qo'yilgan maqsadlarga erishishning shakli va usullarini ifodalaydi¹⁸. Auditni rejalashtirishdan asosiy maqsad audit jarayonidagi umumiy ish hajmini aniqlash, tekshirish muddatlarini belgilash, auditni o'tkazishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan ilg'or usullar tarkibini, ko'rsatiladigan auditorlik xizmati qiymatini hamda auditorlik xatarini aniqlashdan iborat. Auditni rejalashtirish 3-son "Auditni rejalashtirish" nomli AMS va 9 son "Auditorlik isboti va xatari" nomli AFMS talablari asosida amalga oshiriladi. Ushbu standartlarga asosan auditni rejalashtirishda quyidagi tamoyillar hisobga olinishi kerak bo'ladi: rejaning to'liqligi; rejaning uzluksizligi; rejaning ixchamligi.

Audit standartlariga asosan uning rejalashtirilishi quyidagi uch bosqichda amalga oshiriladi:

- auditning dastlabki rejasini tuzish;
- auditning umumiy rejasini tuzish;
- audit dasturini tuzish.

Auditning dastlabki rejasini auditorlik tekshiruvini o'tkazishga rozilik berishdan va auditorlik shartnomasidan oldin tuziladi. Ma'lumki ko'p mulkchilikka asoslangan xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatlari, ulardagi jarayonlar, audit obyektlari har xil bo'ladi. Shuning uchun auditorlik tashkilotlari auditning dastlabki rejasini tuzadi. Ushbu rejadan xo'jalik yurituvchi subyektning turi va faoliyat yo'nalishi; bankning tarkibiy tuzilishi va boshqarilishi; bank mablag'larining turlari va shakllanish tartibi; moliyaviy xo'jalik ko'rsatkichlari va ularning bajarilishi; bankda ichki nazoratni tashkil etilishi; xo'jalik yurituvchi subyektning boshqa shaxslar bilan o'zaro hisob-kitoblari kabi masalalar o'z ifodasini topadi.

Yuqoridagi masalalarni o'rganish va auditning dastlabki rejasini tuzishda auditorlik tashkiloti bankning nizomi, bank faoliyatini qayd etishga asos bo'lgan hujjatlar, hisob siyosatini aks ettiruvchi hujjatlar, moliyaviy hisobot, bank, moliya, soliq organlarining xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatiga oid ma'lumotnomalari, bank va uning mijozlari o'rtasida tuzilgan shartnomalar va ularning bajarilishi ma'lumotlaridan

¹⁸ Auditorlik faoliyati milliy standartlari, -T.:O'zbekiston Respublikasi

foydalanadi. Yig'ilgan ma'lumotlar tahlili natijasi va dastlabki rejaga asosan audit o'tkazishga rozilik oladi va shartnoma tuziladi¹⁹.

Auditorlik shartnomasining maqsadi va qo'yilgan vazifalariga qarab auditning umumiy rejasi tuziladi. Auditning umumiy rejasida tekshirishga mo'ljallanayotgan xo'jalik yurituvchi subyektning nomi, audit davri, auditga ajratilgan muddat, auditorlik guruhining tarkibi, rejalashtirilayotgan ishlarning turi, uning bajaruvchilari ko'rsatiladi. Auditning umumiy rejasida auditorlik isboti va auditorlik xatarining darajasi ham keltiriladi. Ushbu reja auditorlik guruhi rahbari tomonidan imzolanadi va auditorlik tashkiloti rahbari tomonidan tasdiqlanadi. Quyida tijorat banklarida kredit operatsiyalarini tekshirish audit rejasi keltirilgan:

11-jadval

**Tijorat banklarida kredit operatsiyalarini
tekshirish audit rejasi**

| № | Rejalashtirilayotgan ish turlari | Bajarilish davri | Bajaruvchi | Izoh |
|----------|--|-------------------------|-------------------|-------------|
| 1. | Bank kredit siyosatining auditi | Bir kun | Auditor | |
| 2. | Bank kredit portfelining auditi | Ikki kun | Auditor | |
| 3. | Kredit hujjatlari yig'ma jildlarining auditi | Besh kun | Auditor | |
| 4. | Muammoli kreditlar auditi | Uch kun | Auditor | |

Auditni rejalashtirishning uzluksizligi qoidasi auditorlar guruhiga o'zaro bog'langan topshiriqlarni belgilash va rejalashtirish bosqichlarini muddatlar hamda tijorat banklari (bo'limlari, filiallari, vakolatxonalar, minibanklari) bo'yicha konsolidatsiyalashgan balansda o'z ifodasini topadi. Audit uzoq vaqtga rejalashtirilgan bo'lsa tijorat banklarining auditorlik kuzatuvini bir yil davomida amalga oshirilsa, auditorlik tashkiloti tijorat banklarining moliya-xo'jalik faoliyatidagi o'zgarishlarni va oraliq auditorlik tekshiruvlar natijalarini hisobga olgan holda auditni o'tkazish reja dasturlariga o'z vaqtida tuzatishlarni kiritishi lozim bo'ladi.

Auditni rejalashtirishning maqbulligi qoidasi shundan iboratki, rejalashtirish jarayonida auditorlik tashkiloti auditorlik tashkilotining

¹⁹ Auditorlik faoliyati milliy standartlari - T.: O'zbekiston Respublikasi

o'zi belgilagan mezonlar asosida audit umumiy rejasi va dasturining maqbul variantini tanlash imkoniyati uchun rejalashtirishning variantlilikini ta'minlashi zarur.

Tijorat banklarida ichki auditni o'tkazish uchun har yil bir marotaba bank kengashining tavsiyasiga asosan ichki audit o'tkazish uchun dastur ishlab chiqiladi va boshqaruv tomonidan kelishilgan holda bank kengashi tomonidan ushbu dastur tasdiqlanadi. Ushbu dastur asosida tekshiruv rejasi tayyorlanadi hamda Kengash tomonidan tasdiqlanadi.

Tijorat banklarda ichki audit o'tkazish va natijalari bo'yicha yilga hisobot tuzishga qo'yiladigan talablar:

- tasdiqlangan rejaning bajarilishini tekshirish;
- boshqaruv prinsiplariga rioya qilinishini tekshirish;
- buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobning holatini tekshirish;
- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'g'ri hisoblab chiqilishi va to'lanishini tekshirish.

Tijorat banklarda ichki auditni rejalashtirishning maqsadi:

- buxgalteriya hisobining holatini ekspertiza yo'li bilan baholash;
- aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar emissiyasi prospektining ma'lumotlarini tasdiqlash;
- yillik moliyaviy hisobot ma'lumotlarining haqqoniyligini tekshirish va tasdiqlash valyuta muomalalarini tekshirish;
- bankning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish;
- iqtisodiyot va moliyaviy huquq sohasidagi yangi qonunchilik hujjatlari bo'yicha aniq maslahat (konsultatsiya) o'tkazish;
- bank operatsiyalarining to'g'ri bajarilishini tekshirish.

Auditorlik faoliyati auditorlik firmasi rahbariyati tomonidan rejalashtiriladi. Auditorlik faoliyatini rejalashtirish strategik rejalashtirish va qismlarga ajratib rejalashtirish turlariga bo'linadi.

Masalan, bank faoliyatini auditorlik tekshiruvdan o'tkazishni rejalashtirish jarayonida quyidagi jadvaldan foydalanish mumkin.

12-jadval

Bank balansi moddalarining muhimlik darajasi.

| Aktiv | | Passiv | |
|---|---------------------|---|---------------------|
| Modda nomi | Muhimlik darajasi % | Modda nomi | Muhimlik darajasi % |
| Pul mablag'lari | 0,50 | Kapital va fondlar | 5 |
| Korrespondentlik hisobvaraqlari | 0,50 | Qarz bo'yicha yo'qotishlar uchun zaxiralar | 15 |
| Bank mulki | 19 | Qimmatli qog'ozlar bahosini kamayishi uchun zaxiralar | 10 |
| Kredit resurslari bo'yicha to'langan foizlar | 10 | Kreditlar bo'yicha daromadlar | 15 |
| Qimmatli qog'ozlar bilan muomalalar bo'yicha xarajatlar | 10 | Qimmat qog'ozlar bo'yicha daromadlar | 5 |
| Kelgusi davr xarajatlari | 15 | Kelgusi davr daromadlari | 15 |
| Boshqa xarajatlar | 15 | Boshqa daromadlar | 15 |
| Foydadan foydalanish | 10 | Hisoblashidagi mablag'lar | 10 |
| Bank tomonidan berilgan kreditlar | 10 | Mijozlar hisobvaraqlaridagi mablag'lar | 2 |
| Bank tomonidan sotib olingan qimmatli qog'ozlar | 5 | Depozitlar | 2 |
| Daromad keltiruvchi boshqa aktivlar | 5 | Banklararo kreditlar | 6 |
| Jami | 100 | Jami | 100 |

Subyekt faoliyati bilan tanishish jarayonida auditor quyidagilarni baholaydi:

- mijozning moliyaviy barqarorligi;
- iqtisodiy muhitda mijozning mavqeyi;
- agar mijoz oldingi auditoridan ma'lumot olishga ruxsat bermasa yoki oldingi auditor ma'lumot berishdan bosh tortsa, mijozning bundan oldingi auditorlik firmasi bilan munosabatlari.

Tashqi auditni rejalashtirish auditning xalqaro standartlari №300 standarti va AFMS ning 3-sonli standartiga asosan amalga oshiriladi.

Tashqi auditni rejalashtirish bosqichlari:

- auditni dastlabki rejalashtirish;
- auditning umumiy rejasini tayyorlash va tuzish;
- audit dasturini tayyorlash va tuzish.

Rejalashtirishning birinchi bosqichida auditor subyekt faoliyati bo'yicha quyidagi ma'lumotlarni tayyorlashi lozim:

- bank faoliyatining bayoni
- buxgalteriya hisobining shakli va tashkiliy tuzilishining bayoni
- boshqaruv tizimining bayoni
- subyekt moliyaviy hisobining qisqacha tahlili.

13-jadval

**Tijorat banklarida kredit operatsiyalarini
tekshirish audit dasturi**

| No | Muolajalar ro'yxati | Bajaruvchi | Auditorlik ishchi hujjatlari |
|----|---|------------|--|
| 1 | Bank kredit siyosatini tekshirish. | Auditor | Bank kredit siyosati |
| 2 | Bank kredit portfeli auiditi. | Auditor | Kredit portfeli |
| 3 | Kredit hujjatlari yig'ma jildlarini tekshirish. | Auditor | Kredit hujjatlari yig'ma jildlari |
| 4 | Kredit hujjatlarini yuritishni tekshirish. | Auditor | Kredit hujjatlari |
| 5 | Kredit operatsiyalar bo'yicha bank va mijoz o'rtasida tuzilgan shartnomani tekshirish. | Auditor | Bank va mijoz o'rtasida tuzilgan shartnoma |
| 6 | Kredit monitoringini tekshirish. | Auditor | Kredit monitoringi dalolatnomasi |
| 7 | Kredit bo'yicha foizli daromadlarni tekshirish. | Auditor | Shaxsiy hisobvaraqlardan ko'chirma, saldo-oborot qaydnomasi, to'lov hujjatlari, kunlik balans, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot |
| 8 | Kredit bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni tekshirish | Auditor | Shaxsiy hisobvaraqlardan ko'chirma, saldo-oborot qaydnomasi, to'lov hujjatlari, kunlik balans, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot |
| 9 | Bank hisob siyosatida kredit operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettirilishini tekshirish. | Auditor | Bank hisob siyosati |

Bankni tekshirish jarayonida auditorlik ish hajmi va auditorlik riski darajasini baholashda auditorning bilim va tajribasi katta yordam beradi. Auditorlik ish hajmi aniqlangandan keyin, tekshirishni qaysi usul yoki shaklda olib borish tanlanadi.

Tekshirishning usullari: nazorat usuli; analitik usul; muomalalarni sinchiklab o'rganish usuli.

Nazorat usuliga bank boshqaruvi nazoratining sifati, kompyuter nazorat tizimining mavjudligi, fizik nazorat va haqiqiy aktivlar (pul belgilari, qimmatli qog'ozlar va boshqalar)ni tekshirish kiradi.

Analitik usulga kredit summasining qoldig'ini tasdiqlash uchun mijozlarga xat bilan murojaat qilish, muomalalar darajasining ko'tarilishi yoki pasayishi, mavjud daromad ko'rsatkichlari bilan oldingi yillar ko'rsatkichlarini solishtirish kiradi. Nazorat va analitik usullar tez va kam ish talab qiladigan usullardir.

Ma'lumotlarni sinchiklab o'rganish usuli buxgalteriya hisobi hujjatlarining tekshirilish natijalarini, hisob yozuvlarining hujjatlar bilan mosligini va solishtirma tekshiruvlar o'tkazishni o'zida aks ettiradi.

Audit rejasiga asosan audit dasturi tuziladi. Ushbu dasturda rejadagi vazifalarga yanada aniqliklar kiritilib bajaruvchilar o'rtasida taqsimlanadi. Dasturda audit obyektlari, ularni tekshirishda qo'llaniladigan va auditorlik isbotini ta'minlaydigan "usullar", auditorlarning ishchi hujjatlari keltirilgan bo'ladi. O'zining mazmun mohiyatiga ko'ra, auditorlik dasturi audit o'tkazish uchun uslubiy manba va nazorat vositasi bo'lib xizmat qiladi. Auditor audit o'tkazish jarayonida ayrim operatsiyalarni chuqurroq tekshirish zaruriyati kelib chiqsa, bunday hollarda audit dasturiga tegishli o'zgarishlar kiritiladi va qabul qilingan tartiblarga asosan hujjatlashtiriladi. Yuqoridagi audit rejasiga asosan 13-jadvalda bank kredit operatsiyalarini tekshirishning audit dasturi keltirilgan:

Audit rejasi va dasturi asosida o'tkazilgan tekshiruvlar ma'lum tartibda umumlashtirilib boriladi va hujjatlashtiriladi. Ushbu hujjatlar o'z navbatida auditorlik hisoboti va auditorlik xulosalarini tuzishga asos bo'lib xizmat qiladi.

5.3. Tijorat banklari kredit siyosati va uning auditi

Tijorat banklarida kredit operatsiyalari auditi kredit hujjatlari va kreditlashni tashkil etish uchun tijorat banki hamda uning filiallariga me'yoriy hujjat hisoblangan kredit siyosatini tekshirishdan boshlanadi.

Tijorat banki kredit faoliyatini tashkil qilish bank Kengashi tomonidan tasdiqlangan kredit siyosatiga asosan amalga oshiriladi. Xalqaro bank amaliyotida bankning kredit operatsiyalari uchun umumiy javobgarlik bank direktorlar kengashiga yuklanadi. Direktorlar kengashi

kredit siyosatini bevosita amalga oshirish bilan bog‘liq funksiyalarni bankning quyi boshqaruv organlari zimmasiga yuklaydi va kredit siyosatining umumiy tamoyillari va cheklovlarini shakllantiradi. Rivojlangan xorijiy davlatlar, xususan, AQSh va Germaniya bank amaliyotida yirik banklar kredit siyosati to‘g‘risida yozma memorandum ishlab chiqadilar. Memorandumning mazmuni va tarkibi turli banklarda turlichadir, lekin umumiy o‘xshashliklari ham sezilarli darajada mavjuddir.

Kredit siyosatida eng avvalo umumiy maqsad shakllantiriladi.

Har qanday kredit siyosati maqsadi odatda quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak: uzoq muddatli investitsiyalardan aksiyadorlarga yuqori daromad kelishini ta‘minlash, likvidlikni saqlab turish, tavakkalchilikni diversifikatsiya qilish, siyosat va tadbirlar birligini kafolatlash, qonunlar va me‘yoriy hujjatlarga rioya qilish, hududning kreditlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish.

Kredit siyosatining maqsadlari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

✓ yuqori sifatli aktivlarni tashkil etish va daromadlikning doimiy maqsadli darajasini ta‘minlash imkonini beradigan tavakkalchilikning faqat shunday xarakteriga yo‘l qo‘yish;

✓ yuqori sifatli kredit portfelini ta‘minlovchi kredit xodimlarining yuqori malakali jamoasini tashkil qilish;

✓ bankning strategik maqsadlariga muvofiq keladigan iqtisodiy jihatdan istiqbolga ega, rentabelli loyihalarni moliyalashtirish uchun ssudalar berish;

✓ kredit resurslarini jalb etish muddatlaridan kelib chiqqan holda kreditlashni amalga oshirish;

✓ bank mijozlari bilan uzoq muddatli, daromad keltiruvchi munosabatlarni rivojlantirishga ko‘maklashish.

Yuqori darajada raqobatbardosh, biroq kreditlashning asossiz, shuningdek, bank amaliyotida vaqtinchalik istiqboli bo‘lmagan usullaridan foydalanishdan chekinish.

Memorandum bankning turli pog‘onalarda turgan rahbarlari tomonidan berilishi mumkin bo‘lgan kreditlarning yuqori summasini belgilab beradi.

Kredit siyosati to'g'risidagi memorandumning muhim xarakterli xususiyatlaridan biri shundaki, unda bank ma'muriyati tomonidan berilishi faol tarzda rag'batlantiriladigan ssudalarning turlari va bank uchun berilishi nomaqbul bo'lgan ssudalarning turlari aniq belgilab qo'yiladi. Masalan, bank ishlab chiqarish korxonalariga aylanma mablag'larni to'ldirish maqsadiga beriladigan qisqa muddatli kreditlar hajmini oshirishni maqsad qilib olgan bo'lishi mumkin. Ayni vaqtda, bank tomonidan uzoq muddatli investitsiyalar uchun kreditlar berish maqsadga muvofiq bo'lmashligi mumkin.

Kredit siyosati to'g'risidagi memorandumda yoki kredit siyosatining asosiy yo'nalishlarida bankning kredit ekspansiyasi uchun maqbul bo'lgan hududlar aniq belgilab qo'yilgan bo'lishi kerak. Masalan, bank o'zining kredit berish sohasini o'zi joylashgan shahar hududi bilan cheklab qo'ygan bo'lishi mumkin. Yirik bank esa o'zining kredit faoliyati doirasini mamlakatning turli hududlariga va xorijiy davlatlarga ko'chiradi.

Kredit siyosati to'g'risidagi me'yoriy hujjatlarda muddati o'tgan ssudalarni undirish tartibi, overdraft, kontokorrent va boshqa kreditlash shakllaridan foydalanish tartibi, bankning o'z xodimlariga kredit berish tartibi kabi o'ziga xos masalalar aniq aks ettirilgan bo'lishi lozim.

Kredit siyosati to'g'risidagi me'yoriy hujjatlar bank xodimlari tashabbusini bo'g'ib qo'ymasligi lozim. Masalan, kredit siyosatida moliyaviy holati nobarqaror bo'lgan korxonalariga kredit berilishi ta'qiqlab qo'yilgan bo'lishi mumkin. Lekin, joylarda moliyaviy jihatdan barqaror bo'lgan yirik korxonalar kafolati ostida kredit oladigan korxonalar mavjud bo'lishi mumkin yoki korxonaning moliyaviy holati nobarqaror bo'lsada, uning balansida yuqori likvidli garov obyektlari bo'lishi mumkin.

Kredit siyosatida kredit qo'mitasining vakolatlari va javobgarligi masalalari alohida o'rin tutadi. Kredit qo'mitasining javobgarligi asosan quyidagilar bilan belgilanadi:

- ✓ kredit hujjatlarining to'g'ri shakllantirilishi, ularning sifati;
- ✓ qarz oluvchining hisobvarag'iga mablag'lar kelib tushishining to'liqligi va davriyligi;

- ✓ qarz oluvchining reytingi;
- ✓ kreditlar qaytarilishini ta'minlash turlari va shakllari, ularning yuridik jihatdan rasmiylashtirilishi;
- ✓ mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar xo'jalik organlariga kreditlar yoki kafolatlar berilishining maqsadga muvofiqligi va shartlari;
- ✓ kredit hajmi, kredit qiymatining ta'minlanishi va qaytarilishi muddatlarining realligi;
- ✓ bir qarz oluvchi yoki bog'liq shaxslarga berilishi mumkin bo'lgan kredit hajmi.

Bank kredit siyosati kredit berish bosqichida ham, keyingi monitoring bosqichlarida ham jismoniy va yuridik shaxslarning moliyaviy hisobotlariga nisbatan qo'yiladigan talablarni o'z ichiga olishi kerak. Moliyaviy hisobotlarni auditorlik tekshiruvlaridan o'tkazish, naqd pul oqimi va boshqa ma'lumotlar bo'yicha hisobotlarni taqdim etish yuzasidan qo'yiladigan talablar aniq ifodalanishi zarur. Shuni ham qayd etib o'tish lozimki, banklar talab qiladigan ma'lumotlar Xalqaro buxgalterlik hisobi andozalariga muvofiq taqdim etilishi kerak.

Kredit siyosatida potensial qarzdorlarning kredit qobiliyatini (likvidlik, qoplanish, muxtorlik koeffitsiyentlari, kapitallashtirish darajasi, garov bilan ta'minlanganligini ekspertiza qilish va b.) aniqlash uchun ularning moliyaviy ahvolini tahlil qilish tadbirlari batafsil yoritilishi lozim. Bank qarzdorlarning kredit qobiliyati mezonlari va ularni baholash metodikasini aniq belgilab olishi kerak.

Kredit siyosati muayyan turdagi qimmatliklar (ko'chmas mulk, avtomobillar va b.) garovi asosida beriladigan ssudalarning maksimal miqdori limitlarini o'z ichiga olishi hamda ta'minlangan ssudalarning har bir turi uchun kredit hujjatlari to'plamini rasmiylashtirish tadbirlarini belgilashi lozim. Bank kredit siyosatida garov kreditlashning uni berish vaqtidayoq kreditni to'lash manbasi (naqd pul yoki davlat qisqa muddatli obligatsiyalari (xazina veksellari) bilan ta'minlangan kreditlar bundan mustasno) hisoblangan yagona asosi bo'lmasligi belgilab qo'yilishi zarur.

Siyosat garovga olingan mulk turiga qarab garov mavzuga nisbatan qo'yiladigan talablar va kreditning garov qiymatiga nisbatini o'z ichiga

olishi kerak. Mazkur badda garov predmeti sinchiklab baholanishi va uning bozor qiymati uni sotish lozim bo'lgan paytda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararni aniq yoritilishi zarur. Hujjatda garov predmeti mustaqil baholovchi va ichki bank baholovchisi tomonidan baholanadigan hollar ko'rsatib o'tilishi kerak. Turli garov toifalarini baholash uslublari batafsil aks ettirilishi lozim. Siyosat, ko'chmas mulk, ishlab chiqarish jihozlari va iste'mol kreditlarini moliyalash uchun beriladigan kreditlarni to'lash hisobiga qarzdor tomonidan bo'nak to'lovlarni kiritishga doir muayyan talablarni o'z ichiga olishi zarur.

Kredit siyosatida kreditlarni tasniflash tizimi aniq ifodalanishi lozim. Kredit bo'limida ishlaydigan xodimlar kredit portfelidagi barcha ma'lum bo'lgan salbiy o'zgarishlar to'g'risida rahbariyatga xabar berishlari kerak. Qarzdor yoki garov ahvoli yomonlashishini oldindan aniqlash ehtimoliy yo'qotishlarni kamaytirish uchun juda muhimdir.

Kredit siyosati kreditlarning barcha toifalari bo'yicha "to'lovsizlik" tushunchasining aniq ifodalanishi, foizlarni o'stirmaslik mezonlari, shuningdek, bank Boshqaruvi va Kengashiga taqdim etiladigan tegishli hisobotlariga nisbatan talablarni o'z ichiga olishi lozim. Hisobotlarda ahvolning yomonlashishi, potensial zararlarning sabablari va sog'lomlashtirish rejalari batafsil bayon etilishi lozim.

Siyosat qarzlarni qaytarishga doir izchil bosqichma-bosqich chora-tadbirlar ko'rilishini talab qilishi kerak. Rahbariyat Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarga muvofiq kreditlarni hisobdan chiqarish tadbirlarini ishlab chiqishi lozim.

Kredit siyosati turli kreditlar va qarzdorlar bo'yicha belgilanuvchi foiz stavkalarini aniqlashda foydalaniladigan omillarni o'z ichiga olishi kerak. Bunda hech bo'lmaganda resurslar qiymati, kredit bo'yicha xizmat ko'rsatishga doir kutilayotgan xarajatlar, vositachilik haqi, ma'muriy sarflar, ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxiralar va bank marjasi baholanishi zarur.

Kredit siyosati bankka aloqador bo'lgan shaxslarga beriladigan kreditlar bo'yicha Markaziy bank talablariga muvofiq keluvchi limitlarni o'z ichiga olishi lozim.

Kredit siyosatida bankka aloqador bo'lgan shaxslar bilan bitimlarni qisqartirish yoki ularni tuzishning har qanday imkoniyatlarini bartaraf etish maqsadida aloqador shaxslarga beriladigan kreditlarni tasdiqlash va qayta tiklash tartibi hamda tadbirlari belgilab qo'yilishi kerak.

Kredit siyosatida kafolatlar va akkreditivlarning maqsadi va ishlatilishi, mansabdor shaxslarning bunday majburiyatlarni chiqarishga doir vakolatlari va bunday vositalar chiqarilishi mumkin bo'lgan hollar, shuningdek, ularga doir hujjatlar va hisobotlarga nisbatan qo'yiladigan talablar batafsil yoritilishi lozim.

Balansdan tashqari majburiyatlarni berishda moliyaviy hisobotlar (hujjatlar)ni taqdim etishga oid talablar kreditning istalgan boshqa turlarini berishda foydalaniladigan hujjatlar va hisobotlar bilan bir xil bo'lishi zarur. Tijorat akkreditivlari bo'yicha to'lovlarni o'tkazish, to'lov va yuk ortish hujjatlari (nakladnoylari), sug'urta polisleri hamda xalqaro andozalar va tadbirlarga muvofiq talab qilinadigan boshqa hujjatlarga nisbatan qo'yiladigan qo'shimcha talablar qayd etilishi kerak.

Siyosatda bank kredit portfelini vaqti – vaqti bilan baholashga javobgar bo'lgan mansabdor shaxslarni belgilashi hamda kredit portfeli sifatini aniqlash va tuzatishlar minimal yuzaga keluvchi yo'qotishlar bilan amalga oshirilishi uchun muammoli kreditlarni aniqlash uchun zarur bo'lgan ichki bank kredit tahlili maqsadlarini belgilab qo'yishi lozim.

Tahlil maqsadlari kredit sifatini aniqlash bilan bir qatorda kreditlash jarayonini boshqarish sifatini baholash, jumladan, tasdiqlangan kredit siyosatiga va kredit hujjatlarini rasmiylashtirish jarayonlariga, moliyaviy tahlil, garovni rasmiylashtirish va baholash, kreditlashga doir vakolatlarni taqsimlash, qonunchilik me'yorlariga rioya qilishga muvofiqligini ta'minlashni o'z ichiga olishi lozim. Kredit siyosati bank xizmatlari va bo'linmalari tomonidan Bank Boshqaruvi va Kengashiga kreditlashning turli jihatlari bo'yicha taqdim etiladigan hamda kredit portfeli sifati to'g'risidagi xulosalarni va kredit portfelini boshqarish bilan bog'liq bo'lgan boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga olgan hisobotlar turi va davriyligini belgilashi lozim.

Hisobotlar filiallar va bank bo'yicha umuman kreditlash vositalari va yo'nalishlariga qarab tavakkalchiliklarni baholash uchun boshqarishning turli darajalariga moslashtirilgan hamda batafsil yoritilgan bo'lishi kerak.

Bank tomonidan kreditlash sohasida o'z maqsadi doirasida aniq va to'g'ri yondashuv uchun quyidagi omillar katta ahamiyat kasb etadi:

- belgilangan muddat uchun bankni umumiy maqsadlarini ishlab chiqilishi, jumladan likvidlik va foydalilik o'rtasidagi munosabat;
- mamlakat yoki regiondagi umumiy kredit qo'yilmalari massasiga nisbatan kredit resurslarini (markazlashgan resurslar ham qo'shiladi) munosabati.

“Kredit siyosati” hujjati kreditlarni boshqarish jarayonining poydevorini tashkil etadi. Tijorat banki tomonidan ishlab chiqilgan va yozma ravishda qayd etilgan “Kredit siyosati” kreditlarni oqilona boshqarishning samarali yo'llaridan hisoblanadi. Ushbu hujjat bankning kreditlash faoliyatining andozalari va parametrlarini belgilab beradi. Ushbu belgilangan standartlar va parametrlardan kredit berish, qarzlarni hujjatlashtirish va boshqarish bo'yicha mas'uliyatli bo'lgan bank xizmatchilari qo'llanma sifatida foydalanishlari mumkin. Kredit siyosati bank Boshqaruvchi a'zolari, qonun chiqaruvchi, strategik qarorlar qabul qiluvchi shaxslarning xatti-harakatini belgilab beradi hamda ichki va tashqi auditorlarga bankda kreditlarni boshqarish darajasining o'tish davrida, moliyaviy bozorlarga davlatning ta'siri kamaygan sharoitda, tijorat banklari ichki siyosatini o'zlari ishlab chiqishini keskin faollashtirishlari lozim.

5.4. Tijorat banklari kredit portfeli va auditi

Tijorat banklari kredit operatsiyalarining auditi amalga oshirishda kredit portfeli auditini tekshirish auditning keyingi bosqichida amalga oshiriladi. Bank kredit portfelini vaqti-vaqti bilan baholashga javobgar bo'lgan mansabdor shaxslarni belgilashi hamda kredit portfeli sifatini aniqlash va tuzatishlar minimal yuzaga keluvchi yo'qotishlar bilan amalga oshirilishi uchun muammoli kreditlarni aniqlash uchun zarur

bo'lgan ichki bank kredit tahlili maqsadlarini belgilab qo'yishi lozim. Kredit portfeli tahliliga asoslangan holda audit muayyan berilgan kreditga bankning tavakkalchiligini aniqlaydi. Ushbu bosqich alohida e'tibor berishni talab etadi. Chunki auditorlar tavakkalchilik darajasiga qarab aniq kreditga nisbatan hisoblangan zaxirani ko'paytirish yoki kamaytirishga haqlidir, bu esa bank aktivining sifatida o'z ifodasini topadi.

14-jadval

Bank kredit portfeli auditida tahlilning asosiy bosqichlari

| № | Tahlil qismlari | Ma'lumotlarni aniqroq ochib berilishi |
|----------|---|--|
| 1 | Kreditlarning holati bo'yicha tahlili | Joriy, muddati o'tgan, muddati uzaytirilgan, suddagi kreditlar, o'sib bormaydigan statusdagi kreditlar, hisobdan chiqarilgan kreditlar. |
| 2 | Kreditlarning muddati bo'yicha tahlili | Qisqa muddatli, uzoq muddatli overdraftlar. |
| 3 | Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha tahlili | Sanoat, qishloq xo'jalik, kichik biznes, savdo, davlat translari, mikro kreditlar, iste'mol kreditlari. |
| 4 | Foiz stavkalari bo'yicha tahlili | Imtiyozli, qayta moliyalashtirish stavkasi darajasida, tijorat. |
| 5 | Ta'minot turi bo'yicha tahlili | Ishonchli kreditlar, mulk garovi, uchinchi shaxs kafolati, kafolatlangan kreditlar. |
| 6 | Kredit sifati tahlili | Yaxshi, standart, substandart, shubhali, ishonchsiz. |
| 7 | Kreditlarning manbasi bo'yicha tahlili | Bankning o'z mablag'lari, jalb qilingan mablag'lar. |
| 8 | Kreditlarning maqsadi bo'yicha tahlili | Tijorat, aylanma mablag'larni to'ldirish. |
| 9 | Audit qilish davrida kreditlarning o'zgarishi dinamikasining tahlili | Kreditlash hajmining oshishi yoki kamayishi, muammoli kreditlarning ulushi va ular bilan ishlash samaradorligining, rezervlar summasining, kredit aktivlari rentabelligining o'sishi yoki pasayishi. |

Bank tomonidan kreditlash sohasida o'z maqsadi doirasida aniq va to'g'ri yondashuv uchun quyidagi omillar katta ahamiyat kasb etadi:

- belgilangan muddat uchun bankni umumiy maqsadlarini ishlab chiqilishi, jumladan likvidlik va foydalilik o'rtasidagi munosabat;
- mamlakat yoki regiondagi umumiy kredit qo'yilmalari massasiga nisbatan kredit resurslarini (markazlashgan resurslar ham qo'shiladi) munosabati.

Kredit portfelini tarmoqlar bo'yicha divesifikatsiyalash darajasini o'rganishga auditor alohida e'tibor berishi kerak. Bizning fikrimizcha, kredit portfelini tarmoqlar bo'yicha divesifikatsiyalash darajasini natijasida kredit portfeli sifati yaxshilanishi kuzatiladi.

Misol uchun korporativ mijozlarga ajratilgan kreditlar ulushi 2016-yil natijalari bo'yicha 60.8 foizni yoki absolyut ifodasida 2075,9 mlrd so'mni tashkil etadi. Bankda yildan yilga korporativ mijozlarga berilgan kreditlar salmog'i kamayib bormoqda. Bunga sabab oxirgi yillarda ipoteka kreditini ajratish o'sib bormoqda.

Kreditlarning qaytmaslik xavfini xedjirlash maqsadida, yil davomida bank kredit portfelini adekvat miqdorida zaxiralar bilan qoplanishi ta'minlanadi, moliyaviy faoliyatning barqarorligiga sharoit yaratilib, kreditlar bo'yicha yo'qotishlarni hisobdan chiqarish bilan bog'liq xarajatlarning o'sishidan chegaralandi.

Bizga ma'lumki, tijorat banklari kredit portfelini boshqarishda uning tarmoq xususiyatiga ko'ra diversifikatsiya qilinganligiga alohida e'tibor qaratiladi. Chunki, bu xususiyat kredit portfelini diversifikatsiya qilishning asosiy mezonini hisoblanadi.

Ma'lumki, tijorat banklari kredit portfelining sifatini oshirishning zaruriy shartlaridan biri bo'lmish diversifikatsiyalash tamoyiliga qat'iy rioya qilish ekanligi jahon moliyaviy inqirozi sharoitida yaqqol namoyon bo'ldi.

AQSh va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari hududida faoliyat ko'rsatayotgan qator tijorat banklari kredit portfelini diversifikatsiyalash tamoyilining buzilishiga yo'l qo'ydilar. Natijada ularning kredit portfeli hajmida ipoteka kreditlarining salmog'i 50 foizdan oshib ketdi. Holbuki, tijorat banklari kreditlarining 25 foizdan ortiq qismini bitta soha yoki tarmoqda to'planishi bank kredit portfelining diversifikatsiyalash tamoyilining buzilganligidan dalolat beradi va kredit xatarining kuchayishiga olib keladi.

Kredit portfelining holatini tahlil qilishda auditor kredit berish bilan bog'liq bir nechta ko'rsatkichlarni, ya'ni berilgan kreditning o'ziga xos xususiyati, uning ta'minlanishi, foizlarning to'g'ri hisoblanishi va o'z vaqtida daromad hisobvaraqlariga olinishi, qaytarilish muddatlari va hokazolarni o'rganishi lozim bo'ladi.

Kredit portfeli bo'yicha cheklovlarni bank kapitali zaxiralari summasiga nisbati²⁰

| No | Kreditlash sohasi | Cheklov miqdori |
|----|-----------------------------------|-----------------|
| 1 | Bir kompaniya uchun | 10-20% |
| 2 | Bir guruh kompaniyalar uchun | 25-50% |
| 3 | Sanoatning birgina tarmog'i uchun | 50-100% |
| 4 | O'zaro bog'liq tarmoq uchun | 200-500% |
| 5 | Bozor segmenti | 1000-1500% |
| 6 | Uzoq muddatli kreditlar | 500-600% |

Demak, quyidagi jadvaldan shu narsa ko'rinadiki kredit berayotgan bank bir kompaniya uchun o'z kapitalining 10-20 % dan ortiq kredit bermasligi kerak.

Bir guruh kompaniyalar uchun esa o'z kapitalining 25-50% dan ortiq kredit bermasligi kerak.

Sanoatning bir tarmog'ida faoliyat olib borayotgan korxonalar va kompaniyalarga kapitalning 50-100 %dan ortiq kredit berilsa, bank o'z kredit portfelini risk (xavf) ostiga qo'ygan bo'ladi.

Xuddi shunday o'zaro bog'liq tarmoqda faoliyat olib borilayotgan korxonalar va kompaniyalarga kapitalning 2 yoki 5 baravaridan ortiq kredit berilmasligi lozim.

Bozor segmenti deganda korxonalar, hukumat, aholi kabilar tushunilishi kerak. Bozor segmentiga beriladigan kreditlar kapitalning 10 yoki 15 baravaridan oshmasligi kerak.

Tijorat banklarini kreditlar bo'yicha yo'qotishlarga ta'sir etuvchi omillari tahlili natijasida Farbiy Yevropa banklari ichki omillarni ta'siri ko'p degan xulosaga keldilar. Jahon Banki ma'lumotlariga ko'ra kredit yo'qotishlarini 67 foiziga bankning ichki omillari sabab bo'lsa, 33 foizi esa tashqi omillar sabab bo'ladi.

SSudalar bo'yicha yo'qotishlar uchun zaxiralarni tashkil qilish va ulardan foydalanishdagi xatolar:

- SSudaning ta'minot kriteriyasi bo'yicha noto'g'ri tasniflanganligi risk guruhi o'zgarganda zaxira korrrektirovkasi o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi;

²⁰ Doug Allen Hamilton Washington D.S,2001 y.

Kredit yo‘qotishlariga ta’sir qiluvchi asosiy omillar²¹

| Ichki omillar | 67 % | Tashqi omillar | 33 % |
|---|------|--|------|
| Ta’minot yetishmasligi | 22 % | Kompaniyani bankrotligi | 12 % |
| Kredit arizasi tahlil qilinganda noto‘g‘ri baholash | 21 % | Kreditorlarni haqlarini talab qilishlari | 11 % |
| Mijoz faoliyatini yaxshi o‘rganmaslik | 18 % | Oilaviy muammolar | 6 % |
| Ta’minotni yomonligi | 5 % | Ta’magirlik | 4 % |
| Boshqa ichki omillar | 1 % | | |

- tashkil etilgan zaxira summasini muddati o‘tgan ssudalar bo‘yicha zaxiralar hisobvarag‘iga o‘tkazilmaganligi;
- zaxiralarning muddati o‘tgan foizlarni balansdan chiqarish uchun ishlatilmaganligi.

5.5. Tijorat banklari kredit operatsiyalari hisobi auditi

Tijorat banklarida kredit operatsiyalarini audit qilishda ularning buxgalteriya hisobida to‘g‘ri aks ettirilishini tekshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir kredit operatsiyasi bajarilishi uchun buxgalteriya hisobvaraqlarida aks ettirilishi lozim bo‘ladi.

Kredit operatsiyalari hisobini tekshirishda quyidagi jadvalda keltirilgan me‘yoriy hujjatlar talablarining bajarilishi o‘rganiladi.

Bankning kredit operatsiyalarini audit qilishda quyidagi tekshirishlar amalga oshiriladi:

- bankda kredit operatsiyalarini tashkil etilishi, hamda kredit berishdagi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi;
- kredit shartnomalaridagi majburiyatlarni bajarilishini ta’minlash bo‘yicha hujjatlarni to‘g‘ri rasmiylashtirilishi, hujjatlarni saqlash tartibi;
- kredit berish va qaytarish bo‘yicha operatsiyalarni buxgalteriya hisobida to‘g‘ri rasmiylashtirilishini;

²¹ Jahon banki missiyasining umumiy sharhi – Vashington DS – 2000 yil 3 mart

- kreditdan foydalanganlik uchun foizlarni hisoblash va olishni buxgalteriya hisobida to‘g‘ri aks ettirilishini;

- balansdan muddati o‘tgan foizlarni va kredit shartnomasi majburiyatlari buzilgan holatdagi asosiy qarz summasini o‘z vaqtida o‘chirish (списания)ni;

- ssudalar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlar rezervini ishlatilishi, o‘z vaqtida va to‘liq shakllantirilishini;

- kredit shartnomalarini bajarilishi ustidan bank nazorati, muddati o‘tgan qarzdorlik bo‘yicha bankning faoliyati;

- kredit liniyalari ochish yo‘li bilan kreditlash operatsiyalari va boshqalar.

Garov shartnomasi tuzilgandan keyin kredit oluvchi va bank o‘rtasida kredit shartnomasi tuziladi va kredit berilishi mumkin bo‘ladi. Bank tomonidan qarz oluvchiga kredit berilayotganda alohida kredit schyoti ochilishi (hisob-kitob raqamidan tashqari), hisob-kitob raqamini to‘xtatgan holda kredit hisobvarag‘i ochilishi yoki hisob-kitob raqamidan kredit shartnomasida ko‘rsatilgan miqdorda ortiqcha mablag‘ni sarflanishiga ruxsat berilishi mumkin.

Berilgan kreditlarning analitik hisobi har bir kredit oluvchi uchun ochilgan 20 ta raqamdan iborat kredit hisobvaraqlari orqali yuritiladi.

Bank tomonidan berilgan kredit amaldagi qiymatida aks ettiriladi va u qarzdorga berilgan pul mablag‘lari summasini ifodalaydi. Tijorat banklari kredit operatsiyalari hisobi audit tekshiruvidan o‘tayotganda quyidagi buxgalteriya o‘tkazmalari amalga oshirilishiga e‘tibor qaratiladi:

Dt 11900-15500 (tegishli ssuda hisobvarag‘i)

Kt 10301 - “Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag‘i – Nostro”

(agar mablag‘ oluvchiga boshqa tijorat banki tomonidan xizmat ko‘rsatilsa), yoki

Kt – mablag‘ oluvchining talab qilib olunguncha depozit hisobvarag‘i (agar mablag‘ oluvchiga mazkur bankda xizmat ko‘rsatilsa) yoki

Kt – 10100 – “Kassadagi naqd pul va boshqa to‘lov hujjatlari” (kredit naqd pulda berilganda).

Kredit berish munosabati bilan bank tomonidan olinadigan vositachilik haqi qarzdorning moliyaviy ahvolini va investitsiya loyihalarini qoplanishini baholash, kafolatlarni baholash va aks ettirish, garov va boshqa ta'minotlarni tashkillashtirish bo'yicha tadbirlar, hujjatlarni tayyorlash va ular bilan ishlash hamda bitimni yakunlash bilan bog'liq bank xarajatlari kompensatsiyasini o'z ichiga oladi. Shu kabi vositachilik haqlari kredit berish va kelgusida kredit munosabatlarida qatnashishning ajralmas qismi bo'lib va ularga tegishli to'g'ridan-to'g'ri xarajatlar bilan birgalikda muddati uzaytiriladi va real daromadni tuzatish (korrektirovka qilish) sifatida tan olinadi. Bundan tashqari, banklar kredit berish borasida yozma majburiyat uchun vositachilik haqi olishlari mumkin.

Banklar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlari uchun potensial qarz oluvchilardan vositachilik haqi olinayotganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasiga mosligi audit qilinadi:

Dt - Qarz oluvchining talab qilib olunguncha depozit hisobvarag'i
Kt – 22896 “Boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar”

Kredit berish to'g'risidagi yozma majburiyat bergani uchun olingan vositachilik daromadlari, kredit shartnomasini tuzishi ehtimoli mavjud bo'lgan taqdirda, bankning kredit berish jarayonida doimiy ishtirok etganligi uchun to'lov (kompensatsiya) sifatida qaraladi. Bank tomonidan olingan vositachilik daromadlarining muddati, ular bilan bog'liq bevosita xarajatlar bilan birgalikda uzaytiriladi va ular real daromadga tuzatishlar (korrektirovka) sifatida tan olinadi.

Qarzdor tomonidan kredit muddatidan oldin qaytarilsa yoki kreditdan qaytarish muddatidan oldin boshqa shaxs foydasiga voz kechilsa, bank shu bilan bog'liq har qanday kechiktirilgan vositachilik haqini kredit qaytarilgan yoki boshqa shaxs foydasiga voz kechilgan sanasiga daromad sifatida tan oladi. Kredit qadrsizlanishini tasdiqlovchi obyektiv dalillar va sharoitlar aniqlangan taqdirda, zarar summasi quyidagi ikki miqdordan eng yuqorisi bo'yicha baholanadi:

1) “Tijorat banklari tomonidan aktivlar sifatini tasniflash, ular bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxiralar tashkil qilish va ularni ishlatish tartibi to'g'risida”gi nizomga muvofiq aniqlangan summa bo'yicha; yoki

2) Kreditning balans qiymati va kreditning boshlang'ich foiz stavkasi bo'yicha diskontlangan kutilayotgan bo'lajak pul oqimlarining joriy qiymati o'rtasidagi farq bo'yicha.

Bank ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholashni quyidagicha aks ettirilishi:

Dt 56802- "Kreditlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash";

Kt – Kreditlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar zaxirasi – kreditning mos kategoriyasi (kontraktiv).

Agar kredit portfelining keyingi tahlili natijasida uning zaxiralari ko'rsatilgan talablardan oshsa, bank zaxira summasini oxirgi sana holati bo'yicha aniqlangan, ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar summasiga muvofiqlashtirishi audit qilinishi lozim. Bunda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt – Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar zaxirasi – kreditning mos kategoriyasi (kontraktiv);

Kt 56802 – "Kreditlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash".

Chet el valyutasida berilgan kreditlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash avval kredit qaysi valyutada berilgan bo'lsa, o'sha valyutada amalga oshiriladi. Shu tarzda, birinchi navbatda, kutilayotgan har qanday zararlarni baholash chet el valyutasida amalga oshiriladi, keyin bu summa O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida aks ettiriladi. Kreditlarni qaytarilishi qarz oluvchining asosiy, shuningdek, ikkilamchi talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlaridan quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali amalga oshirilishi tekshiriladi:

Dt – Qarz oluvchining talab qilib olunguncha depozit hisobvarag'i;

Kt – Ssuda hisobvarag'i.

Agar kredit kafolat beruvchi (kafil) tomonidan qaytarilsa, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt – Kafolat beruvchi (kafil) talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i, yoki

Dt 10301 – Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'i – Nostro;

Kt – Ssuda hisobvarag'i.

Kreditlar qarz oluvchi tomonidan naqd pulda qaytarilganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshirilishi tekshiriladi:

Dt 10100 – “Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari”;

Kt – Ssuda hisobvarag'i.

Agar kreditga foiz o'stirmaslik maqomi berilmagan bo'lsa, unda kreditlar bo'yicha foizlar tushumi quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali aks ettiriladi:

Dt- Qarz oluvchining talab qilib olunguncha depozit hisobvarag'i;

Kt 16309 – “Kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlar”.

Foizlarni o'stirmaslik maqomi berilgan kreditlar bo'yicha foizlar hisobi foizlarni o'stirmaslik to'g'risida nizom (ro'yxat raqami 1304, 2004-yil 24-yanvar)ga muvofiq amalga oshiriladi.

Aktivlarga “o'stirmaslik” maqomini bergan paytdan boshlab, banklar quyidagilarni amalga oshirishlari audit qilinishi lozim:

- foizli daromadlarni balans hisobvaraqlarida hisoblash to'xtatiladi;

- barcha hisoblangan, lekin olinmagan foizli daromadlar balans hisobvaraqlaridan ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlariga o'tkazilishi lozim va aktivga «o'stirmaslik» maqomi berilgandan so'ng keyingi foizlar hisoblanishi ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlarida amalga oshiriladi;

- ushbu aktivlar bo'yicha barcha keyingi to'lovlar birinchi navbatda, hisoblangan, lekin olinmagan foizli daromadlarni, keyin esa kreditning asosiy summasini qoplashga yo'naltiriladi.

3) Hisoblangan foizli daromadlarni ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlariga o'tkazilishi quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari orqali amalga oshiriladi:

Dt Tegishli foizli daromadlar hisobvaraqlari;

Kt 16300 «Olinishi lozim bo'lgan hisoblangan foizlar»;

Dt 91500 «Aktivlar bo'yicha foizlar va vositachilik haqlari»;

Kt 96333 «(Qimmatli qog'ozlar bo'yicha) olinishi lozim bo'lgan hisoblangan foizlar kontr-hisobvarag'i» yoki

96335 «Aktivlar bo'yicha foizlar va vositachilik haqlari kontr-hisobvarag'i»;

Agar qarzdor tomonidan olingan garov bilan ta'minlanmagan kredit qaytarilmasa yoki to'liq qaytarilmasa, u holda ushbu kreditlar zararlari uchun tashkil qilingan zaxira hisobiga quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali hisobdan chiqarilishi tekshiriladi:

Dt - Kreditlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlar zaxirasi - kreditning mos kategoriyasi (kontraktiv);

Kt - Suda hisobvarag'i.

Agar qarzdor tomonidan olingan garov bilan ta'minlangan kredit qaytarilmasa yoki to'liq qaytarilmasa, u holda bank olingan kreditni garovga qo'yilgan mol-mulk orqali undirish huquqiga ega. Undirib olish bo'yicha garovga qo'yilgan mol-mulk kim oshdi savdosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sotiladi. Garovga qo'yilgan mol-mulkni sotishdan mablag'lar kelib tushganda: Dt 10301- Markaziy bankdagi solilik hisobvarag'i - Nostro - debetlanadi va Kt 29801 "Mijozlar bilan hisob-kitoblar" hisobvarag'i kreditlanadi.

Kreditlar bo'yicha asosiy qarzni va mazkur kredit bo'yicha ta'minlangan, lekin hali olinmagan foizlarni qaytarish quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali amalga oshirilishi:

a) Asosiy qarz qaytarilganda:

Dt 29801 "Mijozlar bilan hisob-kitoblar";

Kt - Suda hisobvarag'i.

b) Asosiy qarz to'liq qaytarilgandan keyin, foizlar qaytarilayotganda:

Dt 29801 "Mijozlar bilan hisob-kitoblar";

Kt 41400-44600 - Kreditlar bo'yicha foiz daromadlari.

Olingan kredit garovga olingan mol-mulkni o'z egaligiga olish yo'li bilan qaytarilgan taqdirda, kreditning balans qiymatidan va garovga qo'yilgan mol-mulkning haqqoniy qiymatidan qaysi biri eng kam bo'lsa, ushbu qiymat bo'yicha, uni sotish bo'yicha qilingan xarajatlarni olib tashlagan holda, lekin qayta savdodagi dastlabki sotuv bahosidan 10% kam bo'lmagan summada quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshirilishi:

Dt 16701 - "Kredit va lizing bo'yicha garov hisobidan undirilgan mablag'lar";

Kt – Ssuda hisobvarag'i kabi buxgalteriya yozuvlariga mosligi va tartibi audit tekshiruvidan o'tkaziladi.

Bank krediti o'zining mohiyatiga ko'ra qiymatning pul shaklidagi harakatidir. Bu harakat, avvalo kapitalning doiraviy aylanishi va aylanishidagi uzluksizlikni ta'minlashga qaratilgan. Demak, kredit tovar-moddiy boyliklar ishlab chiqarishni ko'paytirish manbaidir. Rivojlanayotgan xorijiy davlatlarda va O'zbekiston Respublikasida kredit hisobidan yangi texnika va texnologiyalar sotib olinmoqda. Bu esa milliy iqtisodiyotni inqiroz holatidan chiqarish va rivojlantirishning ustivor yo'nalishi hisoblanadi. Yangi texnika va texnologiyalar bilan qurollangan ishlab chiqarish obyektlarida mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi va sifati oshadi va pirovard natijada milliy daromadni ko'payishiga olib keladi.

Ayni vaqtda, kreditdan samarasiz foydalanish milliy iqtisodiyot rivojiga salbiy ta'sir qiladi. Bizning fikrimizcha, ushbu salbiy ta'sirning ikki asosiy jihatini ajratib ko'rsatish mumkin:

Kreditlarni olish hajmining keskin o'sishi va ularning sezilarli qismini qaytarilmasligi muomaladagi pul massasining o'sishiga va tovar massasi bilan pul massasi o'rtasidagi farqni kengayishiga olib keladi.

Xalqaro kreditlarning qaytmasligi mamlakatning tashqi qarzini ko'payishiga va milliy daromadning asosiy qismini tashqi qarzni to'lashga sarflashga olib keladi.

Kredit jarayonining moddiy asosi bo'lib, umumijtimoiy mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayoni hisoblanadi, o'z navbatida uning kengayishi yoki qisqarishini bank resurslariga bo'lgan talab va taklif, hamda tijorat banklari operatsiyalarini kengayishi yoki qisqarishini aniqlaydi. O'z navbatida tijorat banklari bo'sh pul mablag'larini va tashkilotlar va aholini mablag'larini to'plash, ularni ssuda kapitaliga aylantirish va qayta taqsimlash mobaynida iqtisodiyotni umumiy effektivligini oshirish maqsadida kapitalni bir tarmoqdan boshqa tarmoqlarga joylashtirishni ta'minlaydi.

Kredit jarayonini tashkil qilish kreditning mohiyati va mazmunini ifodalovchi kreditlash tamoyillariga, hamda mamlakatning tegishli qonun va talablariga to'liq rioya qilingan holda amalga oshiriladi.

Kreditlashning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat: qaytarishlilik, to'lovlilik, ta'minlanganlik, muddatlilik va maqsadlilik.

Quyida A bankning Yuqori Chirchiq filialida kredit operatsiyalari bo'yicha ichki audit natijalari keltiriladi. Kredit portfelining tahlili va kreditlash ishlarining ahvolini tekshirish natijalari bo'yicha

Muddati o'tgan va muammoga aylanish xatari yuqori bo'lgan kreditlar bo'yicha "Rayim gullan" xususiy korxonasiga 2017-yil 15-martda "Xizmat ko'rsatish kompleksini qurish uchun qurilish materiallari va asbob uskunalar sotib olish uchun" 3 yil muddatga yillik 12 foiz to'lash sharti bilan 500000,0 ming so'm kredit ajratilgan. Taqdim qilingan kredit yig'ma "Rayim gullan" xususiy korxonaga tegishli ulgurji savdo, milliy taomlar, xizmat va omborxonasi binosi garovga olinishi belgilangan bo'lib, haqiqatda kredit ta'minoti sifatida jami 625000,0 ming so'mga baholanib garovga olingan. Kreditdan samarali foydalanayotganligi ahvoli va garovga qo'yilgan mulklarning saqlanishi holati yuzasidan choraklik monitoring o'tkazilmagan.

Kreditning asosiy qarzidan 395000,0 ming so'm qarzdorlik mavjud bo'lib, shundan 15000,0 ming so'mi grafik bo'yicha muddati o'tgan (yashirib kelingan). Muddati o'tgan qarzdorlik bank balansining tegishli hisobvaraqlarida aks ettirilmagan. Kechiktirilgan kun uchun 1500,0 ming so'mgacha miqdorda penya hisoblanishi lozim. Tekshiruv davomida ushbu kredit grafik bo'yicha qarzdorlik to'liq so'ndirildi.

"Yuqori Chirchiq 9-son Avtokorxonasi" MChJga 2017-yil 02-fevralda "Aholiga transport xizmatini tashkil qilish uchun" maqsadida 3 yil muddatga Yillik 16 foiz to'lash sharti bilan 200000,0 ming so'm miqdoridagi kredit ajratilgan. Kredit ta'minoti sifatida Yuqori Chirchiq 9-son Avtokorxonasi MChJga tegishli ta'mirlash ustaxonasi binosi jami 250000,0 ming so'mga baholanib garovga olingan holda kredit ajratilgan.

Kreditning asosiy qarzidan 106000,0 ming so'm qarzdorlik mavjud bo'lib, shundan 10000,0 ming so'mi grafik bo'yicha muddati o'tgan (yashirib kelingan). Ushbu muddati o'tgan qarzdorlik bank balansining tegishli hisobvaraqlarida aks ettirilmagan. Ushbu kredit muammoli kreditga aylangan va hozirgi kunga qadar muddati o'tgan kreditga har

bir kechiktirilgan kun uchun 1000\$ ming so‘m miqdorida penya hisoblanmagan. Tekshiruv davomida qaytarish grafigi bo‘yicha chiqarilgan qarzdorlik qayta ko‘rib chiqilganda so‘ndirilganligi ma‘lum bo‘ldi.

“Oyovdo‘rmon g‘isht” xususiy korxonasi 2016-yil 21-dekabrda “Lasetti” yengil avtomashinasi sotib olish uchun 3 yil muddatga yillik 18 foiz to‘lash sharti bilan 58927,0 ming so‘m miqdorida kredit ajratilgan. Kreditning asosiy qarzidan 38.277,0 ming so‘m qarzdorlik mavjud bo‘lib, shundan 1800,0 ming so‘mi grafik bo‘yicha muddati o‘tgan (yashirib kelingan). Ushbu muddati o‘tgan qarzdorlik bank balansining tegishli hisobvaraqlarida aks ettirilmagan. Ushbu kredit muammoli kreditga aylangan va hozirgi kunga qadar muddati o‘tgan kreditga har bir kechiktirilgan kun uchun 180,0 ming so‘m miqdorida penya hisoblanmagan. Tekshiruv davomida ushbu kredit grafik bo‘yicha qarzdorlik to‘liq so‘ndirildi.

“Oltinko‘l universal” fermer xo‘jaligiga 2018-yil 16-iyulda “Ishchi va xizmatchilarga dam olish binosini qurish uchun qurilish materiallari sotib olish” maqsadida 3 yil muddatga yillik 16 foiz to‘lash sharti bilan 80.000,0 ming so‘m miqdoridagi kredit ajratilgan. Kreditning asosiy qarzidan 19.968,0 ming so‘m qarzdorlik mavjud bo‘lib, shundan 6.635,0 ming so‘mi belgilangan grafik bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlikligi (yashirilgan qarzdorlik) aniqlandi. Muddati o‘tgan kreditga har bir kechiktirilgan kun uchun 663,5 ming so‘m miqdorida penya hisoblanmagan. Tekshiruv davomida tegishli 13105-hisob raqamiga chiqarilib nazoratga olindi.

Filialda sud qarorlarining bajarilishi bo‘yicha:

Filialda yurist konsultanti tomonidan 2017-yil 01-fevraldan 2018-yil 01-martgacha bo‘lgan davrda 14 ta qarzdorning jami 518222,9 ming so‘mlik kreditlar va foizlari muddatidan oldin undirilishi bo‘yicha Urganch tumanlararo iqtisodiy sudiga hujjatlari kiritilib da‘vo arizalari yuzasidan sud qarorlari chiqarilib yuqoridagi kreditlar bank foydasiga to‘liq undirilganligi ma‘lum bo‘ldi. “A” bank Yuqori Chirchiq filiali tomonidan “Amudaryo shiddati” fermer xo‘jaligiga 42.593,0 ming so‘m, “Jayxun iftixori” fermer xo‘jaligiga 40818,0 ming so‘m, “Daryobo‘yi oq

oltin dalasi” fermer xo‘jaligiga 43100,0 ming so‘m va “Alisher Hamid Akrom” fermer xo‘jaligiga 30270,0 ming so‘m ajratilgan kreditlar hisobiga sotib olingan mulklar garovga qo‘yilmaganligi, kredit foizi va tani to‘lov jadvali bo‘yicha belgilangan muddatlarda to‘lanmasdan muammoga aylanganligi sababli ushbu qarzdorliklarni undirish va qonuniy chora ko‘rish haqida 2017-yil fevral-dekabr oylari mobaynida Toshkent viloyati Urganch tumanlararo iqtisodiy sudiga murojaat qilingan va №2201-1701/2684, №2201-1701/2688, №2201-1701/2690, №2201-1701/2692-sonli qarorlari bilan muddati o‘tgan qarzdorlik va foizlari ko‘rib chiqilib bank filiali foydasiga undirib berilgan. Huquqiy targ‘ibot ishlari yuzasidan ko‘rgazmali stendlar tashkil etilmagan, iqtisodiy o‘quvlarda qonunchilik hujjatlari bo‘yicha ma‘ruzalar o‘tkazilmagan.

Muntazam ko‘rsatkichi va uning elektron to‘plamini jamlanishi bo‘yicha lozim bo‘lgan daftarlar:

- 1) Doimiy me‘yoriy hujjatlarni ro‘yxatga olish;
- 2) Davlat ijro organlari bilan birgalikda qabul qilingan me‘yoriy hujjatlarni ro‘yxatga olish;
- 3) “Markaziy bankning ko‘rsatma tUSDagi xatlarini ro‘yxatga olish” daftarlari ochilmagan.

Markaziy bankning doimiy, vaqtinchalik tUSDagi me‘yoriy hujjatlarini yuritish uchun maxsus kitob yuritilmagan. Kitobga bank faoliyatini tartibga soluvchi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy majlis qarorlari, Prezident farmonlari, qarorlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Markaziy bankning doimiy, vaqtinchalik tUSDagi me‘yoriy hujjatlari qayd qilinmagan.

Grafik bo‘yicha muddati o‘tgan kreditlar bo‘yicha:

Tijorat kreditlari bo‘yicha kredit shartnomalarining ajralmas qismi bo‘lgan kredit va uning ustama foizlarini qaytarish grafigiga asosan kreditlarning so‘ndirilishi o‘rganilganda jami 5 ta holatda kreditlarning 608235,5 ming so‘m miqdoridagi qoldiqlari bo‘yicha 33675,0 ming so‘m miqdoridagi kreditlar grafik bo‘yicha qaytarilmay turibdi, balansning tegishli muddati o‘tgan hisobvaraqlariga chiqarilmagan va 10 foizdan oshmagan miqdorda) 3367,5 ming so‘m miqdorida penya

hisoblanmagan. Tekshirish davomida grafik bo'yicha 17040,0 ming so'm qarzdorlik so'ndirildi va qolgan 21635,0 ming so'mi 13105-hisob raqamiga chiqarildi.

Shuningdek, grafik bo'yicha bank balansida aks ettirilgan muammoli kreditlarni mas'ul xodimlar tomonidan tekshiruv davri mobaynida (01.02.2017 yil 01.03.2018 yil oralig'ida) 8 ta holatda 5 ta mijoz bo'yicha 60965,7 ming so'mlik har oyning yakunida "storno" amaliyoti bajarilgani holda ushbu kreditlar tegishli muddatli ssuda hisobvaraqlariga o'tkazib kelingan. Masalan, 2017-yil 28-fevral va 31-mart holatlarida "Sholxa" fermer xo'jaligida jami 20000,0 ming so'mlik va "Shoira Dildora Nodirbek" fermer xo'jaligida jami 14000,0 ming so'mlik va "Olloyor Maxsum" fermer xo'jaligida jami 14000,0 ming so'mlik, 2017-yil 31-may holatida "Toshkent oltin toji" MChJning 10000,0 ming so'mlik, 2017-yil 31-iyul holatida "Marks" fermer xo'jaligida 2965,7 ming so'mlik grafik bo'yicha muddati o'tgan krediti "storno" amaliyoti bajarilgani holda bank balansining 13101-hisobvarag'iga va 15501-hisobvarag'iga qaytarib olingan. Muddati o'tgan kredit qarzi uchun ham o'z vaqtida qaytarilmaganligi uchun kredit shartnomalarida kelishilgan miqdorda penya hisoblanmagan.

Tijorat kreditlari bo'yicha:

Tijora kredit yig'ma jildlari inventarizatsiyadan o'tkazilganda 3 ta holatda 16015,0 ming so'mlik kreditlar uchun qarz oluvchining ta'sis hujjatlari nusxasi olinmagan, 3 ta holatda 6694,0 ming so'mlik kreditlar uchun qarz oluvchilardan biznes rejalar talab qilib olinmagan, 8 ta holatda 86435,0 ming so'mlik kredit uchun qarz oluvchining buxgalteriya balansi olinmagan, 8 ta holatda 86.435,0 ming so'mlik kredit uchun qarz oluvchining kreditga layoqatligi tahlil qilinmagan, 13 ta holatda 7533124,0 ming so'mlik kreditlar uchun viloyat kredit komissiyasining qarori olinmagan, 10 ta holatda 99266,0 ming so'mlik kredit shartnomalariga huquqshunos xulosalari olinmagan, 4 ta holatda 245567,0 ming so'mlik ajratilgan kreditlar uchun ta'minot rasmiylashtirilishi oxiriga yetkazilmagan (ushbu kreditlar yengil avtomashinalarni olib kelingandan keyin garovga olinishi kelishilgan), 10 ta holatda 99266,0 ming so'mlik kredit shartnomalariga huquqshunos

xulosalari olinmagan, 9 ta holatda 275933,0 ming so‘mlik kreditlarning maqsadli ishlatilishi tekshirilmagan, 13 ta holatda 480613,0 ming so‘mlik kredit va ta‘minot uchun kredit (choraklik) monitoringlari o‘tkazilmagan.

Yuqorida keltirilgan A bankning tegishli filialida kredit operatsiyalari auditi bo‘yicha bir qator kamchiliklar keltirilib, ularni bartaraf etish muddatlari hamda mas‘ul shaxslar belgilanadi.

Mavzu bo‘yicha tayanch so‘z va atamalar

Kredit, muammoli kreditlar auditi, kredit siyosati, kredit operatsiyalari auditi, kredit portfeli auditi, kredit operatsiyalari hisobi, kreditga layoqatlilik.

O‘z bilimini tekshirish bo‘yicha savollar

1. Kredit operatsiyalarining banklardagi o‘rni qanday?
2. Qanday kredit turlarini bilasiz?
3. Kredit operatsiyalarini audit qilishda nimalarga e‘tibor beriladi?
4. Ssudalar sifati tasnifi va ta‘minotini baholash qanday audit qilinadi?
5. Kredit siyosati va portfeli auditi qanday amalga oshiriladi?

6-bob. TIJORAT BANKLARI DAROMADLARI, XARAJATLARI VA FOYDASI AUDITI

6.1. Tijorat banklarida daromadlarni shakllantirilishini audit qilish


6.2. Tijorat banklari xarajatlarini audit tekshiruvidan o'tkazish

6.3. Tijorat banklari daromadlari va xarajatlari auditi bo'yicha hisobotni tuzilishi

6.1. Tijorat banklarda daromadlarni shakllantirilishini audit qilish

Tijorat banklarini audit tekshiruvidan o'tkazishdan oldin, bankning daromadlari va tarkibini bilib olish zarur. Bank xizmat ko'rsatishi va bank mahsulotlarini sotish evaziga oladigan tushumlari miqdori bankning daromadlarini anglatadi. Bankning daromadlari asosan aktiv operatsiyalar natijasida yuzaga keladi. Mamlakatimiz amaliyotida tijorat banklari daromadlarini ikki turga bo'linadi:

- Foizli daromadlar;
- Foizsiz daromadlar.



2-rasm. Tijorat banklari daromadlari tasnifi²²

Foizli daromadlar – oldindan shartnoma asosida belgilangan foiz stavkasi bo'yicha hisoblanadi. Daromadlar har bir faoliyat turidan

²² Куницына Н.Н., Хисамудинов В.В. Банковский аудит Учеб. пособие. 2-е изд., доп. М.: Финансы и статистика, 2014. 216 с

turlicha kelishi mumkin. Aktiv operatsiyalardan keladigan daromad umumiy daromadlarning asosiy salmog'ini tashkil etadi. Kredit operatsiyalaridan olinadigan daromadlar bank faoliyatida eng muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bank daromadlarining har bir hisobi alohida tekshirilib, natijalari hisobotda aks ettirilishi kerak.

Hisobot davridagi daromadlar va xarajatlarni to'g'ri shakllanganligini tekshirish jarayonida quyidagi auditorlik protseduralari amalga oshiriladi:

- hisobot davridagi xarajatlar tekshiriladi;
- xorijiy valyutalarda amalga oshirilgan bank xarajatlarini hisobi to'g'ri aks ettirilganligi tekshiriladi;
- hisobot davridagi daromadlar tekshiriladi;
- xorijiy valyutalarda olingan bank daromadlarini hisobi to'g'ri aks etirilganligi tekshiriladi.

Moliyaviy natijalarni shakllanishi, bank foydasini taqsimlanishi va ishlatilishi to'g'riligini aniqlashda quyidagi auditorlik protseduralari amalga oshiriladi:

- hisobot yilida foyda (ziyon)ni shakllanishini to'g'riligi tekshiriladi;
- o'taydigan yilda foyda (ziyon)ni to'g'ri shakllanganligini tekshirish;
- bank foydasini ishlatilishi tartibiga rioya etilganligi tekshiriladi;
- bank foydasini taqsimlanishi tartibiga rioya etilganligi tekshiriladi.

Daromadlarning o'z vaqtida tegishli hivobvaraqlarda to'g'ri aks ettirilishi, daromad va xarajatlarning har bir moddasining jami daromadlardagi hissasi birma-bir tahlil qilinadi.

Bunda oxirgi sanaga bank kunlik balansi olinib, daromad va xarajatlar ahvoli tahlil qilinadi. Bularni ko'rishda daromad va xarajatlar smetasi tuzilishi va unga amal qilinishi taqqoslangan holda tekshirilib, zaruriy izohlar berib o'tiladi.

Bundan tashqari daromad va xarajatlarni o'tgan davr bilan taqqoslagan holda ham tahlil qilinadi.

Bank daromadlarining qonuniyligini tekshirish audit tekshiruvlarining asosini tashkil qiladi.

Daromadlarni foizli va foizsiz qismlarga bo'lib, ularning hissasi aniqlanib, har biri alohida tekshiriladi. Kreditlar bo'yicha foizli daromadlarni tekshirishda kreditlar uchun foizlar qayta hisoblanib ko'riladi. Ularning stavkalari kredit shartnomalari bilan solishtiriladi. Komission daromadlar (debet oborot) ham qayta hisoblab chiqiladi (tanlov asosida), ularning shartnomalar asosida undirilayotganligiga ishonch hosil qilish maqsadida shartnomalarning tuzilishi, ularning shartnomada ko'rsatilgan foizlar bo'yicha undirilganligi tekshiriladi.

Yuqoridagi tartibda bank daromadi barcha moddalarining har biri alohida tekshirilib, hisobotda aks ettiriladi.

Bundan tashqari buxgalteriya hisobi va hisoboti amaliyotlarini tekshirishda filial tomonidan soliqlarning hisoblanishi va to'lanishi Adliya vazirligi tomonidan 2007-yil 9-avgustda 1701-son bilan ro'yxatga olingan Markaziy Bankning Tijorat banklari, kredit uyushmalari va mikrokredit tashkilotlari tomonidan byudjetga soliqlarni hisoblash va to'lash tartibiga asosan to'liq qayta hisob-kitob qilib ko'riladi.

Bankning daromadliligi, birinchi navbatda, xarajatlarni kamaytirishga bog'liq. Bank ishi texnologiyasidagi muvaffaqiyatlar joriy xarajatlarni kamaytirishga imkon beradi.

Odatda, banklar o'z zimmasiga operatsiya xarajatlari, ustama foizlarga ketgan mablag'lar, shuningdek, kredit riski bilan bog'liq bo'lgan yo'qotishlarni qoplash uchun ajratmalarni oladilar. Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunga binoan mamlakatimizda hisoblash tamoyiliga asoslanib bank daromadlari va xarajatlari hisobga olinadi va hisobda aks ettiriladi. Tijorat banklari buxgalteriya hisobi boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar buxgalteriya hisobidan farq qiladi. Uni o'zining maxsus hisobvaraqlar rejasi mavjud va bank daromadlari va xarajatlari mana shu hisobvaraqlarda aks ettiriladi.

Respublikamiz yirik tijorat banklarida foizsiz daromadlar hajmidagi salmog‘i 50 foizdan yuqori darajani tashkil etmoqda. Jahon banki ekspertlarining fikriga ko‘ra, tijorat banklari yalpi daromadining kamida 70 foizi foizli daromatlardan tashkil topishi lozim.²³

Tijorat banklari daromadlari va xarajatlarini audit qilishda har bir balans moddalari shaxsiy hisobvaraqlar aylanmalari bilan solishtirib chiqishdan boshlanadi. Auditor bankka kelgach dastlab bank bosh buxgalteridan bankning kunlik balansini so‘raydi. Undagi qoldiqlarni birma-bir tekshirib chiqadi. Balans va uning moddalari shaxsiy hisobvaraqlar qoldiqlariga tengligi tekshirilgach, auditor dasturlar tengligini tekshirishni boshlaydi. «A» bank filialida IABS dasturi va RS_Bank dasturlari ishlatiladi. Har bir berilgan kredit ikki dasturda ham bir xil kiritilishi va ulardagi qoldiq doimo teng bo‘lishi lozim. Auditor har doim dastur bilan ish yuritadi. Uning ishchi dasturi taxminan quyidagicha bo‘ladi:

17-jadval

Daromadlar auditi ishchi dasturi (misol tariqasida)²⁴

| № | Tekshiruv bosqichlari | Talabga javob beradimi?(+:-) |
|---|---|------------------------------|
| 1 | Shaxsiy hisobvaraqlar qoldig‘i bilan balans qoldig‘ini tekshirish | |
| 2 | Foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot bilan shaxsiy hisobvaraqlar qoldig‘ini mos kelishini tekshirish | |
| 3 | Daromadlarni tegishli hisobvaraqlarda aks ettirishni tekshirish | |
| 4 | Kelgusida kutilayotgan daromadni to‘g‘ri aks ettirilganligini tekshirish | |

Daromadlar auditi amalga oshirilayotgan jarayonda auditor har bir daromad hisobvarag‘i qoldig‘ini to‘g‘ri va vaqtda aks ettirilganligini bilishi zarur. Audit jarayoni bir oy muddatgacha cho‘zilishi mumkin. Bu vaqt auditor ishchi dasturi va filial faoliyati kattaligiga qaraladi.

Auditor har bir shaxsiy hisobvaraqlar qoldig‘ini tekshirishga vaqt topolmaydi va shuning uchun tanlanma ishlarini olib boradi.

²³ Jahon Banki axborotnomasi II bob 7-bet.

²⁴ Кунцица Н.Н., Хисамудинов В.В. Банковский аудит Учеб. пособие. 2-е изд., доп. М.: Финансы и статистика, 2014. 216 с

Tanlash jarayoni odatda ma'lum muddat yoki ma'lum mijozlarni o'z ichiga oladi. Eng muhimi tanlanma tasodifiy bo'lishi. Auditor dasturda aks ettirilgan ketma-ketlikda o'z ishini olib boradi va tekshiruv natijasida o'z hisobotini shakllantiradi.

Dastlab auditor ishni O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 25.10.2004-yilda 1419-son bilan ro'yxatga olingan nizomga asosan har bir daromad turini tekshirishni boshlaydi. Nizomning 2-ilovasida "Foyda va zararlar to'g'risida"gi jamlanma hisobotni har bir satri bo'yicha to'ldirilishiga e'tibor beradi. Dastlab auditor foizli daromadlarning to'g'ri aks ettirilganini tekshiradi.

Kreditlar bo'yicha foizli daromadlar.

Bu satrda O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki va boshqa banklarga berilgan kreditlardan tashqari barcha turdagi kreditlar bo'yicha foizli daromadlarning umumiy summasi, kreditlar bo'yicha hisoblangan vositachilik haqi hisobga olingan holda aks ettirilishi lozim.

Auditor ushbu summani hisoblashda RS_Bank va IABS dasturlaridagi:

- 41800 Hukumatga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar;
- 41900 Byudjet tashkilotlariga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar;
- 42000 Jismoniy shaxslarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar;
- 42100 Yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar;
- 42200 Davlat korxonalar, tashkilot va muassasalariga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar;
- 42300 Nodavlat notijorat tashkilotlariga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar;
- 42400 Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar;
- 42500 Bank bo'lmagan moliyaviy muassasalarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar;

- 42600 Xususiy korxonalar, xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlariga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo‘yicha foizli daromadlar;
- 43100 Respublika korxonalariga berilgan uzoq muddatli investitsiya kreditlari bo‘yicha foizli daromadlar;
- 43600 Byudjet tashkilotlariga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo‘yicha foizli daromadlar;
- 43700 Bank bo‘lmagan moliyaviy muassasalarga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo‘yicha foizli daromadlar;
- 43900 Nodavlat notijorat tashkilotlariga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo‘yicha foizli daromadlar;
- 44100 Yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo‘yicha foizli daromadlar;
- 44200 Hukumatga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo‘yicha foizli daromadlar;
- 44300 Jismoniy shaxslarga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo‘yicha foizli daromadlar;
- 44400 Davlat korxonasi, tashkilot va muassasalarga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo‘yicha foizli daromadlar;
- 44500 Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalariga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo‘yicha foizli daromadlar;
- 44600 Xususiy korxonalar, xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlariga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo‘yicha foizli daromadlar;
- 44700 Sud jarayonidagi kreditlar bo‘yicha foizli daromadlar.

Hisobvaraqlar qoldiqlari va “Foyda va zararlar to‘g‘risida”gi hisobotning “Kreditlar bo‘yicha foizli daromadlar” satrlari teng chiqishi kerak. Bordini bu tenglik bajarilmasa auditor sintetik hisobdan analitik hisobga o‘tadi va har bir mijozning shaxsiy hisobvarag‘i qoldig‘ini hisoblab chiqadi. Bu satr va bu tur daromadlari bilan bog‘liq asosiy kamchilik 2 turga bo‘linadi:

1. Foizlarni hisoblash kunlarining mos kelmasligi. Buxgalter nazoratchi dasturlaridagi tenglikni ta‘minlashi zarur. Bordini ikki dasturda hisoblash kunlari farq qilsa, bu hisobvaraqlar bo‘yicha jami qoldiq olingan vaqtda yaqqol ko‘rinadi.

2. Foiz stavkasi bilan bog‘liq xatolik, bu xatolik asosan foiz stavkalarini xato kiritilishi bilan bog‘liq xatolikdir. Buning natijasida kreditlardan olinadigan foizli daromadlar ikki dasturda ikki xil summani

tashkil etadi va auditor har bir shaxsiy hisobvaraqlarni tekshirishga majbur bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki va boshqa banklardagi hisobvaraqlar bo'yicha foizli daromadlar.

Bu satrni tekshirishda auditorlardan banklararo hisob-kitoblarda muayyan bilimga ega bo'lish talab etiladi. Bu satrni tekshirishda auditor IABS dasturidagi:

- 40200 O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankidagi hisobvaraqlar bo'yicha foizli daromadlar;

- 40400 Boshqa banklardagi hisobvaraqlar bo'yicha foizli daromadlar;

- 41400 O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankiga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar;

- 41600 Boshqa banklarga berilgan qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar;

- 44000 Boshqa banklarga berilgan uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli daromadlar.

Hisobvaraqlar qoldiqlarni yig'indisi bilan "Foyda va zararlar to'g'risida"gi hisobotning "O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki va boshqa banklardagi hisobvaraqlar bo'yicha foizli daromadlar" satrlari summaları bir xil chiqishi lozim.

Bu tenglik bajarilmagan hollarda auditor har bir bankka berilgan har bir kredit turi bo'yicha qoldiq summaları yig'indisini hisoblab chiqishi lozim bo'ladi. Banklararo kreditlarni olish, berish ishlari bilan odatda bankning banklararo hisob-kitoblari bo'limi shug'ullanadi. Hamma bank muassasalarida ham bunday bo'lim yo'qligini hisobga olsak, filiallarda bu ishlarni filial boshqaruvchisi, bosh buxgalter bilan birga amalga oshiradi. Bu tur daromadlardagi xatoliklarga aynan shu operatsiyani bajargan bank xodimlari javobgar bo'ladi.

Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizli daromadlar

Bu turdagi foizli daromadlarni tekshirish uchun auditorlardan bir qancha sohalar, qimmatli qog'ozlar va ular bilan bog'liq operatsiyalarni bilishi, bu tur daromadlarining o'ziga xos jihatlarni, qaysi hisobvaraqda aks ettirilishini, ulardan olinadigan daromadni hisobotning qaysi satrida

va qachon aks ettirish kerakligini bilishi talab etiladi. Bu satrda savdoga mo'ljallangan va savdoga mo'ljallanmagan qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizli daromadlar hisobga olinadi. Bu satrni tekshirishda auditor IABS dasturidagi:

- 40600 Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizli daromadlar
Sotishga mo'ljallangan mavjud investitsiyalar bo'yicha foizli daromadlar

Bu satrni tekshirishda auditor IABS dasturidagi:

- 40700 Sotishga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha foizli daromadlar;
- 40800 Sotib olingan veksellar bo'yicha foizli daromadlar;
- 44800 So'ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha foizli daromadlar.

Hisobvaraqlar qoldiqlari yig'indisi bilan "Foyda va zararlar to'g'risida"gi hisobotning "Sotishga mo'ljallangan mavjud investitsiyalar bo'yicha foizli daromadlar" satri summolari teng chiqishiga e'tiborini qaratishi lozim hisoblanadi. Bizga ma'lumki, mamlakatimizda veksell muomalasi bekor qilingan va bu satr barcha banklarda hozirgi kunga kelib hech qanday summani o'zida aks ettirmaydi.

REPO teskari bitimlar bo'yicha foizli daromadlar

Bu satrda auditor REPO bitimlari bo'yicha sotib olingan qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisoblangan foizli daromad aks ettirilishiga e'tiborini qaratadi. Bu satr to'g'ri hisoblanganini tekshirish uchun auditor IABS dasturidagi:

- 45000 Qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilgan REPO bitimlari bo'yicha foizli daromadlar hisobvarag'i qoldig'i hamda yuqoridagi satr tengligini bajarilishini tekshiradi.

Moliyaviy ijara bo'yicha foizli daromadlar

Bu satr tog'riligini tekshirish uchun auditor dasturdagi:

- 45100 lizing bo'yicha foizli daromadlar;
- 45101 boshqa banklarga berilgan lizing bo'yicha foizli daromadlar;
- 45103 jismoniy shaxslarga berilgan lizing bo'yicha foizli daromadlar;

- 45105 yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan lizing bo'yicha foizli daromadlar;
- 45107 davlat korxonalar, tashkilot va muassasalariga berilgan lizing bo'yicha foizli daromadlar;
- 45109 chet el kapitali ishtirokidagi korxonalariga berilgan lizing bo'yicha foizli daromadlar;
- 45111 nodavlat notijorat tashkilotlariga berilgan lizing bo'yicha foizli daromadlar;
- 45113 xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan lizing bo'yicha foizli daromadlar;
- 45115 bank bo'lmagan moliyaviy muassasalarga berilgan lizing bo'yicha foizli daromadlar;
- 45117 muddati o'tgan lizing bo'yicha foizli daromadlar;
- 45119 shartlari qayta ko'rib chiqilgan lizing bo'yicha foizli daromadlar;
- 45121 sud jarayonidagi lizing bo'yicha foizli daromadlar.

Hisobvaraqlarning qoldiqlari yig'indisi va moliyaviy ijara bo'yicha foizli daromadlar satrini tengligini tekshirish kerak. Odatda lizing bo'yicha daromadlarni hisoblashdagi kamchiliklar kreditlarni hisoblashdagi xatoliklar bilan o'xshash bo'ladi.

Jami foizli daromadlar

Bu satr foizli daromadlarni jami miqdorini ko'rsatadi. Bu satrni hisoblash uchun yuqoridagi foizli daromad satrlarining hammasi qo'shib chiqiladi.

Foizli daromadlar tekshirib bo'lingach auditor foizli xarajatlarni tekshirishni boshlaydi.

6.2. Tijorat banklari xarajatlarini audit tekshiruvidan o'tkazish

Bank xarajatlari foizli, foizsiz va operatsion xarajatlarga bo'linib, ularning hissasi aniqlanadi va har bir qism bo'yicha hisobvaraqlar alohida tekshiriladi.

Talab qilib olinguncha depozitlar (50100), jag'arma depozitlar (50000), muddatli depozitlar (51100) bo'yicha xarajatlar tuzilgan

shartnomalar va foiz stavkalari bilan solishtirilgan holda tanlov asosida qayta hisoblab chiqiladi.

Olingan kreditlar bo'yicha foizli xarajatlar (53100, 53600, 54100 va h.) ham yuqoridagi tartibda shartnomalar asosida tanlov yo'li bilan qayta hisoblab ko'riladi.

Komission xarajatlar va xizmatli uchun xarajatlar (55100, 55300, 55800, 55900 va h.k oxirgi sanaga to'liq talqin qilinib), birlamchi hujjatlar bilan solishtirish yo'li bilan tekshiriladi. Operatsion xarajatlar ham birlamchi hujjatlar asosida tasdiqlanadi, ya'ni barcha hisobvaraqlar bo'yicha talqinlar talab qilinib, birlamchi hujjatlar bilan solishtiriladi.

Jumladan, 56100 - «Ish haqi va xodimlarga boshqa xarajatlar» – hisobi bo'yicha ish haqlari shtat jadvali bo'yicha o'rnatilishi, ularni hisoblanishi, to'lanishi hamda ushlangan soliqlarning va ushlanmalarning to'g'riligi tekshiriladi. Xodimlarga qilingan boshqa xarajatlar ham qonuniy berilganligiga hisobotda izoh beriladi. Qolgan barcha operatsion xarajatlarning har biri alohida yuqoridagi tartibda tekshirilib, hisobotda izoh beriladi.

Tijorat banklari hisobvaraqlar rejasida xarajatlar 50000-56902 hisobvaraqlarda aks ettiriladi. Dastlab foizli xarajatlar 50100-54904 hisobvaraqlarida aks ettiriladi. Ularning tarkibi quyidagicha:

- talab qilib olinguncha depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar;
- jamg'arma depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar;
- muddatli depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar;
- O'zbekiston Respubikasi hisobvaraqlari bo'yicha foizli xarajatlar;
- boshqa banklarning hisobvaraqlari bo'yicha foizli xarajatlar;
- bankning tugallanmagan akseptlari bo'yicha foizli xarajatlar;
- qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli xarajatlar;
- uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli xarajatlar;
- chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizli xarajatlar;
- qimmatli qog'ozlar bilan oshiriladigan REPO operatsiyalari bo'yicha foizli xarajatlar;
- boshqa foizli xarajatlar.

Tekshiruv oldidan auditor xarajatlar auditining maxsus dasturini

ishlab chiqadi va shu dastur asosida ishini olib boradi. Bu dastur taxminan quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘ladi:

18-jadval

Xarajatlar auditing maxsus dasturi²⁵

| № | Tekshiruv bosqichlari | Talabga javob beradimi?(+/-) |
|---|---|------------------------------|
| 1 | Shaxsiy hisobvaraqlar qoldig‘i bilan balans qoldig‘ini tekshirish | |
| 2 | Foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot bilan shaxsiy hisobvaraqlar qoldig‘ini mos kelishini tekshirish | |
| 3 | Xarajatlarni tegishli hisobvaraqlarda aks ettirishni tekshirish | |
| 4 | Shaxsiy hisobvaraqlar qoldig‘i bilan soliq hisobotlari mosligini tekshirish | |
| 5 | Kutilayotgan zararlarga tashkil qilingan rezervlarni to‘g‘riligini tekshirish | |

Dastlab yuqoridagi kabi auditor balans hisobvaraqlari va shaxsiy hisobvaraqlar qoldig‘ini tekshirib chiqadi. Ulardagi summalar mos kelgach, auditor foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot bilan shaxsiy hisobvaraqlar qoldiqlari mosligini tekshirib chiqadi. Bu tekshiruv foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobotning quyidagi satrlari asosida olib boriladi.

Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlarga foizli xarajatlar

Bu tur xarajatlarni tekshirish uchun auditor depozit hisobvaraqlari va ular bo‘yicha foizlarni hisoblash va ularni foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobotning tegishli satrida aks ettirilishini bilishi lozim. Auditor undan tashqari depozit shartlari, unga foizlarni hisoblash tartibi, depozit kapitalizatsiya qilinishi yoki qilinmasligini bilishi lozim. Auditor bu tur xarajatlarni tekshirishda 50100 hisobvaraqlarni qoldiqlari va “Foyda va zararlar to‘g‘risida”gi hisobotning quyidagi hisobvaraqlarining qoldiqlarini yig‘indisini topishi lozim:

- 50101 Hukumatning byudjetdan tashqari mablag‘lari asosidagi talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari bo‘yicha foizli xarajatlar;

²⁵ Куницына Н.Н., Хисамудинов В.В. Банковский аудит Учеб. пособие. 2-е изд., доп. М.: Финансы и статистика, 2014. 216 с

- 50103 Respublika qaramog‘idagi byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari asosidagi talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari bo‘yicha foizli xarajatlar;
- 50104 Mahalliy byudjet qaramog‘idagi byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari asosida talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari bo‘yicha foizli xarajatlar;
- 50105 Byudjetdan tashqari fondlarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari bo‘yicha foizli xarajatlar;
- 50106 Jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari bo‘yicha foizli xarajatlar;
- 50107 Respublika yo‘l fondining talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari bo‘yicha foizli xarajatlar;
- 50108 Xususiy korxonalar, xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlarining talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari bo‘yicha foizli xarajatlar;
- 50110 Jismoniy shaxslarning plastik kartochkalaridagi mablag‘lari bo‘yicha foizli xarajatlar;
- 50111 Davlat korxonalar, tashkilot va muassasalarining talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari bo‘yicha foizli xarajatlar;
- 50114 Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarining talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari bo‘yicha foizli xarajatlar;
- 50116 Nodavlat notijorat tashkilotlarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari bo‘yicha foizli xarajatlar;
- 50118 Yakka tartibdagi tadbirkorlarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari bo‘yicha foizli xarajatlar;
- 50121 Bank bo‘lmagan moliyaviy muassasalarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari bo‘yicha foizli xarajatlar;
- 50126 Boshqa mijozlarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari bo‘yicha foizli xarajatlar.

Jamg‘arma depozitlar bo‘yicha foizli xarajatlar

Auditor jamg‘arma depozitlar bo‘yicha foizli xarajatlarni tekshirish uchun dastrudagi quyidagi hisobvaraqlarni tekshirishi lozim:

- 50601 Hukumatning byudjetdan tashqari mablag‘lari asosidagi jamg‘arma depozitlari bo‘yicha foizli xarajatlar;

▪ 50603 Respublika qaramog'idagi byudjet tashilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari asosidagi jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;

▪ 50604 Mahalliy byudjet qaramog'idagi byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari asosidagi jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;

▪ 50605 Byudjetdan tashqari fondlarning jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlari;

▪ 50606 Jismoniy shaxslarning jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlari;

▪ 50607 Respublika yo'l fondining jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlari;

▪ 50608 Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarining jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;

▪ 50611 Davlat korxonalar, tashkilot va muassasalarining jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;

▪ 50614 Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarining jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;

▪ 50616 Nodavlat notijorat tashkilotlarining jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;

▪ 50618 Yakka tartibdagi tadbirkorlarning jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlari;

▪ 50621 Bank bo'lmagan moliyaviy muassasalarning jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;

▪ 50626 Boshqa mijozlarning jamg'arma depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar.

Yuqoridagi hisobvaraqlar qoldiqlari, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotning jamg'arma depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar summalari bir xil chiqishi lozim. Ular orasida farq bo'ladigan bo'lsa, auditor bu farq nimaga yuzaga kelganini topishi lozim. Xato kimningdir aybi bilan yuzaga kelsa, auditor aybdorni topishi va jazolashi lozim.

Muddatli depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar

Salmoq jihatidan tijorat banklarining eng ko'p foizli xarajatlari aynan shu tur foizli xarajatlar hisobiga to'g'ri keladi. Bunga asosiy sabab,

muddatli depozitlarning bank uchun barqaror resurs ekanligi hisoblanadi. Bu xarajatlarning auditor diqqat bilan tekshirishi lozim. Ularning ma'lum muddatga qo'yilishi va ular bo'yicha shartlarning to'g'ri bajarishi juda muhim hisoblanadi. Auditor dastlab muddatli depozitlarga foiz to'lash, ularning foiz stavkalari, muddatlari va depozit hisobvarag'i ochilgan kunga e'tibor berishi zarur. Dasturdagi 51100 "Muddatli depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar" satrini diqqat bilan tekshiruvdan o'tkazishi lozim. Auditor dasturdagi quyidagi hisobvaraqlar qoldiqlari va "Foyda va zararlar to'g'risida"gi hisobotning muddatli depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar satri summalari bir xil chiqishiga e'tiborini qaratishi lozim:

- 51101 Hukumatning byudjetdan tashqari mablag'lari asosidagi muddatli depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;

- 51103 Respublika qaramog'idagi byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari asosidagi muddatli depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;

- 51104 Mahalliy byudjet qaramog'idagi byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari asosidagi muddatli depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;

- 51105 Byudjetdan tashqari fondlarning muddatli depozitlari bo'yicha foizli xarajatlari;

- 51106 Jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari bo'yicha foizli xarajatlari;

- 51107 Respublika yo'l fondining muddatli depozitlari bo'yicha foizli xarajatlari;

- 51108 Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarining muddatli depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;

- 51111 Davlat korxonalar, tashkilot va muassasalarining muddatli depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;

- 51114 Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarining muddatli depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;

- 51116 Nodavlat notijorat tashkilotlarining muddatli depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;

- 51118 Yakka tartibdagi tadbirkorlarning muddatli depozitlari bo'yicha foizli xarajatlari;

- 51121 Bank bo‘lmagan moliyaviy muassasalarning muddatli depozitlari bo‘yicha foizli xarajatlar;

- 51126 Boshqa mijjzlarning muddatli depozitlari bo‘yicha foizli xarajatlar.

Hukumatga tegishli hisobvaraqlar bo‘yicha foizli xarajatlar

Agar bank hukumatning maxsus dasturiga tushgan bo‘lsa, bankda hukumatning maxsus hisobvaraqlari joylashadi va shu hisobvaraqlar bo‘yicha bank olingan resurs uchun foizli xarajatlar qiladi. Auditor bu resurslarga foizli xarajatlarni to‘g‘ri hisoblanganini tekshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bankiga to‘lanishi lozim bo‘lgan hisobvaraqlar bo‘yicha foizli xarajatlar

Bu tur xarajatlar uchun auditor 51600 hisobvaraqlarni tekshirishi lozim. Bu hisobvaraqlar:

- 51601 Markaziy bankning vakillik hisobvarag‘i bo‘yicha foizli xarajatlar;

- 51606 Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag‘i bo‘yicha foizli xarajatlar;

- 51611 Markaziy bankning depozitlari bo‘yicha foizli xarajatlar.

Bu hisobvaraqlarda bankning Markaziy bank bilan qilgan jami operatsiyalari natijasida qilingan jami xarajatlar hisobga olinadi.

Boshqa banklarga to‘lanishi lozim bo‘lgan hisobvaraqlar bo‘yicha foizli xarajatlar

Har bir tijorat banki boshqa tijorat banklari bilan doimiy aloqada bo‘ladi. Ya‘ni resurs oladi va aksincha resurs beradi. Mana shu resurslar uchun qilingan jami xarajatlar mana shu hisobvaraqlarda hisobga olinadi va aks ettiriladi. Bu hisobvaraqlar quyidagilar:

- 52101 Boshqa banklarning vakillik hisobvarag‘i bo‘yicha foizli xarajatlar;

- 52106 Boshqa banklardagi hisobvaraqlar bo‘yicha foizli xarajatlar;

- 52111 Boshqa banklarning depozitlari bo‘yicha foizli xarajatlar.

Boshqa qarz mablag‘lari bo‘yicha foizli xarajatlar

Bu hisobvaraqlarda:

- bankning tugallanmagan akseptlari bo‘yicha foizli xarajatlar (52600);

- qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli xarajatlar bo'yicha foizli xarajatlar (53100);

- uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli xarajatlar (54100) turdagi foizli xarajatlar hisobga olinadi.

Chiqarilgan qarz qimmatli qog'ozlari bo'yicha foizli xarajatlar

- *Depozit sertifikatlari bo'yicha foizli xarajatlar*

Depozit sertifikatlari bo'yicha foizli xarajatlar – bank tomonidan muomalaga chiqarilgan depozit sertifikatlari uchun to'lanadigan foizlardir. Auditor ularni tekshirayotganda dastlab depozit sertifikatlari soni, muddati, ular bo'yicha to'lanadigan foiz stavkasi, ularning qaysi hisobvaraqda yuritilishi kabi quyidagi omillarni inobatga olishi lozim:

- chiqarilgan obligatsiyalar bo'yicha foizli xarajatlar;
- chiqarilgan veksellar bo'yicha foizli xarajatlar;
- chiqarilgan boshqa qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizli xarajatlar.

REPO bitimlari bo'yicha foizli xarajatlar

Bu xarajatlar qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshirilgan REPO bitimlari bo'yicha foizli xarajatlarni o'z ichiga oladi. Bu xarajatlar 54300 hisobvaraqlarda hisobga olinadi.

Boshqa foizli xarajatlar

Bu xarajatlar yuqorida keltirilgan birorta xarajat turiga kirmaydigan xarajatlar hisoblanadi. Ular 54902- boshqa foizsiz xarajatlar va 54904 –bosh bank/filialdan olingan mablag'lar bo'yicha foizli xarajatlardan iborat.

Foizsiz daromadlarni tekshirish uchun auditor “Foyda va zararlar to'g'risida”gi hisobotning “*Xizmatlar va vositachilik uchun olingan daromadlar*” satrini tekshirishdan boshlaydi. Bu satrda bankning O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa banklarga ko'rsatilgan xizmatlar uchun, akkreditivlar va akseptlar bo'yicha, overdraft bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlardan vositachilik haqi va to'lovlar ko'rinishida hisoblangan daromadlar, kredit majburiyatlari bo'yicha, menejment bo'yicha, mahalliy va xorijiy to'lovlar bo'yicha, inkasso operatsiyalari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlardan daromadlar va vositachilik hamda xizmatlar uchun to'lovlar ko'rinishida boshqa daromadlar aks ettirilishi lozim.

“Qaram xo‘jalik jamiyatlari va qo‘shma korxonalar foydasi” – ushbu satr bo‘yicha auditor qaram xo‘jalik jamiyatlari va qo‘shma korxonalar investitsiyalarining sotilishi yoki chiqib ketishi natijasida olingan foyda, shuningdek, qaram xo‘jalik jamiyatlari va qo‘shma korxonalar sof foydasidagi bankning ulushi aks etirilishi lozim.

“Savdo operatsiyalaridan olingan foyda” bunda ma‘lum turdagi aktivlarni sotish yoki boshqacha chiqib ketishi hisobiga olinadigan foyda hisobga olinadi.

“Valyuta operatsiyalaridan olingan foyda” valyutani sotish, sotib olish va valyuta bilan amalga oshiriladigan boshqa operatsiyalardan olinadigan foydani o‘zida aks ettiradi. Bu satrda:

- 45401 “SPOT” bitimi bo‘yicha xorijiy valyutalardagi foyda;
- 45405 Hosilaviy instrumentlar bilan tuzilgan bitimlar bo‘yicha xorijiy valyutalardan foyda;
- 45409 Valyuta tranzaksiyalari bo‘yicha foyda.

Hisobvaraqlar qoldiqlari yig‘indisi hisobga olinadi.

“Dividendlar ko‘rinishidagi daromadlar” – ushbu satrda xususiy kapitalga qilingan investitsiya bo‘yicha olingan dividendlar aks etiriladi.

“Investitsiyalardan olingan foyda” – bu satr bankning qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalaridan olingan daromadlarni o‘zida aks ettiradi. Quyidagi hisobvaraqlarning qoldiqlari bu satrni tashkil qilishi lozim:

- 45801 Obligatsiya va boshqa qarz vositalariga qilingan investitsiyalarni sotish yoki dispozitsiya qilishdan olingan foyda;
- 45803 Sotishga mo‘ljallangan qimmatli qog‘ozlarni sotish yoki dispozitsiya qilishdan olingan foyda;
- 45805 So‘ndirish muddatigacha saqlanadigan qimmatli qog‘ozlarni sotish yoki dispozitsiya qilishdan olingan foyda.

“Sof pul moddalari bo‘yicha foyda” – ushbu satrda inflyatsiya ta‘sirini hisobga olish uchun hisobot moddalarini qayta hisoblash natijasi aks etiriladi. *“Boshqa operatsion daromadlar”* – ushbu satrga yuqoridagi satrlarga kiritilmagan daromadlar kiritiladi. Hozirgi kunda mamlakatimiz tijorat banklarining ko‘pchilik qismida aynan foizsiz

daromadlarning ulushi deyarli foizli daromadlarning ulushiga teng. Bu banklarning asosiy faoliyat turi hisoblanadigan operatsiyalardan kam daromad olayotganligini anglatadi. Ushbu satr:

- 45901 Bankning asosiy vositalari ijarasidan olingan daromadlar;
- 45905 Bankning boshqa ko'chmas mulkka qilingan investitsiyalardan olingan daromadlar;
- 45909 Bankning asosiy vositalarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan olingan foyda;
- 45913 Bankning boshqa xususiy mulklarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan olingan daromadlar;
- 45921 Hisobdan chiqarilgan mablag'larining qaytarilishi;
- 45994 boshqa foizsiz daromadlar hisobvaraqlar qoldiqlarini o'zida aks ettiradi.

Foizsiz xarajatlarni tekshirishda auditor quyidagi hisobvaraqlar qoldiqlariga e'tiborini qaratadi:

- 55100 Vositachilik xarajatlari;
- 55300 Xorijiy valyutadan ko'rilgan zarar;
- 55600 Tijorat operatsiyalaridan ko'rilgan zarar;
- 55700 Qaram xo'jalik jamiyatlariga, qo'shma korxonalariga va sho'ba xo'jalik jamiyatlariga qilingan investitsiyalardan ko'rilgan zararlar;
- 55800 Investitsiyalardan ko'rilgan zararlar;
- 55900 Boshqa foizsiz xarajatlar.

Banklar o'z operatsion xarajatlarini ularning bosh banki tomonidan bir yil uchun tasdiqlangan va xabar berilgan smeta assignovaniyalari doirasida amalga oshiradilar.

Bankning operatsion xarajatlari smetasi bo'yicha kreditlarni bank rahbari tasarruf etadi. Bank rahbari bank bo'yicha buyruq chiqarib, smeta assignovaniyalarini tasarruf etish huquqini o'z muoviniga ishonib topshirishga haqlidir. Respublika banki raisi ham buyruq chiqarib smeta bo'yicha assignovaniyalarni tasarruf etish huquqini o'zining birinchi muoviniga berishi mumkin. Biroq, smeta bo'yicha assignovaniyalarni tasarruf etish huquqini boshqa shaxsga berib qo'yish bilan bank raisini smeta intizomi ahvoli uchun qonunda belgilangan shaxsiy

javobgarlikdan ozod qilmaydi. Smeta assignovaniyalari, shu jumladan kelgusi davrlar xarajatlari hisobidan mablag‘ sarflash uchun hujjatda kreditlar tasarruf etuvchisining ijozat imzosi bo‘lishi shart.

Bankning operatsion xarajatlari uchun ajratilgan smeta assignovaniyalari hisobot yilining 31 dekabrigacha amal qiladi. Tugagan yilda amalda qilingan barcha xarajatlar 31 dekabrgacha o‘tkazilishi lozim.

Bankning operatsion xarajatlari hisobi banklar tomonidan balansa quyidagi tegishli hisobvaraqlar yuritiladi: “Ish haqi va xodimlar uchun boshqa xarajatlar”, “Ijara va saqlash”, “xizmat safari va transport xarajatlari”, “Ma’muriy xarajatlar” va shu kabilar. Bu hisobvaraqlarga faqat hujjatlar bilan tasdiqlangan va amalda qilingan xarajatlar kiritiladi.

Kelgusi yillar smetalari hisobidan bankning operatsion xarajatlari uchun qilinadigan xarajatlar hisobi “Puli oldindan to‘langan xarajatlar” hisobvarag‘ida yuritiladi.

Bu hisobvaraqa yil oxirida ta‘tilga ketadigan xodimlarga to‘langan ish haqi, xususan kelasi yilga taalluqli to‘lovlar, kelasi yil uchun gazetaga obuna bo‘lish xarajatlari, kelgusi yillar smetalari hisobidan o‘rni qoplanishi kerak bo‘lgan ijaraga olingan binolarni kapital ta‘mirlash xarajatlari summasi va shu kabilar o‘tkaziladi.

6.3. Tijorat banklari daromadlari va xarajatlari auditi bo‘yicha hisobotni tuzilishi

Tijorat banklari daromadlari va xarajatlari auditi bo‘yicha tuziladigan auditor hisoboti har bir filialda o‘tkazilgan auditorlik tekshiruvidan keyin aniqlangan kamchiliklar, yo‘l qo‘yilgan xatoliklar va ularni to‘g‘rilash bo‘yicha ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi. Audit tekshiruv natijalarini maxfiy saqlash bank uchun juda muhim hisoblanadi. Tijorat banklari daromadlari va xarajatlari auditi bo‘yicha tuziladigan auditorlik hisoboti jami auditorlik hisobotining bir qismi hisoblanadi. Unda daromadlar va xarajatlarni hisobga olish, hisobda yuritish, foizlarni hisoblash kabi satrlar mavjud bo‘ladi. Auditorlik hisoboti uch qismdan iborat bo‘ladi:

- kirish qismi;
- tahliliy qism;
- xulosa qismi.

Kirish qismida auditorlik tekshiruvlari qaysi sanalarda, bankning qaysi bo'limlarida, kimlar tomonidan o'tkazilganligi, balansning qaysi moddalarini tekshirilganligi ko'rsatiladi.

Tahliliy qismda esa bankning daromadlari va xarajatlari miqdori, ularni hisobga olish va hisobda yuritishning o'ziga xos jihatlari, bankning daromadlari va xarajatlari to'g'ri hisoblanganligi, tegishli hisobvaraqa aks ettirilganligi, xatoga yo'l qo'ygan mas'ul shaxslar, ularni to'g'rilash muddati, xatoliklar yuzasidan bankka keltirilgan zarar miqdori kabi ko'rsatkichlar aks ettiriladi.

Xulosa qismida bankning umumiy faoliyatiga baho beriladi va bankning faoliyati bo'yicha o'tgan yilga nisbatan erishilgan yutuqlar, kamchiliklar to'liq bayon etiladi. Xulosa faqatgina auditorlik qo'mitasi va u orqali bank Kengashiga taqdim etiladi.

19-jadval.

**“A” bankida o'tkazilgan auditorlik tekshiruvi natijalari
to'g'risida²⁶**

| Ko'rsatkichlar | IABS dasturi bo'yicha | Auditor hisobi bo'yicha | Farq | Izoh |
|---|-----------------------|-------------------------|--------|------|
| Foizli daromadlar | 898 560 | 898 560 | 0 | |
| Foizli xarajatlar | 548 505 | 547 495 | -1 010 | |
| Foizsiz daromadlar | 462 750 | 462 750 | 0 | |
| Foizsiz xarajatlar | 150 426 | 150 426 | 0 | |
| Operatsion xarajatlar | 360 495 | 360 496 | 1 | |
| Soliqlar | 78 523 | 78 523 | 0 | |
| Ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi maxsus zaxira | 7 900 | 7 900 | 0 | |

Jadvaldan ko'rinadiki, bankning foizli xarajatlarini hisoblanishida xatolik mavjud. Bu xatolik miqdori 1011 ming so'mga teng bo'lgan. Ya'ni bosh hisobchi depozitlar uchun foizlar hisoblanishida va operatsion xarajatlarni hisoblashda xatolikka yo'l qo'yilganligini sezmagani. Auditor dasturni birma-bir ko'zdan kechiradi va xatoga yo'l

²⁶ “A” tijorat banki auditorlik tekshiruvlari asosida tayyorlandi.

qo‘ygan bank xodimini topadi. Bizning jadvaldagi xatoga yo‘l qo‘ygan bank xodimi bankning omonat bo‘limi nazoratchi buxgalteri bo‘lib chiqdi. U mijozning 31 mln so‘m omonatini dasturga kiritayotganda xatoga yo‘l qo‘ygan ekan. Bu bo‘yicha dalolatnoma tuziladi va mijozga to‘lanishi lozim bo‘lgan 1010 ming so‘m to‘lab berilishi lozim. Bank yordamchi buxgalteri tomonidan xodimlarning xizmat safari bo‘yicha to‘lanishi kerak bo‘lgan 1 ming so‘m mablag‘i noto‘g‘ri hisoblangan va buni bank xodimiga to‘lashi zarur.

Bankda o‘tkazilgan audit natijalari dalolatnomasi ikki nusxada tuziladi. Uning birinchi nusxasi filialda qoldirilsa, ikkinchi nusxasi bosh bankka olib boriladi. Bu nusxa bank Kengashiga taqdim etiladi. Bank Kengashi esa uni belgilangan tarzda ko‘rib chiqadi va boshqaruvning tegishli departamentlaridan bu mauammoni hal qilishni talab qiladi. Bank departamenti bu talabni tegishli tarzda bajaradi va bajarilgan ishlar yuzasidan bank Kengashiga axborot beradi. Bu jarayon audit natijalari realizatsiyasi deb nomlanadi.

Bank auditida audit natijalari realizatsiyasi muhim ahamiyatga ega. Bank audit natijalari realizatsiyasi bankda ishlamayotgan yoki xato ishlayotgan xodimlarni topishda va ularga yordam berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Unga tegishli departament orqali ta’sir o‘tkaziladi va yo‘l qo‘yilgan xatoliklarni to‘g‘rilash uchun maxsus topshiriqlar beriladi.

Yuqoridagilarni, “A” tijorat bank misolida ko‘rib chiqamiz.

Daromadlariing undirilishi, mijozlarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha shartnomalarning rasmiylashtirilishi:

Rasmiylashtirilgan bank hisobvarag‘i shartnomalariga “A” ATB Boshqaruvining qaroriga asosan “A” tijorat banki xizmatlariga o‘rnatilgan tariflarga” o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi munosabati bilan qo‘shimchalar kiritib borilmagan. Masalan, 2006-yil 24-aprelda tuzilgan 482-sonli “Pilla” MChJ bilan tuzilgan bank hisobvarag‘i shartnomasidagi tariflarga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi munosabati bilan qo‘shimchalar kiritib borilmagan.

“A” ATB Boshqaruvining qarori bilan tasdiqlangan tarifga asosan mijozlardan “Naqd pul chek daftarchalarini ro‘yxatga olish

uchun” 2017-yil 6-dekabr kuni qadar eng kam ish haqining 0,5 barobari miqdorida hamda 2017-yil 6-dekabr kundan 2018-yil 1-martga qadar eng kam ish haqining 10 foizi barobari (byudjet tashkilotlari uchun bepul) miqdorida bank xizmati uchun komissiya olinishi belgilab qo‘yilgan bo‘lib, filialda 2017-yil 4-sentyabrdan 2018-yil 1-martgacha jami 377 dona naqd pul chek daftarchalari mijozlarga berilgan, shulardan 34 donasi byudjet tashkilotlari uchun berilib, qolgan 343 dona chek daftarchasi uchun jami 24659,7 ming so‘m bank xizmati hisoblanishi lozim bo‘lib, haqiqatda “Chek daftarchadan olingan daromad” nomi bilan ochilgan 45294...002 hisob raqamga 17884.1 ming so‘m kirim qilingan, ya’ni 6775,6 ming so‘m bank daromadi undirilmagan. 2018-yil 16-mart kuni ushbu daromadlar to‘liq undirildi.

Yuqori Chirchiq filialida jismoniy shaxslar tomonidan filialning 29824 hisob raqami orqali bir martalik to‘lovlarni amalga oshirilganda Bank Boshqaruvining 2017-yil 6-noyabr kungi №86/1-sonli qaroriga asosan tasdiqlangan “A” tijorat banki xizmatlariga o‘rnatilgan tariflarning 6.9-bandiga asosan 0,5 foiz miqdorida bank xizmat haqi undirilmagan. 2017-yil 6-dekabr kundan 2018-yil 1-mart kuni qadar jismoniy shaxslar tomonidan bir martalik boshqa to‘lov uchun bank kassasiga 99 ta holatda topshirilgan 127660,0 ming so‘m naqd pullarni 29824 hisob raqamidan tegishli hisob raqamiga o‘tkazib berilishida 0,5 foiz miqdorida 638,3 ming so‘m bank xizmat haqi undirilmagan.

Bank xizmatchilarining ish haqi, xizmat safari va ular uchun qilingan boshqa xarajatlar bo‘yicha:

“Bank tizimida xodimlarni mehnatiga haq to‘lash va ijtimoiy himoyalash to‘g‘risida” nizomning talablariga asosan mehnat haqini hisoblash va to‘lash tabel asosida amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, bir qator oylarda xodimlarga oyning birinchi yarmi uchun to‘langan mehnat haqi uchun tabel to‘ldirilmagan. Masalan, 2018-yil 15-fevral kuni 56102-hisobvaraقدan 12087,9 ming so‘m xarajat amalga oshirilgan bo‘lib. MBX yig‘majildiga filial boshqaruvchisining 2018-yil 15-fevraldagi 17-sonli buyrug‘i asos sifatida tiqilgan. 2018-yil 15-yanvarda xodimlar ish haqi bo‘yicha

11107,8 ming so‘m xarajat amalga oshirilgan bo‘lib, ushbu amal uchun asos bo‘lgan hujjat MBX yig‘majildiga tikilmagan. Kamchilik bartaraf etildi.

Hisobot davrida bank xodimlarining lavozim maoshlariga to‘langan ustama ish haqlari uchun filial boshqaruvchisini buyrug‘idan ko‘chirmalar ma‘muriy boshqaruv xarajatlari hujjatlari yig‘majildida mavjud emas. Masalan, 2018-yil 31-yanvar kuni xodimlar lavozim maoshlariga 7606,5 ming so‘m to‘langan ustama ish haqi uchun filial boshqaruvchisini buyrug‘idan ko‘chirma ma‘muriy boshqaruv xarajatlari hujjatlari yig‘majildida mavjud emas. Kamchilik bartaraf etildi.

Bank xodimlarini mehnat ta‘tili uchun haqlarni ta‘til boshlangandan so‘ng kechiktirib to‘langan holatlar mavjud. Masalan, kassa mudiri G.Eshchanova filial boshqaruvchisining 2017-yil 4-dekabrda 109-sonli buyrug‘iga asosan 2017-yil 4-dekabr kundan mehnat ta‘tiliga chiqqan, biroq unga mehnat ta‘tili uchun 2017-yil 15-dekabr kuni haq to‘langan, O‘zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksining 148-moddasi talablariga asosan ta‘til boshlanmasidan oldingi oxirgi ish kuni 2017-yil 3-dekabr kundan kechikmay to‘lanishi lozim edi.

Hisobot davrida ishchi-xodimlarga to‘langan mehnat ta‘til puli hisob-kitob varag‘i MBX yig‘majildiga tikilmagan. Masalan. 2017-yil 23-dekabr kuni S.Xojibaevaga to‘langan 1321,7 ming so‘m mehnat ta‘tili hamda 1026,4 ming so‘m mehnat ta‘tiliga qo‘shimcha haq to‘lovi hisob-kitob varag‘i MBX yig‘majildiga tikilmagan. Kamchiliklar bartaraf etildi.

2017-yil 19-oktyabr kuni 60658.9 ming so‘m miqdorida filial xodimlariga qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotib olish bo‘yicha to‘lov amalga oshirilgan. Ushbu amaliyotga asos bo‘lgan filial boshqaruvchisining buyrug‘idan ko‘chirma MBX yig‘majildiga tikilmagan. Kamchiliklar bartaraf etildi.

Filial boshqaruvchisining 23-iyundagi 63-sonli buyrug‘iga asosan T.Xaytbayevaga 50 yoshga to‘lganligi munosabati bilan moddiy yordam puli bo‘yicha 2017-yil 30-iyunda 7 kunga kechiktirilib 561,7

ming so‘m to‘lov amalga oshirilgan. Bundan tashqari buyruqqa asosan eng kam ish haqining 5 barabari 748,9 ming so‘m miqdorida to‘lov amalga oshirilmasdan, 187,2 ming so‘mga kamroq moddiy yordam puli bank xarajatiga olib borilgan.

2017-yil 20-dekabrda “A” ATB “Yuqori Chirchiq filiali xodimlarining 2017-yil yangi yil bayram munosabati bilan farzandlariga sovg‘a olish uchun o‘tkazildi” matni bilan 2450,0 ming so‘m bank xarajati amalga oshirilgan. Ushbu amaliyotga asos bo‘lgan filial boshqaruvchisining buyrug‘idan ko‘chirma MBX yig‘majildiga tikilmagan. Kamchiliklar bartaraf etildi.

56195-hisobvaraqdan xizmat safari kunlik xarajatning me‘yordan oshgan qismi faqat 2 ta xodim X.Urazmetov va B.Nurimetovlarga to‘lab berilgan, qolgan 5 ta xodim A.Bektemirov, A.Matmuratov, M.Rajabbayev, K.Yusupov, X.Egamberganovlarga to‘lanmagan.

56306-hisobvaraqdan 2017-yil 24-fevralda 350,0 ming so‘m mablag‘ “11.05.2016 yil 22 schyot fakturaga asosan Urazboyev O‘tkirning “Gala Osiyo” mehmonxonasidagi 7 kunlik mehmonxona xarajati uchun o‘tkazildi” matni bilan bank xarajati amalga oshirilgan bo‘lib, ushbu amaliyotga asos bo‘lgan hujjat MBX yig‘majildida mavjud emas. Kamchilik bartaraf etildi.

Boshqa xarajatlarning bo‘yicha:

Inkassatsiya xizmati xarajatlari bo‘yicha bo‘nak mablag‘larini 19907 hisob raqamidan to‘lanmasdan 55195 hisob raqamidan to‘langan holatlar mavjud. Masalan, 2018-yil 16-fevral kuni 17.000,0 ming so‘m, 2017-yil 31-yanvar kuni 17000,0 ming so‘m 55195 hisob raqamidan filialning 29802 hisob raqamiga inkassatsiya xizmati uchun bo‘nak mazmuni bilan ko‘chirilib, amaliyotdan keyingi oyda hisobvaraqq-faktura olingandan so‘ng 29802 hisob raqamidan inkassatsiya boshqarmasining 21596 hisob raqamiga o‘tkazib berilgan.

2018-yil 16-fevralda 1.000,0 ming so‘m mablag‘ elektr energiyasi uchun 56210...101 hisob raqamidan bo‘nak sifatida o‘tkazilgan bo‘lib, ushbu amaliyotga asos bo‘luvchi hisobvaraqq-faktura MBX yig‘majildiga tikilmagan.

56795... 107 hisob raqami orqali 2808,3 ming so‘m mablag‘ “13.09.2017 yildagi 1689-sonli shartnomga asosan ko‘rsatilgan kadastr xizmati uchun o‘tkazildi” matni bilan bank xarajatiga olib borilgan, biroq ushbu amaliyotga asos bo‘lgan hujjat, ya‘ni xisobvaraqa-faktura hamda bajarilgan ishlar dalolatnomasi MBX yig‘majildida mavjud emas. Kamchiliklar bartaraf etildi.

56802-hisobvarag‘idan 2018-yil 28-fevralda 5 ta holatda 97129,7 ming so‘mlik bank xarajati amalga oshirilgan bo‘lib, biroq ushbu amaliyotga asos bo‘lgan hujjat, ya‘ni filial boshqaruvchisining xizmat farmoyishi MBX yig‘majildida mavjud emas. Kamchiliklar bartaraf etildi.

Soliq to‘lovlarining hisoblanishi va to‘lanishi bo‘yicha:

Davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘langan soliq va majburiy to‘lovlar bo‘yicha 15 ta holatda 37517,8 ming so‘m xarajatlar tegishli oyda bank xarajatiga olib borilmasdan, hisobot oyidan keyingi oyda bank xarajatiga olib borilgan.

Yer solig‘ini yuridik shaxslar tomonidan yilning har choragida, yil choragi ikkinchi oyining 15- kuniga qadar teng ulushlarda to‘lanishi lozim, lekin bu yerda bank filiali tomonidan kechiktirib to‘langan holatlar mavjud. Masalan, 911,0 ming so‘m miqdoridagi 2017-yil 1-chorak yer solig‘ini 2017-yil 21-fevral kuni 6 kun kechiktirib to‘langan.

Filial tomonidan mol-mulk solig‘i har oyda yillik summasining o‘n ikkidan bir qismi miqdorida har oyning 10-kuniga qadar to‘lanmasdan kechiktirib to‘langan holatlar mavjud. Masalan, 2017-yil 23-noyabr kuni noyabr oyi mol-mulk solig‘ini 13 kun kechiktirib, 2017-yil 22-dekabr kuni dekabr oyi mol-mulk solig‘ini 12 kun kechiktirib to‘langan.

Mavzu bo‘yicha tayanch so‘z va atamalar

Daromad, xarajat, favqulodda foyda va zararlar, soliq to‘lagunga qadar foyda, soliq bazasi, soliq va buxgalteriya foydasi, sof foyda.

O‘z bilimini tekshirish bo‘yicha savollar

1. Tijorat banklari daromadlari haqida tushuncha?
2. Tijorat banklari xarajatlari haqida tushuncha?
3. Tijorat banklari daromadlari hisobining auditi qanday amalga oshiladi?
4. Tijorat banklari xarajatlari hisobi auditi qanday amalga oshiladi?
5. Tijorat bank foydasi va uni audit qilish tartibi?
6. Bank xarajatlari auditini o‘tkazish tartibi?
7. Bank xavfsizligini ta‘minlash yo‘llari va usullari?
8. Tijorat banklarining daromadlari auditi?
9. Ma‘muriy xarajatlar auditi nima?
10. Limit bo‘yicha xarajatlar summasi nima?
11. Xorij safarlari bo‘yicha xarajatlar va ularning hisobi qanday aniqlanadi?

7-bob. DEBITORLAR, KREDITORLAR VA QIMMATLI QOG‘OZLAR AUDITI

7.1. Bankning debitor va kreditorlar holatini audit qilish tartibi

7.2. Tijorat banklari qimmatli qog‘ozlar auditini o‘tkazish

7.3. Bank ustav kapitalini auditdan o‘tkazish tartibi

7.1. Bankning debitor va kreditorlar holatini audit qilish tartibi

Debitorlik va kreditorlik qarzlari auditini samarali o‘tkazish uchun eng avvalo auditor o‘z strategiyasini ya’ni rejasini puxta va to‘liq qilib tuzishi kerak. Zero, puxta tuzilgan reja auditni samarali bo‘lishi garovidir. Kreditorlik qarzlari auditini rejasini tuzilishi va shakli auditning umumiy me’zonlaridan kelib chiqadi, vaholanki kreditorlik qarzlari auditining ham auditning umumiy jarayonining ham muhim bir bo‘lagidir, shu bois qarz munosabatlari auditini rejalashtirish borasida so‘z yuritishdan oldin auditorlik faoliyatini rejalashtirishning maqsadi, vazifalari, bosqichlari va asosiy tamoyillariga to‘xtalib o‘tsak. Auditdagi turli tekshirishlarning rejasi shu tamoyillar, bosqichlar va maqsadlarga tayanadi, boshqacha qilib aytganda bulardan dastak sifatida foydalanadi. Har qanday faoliyat, xususan auditorlik faoliyati ham samarali bo‘lishi uchun dastavval, uning puxta va aniq rejasi yoki dasturini tuzish lozim. Auditni rejalashtirish chog‘ida auditorlik tashkiloti tomonidan qo‘llaniladigan me’yorlar №3 “Auditni rejalashtirish” nomli auditorlik faoliyatining milliy standarti (AFMS) bilan belgilanadi. Yuqorida ta’kidlanganidek, audit rejasini puxta tuzmasdan sifatli auditorlik tekshiruvini o‘tkazish mumkin emas. Shu boisdan ushbu standartga batafsilroq to‘xtalib o‘tamiz. Keyinchalik shartnoma tuzilgan holda auditni dastlabki rejalashtirishga doir ishlar qiymati o‘tkaziladigan auditorlik xizmatining umumiy qiymatiga qo‘shiladi, aks holda u auditorlik tashkilotining mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishi lozim. Rejalashtirish auditorlik tekshiruvini boshlang‘ich bosqichi bo‘lib,

auditorlar reja tuzilgunga qadar bevosita tekshiruv jarayonini boshlamasliklari lozim. Standartga muvofiq auditni rejalashtirish quyidagi bosqichlarga bo‘linadi:

- a) auditni dastlabki rejalashtirish;
- b) auditning umumiy rejasini tayyorlash va tuzish;
- d) audit dasturini tayyorlash va tuzish.

Ushbu standart har qanday tijorat bankini auditorlik tekshiruvidan o‘tkazishda ham audit rejasini, ham audit dasturini tuzishni talab etadi. Biroq, bizning fikrimizcha, unchalik katta bo‘lmagan xo‘jalik muomalalari kam sodir bo‘ladigan, bir turdagi xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanuvchi bankda audit o‘tkazganida, bunday keng qamrovli reja tuzish maqsadga muvofiq emas. Rejalashtirish auditorlik guruhi rahbari tomonidan audit o‘tkazishning umumiy tamoyillari kabi, xususiy tamoyillariga ham muvofiq amalga oshirilishi lozim.



3-rasm. Auditni rejalashtirishning xususiy tamoyillari²⁷.

Auditning umumiy rejasini: mijoz faoliyati bilan tanishish, dastlabki rejalashtirish, tekshiriladigan tijorat bankning ichki nazorat tizimini baholash, tanlash hajmi va jiddiylik darajasini aniqlash, audit dasturini tayyorlash, auditni bevosita o‘tkazish jarayoni (dasturni bajarish), bajarilgan ishlar natijalarini tahlil qilish, barcha oraliq va umumiy hujjatlarni tayyorlash, tekshiruv natijalarini mijozga taqdim etish va hokazolarni o‘z ichiga olgan holda audit o‘tkazishning barcha bosqichlarini aks ettirishi lozim.

²⁷ Куницына Н.Н., Хисамудинов В.В. Банковский аудит Учеб. пособие. 2-е изд., доп. М.: Финансы и статистика, 2014. 216 с

№3-«Auditni rejalashtirish» nomli AFMS, №14-«Auditorlik tanlash», №9-«Muhimlik va auditorlik riski», №6-«Auditni hujjatlashtirish» va auditorlik tekshiruvini amalga oshirishni tartibga soladigan boshqa standartlar bilan o‘zaro chambarchas bog‘liq.

Shunday qilib, boshqa standartlardagi talablarni o‘rganmasdan va izchil bajarimasdan, ushbu standart talablarini bajarish mumkin emas.

20-jadval

Tijorat bankida debitor va kreditorlar bilan hisob-kitoblarni auditorlik tekshiruvi o‘tkazish dasturi

Tekshiriladigan tashkilot "A" ATB
 Audit davri kishi-soatlar miqdori 60 kishi soat
 Auditorlik guruhining rahbari Ashurov I.
 Auditorlik guruhining tarkibi Ashurov I.,

Ergashev Q.

Rejalashtirilgan auditorlik riski 5%

Rejalashtirilgan muhimlik darajasi 4%

| № | Rejalashtirilgan ishlar turi | O‘tkazish davri | Bajaruvchi | Eslatma |
|---|--|-----------------------|-------------|---------|
| 1 | Mijozlar bilan hisob-kitoblarni tekshirish | 03.02.2018-08.02.2018 | Ashurov I. | |
| 2 | Sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlari bilan hisob-kitoblarni tekshirish | 03.02.2018-04.02.2018 | Ergashev Q. | |
| 3 | Xodimlarga berilgan avanslar bo‘yicha hisob-kitoblarni tekshirish | 04.02.2018-04.02.2018 | Ashurov I. | |
| 4 | Mol yetkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisob-kitoblarni tekshirish | 05.02.2018-05.02.2018 | Ergashev Q. | |
| 5 | Byudjetga soliq va yig‘imlar bo‘yicha hisob-kitoblarni tekshirish | 05.02.2018-05.02.2018 | Ashurov I. | |
| 6 | Maqsadli davlat jamg‘armalari va sug‘urta bo‘yicha hisob-kitoblarni tekshirish | 06.02.2018-06.02.2018 | Ergashev Q. | |
| 7 | Turli debitor va kreditorlar bilan hisob-kitoblarni tekshirish | 07.02.2018-08.02.2018 | Ashurov I. | |

Auditorlik tashkiloti nomidan auditorlik xulosasini imzolash huquqiga ega rahbar Ashurov I.

Auditorlik guruhining rahbari

Ergashev Q.

Auditorlik tekshiruvining asosiy bosqichlarini o'tkazish natijalari audit o'tkazishdan qo'yilgan maqsadga erishilganlik darajasini baholagan holda auditorning ishchi hujjatlarida qaid qilinishi lozim. Audit o'tkazish dasturining "Kreditor qarzlarni tekshirish" bo'limi bo'yicha o'tkazilgan audit natijalarini baholashda quyidagi auditorlik amallarini tahlil qilish va baholash maqsadga muvofiq: Keyingi pul kirimlari va tegishli hisobvaraqlar qoldiqlaridan to'langan to'lovlarga doir dastlabki hujjatlarni tekshirish:

- auditorlar odatda buxgalteriya balansi tuzilgandan keyingi to audit o'tkazilgan oxirgi kunga qadar amalga oshirilgan to'lovlarni ham tekshiradi. Shundan so'ng auditor to'lovi tasdiqlangan va tasdiqlanmagan qarzlarni summalarining katta - kichikligini baholaydi;

- hisobvaraqlarni buxgalteriya hisoboti tuzilganidan so'ng tayyorlangan moddiy javobgar shaxslar hisobotlari bilan, hisob ma'lumotlari bo'yicha qoldiqlar bilan solishtirish.

Buxgalteriya hisoboti tuzilgan kundan oldin olingan barcha hisobvaraqlar (ko'rsatilgan xizmatlar uchun) joriy davrdagi hisobda va shu davr uchun tuzilgan hisobotda aks ettirilishi kerak. Shuning uchun buxgalteriya balansi tuzilgan sanadan so'ng tayyorlangan materiallar harakati to'g'risidagi hisobotlar va hisobvaraqlardagi sanalar, mulklar va majburiyatlarning balansda to'g'ri aks ettirilganligini tekshirish maqsadida taqqoslanishi maqsadga muvofiq. Mavjud qoldiqlarni hisobvaraq-fakturalar ma'lumotlari, moddiy javobgar shaxslar hisobotlari va to'lov hujjatlari bilan solishtirish. Agar debitor va kreditor qarzlarning miqdori tijorat bank moliyaviy ahvoli uchun sezilarli darajada bo'lsa, auditorlar hisobga olishning to'g'riligi va aniqligini tekshirishi, shuningdek, hisob ma'lumotlari bo'yicha majburiyatlarning oshirib ko'rsatilmaganligini aniqlashlari lozim. Bu holda dastlabki hujjatlar ma'lumotlari analitik hisob registrlari (jurnallar, obrot yoki saldo vedomostlari)da aks ettirilgan axborotlar bilan, oldin eng katta qoldiqlaridan boshlab (chunki ular bo'yicha oshirib ko'rsatish ehtimoli ko'proq) solishtiriladi. Olingan ma'lumotlar bo'yicha hisob yozuvlarida (masalan, bitta hisobvaraqni hisob registrida ikki marta aks ettirish va

shunga o'xshash) majburiyatlar (debitor va kreditor qarzlari) oshirib ko'rsatilish holatlarining katta-kichikligini baholash zarur.

Debitor va kreditor qarzlari holati bo'yicha tekshirish:

Filial tomonidan to'lovsizliklarni kamaytirish, to'lov intizomini mustahkamlash borasida qilingan ishlarga baho berish uchun quyidagilarga e'tibor beriladi:

- mol jo'natuvchilardan yoki to'lovchilardan bo'lgan qarzlarning o'sib borish sabablariga;
- favqulodda qo'mita ishiga baho berish: yagona moliyaviy hisob-kitob kunlarining o'tkazilishiga;
- joylarda debitor va kreditor qarzlari bo'yicha tekshirishlar o'tkazilishiga;
- har oyda tashkilotlardan debitor va kreditor qarzlari bo'yicha talqinlar, muddati o'tgan qarzlarga taqqoslama dalolatnomalarining talab qilib olinishi ahvoriga;
- debitor (19907, 19908, 19909, 19910, 19925, 19929, 19997) xarajat (55100, 56200, 56300, 56400, 56510, 56718, 56800) hisob raqamlarida operatsiyalarni amalga oshirish uchun asos hujjatlarning mavjudligini o'rganish kerak.

7.2. Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar auditi o'tkazish

Tijorat banklari O'zbekiston Respublikasi fond bozorida investitsiya institutlarining professional qatnashchisi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Qimmatli qog'ozlar bozorida banklar quyidagi tadbirkorlik faoliyatlarini amalga oshiradilar:

- emissiya;
- brokerlik;
- dilerlik;
- depozitariylik;
- qimmatli qog'ozlarni o'tkazish va qimmatli qog'ozlarga bog'liq pul mablag'larini muomalalarida hisob - kliring faoliyatini yurgizish;
- xissadorlarning va boshqa qimmatli qog'ozlarni ushlovchilarning reestrlarini yurgizish va uni saqlash faoliyatini amalga oshirish;

- qimmatli qog'ozlarga bog'liq savdo faoliyatini yurgizish;
- trast funksiyalarini bajarish;
- inkassa funksiyalarini bajarish;
- maslahat va boshqa funksiyalarni bajarish;

Qimmatli qog'ozlar bozorida tashkil topgan siyosatning tipiga bog'liq holda bank muomalalarining maqsadlari quyidagicha bo'ladi:

- qimmatli qog'ozlar emissiyasi asosida kredit va hisob-kitob faoliyatini yurgizish uchun qo'shimcha pul resurslarini jalb etish;

- qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan o'z investitsiyalari asosida banklarga foizlar va dividendlar to'lash va qimmatli qog'ozlarni kurs qiymatini o'sishi hisobiga foyda olish;

- qimmatli qog'ozlarni muomalalari bo'yicha mijozlarga xizmat ko'rsatish evaziga foyda olish;

- korxonalar va tashkilotlarning kapitalida bankning qatnashishi evaziga raqobatbardoshlik ta'siri doirasini kuchaytirish va kengaytirish va yangi mijozlarni jalb qilish;

- qimmatli qog'ozlar orqali defitsit resurslarga ega bo'lish maqsadida shunday huquqlarga ega qiladigan qimmatli qog'ozlarga bank egaligini ta'minlash;

- qo'yilmalarni likvidli va daromadli mablag'lar bilan ta'minlashda likvidlikning zarur zaxirasini qo'llash.

Qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklari moliyaviy broker sifatida qimmatli qog'ozlarni oldi-sotdisida mijozni hisobidan va uning topshirig'i bilan komissiya shartnomasi yoki shartnoma topshirig'iga muvofiq agentlik funksiyasini bajaradi. Tijorat banklarining komission muomalalari (operatsiyalari) o'z mijozning topshirig'iga muvofiq banklar komission operatsiyalarni bajaradi. Bunda ular mijozning topshirig'iga muvofiq komissioner sifatida o'z nomlaridan, mijozning hamma ko'rsatmalarini, masalan kurslarni cheklash, kelishuvlarni vaqti va kelishuv o'tkaziladigan joy to'g'risidagi ko'rsatmalarni bajarishi lozim.

Bu xizmatlar uchun bank mijozdan komissiya haqi, qo'shimcha xarajatlar kompensatsiyasini olishi kerak, chunki bu ishlar mijoz topshirig'ini bajarilishiga bog'liq tadbirlardir. Komission kelishuv tipi ikki shartnomani tuzishni ko'zda tutadi:

- bank (komissioner) va mijoz (komitent) o'rtasidagi komission shartnoma;

- bank komissioner va uchinchi kelishuv qatnashchisi o'rtasidagi oldi-sotdi shartnomasi, qoida bo'yicha, komitent sotib oluvchi qimmatli qog'ozlarni sotib olish shartnomasini tuzishdan oldin, vositachi-bank ixtiyorida o'zini hisobvaraqa-siga pul mablag'larini o'tkazadi. O'tkazilgan pul mablag'lari qimmatli qog'ozlarni sotib olishga yetadigan darajada bo'lishi kerak.

Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni audit qilishda tijorat banklarida Davlatning qisqa muddatli majburiyatlari bilan operatsiyalarining holati, ya'ni ular bilan bog'liq hujjatlarning to'raligi, buxgalteriya operatsiyalarining qonuniyligi balansda to'g'ri aks ettirilgani va qayta baholash tekshiriladi. Markaziy bank tomonidan depozit va jamg'arma sertifikatlarining emissiyasi va joylashtirilish tekshiriladi.

Qimmatli qog'ozlar bilan o'tkaziladigan operatsiyalar auditining maqsadi:

1. Bank qimmatli qog'ozlari bilan operatsiyalari hisobini qonun va me'yorlar talablari darajasida amalga oshirayotganligiga amin bo'lish;

2. Qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisidan tushgan daromad (xarajatlarni) o'z vaqtida daromadlar (xarajat) hisobvarag'ida aks ettirilganligini aniqlash;

3. Qimmatli qog'ozlarga qo'yilmalar hisobini hisobvaraqdagi qoldig'ini tasdiqlash.

Tekshiruv manbalari:

- balans;
- shaxsiy hisobvaraqdan ko'chirma;
- kunlik qoldiq qiymat;
- investitsiyalarning taqsimlanishi;
- qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisobot.

Auditor tomonidan filialda qimmatli qog'ozlar auditi ko'paytirish imkoniyatlari o'rganib chiqilib, zarur tavsiyalar berish talab qilinadi. Bank kapitalini tekshirishda aksionerlarga dividendlar hisoblanishi va to'lanishi ham bir yo'la tekshirib ko'riladi.

Bulardan tashqari ushbu bo'limni tekshirishda quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

- aksiyadorlardan kelib tushgan so'roqlarni o'rganib chiqish, ularga javob tayyorlash;

- fond portfeli bo'yicha hisobotlarning o'z vaqtida tayyorlanishi va kerakli joylarga berilishi;
- davlat qisqa muddatli obligatsiyalari bo'yicha operatsiyalarning balansda to'g'ri aks ettirilishi va qayta baholanishi;
- sotib olingan aksiya paketlari emitentlarining moliyaviy ahvolini o'rganish jarayonidagi tahlillarning mavjudligi;
- fond portfeli yig'majildidagi hujjatlarning to'liqligi (emitent balansi, moliyaviy natijalar bo'yicha hisobotlar, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarorlarining mavjudligi);
- hisoblangan dividendlarni undirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar ahvoli;
- birja va birjadan tashqari savdodagi bitimlar bo'yicha tuzilgan shartnomalarning holati, yuridik ekspertizadan o'tkazilganlik darajasi;
- qimmatli qog'ozlar operatsiyalaridan kutilayotgan zararlarga zaxiralarning yaratilishi va boshqalar.

Tijorat banklarida qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar quyidagi me'yoriy hujjatlar orqali tartibga solinadi:

- "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonuni 2000-yil 26-may;
- "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" gi qonuni 2016-yil 13-aprel;
- "Tijorat banklari tomonidan qimmatli qog'ozlar bilan o'tkaziladigan operatsiyalarga va ularning boshqa korxonalar ustav kapitalida qatnashishga qo'yiladigan talablar to'g'risida" nizom 2008-yil 27-dekabr;
- "Tijorat banklarida qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarning buxgalteriya hisobi to'g'risida" Yo'riqnoma 2008- yil 13-dekabr.

7.3. Bank ustav kapitalini auditdan o'tkazish tartibi

Tijorat banklari kapitalini audit qilishda bank kapitalining iqtisodiy ahamiyatini chuqur o'rganib chiqish zarur.

O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonuniga muvofiq: "Bankning ustav kapitali bank muassislari va aksiyadorlari to'lagan pul mablag'lar"idan tashkil topadi.

"Banklar ustav kapitalining eng kam miqdori Markaziy bank tomonidan belgilanadi"²⁸. Markaziy bank 1997-yildan boshlab tijorat

²⁸ O'zbekiston bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo'yicha qonunchilik hujjatlari to'plami. –T.: «O'zbekiston», 2003, 33- bet.

banklarining ustav kapitali hajmini oshirishga bo'lgan talabni kuchaytirdi. Xususan, 1997-yil yanvar oyidan boshlab tijorat banklariga ustav kapitalini har chorakda belgilangan miqdorda oshirish majburiyati yuklatildi. Bu esa kutilgan samarani berdi. Ya'ni 1998-2000-yillarda tijorat banklarining kapitali ikki marotaba ko'paydi.

Banklar ustav kapitalining eng kam miqdori Markaziy bank tomonidan belgilangan me'yordan kam emas.

21-jadval

O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat banklari ustav kapitalini minimal miqdoriga qo'yilgan talablar²⁹

| Yillar | Aksionerlik tijorat banklari uchun | Chet el kapitali ishtirokida ochilayotgan banklar uchun | Xususiy banklar uchun |
|--------------------|------------------------------------|---|--------------------------------|
| 1-yanvar 1998-yil | 1,5 mln. AQSh dol. ekv. so'mda | 5,0 mln. AQSh dol. ekv. so'mda | 0,3 mln AQSh dol. ekv. so'mda |
| 1-yanvar 1999-yil | 2,0 mln. AQSh dol. ekv. so'mda | 5,0 mln. AQSh dol. ekv. so'mda | 0,3 mln AQSh dol. ekv. so'mda |
| 1-yanvar 2000-yil | 2,5 mln. AQSh dol. ekv. so'mda | 5,0 mln. AQSh dol. ekv. so'mda | 0,3 mln AQSh dol. ekv. so'mda |
| 1-yanvar 2002-yil | 2,5 mln. AQSh dol. ekv. so'mda | 5,0 mln. AQSh dol. ekv. so'mda | 1,25 mln AQSh dol. ekv. so'mda |
| 1-yanvar 2005-yil | 5,0 mln. AQSh dol. ekv. so'mda | 5,0 mln. AQSh dol. ekv. so'mda | 2,5 mln AQSh dol. ekv. so'mda |
| 1-yanvar 2008-yil | 5,0 mln. yevro ekv. so'mda | 5,0 mln. yevro ekv. so'mda | 2,5 mln. yevro ekv. so'mda |
| 1-yanvar 2009-yil | 10,0 mln.yevro ekv. so'mda | 10,0 mln.yevro ekv. so'mda | 5,0 mln.yevro ekv. so'mda |
| 1-yanvar 2010-yil | 10,0 mln.yevro ekv. so'mda | 10,0 mln.yevro ekv. so'mda | 5,0 mln.yevro ekv. so'mda |
| 1-yanvar 2011-yil | 10,0 mln.yevro ekv. so'mda | 10,0 mln.yevro ekv. so'mda | 5,0 mln.yevro ekv. so'mda |
| 1-oktyabr 2018-yil | 100 mlrd.so'm | | |

Tijorat banki ustaviga kiritiladigan barcha o'zgartirish va qo'shimchalarni audit qilish bir muncha murakkab jarayon hisoblanadi.

Tijorat banki ustaviga kiritiladigan barcha o'zgartirish va

²⁹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning rasmiy sayti ma'lumotlari asosida tuzildi.

qo'shimchalar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ro'yxatga olinishi lozim.

Bank ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qaror aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan umumiy yig'ilishda ishtirok etuvchi ovozga ega aksiyalar egalari bo'lgan aksiyadorlarning ko'pchilik to'rtidan uch qismi ovoz bergan holda qabul qilinadi. Ovoz berish "bitta aksiya - bir ovoz" tamoyili bo'yicha amalga oshiriladi.

Tijorat banklari kapitalini shakllantirishi auditida quyidagilarga alohida e'tibor beriladi:

- har bir aksiyadorning ustav kapitalidagi ishtirokining eng ko'p ulushi qonun hujjatlari bilan belgilangan miqdordan oshib ketmasligiga;
- bankning boshqa banklarning ustav kapitalida ishtirokiga yo'l qo'yilmaydi, chet el kapitali ishtirokidagi banklar va sho'ba banklar tashkil etish hollari, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollar bundan mustasno;
- kreditga va garovga olingan mablag'lardan hamda boshqa jalb etilgan mablag'lardan bankning ustav kapitalini shakllantirish uchun foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Bank ustav kapitalining kamaytirilishi auditida quyidagi holatlar o'rganib chiqiladi:

- ustav kapitalining kamaytirilishi natijasida Markaziy bank tomonidan belgilangan iqtisodiy me'yorlar hamda bank ustav kapitali eng kam miqdoriga qo'yiladigan talablarning buzilishi ehtimoli yoki har qanday aksiyador ishtiroki ulushi ustav kapitalining qonunchilik tomonidan belgilangan cheklangan miqdoridan oshish holati;

- taqdim etilgan hujjatlarning qonunchilik va Markaziy bank me'yoriy hujjatlari talablariga mos kelishi;

- ustav kapitalining kamaytirilishi omonatchilar manfaatlariga va bank moliyaviy ahvoriga aniq xavf solishi mumkinligi.

Markaziy bankning ustav kapitalini kamaytirishga rozilik bermasligi asoslangan bo'lishi va oxirgi zarur hujjat olinganidan keyin bir oy muddat ichida yozma ravishda bankka yuborilishi lozim.

Auditor o'z ishini bajarishi chog'ida halol va samimiy bo'lishi zarur. U xolis bo'lishi hamda shaxsiy xayrixohlik va boshqa ehtiroslar obyektiv fikr yuritishda halal berishiga yo'l qo'ymasligi shart. U tekshiruv natijasidan mutlaqo manfaatdor bo'lmasligi zarur.

Tashkil etilayotgan bank kapitalining yetarlilik darajasini audit qilishda quyidagilar asosiy hisoblanadi:

- Markaziy bank belgilagan ustav kapitalining eng kam miqdori yuzasidan talablarga muvofiqligi;

- ko'zda tutilayotgan o'sishni qo'llab-quvvatlash darajasi;

- ko'zda tutilayotgan daromadlar va asosiy fondlar darajasi;

- muassislarning zarur hollarda qo'shimcha kapital kiritish olish qobiliyati.

Bank ro'yxatga olingunicha ustav kapitali mablag'larini to'plash uchun muassislar tomonidan Markaziy bank yoki O'zbekiston Respublikasining boshqa banklarida muvaqqat jamg'arma hisobvaraqlar ochiladi.

Bank ro'yxatga olinadigan vaqtgacha muassislar tomonidan to'lanishi kerak bo'lgan ustav kapitalining eng kam miqdori Markaziy bank me'yoriy hujjatlari bilan belgilanadi. Markaziy bank faoliyat shartlari, biznes-rejada ko'rsatilgan operatsiyalar turi va hajmiga qarab bank ustav kapitali miqdoriga qo'shimcha talablar qo'yishi mumkin.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, auditor o'z ishini bajarishi chog'ida halol va samimiy bo'lishi zarur. U xolis bo'lishi hamda shaxsiy xayrixohlik va boshqa ehtiroslar obyektiv fikr yuritishda halal berishiga yo'l qo'ymasligi shart. U tekshiruv natijasidan mutlaqo manfaatdor bo'lmasligi zarur. Auditor ish davomida o'ziga ma'lum bo'lgan maxfiy axborot sir saqlanishini ta'minlashi va alohida ruxsatsiz uchinchi shaxslarga oshkor etmasligi shart. Auditorga maxfiy axborotni sir saqlay olmagan uchun shartnoma shartlariga asosan mas'uliyat yuklatiladi.

Tijorat banklarining rezerv kapitali foydadan ajratmalar hisobiga tashkil etilib ko'zda tutilmagan zararlar hamda qimmatli qog'ozlar kursining pasayishi natijasida vujudga keladigan yo'qotishlarni qoplash uchun mo'ljallanadi.

Tijorat banklari o'z mablag'lari manbaiga ustav kapitali va rezerv kapitalidan tashqari turli maqsadlar uchun tuzilgan jamg'armalar (fondlar) va taqsimlanmagan foydani kiritadi.

Qo'shilgan kapital (surplus capital) bu oddiy va imtiyozli aksiyalarning sotish kursi bilan nominal bahosi o'rtasidagi farq hisobiga

hosil qilingan kapitaldir. Ba'zi hollarda ortiqcha kapitalning summasi aksiyalarning nominal qiymatidan oshib ketishi mumkin.

Taqsimlanmagan foyda (undivided profits) bu bank ixtiyorida qoladigan daromad summasi. Yil (chorak) oxirida bankning barcha hisobvaraqlaridagi summalar foyda va zararlar hisobvarag'iga pul o'tkaziladi, so'ngra umumiy yig'ilgan summaning ma'lum bir qismi soliqqa, ma'lum bir qismi aksiyadorlar uchun dividendga, ma'lum bir qismi turli xildagi rezervlarga o'tkaziladi va qolgan qoldiq summa esa taqsimlanmagan foydani tashkil qiladi. Taqsimlanmagan foyda bank rahbariyati va umumiy aksiyadorlar majlisi tomonidan boshqariladi.

Markaziy bank nazoratchilarining hamda bank auditi xodimlarining birinchi navbatdagi vazifasi, o'zlari mas'ul bo'lgan banklarga xulosa berish, moliyaviy holatini tahlil etish va unga baho berishdir. Bankka baho berishda hamda uning reytingini aniqlashda barcha bank nazoratchilari hamda auditorlar tomonidan bir xil qabul qilingan yagona andozadagi tizimdan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Mavjud reyting tizimi hammabop va tushunarli bo'lishi lozim. Shundagina boshliqdan tortib, ishga yangi kelgan xodimga ham bank faoliyatini osonlik bilan o'zlashtirish va uning moliyaviy holatini tezda tushunib olishi mumkin bo'ladi.

Bankning boshqa banklarning ustav kapitalida ishtirokiga yo'l qo'yilmaydi, chet el kapitali ishtirokidagi banklar va sho'ba banklar tashkil etish hollari, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollar bundan mustasno.

Ustav kapitali uchun to'lanadigan mablag'lar O'zbekiston Respublikasining Markaziy bankida yoki boshqa banklarida ochilgan jamg'arish hisobvarag'iga o'tkaziladi. Ko'rsatilgan mablag'lardan depozit sifatida foydalanish mumkin. Amaliyotda kuzatishimiz mumkinki tijorat banki ustaviga kiritiladigan barcha o'zgartirish va qo'shimchalarni audit qilish bir muncha murakkab jarayon hisoblanadi.

Tijorat banki ustaviga kiritiladigan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ro'yxatga olinishi lozim.

Bank ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qaror aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan umumiy yig'ilishda

ishtirok etuvchi ovozga ega aksiyalar egalari bo'lgan aksiyadorlarning ko'pchilik to'rtidan uch qismi ovoz bergan holda qabul qilinadi. Ovoz berish "bitta aksiya - bir ovoz" tamoyili bo'yicha amalga oshiriladi.

Ustavga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalarni ro'yxatdan o'tkazish uchun bank aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tegishli qaror qabul qilgan kundan boshlab bir oy mobaynida Markaziy bankning Tijorat banklariga litsenziyalar berish va ular faoliyatini tartibga solish departamentiga quyidagi hujjatlarni uch nusxada taqdim etadi:

- Bank kengashi raisi imzolagan bank ustaviga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalarni ro'yxatga olish to'g'risidagi iltimosnoma (davlat yagona muassisi hisoblangan banklar iltimosnomasini Boshqaruv raisi imzolaydi);

- ustavga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida qaror qabul qilingan bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishining bayonnomasi;

- Bank kengashi raisi imzolagan bank ustaviga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar matni.

Markaziy bankning qo'shimcha aksiyalar chiqarilishiga rozilik bermasligi asoslangan bo'lishi va bir oy muddat ichida yozma ravishda bankka yuborilishi lozim.

Aksiyadorlik jamiyati shakliga qarab bank bir qancha vazifalarni bajaradi. Shu jarayonlar to'g'ri tartibda amalga oshirilayotganini nazorat qilish maqsadida audit qilish kerak bo'ladi.

Aksiyalar ochiq usulda joylashtirilganda bank quyidagilarni bajarishi lozim:

- emissiya prospektiga o'zgartirishlar kiritish uchun qimmatli qog'ozlarni ro'yxatdan o'tkazuvchi organga murojaat qilishi;

- emissiya prospektini matbuotda e'lon qilishi;

- aksiyalarni joylashtirishi;

- ustav kapitali miqdorining oshirilishi tufayli bank ustaviga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qarorni qabul qilish bilan birga amaldagi qonunchilikka muvofiq bankning vakolatli organi bilan aksiyalarni chiqarish va joylashtirish yakunini tasdiqlashi;

- qimmatli qog'ozlarni ro'yxatga oluvchi organga aksiyalarni chiqarish va joylashtirish yakunlari to'g'risidagi hisobotni taqdim etishi;

• aksiyalarni chiqarish va joylashtirish yakunlarini matbuotda eʼlon qilishi;

• Markaziy bankka ustav kapitali miqdorining oshirilishi munosabati bilan bank ustaviga kiritiladigan oʻzgartirishlar va qoʻshimchalarni roʻyxatga olish toʻgʻrisidagi iltimosnomani taqdim etish bilan birga aksiyalarni chiqarish va joylashtirish yakunlari toʻgʻrisida maʼlumot berishi.

Aksiyalar yopiq tarzda joylashtirilganda emitent bank quyidagilarni bajarishi lozim:

• aksiyalar chiqarilishini qimmatli qogʻozlarni roʻyxatga oluvchi organda roʻyxatdan oʻtkazishi;

• aksiyalarni boʻlajak investorlar doirasida joylashtirishi;

• aksiyalarni chiqarish yakunlari boʻyicha ustav kapitali miqdorining oshirilishi munosabati bilan bank ustaviga oʻzgartirishlar va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisidagi qarorni qabul qilish bilan birga amaldagi qonunchilikka muvofiq vakolatga ega boʻlgan organ bilan aksiyalarni chiqarish va joylashtirish yakunini tasdiqlashi;

• qimmatli qogʻozlarni roʻyxatga oluvchi organga aksiyalarni chiqarish va joylashtirish yakunlari toʻgʻrisidagi hisobotni taqdim etishi;

• Markaziy bankka bank ustav kapitali miqdorining oshirilishi munosabati bilan bank ustaviga kiritiladigan oʻzgartirishlar va qoʻshimchalarni roʻyxatga olishi toʻgʻrisidagi iltimosnomani taqdim etish bilan birga aksiyalarni chiqarish va joylashtirish yakunlari toʻgʻrisida maʼlumot berishi.

Qayd etilgan talablar bilan birga emitent banklar qimmatli qogʻozlarni roʻyxatga oluvchi organning qimmatli qogʻozlarni chiqarish va roʻyxatdan oʻtkazishga doir meʼyoriy hujjatlari talablarini bajaradilar.

Aksiyalar nominal qiymatini pasaytirish yoki aksiyalar umumiy sonini qisqartirish, jumladan, keyinchalik ularni toʻlash sharti bilan sotib olish orqali Bank ustav kapitali kamaytirilishi mumkin.

Agarda bank ustavida koʻzda tutilgan boʻlsa, aksiyalarning bir qismini sotib olish va ularni toʻlash yoʻli bilan bank ustav kapitalini kamaytirishga ruxsat etiladi.

Agar ustav kapitali kamaytirilishi natijasida uning hajmi bank ustavidagi tegishli oʻzgarishlarni qayd qilish sanasida aniqlanadigan,

Markaziy bank tomonidan belgilangan ustav kapitalining eng kam miqdoridan kamayib ketsa, bank ustav kapitali miqdorini kamaytirishga ruxsat berilmaydi.

Ustav kapitalini kamaytirish hamda bank ustaviga tegishli o'zgartirishlar kiritish to'g'risidagi qaror aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi (davlat yagona muassisi hisoblangan bankda qaror hukumat tomonidan qabul qilinadi). Qarorda ustav kapitalining kamaytirilishi sabablari ko'rsatiladi va uni kamaytirish tartibi belgilaniladi.

Joylashtirilgan aksiyalarni sotib olish yo'li bilan ustav kapitalini kamaytirishda aksiyadorlar umumiy yig'ilishining ustav kapitalini kamaytirish to'g'risidagi qarorida sotib olinadigan aksiyalar turlari, bank tomonidan sotib olinadigan har bir turdagi aksiyalar soni, sotib olish narxi, to'lov shakli va muddati, shuningdek, aksiyalarni xarid qilish muddati belgilanishi lozim.

Aksiyalar nominal qiymatini pasaytirish yo'li bilan ustav kapitalini kamaytirishda aksiyadorlar umumiy yig'ilishining ustav kapitalini kamaytirish to'g'risidagi qarorida aksiyaning yangi nominal qiymati, aksiya narxi hamda aksiyalar yangi nominal qiymati o'rtasidagi farqni aksiyadorlarga qaytarish shakli va muddati, shuningdek, ushbu farqni qaytarish muddati belgilanishi zarur.

Bank ustav kapitalining kamaytirilishi auditida quyidagilar holatlar o'rganib chiqiladi:

- ustav kapitalining kamaytirilishi natijasida Markaziy bank tomonidan belgilangan iqtisodiy me'yorlar hamda bank ustav kapitali eng kam miqdoriga qo'yiladigan talablarning buzilishi ehtimoli yoki har qanday aksiyador ishtiroki ulushi ustav kapitalining qonunchilik tomonidan belgilangan cheklangan miqdoridan oshish holati;

- taqdim etilgan hujjatlarning qonunchilik va Markaziy bank me'yoriy hujjatlari talablariga mos kelishi;

- ustav kapitalining kamaytirilishi omonatchilar manfaatlariga va bank moliyaviy ahvoriga aniq xavf solishi mumkinligi.

Markaziy bankning ustav kapitalini kamaytirishga rozilik bermasligi asoslangan bo'lishi va oxirgi zarur hujjat olinganidan keyin bir oy muddat ichida yozma ravishda bankka yuborilishi lozim.

Tijorat banklari ustav kapitalining tarkibi turli moliyaviy manbalar hisobiga shakllanadi. Ushbu manbalar haqida tadqiqotning birinchi bo'linida batafsil yoritilgan edi. Ularning asosiylari sifatida bank tomonidan chiqarilgan oddiy aksiyalarni ta'kidlashimiz lozim. Bank ustav kapitalining asosiy qismi ushbu aksiyalar hisobiga shakllantiriladi.

O'zbekiston bank amaliyotida tijorat banklarining imtiyozli aksiyalarini sotishdan olingan tushum ham ustav kapitali tarkibiga kiritiladi. Bunda, imtiyozli aksiyalarning qiymati ustav kapitali umumiy summasining 20 foizdan oshib ketmasligi kerak. Ayrim rivojlangan industrial davlatlarda, masalan, Germaniya va Avstriyada imtiyozli aksiyalarni sotishdan olingan tushumlar banklarning ustav kapitali tarkibiga kiritilmaydi, ustav kapitali faqatgina oddiy aksiyalarni sotishdan olingan tushum hisobiga shakllantiriladi. Chunki imtiyozli aksiyalarning egalari tijorat bankining hisobot yilida foyda olishi yoki olmasligidan qat'iy nazar belgilangan dividend to'lovini olish yoki bank tugatilganda aksiya uchun qo'yilgan mablag'ni birinchi navbatda qaytarib olish huquqiga ega bo'ladi.

O'zbekiston bank amaliyotida, xalqaro Bazel andozalarida ko'zda tutilgani kabi, ustav kapitalining faqat haqiqatda to'langan qismi kapital tarkibiga kiritiladi. Xalqaro amaliyotdan ma'lumki, ko'pchilik hollarda aksiyadorlarning bir qismi ta'sis shartnomasida ko'zda tutilgan miqdordagi o'z ulushlarining ma'lum qismini to'lashdan bosh tortadilar yoki to'lashni kechiktiradilar. Shuning uchun ham e'lon qilingan ustav kapitalining faqatgina haqiqatda to'langan qismini tijorat bankining kapitali tarkibiga kiritish maqsadga muvofiqdir.

Banklar, qoida tariqasida, mulkchilikning har qanday shakli asosida aksiyadorlik jamiyati tarzida tashkil etiladi.

Auditor o'z ishini bajarishi chog'ida auditorlik prinsiplariga qat'iy amal qilishi, halol va samimiy bo'lishi zarur. U xolis bo'lishi hamda shaxsiy xayrixohlik va boshqa ehtiroslar obyektiv fikr yuritishda halal berishiga yo'l qo'ymasligi shart. U tekshiruv natijasidan mutlaqo manfaatdor bo'lmasligi zarur.

Banklarning aksiyalarini olish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Bank muassislari bank aksiyadorlari

tarkibidan u ro'yxatga olingan kundan boshlab bir yil mobaynida chiqib ketish huquqiga ega emaslar. Bankning ustav kapitali bank muassislari va aksiyadorlari to'lagan pul mablag'laridan tashkil topadi.

Tijorat banklarining ustav kapitali bank ustavida ko'rsatiladi va bank faoliyatini boshlashning dastlabki mablag'i hisoblanadi. Tijorat banklari ustav kapitali summasi qonun yo'li bilan chegaralanmagan, lekin banklar faoliyatini barqaror ta'minlash maqsadida uning minimal miqdori belgilab qo'yiladi.

Tijorat banklari ustav kapitali bank o'z mablag'larining asosiy qismini tashkil etadi va ustav fondi summasi bank aksionerlari umumiy yig'ilishida oshirilishi mumkin.

Bankni tashkil etish vaqtida ustav kapitali summasi miqdorida egasi yozilgan aksiyalar chiqarilib, ular bank ro'yxatga olingan kundan boshlab bir yil mobaynida bank aksiyadorlari tarkibidan chiqish huquqiga ega bo'lmaydigan muassislar o'rtasida taqsimlanadi.

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va atamalar

Debitorlik qarzlari, kreditorlik qarzlari, bankning qimmatli qog'ozlari, depozit sertifikat, aksiya, obligatsiyalar.

O'z bilimini tekshirish bo'yicha savollar

1. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan aktiv operatsiyalarining hisobi qanday tekshiriladi?

2. Tijorat banklarining investitsion faoliyati nimadan iborat?

3. Bankning qarz majburiyatlari va aksiyalariga qo'yilmalar qanday tartibda tekshiriladi?

4. Bank tomonidan bunday amalga oshiriladigan operatsiyalarining daromadligi darajasi qanachalik samara beradi?

5. Depozit sertifikatlari nima uchun chiqariladi va u bo'yicha foiz tolashni tekshirishda nimalarga e'tibor qaratish lozim?

8-bob. VALYUTA OPERATSIYALARI AUDITI

8.1. Banklarda valyuta operatsiyalarining turlari va audit qilishning umumiy qoidalari

8.2. Chet el valyutasidagi bank operatsiyalarini audit qilish tartibi

8.3. Bankning ichki valyuta bozorida konversion operatsiyalarni tekshirish

8.4. Ayirboshlash shoxobehalarini audit qilish tartibi

8.1. Banklarda valyuta operatsiyalarining turlari va audit qilishning umumiy qoidalari

Mustaqillikning dastlabki yillarida tashqi aloqalarni kengaytirish, respublikaning eksport imkoniyatlarini rivojlantirishni rag'batlantirish maqsadida butun tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish uchun huquqiy negizlarni yaratib bergan asosiy qonun hujjatlari qabul qilindi. Bular respublikaning iqtisodiy manfaatlarini, O'zbekistonning xorijdagi yuridik shaxslar va (jismoniy) fuqarolarini himoya qilishni ta'minlashga, respublika hududida xorijiy sarmoyadorlar faoliyati uchun huquqiy kafolatlarni belgilab berishga imkoniyat yaratdi.


Valyuta operatsiyalari – bu xorijiy valyutada va valyutaviy qimmatliklar bilan bo'ladigan oldi-sotdi operatsiyalaridir.

Valyuta operatsiyalariga quyidagilar kiradi: valyuta boyliklariga bo'lgan mulk huquqining va boshqa huquqlarning o'zga shaxsga o'tishi hamda valyuta boyliklarini to'lov vositasi sifatida ishlatish bilan bog'liq operatsiyalar; valyuta boyliklarini O'zbekiston Respublikasiga olib kirish va jo'natish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasidan olib chiqish va jo'natish; xalqaro pul jo'natmalarini amalga oshirish; rezidentlar va norezidentlar o'rtasida milliy valyutadagi operatsiyalar.

Valyuta operatsiyalari asosan valyuta bozorlarida amalga oshiriladi. Rasmiy valyuta-moliya bozorining eng yirik jahon markazlari London, Nyu-York, Frankfurq, Mayn va Tokio shaharlari hisoblanadi.


Bu shaharlarda ko'p sonli bo'limlar tarmog'iga va erkin naqd chet el valyutasiga ega juda yirik jahon tijorat banklari faoliyat ko'rsatadi.

Valyuta bozorlarida amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalari mohiyatiga ko'ra quyidagicha bo'linadi:



4-rasm. Valyuta operatsiyalarining mohiyati bo'yicha turlari³⁰

Kengroq ma'noda valyuta operatsiyalarining tasnifini quyidagi rasm ko'rinishida ifodalash mumkin



5-rasm. Valyuta operatsiyalarining tasnifi³¹

“Valyutani tartibga solish to'g'risida”gi qonunga binoan valyuta operatsiyalari ikkiga bo'linadi:

1. Joriy xalqaro valyuta operatsiyalari;
2. Kapital harakati bilan bog'liq valyuta operatsiyalari.

³⁰ Abdullaeva Sh.Z. “Xalqaro valyuta –kredit munosabatlari” Darslik T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2005

³¹ Abdullaeva Sh.Z. “Xalqaro valyuta –kredit munosabatlari” Darslik T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2005

Joriy xalqaro operatsiyalarga quyidagilar kiradi:

- tashqi savdo, boshqa joriy faoliyat olib borilishi, shu jumladan xizmatlar ko'rsatilishi munosabati bilan, shuningdek, odatdagi qisqa muddatli bank va kredit mexanizmlari ishlashi munosabati bilan to'lanishi zarur barcha to'lovlar;

- foizlar va boshqa daromadlar ko'rinishida, shu jumladan bank omonatlari, kreditlar hamda lizing bo'yicha olinadigan foizlar va boshqa daromadlar shaklida, shuningdek, boshqa investitsiyalardan olinadigan sof daromad shaklida to'lanishi zarur to'lovlar;

- kreditlarni, qarzlarni uzish uchun yoki to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar amortizatsiyasi uchun maqbul summalarni to'lash;

- savdo bilan bog'liq bo'lmagan pul jo'natmalarining maqbul summalari.

Savdo bilan bog'liq bo'lmagan pul jo'natmalariga quyidagilar kiradi:

- ish haqi, stipendiyalar, pensiyalar, alimentlar to'lash;

- xodimlarni O'zbekiston Respublikasidan tashqariga xizmat safariga yuborish bilan bog'liq xarajatlarni to'lash;

- ta'lim va davolanish uchun haq to'lash;

- O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi diplomatiya va boshqa vakolatxonalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining davlatlararo yoki hukumatlararo tashkilotlar huzuridagi doimiy vakolatxonalari ta'minoti uchun haq to'lash;

- notarial va tergov harakatlari bilan bog'liq to'lovlar, shuningdek, bunday harakatlarni amalga oshirish va ishlarni sudlarda ko'rish munosabati bilan davlat boji to'lash;

- sudning, arbitrajning, shuningdek, tergov va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning qarorlari asosida pul mablag'lari to'lash;

- xalqaro kongresslar, simpoziumlar, konferensiyalarda, sport va madaniy tadbirlarda, shuningdek, boshqa xalqaro uchrashuvlar, ko'rgazmalar va yarmarkalarda ishtirok etganlik uchun to'lovlar, investitsiya bilan bog'liq va moddiy xarajatlar bundan mustasno;

- dafn qilish bilan bog'liq to'lovlar;

- mualliflik haqini to'lash, patent bojlarini to'lash va intellektual mulk sohasidagi litsenziya shartnomalarining majburiyatlari bo'yicha haq to'lash;

- xalqaro notijorat tashkilotlariga badallar;

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadigan boshqa operatsiyalar.

Joriy xalqaro operatsiyalar va chet el valyutasini ular bilan bog'liq holda sotib olish yoki sotish cheklovlarsiz amalga oshiriladi.

Kapital harakati bilan bog'liq valyuta operatsiyalariga joriy xalqaro operatsiyalar hisoblanmaydigan barcha operatsiyalar, shu jumladan:

- investitsiya faoliyatini amalga oshirish;

- kreditlar olish va berish, lizing operatsiyalarini amalga oshirish;

- ko'chmas mulkni sotib olish va sotish;

- xorijiy davlatlardan mablag'larni hisobvaraqlar va omonatlarga jalb etish hamda xorijiy davlatlarda mablag'larni hisobvaraqlar va omonatlarga joylashtirish kiradi.

O'zbekiston Respublikasiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish, shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni amalga oshirish munosabati bilan olingan huquqlardan foydalanish cheklovlarsiz amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining diplomatiya va boshqa vakolatxonolari ehtiyojlari uchun O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ko'chmas mulk obyektlarini olish va ularni qurish bo'yicha kapital harakati bilan bog'liq valyuta operatsiyalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qaroriga binoan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida chet el valyutasidagi qimmatli qog'ozlar muomalasi, rezidentlar tomonidan chet el valyutasidagi qimmatli qog'ozlar sotib olinishi, shuningdek, rezidentlar chiqargan qimmatli qog'ozlarning norezidentlar tomonidan sotib olinishi tartibi qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish va muvofiqlashtirish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan birgalikda belgilanadi.

O'z navbatida, barcha valyuta qiymatliklari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar o'z xarakteri va namoyon bo'lish usuliga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

1. Spot tipidagi valyuta operatsiyalari;

2. Muddatli valyuta operatsiyalari:

- Forvard tipidagi valyuta operatsiyalari;
- valyuta opsiyonlari bilan bog'liq valyuta operatsiyalari;
- valyuta fyucherslari bilan amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalari.

3. Svop tipidagi valyuta operatsiyalari.

Valyuta operatsiyalari subyektlari:

- O'zbekiston Respublikasining rezidentlari;
- O'zbekiston Respublikasining norezidentlari;
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki;
- vakolatli banklar.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyoti sharoitida xalqaro valyuta munosabatlari bozor va davlat tomonidan tartibga solib turiladi. Valyuta bozorida valyutaning talab va taklifi hamda ularning kurslari nisbati shakllanadi. Bozor tomonidan tartibga solish qiymat qonuni, talab va taklif qonunlariga bo'ysunadi. Valyuta bozorlarida raqobatchilik sharoitida bu qonunlarning harakati valyuta almashuvning harakati nisbiy tenglik tovarlar, xizmatlar, kapitallar hamda kreditlar harakati bilan bog'liq bo'lgan jahon xo'jaligining xalqaro valyuta ehtiyojlari oqimlarining muvofiqligini ta'minlaydi. Bozorlardagi baholar mexanizmi va valyuta kurslarining o'zgarishi sabablari orqali iqtisodiy agentlar valyuta xaridorlarining ehtiyojlari va taklifining imkoniyatlari to'g'risida ma'lumot oladilar.

Birjadan tashqari valyuta bozorida operatsiyalarning quyidagi turlari amalga oshiriladi:

- eksportchilarning valyuta tushumini majburiy ravishda sotishlari;
- uskunalar, butlovchi buyumlar, xomashyo materiallari va xizmatlar importi uchun chet el valyutasi sotib olish;
- jalb qilinadigan chet el kreditlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha hisob-kitoblar;

- chet ellik kreditorlar bilan hisob-kitoblar;

- chet ellik investorlar bilan oladigan foyda, dividendlar va boshqa daromadlarni repatriatsiyalash uchun chet el valyutasini sotib olish.

Birlashgan barqarorlashtirish jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanishga oid operatsiyalari:

- xizmat safarlari xarajatlarini to'lash uchun chet el valyutasini sotib olish va boshqa operatsiyalar.

Jamg'arma mablag'laridan birjadan tashqari valyuta bozorida valyuta ayirboshlash kursi ehtimoli oshishi uchun foydalanish mumkin. Jamg'arma valyuta bozoridagi ehtimoliy salbiy holatlar ro'y berishidan himoyalaniшни ta'minlashi lozim. Banklararo savdo sessiyalarida birjadan tashqari valyuta bozoridagi kurslarni shakllantiradi.

Hozirgi paytda birjadan tashqari valyuta bozori banklararo valyuta bozorini, vakil banklar bilan ularning mijozlari o'rtasidagi operatsiyalarni, shuningdek, valyuta almashtirish punktlari orqali naqd pul chet el valyutasini sotib olish va sotish operatsiyalarini o'z ichiga oladi.

Bozor iqtisodiyotini rivojlantirish albatta moliya tizimi va valyuta bozorini yanada erkinlashtirib borishni talab qiladi. Shu sababli, birja va birjadan tashqari valyuta bozorida operatsiyalar hajmini kengaytirib borish zaruriyati paydo bo'ldi.

Hozirgi kunda valyuta bozorini yanada erkinlashtirish maqsadida birjadan tashqari valyuta bozorini kengaytirish va keyinchalik talab va taklif asosida ayirboshlash kursini shakllantirish to'g'risida muhim hukumat qarorlari qabul qilindi. Valyuta bozorida faoliyat yuritayotgan barcha xo'jalik subyektlari uchun teng sharoitlari yaratish, shuningdek, mijozlarning chet el valyutasidan foydalanishlari to'g'risida qarorlari qabul qilishlari uchun tijorat banklariga vakolatlar berishdir.

O'zbekiston Respublikasi ichki valyuta bozori ikki qismdan iborat:

1. Respublika valyuta birjasi. Valyuta birjasida – norezidentlarni ishtirok etishiga ruxsat etilmaydi. Unga faqat respublikadagi vakolatli tijorat banklari a'zo bo'lishi mumkin.

2. Birjadan tashqari valyuta bozori.

Hozirgi paytda birjadan tashqari valyuta bozori banklararo valyuta bozorini, vakil banklar bilan ularning mijozlari o'rtasidagi operatsiyalarni, shuningdek, valyuta almashtirish punktlari orqali naqd pul chet el valyutasini sotib olish operatsiyalarini o'z ichiga oladi.

Hozirgi O'zbekistonda xorijiy valyuta bilan savdo qilishning asosiy qismi birmuncha barqaror moliyaviy munosabatlar tarkib topgan eng yirik banklar qo'lida jamlangan. Ular tashqi iqtisodiy munosabatlarga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq operatsiyalar va ichki valyuta operatsiyalarining aksariyat qismini amalga oshirmoqda. Yirik bo'lmagan tijorat banklari xalqaro operatsiyalarni yoki xorijiy vakil banklar bilan yirik banklarning O'zbekistondagi vakillik hisobvaraqlari orqali olib boradilar. Ularning ayrimlari esa valyuta operatsiyalarini o'zlashtirishda dastlabki qadamlargina tashlamoqda.

Valyuta operatsiyalarini audit qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi hamda Moliya vazirligining chet el valyutasidagi operatsiyalarni amalga oshirish va nazorat etishni tashkil qilish tartibi to'g'risidagi ko'rsatmalariga qat'iy rioya etilishiga e'tibor beriladi.

Vakolatli banklarning valyuta operatsiyalari auditining maqsadi amaldagi valyutadagi amaldagi valyuta qonunchiligiga muvofiqligini aniqlash va bankdagi kamchiliklarni aniqlash va valyuta xatarlarini kamaytirish uchun ushbu operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish to'g'riligini tasdiqlashdan iborat.

Belgilangan maqsadga muvofiq, auditning asosiy vazifalari quyidagilarni tekshirishdan iborat:

- valyuta hisobini qayta baholash va ochiq valyuta pozitsiyasini saqlash bo'yicha operatsiyalar;
- ichki valyuta bozorida bankning konversiya operatsiyalari;
- mijozlarning valyuta hisobini ochish va yuritish qoidalariga rioya qilish;
- mijozlar nomidan xorijiy valyutani sotib olish va sotish;
- eksport-import operatsiyalari.

Aslida, valyuta operatsiyalarini tekshirishdan kelib chiqadigan vazifalar miqdori ancha keng.

Valyuta operatsiyalarini boshqarish uchun asosiy axborot manbalari quyidagilardir:

- bankning valyuta operatsiyalarining qonuniyligini tekshirish - bank operatsiyalarini xorijiy valyutada amalga oshirish uchun litsenziya;
 - valyuta operatsiyalarini amalga oshirish va ularni buxgalteriya hisobi bo'yicha bankning topshirig'ida (mehnat qarshiligi);
 - banklararo konversion operatsiyalarini tasdiqlovchi hujjatlar (valyuta sotib olish va sotish shartnomalari va boshqalar);
 - banklararo valyuta hujjatlari (fond birjalari, sessiya bitimlari reyestrndan chiqarilgan va boshqalar); bank mijozlarining huquqiy ishlari;
 - valyuta bozorida valyuta sotib olish va sotish bo'yicha rezidentlarning buyrug'i;
 - xorijiy valyutadagi operatsiyalarning haqiqiyligini tranzit valyuta hisobvaraqlarida (PTS) boshqarishga oid hujjatlarda mavjud bo'lgan hujjatlar (shartnoma nusxalari, chet el valyutasidagi kreditlarni berish bo'yicha kredit bitimlari, sotib olish buyrug'i - chet el valyutasini sotish va h.k.);
 - rezidentning eksport valyuta tushumini imtiyozli ravishda sotish majburiyatini bajarishining asosligini monitoring qilish bo'yicha fayl;
 - hujjatlar – sayohat xarajatlari; import operatsiyalari bo'yicha faylda;
 - eksport operatsiyalari bo'yicha hujjatlar;
 - import uchun akkreditiv, eksport akkreditivi;
 - ITC bo'yicha operatsiyalarni hisobga olish kartalari, CCD nusxalari, tugatilgan ishlar va boshqalar) xorijiy valyutadagi operatsiyalarni tasdiqlovchi hujjatlar (SWIFT, teleks va boshqalar);
- Shuningdek, valyuta operatsiyalarini boshqarishning axborot manbalari analitik va sintetik buxgalteriya va moliyaviy hisobotlar boshqa registrari hisoblanadi:
- buxgalteriya jurnalida;
 - kredit tashkilotining hisobvaraqlaridagi qoldiqlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

- kredit tashkilotining hisobvaraqlaridagi pul o‘tkazish varaqalari;
- foyda va zarar to‘g‘risidagi hisobot, bank balansi.

Bosh boshqarmalarni audit qilish jarayonida rezident va norezidentlarga valyuta xizmati ko‘rsatish bo‘yicha bank tarkibidagi ayirboshlash punktlarining ishi ham audit qilinadi. Tekshiruv bank tarkibidagi ayirboshlash punktlari va qarashli bo‘lgan bank muassasasi xodimlari uchun ham, bank tarkibidagi ayirboshlash punktlari xodimlari uchun ham kutilmagan bo‘lishi kerak.

Hujjatlarni tekshirish, qoida tariqasida, tanlov asosida amalga oshiriladi, ya’ni tanlov hujjatlari alohida kunlar uchun yoki individual mijozlar, shu jumladan banklar uchun tekshiriladi.

2. Bitimlarni valyuta hisobini qayta baholash va ochiq valyuta pozitsiyasini saqlab qolish.

Audit davomida quyidagi asosiy tekshiruvlar amalga oshirilishi mumkin:

1. Valyuta operatsiyalarining analitik va sintetik hisobga olish standartlariga rioya qilish;

2. Chet el valyutasini qayta baholash tartibi to‘g‘risidagi nizom.

3) Joriy qayta baholash natijalarini hisobga olishda aks ettirilganlarning to‘g‘riligi;

4. Ochiq valyuta pozitsiyasining belgilangan chegaralariga muvofiqligi.

Valyuta operatsiyalarini boshqarish valyuta operatsiyalarining analitik va sintetik hisob-kitoblari standartlariga muvofiqligini tekshirish bilan boshlanadi. Tekshirishni boshlashdan oldin tekshirilayotgan bankda amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalari ro‘yxati xorijiy valyutada bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun litsenziyasiga mos kelishiga ishonch hosil qilish kerak.

Quyidagi kabi valyuta operatsiyalarini o‘tkazish uchun mavjud ichki valyutadagi ko‘rsatmalar bilan tanishib chiqishingiz kerak:

- chet el valyutasini ochiq valyuta pozitsiyasi (valyuta tavakkalchilik pozitsiyasi) hisobidan sotib olish va sotish, xorijiy valyutani mijozning hisobidan va mijoz nomidan sotib olish va sotish, valyuta operatsiyalari, xalqaro hisob-kitoblar bo‘yicha operatsiyalar

(mijozlarning eksport-import operatsiyalari), muddatli operatsiyalar (oldi-sotdi, boshqalar). Ushbu yo'riqnomada muayyan operatsiyalarni bajarish tartib-taomillari, tegishli operatsiyalarni amalga oshiruvchi birliklar to'g'risidagi ma'lumotlar, bu operatsiyalarni hisobga olish tartibi bo'lishi kerak. Ushbu ko'rsatmalar vakolatli banklar tomonidan valyuta operatsiyalarini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qoidalariga to'liq mos kelishiga ishonch hosil qiling.

Bankning valyuta operatsiyalarini hisobga olish bilan bog'liq buxgalteriya siyosatini o'rganayotganda quyidagilarga e'tibor qaratish kerak:

- 1) konversion operatsiyalarni hisobga olishda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qaysi pozitsiyaning qo'llanilishi;
- 2) bankda ishlatiladigan valyuta operatsiyalarining analitik hisobini yuritish tartibi.

Banklar buxgalteriya hisobi, statistika va boshqa moliyaviy hisobotlarda xorijiy valyutadagi operatsiyalarni ro'yxatga olish tartibi to'g'risidagi nizomdan foydalanishi kerak.

8.2. Chet el valyutasidagi bank operatsiyalarini audit qilish tartibi

Chet el valyutasidagi bank operatsiyalarini audit qilish tartibi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank Boshqaruvi hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining chet el valyutasidagi operatsiyalarni amalga oshirish va nazorat etishni tashkil qilish tartibi to'g'risidagi ko'rsatmalariga qat'iy rioya etilishiga e'tibor beriladi.

“Naqd chet el valyutalari” nomli balansdagi 10511-hisobvaraqa debeti bo'yicha quyidagilar hujjat asosida audit qilinadi:

- a) muomalada bo'lgan naqd chet el valyutasini va to'lov hujjatlarini xarid qilishga oid qoidalariga rioya qilinishi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining operatsiyani amalga oshirilayotgan kunda amalda bo'lgan kursi qo'llanilishi va to'lanishi lozim bo'lgan so'mdagi ekvivalentini aniqlash to'g'riligi va o'z vaqtida amalga oshirilishi;

b) hamdo'stlik mamlakatlari naqd valyutasini sotib olishning belgilangan qoidalarga rioya qilinishi;

d) chet el valyutasini hamda valyutadagi hujjatlarni sotib olish operatsiyalari 378-shakldagi ro'yxatda o'z vaqtida to'g'ri aks ettirilishi;

e) 377-shakldagi ma'lumotnoma to'g'ri rasmiylashtirilishi va tegishli nusxalari mijozlarga berilishi;

f) xarid qilingan naqd chet el valyutasi hamda valyutadagi to'lov hujjatlari to'liq va o'z vaqtida kirim qilingani. Tekshiruv valyuta va cheklar, to'lov hujjatlarini sotib olishda yozib beriladigan 377-shakldagi ma'lumotnomani 378-shakldagi ro'yxat yozuvlariga qiyoslash orqali amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, xarid qilingan chet el valyutasi hamda valyuta hujjatlari to'liq kirim qilingani xorijiy fuqarolar ishlatilmagan so'mlarni valyutaga ayirboshlaganiga bog'liq holda audit qilinayotgan bank muassasasiga qaytarilgan 377-shakldagi ma'lumotnomaning birinchi nusxalari bo'yicha audit qilinadi, buning uchun tegishli kundagi shu ma'lumotnomalarning dalillari 378-shakldagi ro'yxat bilan taqqoslanadi;

g) tashkilotlar va muassasalar, shuningdek, bankning ayirboshlash punktlari topshirgan chet el valyutasi va pul cheklari to'liq kirim qilingani. Inkassatorlar keltirgan xaltalardagi chet el valyutasi qayta sanalishi tartibiga rioya qilinishi;

h) boshqa bank muassasalaridan inkassatorlar orqali kelgan chet el valyutasi va chet el valyutasidagi to'lov hujjatlari to'liq kirim qilingani. Aloqa organlaridan chet el valyutasi bo'lgan jo'natmalarni olish tartibiga rioya qilinishi (xabarnomalar qayd etilishi, ishonchnomalar berilishi, boyliklar kirim qilinishi ustidan nazorat).

10511-hisobvaraqlarning kredit qismi bo'yicha amalga oshiriladigan operatsiyalarni audit qilishda quyidagilar audit qilinadi:

a) rezidentlariga chet el valyutasi va chet el valyutasidagi to'lov hujjatlarini sotishning amaldagi qoidalari va me'yorlariga rioya etilishi, sotiladigan valyuta summasi hisob-kitob qilinganining to'g'riligi;

b) chet el valyutasini sotish operatsiyalari sotilgan Naqd chet el valyutasi hisobini yuritish bo'yicha 394-shakldagi daftarda o'z vaqtida va to'g'ri qayd etilishi;

d) 391-shakldagi ma'lumotnoma to'g'ri rasmiylashtirilishi va tegishli nusxalari mijozlarga berilishi;

e) sotiladigan valyuta ayirboshlash punktining sotilgan chet el valyutasi hisobini yuritish daftarida to'g'ri ko'rsatilgani;

f) chet el valyutasini Respublikadan tashqariga olib chiqish uchun 800-shakldagi ruxsatnoma to'g'ri rasmiylashtirilgani, valyuta sotilganda vositachilik haqi undirilgani;

g) xizmat safari xarajatlari uchun tashkilotlar va korxonalariga chet el valyutasi sotishning belgilangan tartibiga rioya qilinishi;

h) chet el valyutasi va chet el valyutasidagi to'lov hujjatlarini O'zbekiston Respublikasining boshqa banklariga yoki bevosita chet el bankiga jo'natish bo'yicha operatsiyalarning to'g'riliigi va asosliliigi;

i) belgilangan hollarda foizlar to'g'ri hisoblangani va hisobvara q bo'yicha bajarilgan operatsiyalar uchun vositachilik haqi undirilgani.

29802-balans hisobvarag'ida chet el valyutasida amalga oshirilgan operatsiyalar hujjatlar asosida audit qilinadi:

a) mablag'lar 29802-hisobvara qning kreditiga kiritilgani asosli ekanliigi (qayd etilgan yozuvlar banklarning kredit avizolari, bevosita chet el banklaridan kelgan pul jo'natmalari yoki xorijdan yuborilgan jo'natmalar egasining manzili o'zgarganida muassasalar beradigan kredit avizolari bilan tasdiqlanishi);

b) jo'natmani oluvchilarga mablag' to'lashning qonuniyligi, belgilangan hollarda naqd valyuta omonatlarga yo'naltirilgan jo'natmalar hisobidan sotilishi.

Naqd chet el valyutasi va to'lov hujjatlari bilan bog'liq inkasso operatsiyalari bo'yicha quyidagilar hujjatlar asosida audit qilinadi:

a) rezident va norezidentlardan naqd chet el valyutasi va to'lov hujjatlarini so'mda, hamda chet el valyutasida inkasso uchun qabul qilishning to'g'riliigi;

b) inkasso operatsiyalarining to'g'ri rasmiylashtirilishi hamda 90972-hisobvara qda hisobga olinishi.

Inkasso uchun qabul oshirishning qonuniyligi audit qilinadi:

a) nazorat va ma'lumot tusidagi materiallar (chet el valyutasi bo'yicha ma'lumotnomalar, chet el valyutasi va so'mdagi to'lov

hujjatlarining namunalari, operatsiya o'tkazish qoidalari va hokazolar) borligi, hamda ulardan amaliy ishda foydalanish, aynan shu masala ayirboshlash punktlarida ham audit qilinadi;

b) hisobot sanalarida chet el valyutasi qayta baholanishi va kursdagi farq tegishli hisobvaraqqa o'tkazilishining to'g'riligi.

Chet el valyutasining so'mdagi ekvivalentini aniqlashda kursdagi farq, noto'g'ri ko'rsatilishiga pul qo'yilganini yashirish maqsadida muayyan hisobvaraqlarga o'tkazilishi mumkin bo'lmagan kursdagi farqlar summasi shu hisobvaraqdan noqonuniy tarzda o'tkazilgani;

d) valyuta operatsiyalari bajarilgani uchun yuridik va jismoniy shaxslarning hisobvaraqlaridan bankning vositachilik haqi amaldagi tariflarga muvofiq to'g'ri undirib olingani. Bu summalar bank daromadiga to'liq va o'z vaqtida o'tkazilgani. Chet el valyutasini sotib olishda vositachilik haqining miqdoriga rioya etilishi;

e) Naqd chet el valyutasi bilan operatsiya o'tkazuvchi kassirlarning ish o'rinlari jihozlanishi, valyuta boyliklari hisob berish sharti bilan topshirilishi, kassirlar o'rtasida biridan ikkinchisiga berilishi, saqlanishi, dastalanishi va o'rab bog'lanishi, valyuta boyliklaridagi kamomadni qoplash tartibi, to'satdan audit o'tkazish va chet el valyutasini nazorat tarzida qayta sanash to'g'riligi;

f) qat'iy hisobda turadigan blankalar hisobini yuritishdagi ahvol va ulardan foydalanish ustidan nazorat;

g) valyuta operatsiyalarini o'tkazishga asos bo'lib xizmat qiladigan hujjatlarni rasmiylashtirishning sifati, ya'ni ular o'chirib yozilgan, qo'shimcha kiritilgan, mumkin bo'lmagan usulda tuzatilgan yoki mijozlar nomidan bank (ayirboshlash punkti) xodimlari, shuningdek, boshqa shaxslar tomonidan imzolangan hollar bor-yo'qligi.

Shunday hujjatlar borligi aniqlangan taqdirda ular (zarur hollarda mutaxassis ekspertlarini jalb etib) sinchiklab tekshirilishi hamda valyuta va boshqa boyliklarni talon-taroj qilish maqsadida qalbakilashtirilgan bo'lsa, tergov organlariga topshirish uchun belgilangan tartibda olib qo'yilishi;

h) bank muassasalari va ayirboshlash punktlari rezident hamda nerezidentlarga uzluksiz va sifatlil xizmat ko'rsatishni ta'minlashi, mijozlarga xizmat ko'rsatishning belgilangan soatlariga rioya qilishi;

i) valyuta operatsiyalarini bajaruvchi va ularni nazorat etuvchi shaxslarni ishga qabul qilish qoidalariga rioya etilishi, ularning shaxsiy yig‘ma jildlari mavjud nizomga muvofiq rasmiylashtirilishi. Xodimlar bajarilayotgan operatsiyalarga doir amaldagi me‘yoriy hujjatlarni bilishlari;

j) bank muassasalarida valyuta qilingan boyliklar va to‘lov hujjatlari, shuningdek, qoplash summasi kechikkan hollarda banklarga so‘rovnomalar o‘z vaqtida jo‘natilishi;

k) inkasso qilingan boyliklar uchun mijozlar bilan hisob-kitob olib borilishi tartibiga rioya etilishi va diplomatik vakolatxonalari nomiga davlat valyutasida hisobvaraqlar ochishning, shuningdek, davlat tashkilotlari nomiga xalqaro syezdlar, kongresslar va boshqa xil xalqaro kengashlar qatnashchilaridan tushadigan badallar hisobini yuritish uchun hisobvaraqlar ochishning O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi yo‘riqnomasi bilan belgilangan tartibiga, hamda shu hisobvaraqlar bo‘yicha operatsiyalarni amalga oshirish qoidalariga rioya etilishi hujjatlar asosida audit qilinadi.

“Saqlanayotgan qimmatli buyumlar” nomli 93609-balans hisobvarag‘i bo‘yicha quyidagilar hujjatlar asosida audit qilinadi:

- kelib tushgan yo‘l cheklari va yirtma cheklar hamda 377-shakldagi ma‘lumotnoma blankalari kiringa to‘liq kiritilgani, cheklar bo‘yicha esa ular hisobdan chiqarilishining asosli ekanligi;

- balansdagi 10301, 10305, 10511, 10515, 19909, 29802, 40301, 40501, 50402 va 50502-hisobvaraqlar bo‘yicha valyuta operatsiyalarini amalga oshirishni bank ichida nazorat qilish to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgani, hamda valyuta operatsiyalarining keyin tekshirilishining ahvoli;

l) valyuta operatsiyalari bo‘yicha hisob-kitob-pul hujjatlari rasmiylashtirilishi va saqlanishi qoidalariga rioya etilishi;

m) valyuta operatsiyalari bo‘yicha daromad va xarajatlarning hisoblanishi va hisobning to‘g‘ri olib borilishi.

Bosh boshqarmalarni audit qilish jarayonida rezident va norezidentlarga valyuta xizmati ko‘rsatish bo‘yicha ayirboshlash punktlarining ishi ham audit qilinadi.

Analitik hisobotning to‘g‘ri ekanligini tekshirish kerak, ya‘ni uni ikkilamchi smetada, ya‘ni tranzaksiyaning chet el valyutasida va O‘zbekiston Markaziy bankining rasmiy kursi bo‘yicha uning miqdorida saqlab turishi kerak. Sintez buxgalteriya hisobi faqat O‘zbekiston Respublikasi valyutasida amalga oshiriladi.

Chet el valyutasini qayta baholash tartibiga rioya etilishini tekshirishda bankning xorijiy valyutadagi aktivlari va majburiyatlari (valyuta va valyutadagi naqd pullar, tranzit to‘lovlar, naqd xorijiy valyutada vakillik va mijozlar hisobvarag‘ida, debitorlik va xorijiy valyutada to‘lanishi kerak bo‘lgan mablag‘lar, chet el valyutasidagi boshqa aktivlar va majburiyatlar) joriy qiymatni qayta hisoblash uchun rublning xorijiy valyutalarga nisbatan joriy kursi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadi (rasmiy kurs). Joriy qayta baholash natijasi – uni qayta baholash bilan bog‘liq bo‘lgan valyuta ekvivalentidagi farq (u realizatsiya qilinmagan yoki amaldagi, ayirboshlash kursi deb nomlanadi).

Chet el valyutasidagi hisob-kitoblar bo‘yicha kelib tushadigan valyuta kurslarining farqlarini tekshirish ularning o‘lchamlari va belgilarining to‘g‘riligini aniqlash uchun quyidagicha amalga oshiriladi:

- faol hisob-kitoblar bo‘yicha musbat valyuta farqlari paydo bo‘ladi – rasmiy kursning o‘sishi bilan, passiv tarzda – uning tushishi bilan; salbiy – aksincha, faol hisob-kitoblarda – rasmiy kurs tushganda;

- joriy qayta baholash natijalarini hisobga olishda aks ettirishning to‘g‘riligini tekshirish jarayonida bankning rasmiy kursi o‘zgarganligi sababli, hisob-kitoblarning hozirgi yangilanishi bankda har kuni amalga oshiriladi;

- chet el valyutasini jismoniy shaxslar tomonidan almashinuv shoxobchalari orqali sotib olish va sotishdan kelib chiqadigan ochiq pozitsiyalarni qayta baholashning to‘g‘riligini tekshirish.

Ochiq pozitsiyani qayta baholash. Chet el valyutasini sotib olish va keyinchalik sotish turli stavkalar bo‘yicha amalga oshirilishi natijasida hosil bo‘lgan valyuta pozitsiyalaridagi qoldiqlar (ochiq filial). Qayta ishlab chiqarish “Operatsion kunning oxiri” rejimida avtomatik ravishda amalga oshiriladi. Ochiq pozitsiyani qayta baholash O‘zbekiston

Respublikasi Markaziy bankingning kursi bo'yicha avvalgi haftada o'tkazilgan banklararo savdo sessiyalarida belgilangan stavkalarining o'rtacha qiymatiga asosan tashkil etiladi. Balans hisobini qayta baholash natijalarini tekshirish uchun siz ularni quyidagilar bilan taqqoslashlariga ishonchingiz komil bo'lishi kerak: ijobiy - 45401 - "SPOT" operatsiyalaridan olingan daromad va salbiy - 55302 hisob raqamidan "SPOT" operatsiyalari bo'yicha xarajatlar. Ushbu hisoblarning faqat O'zbekiston Respublikasi valyutasida ochilishi va unga tegishli ekanligini tekshirish kerak, ular uchun zarur bo'lgan shaxsiy hisob raqamlari bank boshqaruvi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ko'ra (pul va muddatli operatsiyalar, valyutaning turlari, filiallar va boshqalar) uchun ochiq-oydin emasmi. Bu 45401 va 55302 hisoblari bo'yicha analitik hisobni to'g'ri tashkil etish, buxgalteriyada chet el valyutasida naqd operatsiyalarni amalga oshirishning moliyaviy natijasi bo'lgan realizatsiya qilinmagan valyuta haqiqiydir (joriy qayta baholash natijasida) realizatsiya qilinmagan valyuta kurslarini farqlashga imkon beradi. Aksiyadorlik kapitalining valyuta qismiga teng valyuta mavjudotlarini qayta baholash natijasida yuzaga kelgan farq 30906 "Devalvatsiya qoidasi" hisobida aks ettiriladi va bank kapitalini hisoblashda hisobga olinadi. Bundan tashqari, har bir operatsiya kuni balans mavjud bo'lgan hisob qaydnomasi bilan boshlanganligini va passiv shaxsiy hisob yoki kredit hisobi bo'yicha hisobdagi mablag' qoldiq bo'lsa, balansni tegishli juftlikdagi shaxsiy hisobraqamiga faol o'tkazib yuborganligini tekshirish kerak.

Ochiq valyuta pozitsiyasining belgilangan chegaralariga rioya qilinishini tekshirish jarayonida ochiq valyuta pozitsiyasi ruxsat etilgan belgilangan limitlardan oshmasligi kerak. Ushbu muammolarni tekshirishda, masalan, "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi qonunining 52, 40-moddalari va "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 23.09.2017-yildagi Ochiq valyuta pozitsiyasini yuritish qoidalari"ga kiritilgan.

Ochiq valyuta pozitsiyasi hajmi o'z nomidan tijorat bank tomonidan sotib olingan va sotilgan valyuta va boshqa banklarga (shu jumladan norezidentlarga) va ularning mijozlariga berilgan yo'riqnomalar orasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Ushbu qonuniy asosga muvofiq, audit davomida quyidagilar aniqlanadi:

a) har bir operatsiya kunining oxirida biron bir valyutadagi ochiq valyuta pozitsiyasi vakolatli bankning o'z mablag'larining 5 foizidan oshib ketadimi (tijorat banklarining faoliyatini tartibga soluvchi qoidalarga muvofiq hisoblanganmi)? Shuningdek, har bir savdo kunining oxirida umumiy ochiq valyuta pozitsiyasi o'z mablag'larining 20 foizidan oshmasligi kerakmi? Har qanday valyutadagi ochiq valyuta pozitsiyasi banklarning ushbu xorijiy valyutadagi aktivlari o'z majburiyatlarini (uzoq muddatli valyutadagi pozitsiyadan) oshib ketishi yoki aktivlarning aktivlardan (qisqa valyuta pozitsiyasidan) ortiq bo'lgan miqdorini anglatadi. Umumiy valyuta pozitsiyasi barcha valyutadagi barcha turdagi uzoq (qisqa) lavozimlarning summasini anglatadi;

b) savdo kunida yuzaga keladigan ochiq valyuta pozitsiyasidan oshib ketgan taqdirda, tranzaksiya kuni oxirida balans operatsiyalarini bank tomonidan amalga oshirilishini (masalan, sotib olingan chet el valyutasini sotish) amalga oshirish. Vakolatli banklar ochiq valyuta pozitsiyasining belgilangan foiz miqdorini hisobga olishlari kerak, shuningdek, ko'chmas mulk, qimmatli qog'ozlar va boshqa hollarda sotib olish va sotish paytida ochiq valyuta pozitsiyasi bo'lishi mumkinligini ham unutmash kerak. Shu bilan birga, ochiq valyuta pozitsiyasi ko'chmas mulk, qimmatli qog'ozlar va boshqa moddiy boyliklarni sotib olish va sotishda paydo bo'ladi.

d) keyinchalik sotuvni boshqa valyutaga sotish mumkin. Bunday holatda vakolatli banklar ochiq valyuta pozitsiyasiga rioya qilish to'g'risidagi hisobotda ushbu operatsiyalar bo'yicha lavozimlarni o'z ichiga oladi va tushuntirishlar beradi. Vakolatli banklar o'zlarining quyi tashkilotlari uchun ochiq valyuta pozitsiyalarining maksimal miqdorini mustaqil ravishda belgilaydilar. Shu bilan birga tijorat bank uchun ochiq valyuta lavozimining limiti o'z mablag'larining 20 foizidan oshmasligi kerak.

e) vakolatli banklar ochiq valyuta pozitsiyasining cheklanganligi sababli Markaziy bankka tushuntirishlar beradi.

8.3. Bankning ichki valyuta bozorida konversion operatsiyalarini tekshirish

Chet el valyutasini o'z mablag'lari evaziga sotib olish va sotish, ya'ni ochiq valyuta pozitsiyalarini naqd pulsiz yo'l bilan ushlab turish yuridik va jismoniy shaxslardan, shu jumladan bank mijozlaridan valyuta birjasi orqali amalga oshirilishi mumkin. Ayirboshlash kursi bozorida amalga oshiriladigan operatsiyalarni tekshirish usuli birlamchi valyutadagi operatsiyalarni tekshirish usuli bilan farq qiladi, ayni paytda banklar va boshqa banklar bilan amalga oshirilgan o'zaro hisob-kitoblarni tekshirish usullari bir-biridan farq qilmaydi, shuning uchun ular birgalikda ko'rib chiqiladi.

Audit davomida quyidagi asosiy tekshiruvlar amalga oshirilishi mumkin:

1) chet el valyutasini almashinuvidan tashqari sotib olish va sotish operatsiyalari;

2) birjaga valyuta sotib olish va sotish operatsiyalari.

Chet el valyutasini fond birjasidan tashqari sotib olish operatsiyalarini tekshirishdan boshlang, masalan, mijozga, birinchi navbatda ushbu operatsiyalarni amalga oshirish va buxgalteriya hisobi uchun ichki bankning ko'rsatmalarini bilishingiz kerak. Ular valyuta qonunchiligining barcha talablariga javob berishlari, amalga oshirilgan valyuta operatsiyalarining iqtisodiy mohiyatini metodologik jihatdan to'g'ri tarzda aks ettirishlari kerak, imkon qadar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining talablariga javob berishi kerak.

Chet el valyutasidagi mijozlar tomonidan majburiy va qaytarilgan sotish operatsiyalari faqatgina banklararo valyuta birjasining yagona savdo sessiyasida (OTC) amalga oshirilishi mumkin, chunki mijozdan valyuta sotib olish operatsiyalari faqatgina ixtiyoriy ravishda bankka sotilsa yoki majburiy bo'lsa, uning miqdori birja bitimining miqdoridan kam bo'ladi. Shu bilan birga, xaridor tomonidan sotuvga taqdim etilgan arizalarni tekshirish, shuningdek, tuzilgan bitimlarning stavkalarini operatsiya kuni bank tomonidan o'rnatilgan naqd pulsiz valyutani sotib olish va sotish stavkalari bilan muvofiqligini tekshirish kerak. Bank va

mijoz o'rtasida tegishli savdo-sotiq bitimi imzolanganligini tekshirish kerak. Chet el valyutasini sotib olish va sotish bo'yicha tuzilgan shartnomalar shartlarida nazarda tutilgan bitimni amalga oshirish tartibi bilan tanishishingiz kerak. Xorijiy valyutada tushumlarni majburiy sotish bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan amalga oshirish tartibi 29.06.00dan boshlab O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga 1-ilova. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 10-iyuldagi 245-son qaroriga 2-ilova. 294-sonli "Birjadan tashqari valyuta bozorida chet el valyutasini sotib olish va sotish bo'yicha operatsiyalarni o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizomni tasdiqlash haqida jismoniy shaxslardan valyuta ayirboshlash shoxobchalari orqali valutani sotib olish valyuta xaridlari kursi bo'yicha chet el valyutasi talabi va taklifiga asosan valyuta birjasida belgilangan valyuta ayirboshlash punkti (sotib olish stavkasi) orqali amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslarga valyuta ayirboshlash shoxobchalari orqali valyuta sotish valyuta sotib olish kursi bo'yicha (valyuta kursini sotish stavkasi), valyuta kursining talab va taklifiga asosan valyuta bozorida aniqlanadi.

Xaridorlar valyuta hisobini ochish va yuritish qoidalariga rioya etilishini tekshirish. Valyuta amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tijorat bank yuridik shaxslar uchun chet el valyutasida hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun uch turdagi valyuta hisobvaraqlarini (tranzit hisobvaraqlari), joriy hisob raqamlarini va maxsus hisob raqamlarini ochadi. Ushbu hisoblarning ishlash tartibi sezilarli darajada farqlanadi va har bir hisobning maqsadi bilan belgilanadi.

Audit davomida quyidagi muvofiqlik tekshiruvlari amalga oshiriladi:

1. Valyuta hisobvaraqlarini ochish;
2. Konversion operatsiyalar uchun talab qilinadigan hisob-kitoblar ro'yxati;
3. Mijozlarning tranzit valyuta hisoblarini yuritish;
4. Mijozlarning joriy valyuta hisobini yuritish;
5. Maxsus valyuta tranzit hisobini yuritish.

Ruxsat etilgan yuridik shaxslar uchun valyuta hisobvaraqlarini ochishni tekshirishda ularning asosiy faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2009-yil 16-mart, 7/2-sonli “O‘zbekiston Respublikasi banklarida ochiladigan bank hisobvaraqlari to‘g‘risida”gi nizom tartibiga asosan amalga oshirilishi kerak.

Tekshiruv vaqtida xorijiy valyutadagi hisoblarni ro‘yxatga olish kitoblari banklarda xorijiy valyutadagi hisobni yuritish uchun saqlab qo‘yilgan-qo‘yilmaganligiga e‘tibor berish kerak. Kitobni bank muassasasi boshlig‘i va bosh hisobchining imzosi bilan birgalikda, raqamlangan, muhrlangan va tasdiqlangan bo‘lishi kerak.

Mijozlar tomonidan chet el valyutalarida hisobvaraqlar ochish uchun bankka quyidagi hujjatlar taqdim qilinadi:

a) tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan quyidagi hujjatlar:

- ✓ belgilangan shaklga muvofiq hisobvaraqlar ochish to‘g‘risida ariza;
- ✓ belgilangan shaklga muvofiq imzolar namunalari va muhr izi qo‘yilgan ikki dona varaqlar;
- ✓ pul-hisob-kitob hujjatlarini imzolash vakolatiga ega shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjati.

b) tadbirkorlik faoliyati subyekti bo‘lmagan rezident yuridik shaxslar, jumladan byudjetdan mablag‘ oluvchilar tomonidan quyidagi hujjatlar:

- ✓ belgilangan shaklga muvofiq hisobvaraqlar ochish to‘g‘risida ariza;
- ✓ belgilangan shaklga muvofiq imzolar namunalari va muhr izi qo‘yilgan ikki dona varaqlar;
- ✓ pul-hisob-kitob hujjatlarini imzolash vakolatiga ega shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjati;
- ✓ Ta‘sis hujjatlari (ta‘sis shartnomasi, ustav).
- ✓ davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo‘yilganligini tasdiqlovchi hujjat (ma‘lumotnoma).

d) norezidentlar (jismoniy shaxslar bundan mustasno) tomonidan quyidagi hujjatlar:

- ✓ belgilangan shaklga muvofiq hisobvaraqlar ochish to‘g‘risida ariza;

✓ belgilangan shaklga muvofiq imzolar namunalari va muhr izi qo'yilgan ikki dona varaqa;

✓ davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to'lovchining identifikatsiya raqami berilganligi to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi.

g) rezident va norezident jismoniy shaxslar tomonidan quyidagi hujjatlar:

✓ belgilangan shaklga muvofiq hisobvaraqa ochish to'g'risida ariza;

✓ jismoniy shaxsning shaxsini tasdiqlovchi hujjatidan nusxa.

Bunda, jismoniy shaxslar tomonidan qo'shimcha ravishda shaxsni tasdiqlovchi hujjat shaxsan taqdim qilinadi va bank tomonidan ushbu hujjatlardan nusxa olinadi.

Auditning keyingi bosqichida auditorlar hujjatlarning to'liq to'plami taqdim etilgandan keyin hisob-kitoblarni ochish-qilmasligini aniqlashi kerak.

Valyuta hisob raqamlari egalari o'z arizasida hisob egasi tomonidan ko'rsatilgan bir yoki bir nechta chet el valyutasida ochiladi, bir shaxsiy hisob. Agar bank hisobvaraqa hisobining o'z arizasida ko'rsatilmagan xorijiy valyutada mablag' oladigan bo'lsa, bank hisob egasining iltimosiga ko'ra pul mablag'larini o'z hisobining valyutasiga oldindan ayirib olish bilan yoki ushbu valyutada hisob ochadi.

2. Mijozlarning amaldagi valyuta hisobvaraqlarini hisobga olishda valyuta mablag'larini naqd pulda ham, naqd pulsiz shaklda olish va qaytarishning qonuniyligini tekshirish kerak. Shuni esda tutish kerakki, mablag'lar xorijiy valyutadagi mijozlar hisobiga tushadi:

a) tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) to'lash uchun O'zbekiston Respublikasidan tashqarida bo'lmagan norezidentlar tomonidan ro'yxatga olingan;

b) hisob egasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi valyuta bozorida sotib olingan;

d) erkin almashtiriladigan valyutani norezident tomonidan tuzilgan shartnomalarga va korxonalar bilan tuzilgan shartnomalarga muvofiq tovar va xizmatlarni eksport qilish uchun vakolatli bankning kassasiga to'lash;

e) O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ruxsat etilgan hollarda tovarlar va xizmatlar uchun to'lovlarda olingan naqd chet el valyutasi;

f) har ikkala rezident va norezidentlardan olingan chet el valyutasidagi foizlar va dividendlar;

g) O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa tushumlar.

Chet el valyutasini naqd pul mablag'larini mijozlarning joriy valyuta hisobvarag'iga kreditlash, ilgari olingan korxonada tomonidan pul mablag'lari qo'llanilmagan balansining qismida, ushbu valyuta avvalgi valyuta hisobvarag'idan chiqarilgan bo'lsa, yo'l xarajatlarini to'lash uchun qabul qilinadi. Mijozlarning joriy hisob raqamlariga naqd bo'lmagan valyuta tushumlarini tekshirish umumiy qoida asosida amalga oshiriladi:

- majburiy sotilishdan keyin qolgan valyuta tushumlarining bir qismi bo'lishi mumkin va majburiy sotilishga yo'l qo'yilmaydi. Ularning barchasi mijozlarning tranzit hisobvaraqlaridan ularning joriy hisoblariga o'tkazilishi kerak;

- mijozlarning joriy hisobvaraqlaridan valyuta mablag'larini hisobdan chiqarish operatsiyalarini tekshirish tartibiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Chet el valyutasidagi mavjud hisob-kitoblar bo'yicha hisob raqamlari egasining buyurtmasiga ko'ra belgilanishi mumkin:

a) o'z faoliyatining maqsadlari va vazifalariga (hisobga olish-import operatsiyalarini bevosita amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan va O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tomonidan ro'yxatga olingan hisobga oluvchilar uchun) hisobdorning eksport-import operatsiyalari bo'yicha belgilangan tartibda chet elga o'tkazilishi;

b) bank komissiyasi va pochta-telegraf xarajatlarini to'lash uchun, joriy qoidalarga (shu jumladan viza hujjatlarini qayta ishlash uchun naqd pulga), shuningdek, O'zbekiston Respublikasi valyuta bozorida sotishga xarajatlarni to'lash uchun foydalaniladi;

d) respublika hududida to‘langan yoki ro‘yxatga olingan so‘mda;
e) foizlar, dividendlar va O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankning ko‘rsatmalari va ko‘rsatmalarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlar uchun foydalaniladi.

Vakolatli bankda joriy hisobvaraqa mavjud bo‘lgan bankda mavjud bo‘lgan valyuta hisobvarag‘i ochilgan taqdirda, korxonaning tashkil etilishi yoki qayta tashkil etilishi to‘g‘risidagi nizomning nusxasi va hujjat taqdim etilmaydi hamda imzo kartasi tekshiruvsiz taqdim etiladi va mavjud bo‘lganlarga nisbatan qabul qilinadi. Bankning mazkur muassasasida tasdiqlangan nusxalari. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgunga qadar ta‘sis shartnomasi va namunali imzo qo‘yilgan kartochka asosida vaqtinchalik to‘plangan vaqtinchalik valyuta hisobvaraqlariga berilishi mumkin. Ushbu hisoblarni ta‘sis hujjatlarida belgilangan ustav fondining 30 foiz miqdorida chet el valyutasida mablag‘lar hisobiga o‘tkazish mumkin.

Xaridorlar nomidan chet el valyutasini sotib olish va sotish operatsiyalarini tekshirishda quyidagi tekshiruvlar amalga oshiriladi:

1. Umumiy qoidalarga muvofiqligini tekshirish;
2. Mijozning nomidan chet el valyutasini sotib olish bo‘yicha buxgalteriya operatsiyalarida aks ettirishning to‘g‘riligini tekshirish;
3. Mijozning nomidan chet el valyutasini sotish operatsiyalarini hisobga olishning to‘g‘riligini tekshirish.

Umumiy qoidalarga rioya qilishni tekshirish mijozning nomidan chet el valyutasini sotib olish va sotish operatsiyalarini amalga oshirish va ularni hisobga olish tartibini belgilovchi intranzit yo‘riqnomalarini o‘rganish bilan boshlanadi. Bunday operatsiyalarni amalga oshirayotganda (tijorat bank bank nomidan, lekin mijozning hisobidan) mijoz va uning tarafdorlari o‘rtasida odatdagidek valyuta almashinuvi vazifasini bajaradi. Mijozlar operatsiyalarini hisob-kitob qilish usuliga ko‘ra, bankning valyuta (mijoz) operatsiyalarini xorijiy valyutada aks ettirishga mo‘ljallangan 17101 va 17105-sonli “Valyutalarni va valyuta pozitsiyalarini sotib olish va sotish uchun hisob-kitoblar”ni qo‘llashingiz kerak. Ushbu operatsiyalar vositachi ekanligi sababli buxgalteriya hisobi bankning valyuta lavozimiga ta‘sir ko‘rsatmasligi kerak. 17101 va

17105-sonli mijozlar operatsiyalarini amalga oshirishda hisob-kitoblarning balanslari tiklanishi kerak. Bu ushbu operatsiyalarni hisobga olish usuli uchun asosiy talab.

Bank tomonidan xorijiy valyutada operatsiyalarni mijozlar nomidan tekshirish va sotib olish uchun foydalanadigan metodologiyaning amaldagi narx bo'yicha hisoblangan valyuta summasi bilan rasmiy kurs bo'yicha hisoblangan (sotilgan) xorijiy valyutaning ekvivalenti o'rtasidagi farqni hisobga olish kerak bankning daromadlari / xarajatlari bo'yicha emas, balki "mijoz" bo'yicha amalga oshirilgan. Bunday operatsiya uchun bankning daromadi mijozdan ushlab qolingan komissiya bo'lib, foyda ushbu daromadning miqdorini bankning valyuta ayirboshlash to'lovini to'lash bo'yicha xarajatlaridan (agar valyuta sotib olingan yoki almashinuv orqali sotib olingan bo'lsa) oshishi hisoblanadi. Shu bilan birga, bunday operatsiyalarni amalga oshirishda bankdan almashinuv bo'yicha olingan komissiya mijoz tomonidan bankdan olinadigan komissiya miqdorini kamaytirishda hisobga olinmaydi.

Chet el valyuta mablag'larini blokirovka qilish muddatini mijozlar hisobvarag'ining tranzit valyuta blokidan majburiy sotuvga o'tkazish muddatlariga rioya qilish monitoringidan boshlanadi. Buni amalga oshirish uchun, mijozlar tranzit hisoblari va ularning shaxsiy hisoblari bo'yicha bayonotlarni ko'rib chiqishadi.

Banklarning ichki valyuta bozorida xorijiy valyutani sotib olishni majburiy sotishning barcha turlari bo'yicha hisobga olish auditi davomida auditorlar banklarning buxgalteriya hisobi uchun quyidagi tartibga rioya qilinishini tekshirishlari kerak. Quyidagi operatsiyalarning tartibini tekshirishingiz kerak.

Yuridik shaxslardan valyutani sotib olish Markaziy bankning kursi bo'yicha, avvalgi haftada, bank operatsiyalarini amalga oshiradigan kunida boj to'lovisiz o'tkaziladigan banklararo savdo sessiyalarida belgilangan stavkalarining o'rtacha qiymatiga qarab belgilanadi. To'lov buyurtmasi mijozning chet el valyutasida pul mablag'larini sotib olish miqdorini ko'rsatishi shart.

Mijozlarning nomidan chet el valyutasini sotishning hisobga olishdagi hisobning to'g'riligini tekshirish tartibi bank mijozlaridan

olingan chet el valyutasini sotish bo'yicha ko'rsatmalarni o'rganishdan boshlanadi. Shuningdek, belgilangan muddat davomida (7 kun) pul mablag'lari mijozning PTS-dan hisobga olinmagan hollarda, bank muddati tugagandan keyingi ish kunidan kechikmay, mijozga sotilishi kerak bo'lgan chet el valyutasini depozit qo'ymasligi kerak. Ushbu maqsadlar uchun 22614 "Valyuta birjasida valyuta bozorida hisoblangan mijozlar hisobvaraqlari" passiv balansi hisobvarag'ida chet el valyutasi kodi asosida saqlanadigan, 22600 "Boshqa mijozlar depoziti" deb nomlangan shaxsiy hisob-kitoblar bo'yicha tahliliy hisobotlarni o'rganamiz.

Keyingi bosqichda birjada sotilgan valyutaga tegishli mablag'larni hisobga olishda aks ettirishning to'g'riligi tekshiriladi. Buning uchun ATMdagi vakolatli bankning korrespondentlik hisobvarag'idan, aksiyadorlik sertifikatlari, sessiya bitimlari ro'yxatidan va bitimni tasvirlaydigan boshqa hujjatlarni o'rganamiz. Chet el valyutasini sotishdan tushgan mablag'lar va bank hisobvarag'iga tushgan mablag'lar 16101 hisob raqamidagi debetda aks ettiriladi va 29896 passiv balans hisobida ochilgan "Boshqa majburiyatlar" konsepsiyasida 1000, savdoga qo'yilgan valyuta uchun tegishli summalar aks ettirilgan.

Yakuniy bosqichda olingan summalarni mijozlarning depozit (joriy) hisobvaraqlariga kreditlashning o'z vaqtida va aniqligi tekshiriladi. Shu bilan birga, kredit aylanmasi mijozlarning (joriy) hisob-kitoblariga nisbatan tekshiriladi. Banklar tomonidan valyuta mablag'larini qaytarish bo'yicha operatsiyalarni hisobga olishni auditorlik qilish jarayonida auditorlar banklar tomonidan buxgalteriya yozuvlarini kiritish uchun quyidagi tartibga rioya qilinishini tekshirishlari kerak. Quyidagi operatsiyalarning tartibini tekshirishingiz kerak:

1. Ayirboshlash operatsiyalarini boshqarish paytida qanday vazifalar belgilanadi?
2. Valyuta hisobini qayta baholash operatsiyalarini tekshirish qanday amalga oshiriladi?
3. Ochiq valyuta pozitsiyasini belgilang.
4. Bankning konversion operatsiyalarini tekshirish qanday amalga oshiriladi?

5. Auditorlar mijozlarning valyuta hisobvaraqlari ochilishini qanday tekshirishadi?

6. Xaridorlar nomidan xorijiy valyutani sotib olish va sotish operatsiyalari bo'yicha tekshirish qanday amalga oshiriladi?

8.4. Ayirboshlash shoxobchalarini audit qilish tartibi

Ayirboshlash punktida milliy va xorijiy valyuta, valyutaga doir to'lov hujjatlari, qat'iy hisobda turadigan blankalar va boshqa boyliklar borligini bevosita auditorning o'zi ayirboshlash punkti xodimlari ishtirokida amalga oshiriladi. Naqd pul va muassasasiga tegishli navbatdagi hisobot jo'natilganidan keyin amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha summalarni hisobga olgan holda qiyoslanadi.

Ayirboshlash punktlarida naqd boyliklarni tekshirish bilan bir qatorda quyidagilar aniqlanadi:

a) ayirboshlash punktini tashkil etish to'g'risida tegishli hujjatlar (bank boshqarmasining ayirboshlash punkti amalga oshirishi mumkin bo'lgan operatsiyalar, ayirboshlash punktiga rahbarlik va uning faoliyatini nazorat qilish zimmasiga yuklatilgan mansabdor shaxslar ro'yxati ilova qilingan buyrug'i) borligi, bitta xodim ishlaydigan ayirboshlash punktlarida esa u amalga oshirishi ruxsat etilgan valyuta operatsiyalari to'g'ri bajarilayotgani;

b) naqd chet el valyutasi va to'lov hujjatlarini sotib olish hamda ishlatilmagan summalarni chet el valyutasiga qayta ayirboshlash operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalariga rioya etilishi. Tekshiruv o'tkazilgan kunda xarid qilingan valyuta va to'lov hujjatlari o'z vaqtida va to'liq qayd etilgani.

Mavjud pul chet el valyutasi va boshqa boyliklar audit uchun to'liq taqdim etilganini aniqlash maqsadida ular ayirboshlash punktlarining ombor (javon)lari va xodimlarning stoli g'alladonlarida qolib ketmaganini tekshirish zarur;

d) ayirboshlash punktlari muhofazalashning texnik vositalari va telefon bilan jihozlangani, pul omborlari bilan ta'minlangani, har bir kassirda plombir va bankning to'rtburchak muhri borligi, ularni saqlash qoidalariga rioya qilinishi;

e) ayirboshlash punktlari milliy valyuta va chet el valyutasi, yo‘l cheklari, qat’iy hisobda turadigan blankalar (377-shakldagi ma’lumotnomalar va 0402004-shakldagi kvitansiya daftarlari, valyutani chetga olib chiqish uchun beriladigan ruxsatnomalarning blankalari) bilan o‘z vaqtida va zarur miqdorda ta’minlanishi;

f) boyliklar va hujjatlar ayirboshlash punktlariga yetkazib berilishi qoidalariga rioya qilinishi, ularni ayirboshlash punktlaridan bank muassasalariga o‘z vaqtida va to‘liq olib ketilishi. Boyliklar yo‘lda saqlanishining ahvoli;

g) boyliklar va qat’iy hisobda turadigan blankalar (shu jumladan, kassirlar vaqtincha bo‘lmagan paytda), shanba va yakshanba kunlari operatsiya o‘tkazish uchun olingan milliy valyuta va chet el valyutasidagi bo‘nak saqlanishi qoidalariga rioya etilishi;

h) ayirboshlash punktining yakunlangan ish kuni to‘g‘risidagi hisobot berilish muddatiga va boyliklar qoldig‘i bank muassasasiga yoki inkassatorlarga topshirilishi qoidalariga rioya qilinishi. Hisobot tuzilishi to‘g‘riligi va uni asoslovchi hujjatlar borligi, hisobotda ko‘rsatilgan operatsiyalar bank muassasasi balansida to‘liq va o‘z vaqtida aks ettirilishi;

i) ayirboshlash punktlarida pul summalari ortiqcha va kam chiqishi, buning sabablari, shunday dollar yuzasidan ko‘riladigan chora-tadbirlar;

j) ayirboshlash punktlarini muntazam sur‘atda to‘satdan audit qilish turish va audit natijalarini ko‘rib chiqish.

Ayirboshlash punktlarini audit qilish natijalari bo‘yicha dalolatnoma tuziladi. Unda milliy valyuta, chet el valyutasi va to‘lov hujjatlari, shuningdek, qat’iy hisobda turadigan blankalar borligi hamda ular bank muassasasining buxgalteriya hisobi ma’lumotlariga mos kelishi, ayirboshlash punktlari muhofazalashning texnik vositalari bilan qay darajada jihozlangani, fuqarolarga valyuta xizmati ko‘rsatish operatsiyalarini amalga oshirish qoidalariga rioya qilinishi va auditorning ixtiyoriga ko‘ra boshqa masalalar ko‘rsatib o‘tiladi.

Banklarda chet el valyutasidagi bank operatsiyalarini audit qilish jarayonida eksport-import shartnomalarini to‘g‘ri ro‘yxatga olish va uni bajarilishi qonuniyligi, eksport shartnomalari bo‘yicha mablag‘larning o‘z vaqtida kelib tushishi, kelib tushgan chet el valyutalari bo‘yicha

majburiy to'lovlarni belgilangan tartibda amalga oshirilishi tekshiriladi. Bundan tashqari, chet el oshirishni bank ichida nazorat qilish to'g'ri yo'lga qo'yilgani, hamda valyuta operatsiyalari keyin tekshirilishining ahvoli;

k) valyuta operatsiyalari bo'yicha hisob-kitob-pul hujjatlari rasmiylashtirilishi va saqlanishi qoidalariga rioya etilishi;

l) valyuta operatsiyalari bo'yicha daromad va xarajatlarning hisoblanishi va hisobning to'g'ri olib borilishi.

Bosh boshqarmalarni audit qilish jarayonida rezident va norezidentlarga valyuta xizmati ko'rsatish bo'yicha ayirboshlash punktlarining ishi ham audit qilinadi.

Tekshiruv ayirboshlash punktlari va qarashli bo'lgan bank muassasasi xodimlari uchun ham, ayirboshlash punktlari xodimlari uchun ham kutilmagan bo'lishi kerak.

Ayirboshlash punktida milliy va xorijiy valyuta, valyutaga doir to'lov hujjatlari, qat'iy hisobda turadigan blankalar va boshqa boyliklar borligini bevosita auditorning o'zi ayirboshlash punkti xodimlari ishtirokida o'tkazadi. Naqd pul va muassasasiga tegishli navbatdagi hisobot jo'natilganidan keyin amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha summalarni hisobga olgan holda qiyoslanadi.

Toshkent shahar Bosh boshqarmasida chet el valyutasidagi bank operatsiyalarini audit qilish jarayonida eksport-import shartnomalarini to'g'ri ro'yxatga olish va uni bajarilishi qonuniyligi, eksport shartnomalari bo'yicha mablag'larning o'z vaqtida kelib tushishi, kelib tushgan chet el valyutalari bo'yicha majburiy to'lovlarni belgilangan tartibda amalga oshirilishi tekshiriladi. Bundan tashqari, chet el valyutasidagi bank operatsiyalarini audit qilishda xodimlarning chet ellarga xizmat safariga borish uchun olingan hisobotdagi chet el valyutalarining to'g'ri berilganligi va topshirilgan bo'nak hisobotlarining rasmiylashtirilishi, hisobotning to'g'ri topshirilganligiga e'tibor qaratilishi lozim.

Valyuta hisob operatsiyalarini tekshirishda quyidagilarga e'tibor beriladi:

- valyuta hisobvaraqlarining to'g'ri ochilganligi;
- chet el valyutasida amalga oshirilgan operatsiyalarning o'z vaqtida va to'g'ri bajarilganligiga;

- chet el valyutasidagi yuridik va jismoniy shaxslarning hisob varaqlari bo'yicha buxgalteriya hisobining to'g'ri olib borilishi;
- eksport va import shartnomalarining hisobga olinish ahvoli va ular bo'yicha yig'majildlarning yuritilishi ahvoli;
- eksport va import operatsiyalari bo'yicha debitor va kreditor qarzlarning paydo bo'lish sabablari va ular bo'yicha ko'rilgan choralar;
- chet el valyutasida amalga oshirilgan operatsiyalarning o'z vaqtida va to'g'ri bajarilishi;
- valyuta hisobvarag'idagi valyuta mablag'larining o'z vaqtida va to'g'ri qayta baholanishi.

Bulardan tashqari valyuta amaliyotlarini tekshirishda «Western Union» pul o'tkazmalarini o'tkazish tartibi bo'yicha ularning to'g'ri qabul qilib o'tkazilishi va berilishi tartibi ham tekshirib ko'riladi.

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va atamalar

Valyuta, valyuta operatsiyalari, valyuta boylklari, ayirboshlash shoxobchasi, qat'iy hisobda turadigan blankalar, naqd chet el valyutasi, saqlanayotgan qimmatli buyumlar, birjadan tashqari valyuta bozori, valyuta bozori.

O'z bilimini tekshirish bo'yicha savollar

1. Chet el valyutasidagi operatsiyalarni auditdan o'tkazish tartibi.
2. Naqd chet el valyutasidagi operatsiyalar qanday audit qilinadi?
3. Inkasso operatsiyalarini audit qilish.
4. Muddatli valyuta operatsiyalari auditi qanday tashkil etiladi?
5. Valyuta operatsiyalari auditi qanday me'yoriy hujjatlar yordamida tashkil etiladi?
6. Bankning valyuta shoxobchalari qanday tekshiriladi?
7. Bankning valyuta pozitsiyalari ham tekshiriladimi va u qanday tartibda amalga oshiriladi?
8. Banklarning vakillik hisobvaraqlarini audit qilish tartibi?

9-bob. TIJORAT BANKLARIDA ASOSIY VOSITALAR VA KAM BAHOLI, TEZ ESKIRUVCHI BUYUMLARNING AUDITI

9.1. Bankning asosiy vositalari auditini tashkil qilish va rejalashtirish

9.2. Nomoddiy aktivlar auditi ahamiyati

9.3. Kam baholi va tez eskiruvchi buyumlarning auditi

9.1. Bankning asosiy vositalari anditini tashkil qilish va rejalashtirish

Asosiy vositalar auditini tashkil qilish, rejalashtirish, audit dasturi va axborot manbalari hamda auditorlik faoliyatini rivojlanishi O‘zbekiston Respublikasida hozirda jadal kechmoqda. Auditning boshqa obyektlarida bo‘lgani kabi asosiy vositalarni audit qilishning ham bugungi kunda tobora dolzarbligi ortib bormoqda. Xoh majburiy auditorlik tekshiruv bo‘lsin, xoh tashabbuskorlik tarzidagi auditorlik tekshiruv bo‘lsin asosiy vositalarni tekshirish auditorlik tekshiruvining diqqat markazida turadi.

Asosiy vositalar auditini tashkil etishda asosan tashqi audit tomonidan o‘tkaziladigan auditorlik tekshiruvlari ko‘zda tutiladi. Tashqi auditni o‘tkazishda, avvalambor, auditorlarning malakasi yuqori bo‘lishligi talab etiladi.

Asosiy vositalarni audit qilishni tashkil qilish quyidagi ketma-ketlik asosida amalga oshirilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- asosiy vositalarning kirimini tekshirish;
- asosiy vositalarni hujjatlashtirishni tekshirish;
- asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblanishini tekshirish;
- asosiy vositalar bo‘yicha jadallashtirilgan amortizatsiyaning qo‘llanilishini tekshirish;
- asosiy vositalarni ta‘mirlashni va smetalarning haqiqiyiligi hamda to‘g‘riligini tekshirish;
- asosiy vositalarning chiqim qilinishi maqsadga muvofiq ekanligini tekshirish;

- asosiy vositalarning ijarasini, ijara to'lovlarining kelib tushishini tekshirish;
- asosiy vositalarning sotilishi va boshqacha chiqib ketishi bo'yicha moliyaviy natijalarning to'g'ri aniqlanganligini tekshirish;
- Tijorat banklarida inventarizatsiya o'tkazish tartibini hamda inventarizatsiya natijalarini tekshirish.

Asosiy vositalarni audit qilishdan oldin audit dasturi tuziladi. Audit dasturi auditning umumiy rejasini rivojlantiradi va audit rejasini amalda ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan auditorlik faoliyatiga doir qoidalar mazmunining batafsil ro'yxatini o'z ichiga oladi. Auditor audit dasturini hujjatli rasmiylashtirishi, har bir bajariladigan auditorlik qoidasini raqam yoki kod bilan belgilashi kerak, shunday tartibda auditor ish jarayonida o'zining ish hujjatlarida mijozlarga havola qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Mazmuniga ko'ra auditorlik taomillari o'z ichiga buxgalteriya hisobida hisobvaraqlar bo'yicha aylanmalar va qoldiqning to'g'ri aks ettirilganligini batafsil tekshirishni oladi. Auditorlik taomillari dasturi bank shunday aniq batafsil tekshirishlar uchun auditor harakatlari ro'yxatidan iborat bo'ladi. Taomillarga ko'ra auditor buxgalteriya hisobining ayni qanday bo'limlarini tekshirishini belgilashi va buxgalteriya hisobining har bir bo'limi bo'yicha audit dasturini tuzishi kerak bo'ladi.

Auditni o'tkazish shartlari va auditorlik taomillari natijalarining o'zgarishiga bog'liq holda audit dasturi qayta ko'rib chiqilishi mumkin. O'zgarishlarning sabablari va natijalari hujjatlashtirilishi kerak. Auditorlik dasturining har bir bo'limi bo'yicha auditorning ish hujjatlarida rasman aks ettirilgan xulosalari auditorlik hisoboti (tijorat bank rahbariyatiga yozma axborot) va auditorlik xulosasini tuzish uchun asos material, shuningdek, tijorat bankining moliyaviy hisoboti to'g'risida auditorning xolis fikrini shakllantirish asos bo'lib hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, asosiy vositalar auditini o'tkazayotganda auditorlar auditorlik tekshiruvini o'tkazishning shu tartibdagi dasturini tuzishi lozim, deb o'ylaymiz. Agarda bu tartib milliy

auditorlik tashkilotlarida keng qo'llanilsa, auditorlik tekshiruvini o'tkazishning kam xarajatli, kam vaqt sarflaydigan, shu bilan birga ilmiy asoslangan aniq rejasini tuzishga imkon yaratilishiga zamin tayyorlanadi. **Asosiy vositalarni audit qilishdan maqsad**, sodir bo'lgan xo'jalik muomalalarini hisobga olish va soliqqa tortishda qo'llanilayotgan tartibning O'zbekiston Respublikasi me'yoriy hujjatlari talablariga muvofiqligini aniqlashdan iboratdir. Tijorat banklarida asosiy vositalarini audit qilganda auditor quyidagilarni e'tiborga olishi lozim:

- asosiy vositalar bilan ta'minlanish darajasi;
- mavjud yer maydonini ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan imorat, inshoot, mashina va uskunalar bilan ta'minlanish darajasi;
- yangidan sotib olingan, qurilgan, o'rnatilgan asosiy vositalarning ishga tushishi bo'yicha hujjatlarni o'z vaqtida rasmiylashtirilishi va umumlashtirilishi;
- asosiy vositalarning hisobini javobgar shaxslar va foydalanuvchilar bo'yicha tashkil qilishning ta'minlanishini tekshirish;
- hissadorlar bo'yicha asosiy vositalar hisobini tashkil qilish;
- bankka qabul qilingan asosiy vositalarning qonuniyligini tekshirish.

Asosiy vositalarning bankka kelishi tekshirilganda ularning amaldagi qonun va qoidalar asosida olinishiga, qurilishiga e'tibor beriladi. Shuningdek, asosiy vositalarni sotib olishga va qurishga zarur mablag'larning moliyalashtirilishi kabilar o'rganiladi. Bunda, avvalo, xo'jalikning shu xildagi zarur asosiy vositalar bilan ta'minlanishi, texnik unumdorlik darajasi jihatidan hozirgi kundagi ishlab chiqarish talabiga javob bera olishi tekshiriladi.

Mavjud asosiy vositalar ishlab chiqarishda qatnashayotganda va ishsiz turganda injener-texnik va davlat tomonidan belgilangan standartga asoslangan holda saqlanilishi tekshiriladi. Ishlatiladigan asosiy vositalarning miqdor va sifati jihatidan saqlanishini javobgar shaxslar ta'minlaydi. Asosiy vositalarning saqlanishini tekshirganda auditor quyidagilarga e'tibor beradi:

- asosiy vositalar saqlanishining davlat tomonidan belgilangan me'yorga to'g'ri kelishi;

- saqlanayotgan asosiy vositalar hujjatlarda to‘g‘ri rasmiylashtirilganligi;

- asosiy vositalarning saqlanayotgan joyi va inventar kartochkalar o‘rtasidagi ma’lumotlarning o‘zaro mos kelishi;

- asosiy vositalar bir saqlanish joyidan ikkinchisiga ko‘chirilganida bu muomalalarning to‘g‘ri hujjatlashtirilganligi va hisobda to‘g‘ri aks ettirilganligi;

- ijarachilar tomonidan saqlanayotgan vositalar uchun ijara shartnomalarining mavjudligi va shartnoma shartlarining bajarilishi;

- buxgalteriya hisobi ma’lumotlari bilan haqiqiy mavjud asosiy vositalar sonining to‘g‘ri kelishi;

- asosiy vositalar saqlanishi bo‘yicha o‘tkazilgan inventarizatsiya hujjatlarining mavjudligi;

- zarur hollarda saqlanish darajasini aniqlash uchun inventarizatsiya o‘tkazish;

- asosiy vositalarning saqlanishi bo‘yicha auditorning fikr-mulohazalari bo‘lishi.

Asosiy vositalarning miqdoriy jihatdan butligini ta‘minlash uchun javobgar shaxslar doimiy ravishda inventarizatsiyadan o‘tkazadi.

Asosiy vositalarni ishlab chiqarishda foydalanishni tekshirganda quyidagilarga e‘tibor beriladi:

- tijorat banklarda mavjud bo‘lgan asosiy vositalardan foydalanilayotganlik darajasini, fond qaytimidagi yillar davomidagi darajasini, fond qaytimlarini orttirish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlarning mavjudligiga, asosiy vositalardan foydalanish doimiyligi ta‘minlanganligiga, asosiy vositalarning ishlatilmay to‘xtab qolish hollarini qisqartirish va boshqalarga;

- tijorat banklarga qabul qilingan yangi asosiy vositalarning ishlab chiqarishga jalb qilinish darajasiga, ya‘ni qabul qilingan asosiy vosita omborlarda qolib ketmasdan tezroq ishlab chiqarishga qo‘llanilishi va natijada, tijorat bankidagi vositadan foydalanish koeffitsiyentining me‘yorlarga to‘g‘ri kelishini ta‘minlanayotganligiga;

- o‘rnatilmayotgan va foydalanilmayotgan ishlab chiqarish uskunalarining turib qolish sabablari, ularni tezroq ishlab chiqarishga jalb qilish yo‘llarining ko‘rilayotganligiga;

- tijorat bankda mavjud asosiy vositalarning ishlab chiqarishdagi doimiyligini ta'minlash maqsadida amalga oshirilayotgan ta'mir ishlarining maqsadga muvofiqligi, ta'mir ishlarining to'g'ri rasmiylashtirilishi, ta'mir xarajatlarini tegishli xarajat turlariga to'g'ri olib borilishini to'liq tekshirilishiga;

- asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari smeta (normativ) qiymatlariga to'g'riligini, asosiy vositalarni remondan qabul qilish dalolatnomalari bilan solishtirilishiga;

- pudrat usulida bajarilgan ta'mirlashning shartnomaga to'g'ri kelishi, ta'mirlash korxonasining bergan kafolatiga rioya qilinishiga e'tibor qarab, shundan kelib chiqib auditni tashkil qiladi.

Tijorat banklar o'z faoliyati davomida asosiy vositalardan mehnat qurollari sifatida foydalanadilar. Asosiy vositalarning bank o'z faoliyati davomida iste'mol qilinishi amortizatsiya ajratmalari summasi miqdorida amalga oshiriladi. Auditorlar asosiy vositalarga hisoblangan amortizatsiyani shu nuqtayi nazardan tekshiradilar.

Amortizatsiya summaları tijorat banklarda har oy amortizatsiya hisoblash qaydnomasi, hisoblangan amortizatsiya summasini taqsimlash qaydnomasiga muvofiq buxgalteriya hisobida aks ettirilishi mablag'lardan unumli maqsadlarga muvofiq hamda qonuniy jihatdan foydalanilishi tekshiriladi. Hujjatli tekshirishda xo'jalikdan chiqayotgan asosiy vositaning hamma hujjatlari ko'riladi, bunda komissiya tuzilganligi to'g'risidagi buyruq yoki qarordan boshlab, tekshirilayotgan davrda balansdan chiqarilayotgan har bir asosiy vositaning texnik holati, foydalanish bo'yicha ko'rsatkichlari, xo'jalikdan chiqarish dalolatnomasi shakliga rioya qilinishi, dalolatnoma rekvizitlari tekshiriladi. Asosiy vosita korxonaga kelganidan, uning chiqib ketgunga qadar bo'lgan davrda foydalanganligi tekshiriladi.

Auditorlik tekshiruvi yakunlanganida auditorlik tashkiloti tomonidan mijozga ma'lumotnoma taqdim etiladi. Tekshirilayotgan tijorat bank rahbariyati uchun ma'lumotnoma – bu auditorning mijoz bank rahbariyatiga xat ko'rinishida tuzilgan hisoboti bo'lib, unda hisob yozuvlarida, buxgalteriya hisobi hamda ichki nazorat tizimida yo'l qo'yilgan kamchiliklar haqidagi ma'lumotlar, bunday kamchiliklar

mavjud bo'lganda auditor tomonidan qo'llaniladigan chora hamda bunday kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar bayon etiladi. Mijoz rahbariyatiga beriladigan ma'lumotnomada asosiy vositalar hisobi bo'yicha barcha kamchiliklar keltirilmasligi mumkin. Bu hujjatda asosan auditorlik tekshiruvi davomida mavjud bo'lgan kamchiliklar keltirib o'tiladi. Ma'lumotnomani bank rahbariyatiga berish majburiy emas, ammo bu hujjatni taqdim qilish orqali auditor bank rahbariyatiga buxgalteriya hisobi va ichki nazorat tizimi, moliyaviy hisobotlarda yuz beradigan o'zgarishlarni, asosiy vositalar hisobi bo'yicha mavjud xatolarni o'z vaqtida tuzatish imkoniyatini beradi. Ma'lumotnomada keltirib o'tilgan kamchiliklar Respublikamizning amaldagi qonunchiligiga to'g'ri kelmasligi hamda ushbu kamchiliklarni bartaraf etish yo'llari qayd etiladi. Tavsiyalarning berilishi auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasining mundarijasini o'zgartirmaydi. Rahbariyat uchun beriladigan ma'lumotnoma qisqa, aniq hamda tushunarli bo'lishi lozim. Asosiy vositalar auditining eng oxirgi bosqichida oraliq dalolatnoma tuziladi. Oraliq dalolatnoma asosiy vositalar hisobining qay holatda yuritayotganligiga guvohlik beruvchi hujjat hisoblanadi. Ushbu hujjat auditorlik hisoboti tarkibiga qo'shib qo'yiladi.

Masalan, "A" bankning filial balansida mavjud asosiy vositalarda suv bilan o'chirilmaydigan bo'yoq yordamida asosiy vositalarning inventar raqamlari yozilmagan. Filialda har bir xonaga inventarlar ro'yxati yozib qo'yilmagan, inventarlarning saqlash javobgarligi filial boshqaruvchisining buyrug'iga asosan bank xodimlariga yuklatilmagan. Kamchilik bartaraf etildi.

Inventar raqami 4000147 bo'lgan Canon 1 SENSYSMF 231 printeri hamda inventar raqami 4000148 bo'lgan R4/N81 DUALCoreG 3260/DDR3 kompyuteri uchun bankning hisob siyosatiga asosan 20 foiz miqdorida eskirish hisoblanmasdan, 15 foiz miqdorida hisoblab kelingan. Kamchilik bartaraf etildi.

"A" bankning filialida 2018-yil 1-mart holatiga filial balansida jami 244 dona terminal mavjud bo'lib, 91 donasining hisobi 16549-hisobvaraqda, 153 donasining hisobi 16541-hisobvaraqda yuritilmoqda. Ijaraga berilgan terminallar soni 137 dona bo'lib,

16549-hisobvaraqqan 16 dona terminallar hisobi ortiqcha yuritilayotgani ma'lum bo'ldi. Terminallar to'liq inventarizatsiyadan o'tkazilib, ijradan qaytarib olingan terminallarni aniqlash hamda ularning hisobini 16541-hisobvaraqqa o'tkazish tavsiya etiladi.

9.2. Nomoddiy aktivlar auditi ahamiyati

Auditorlik tekshiruvi keyingi bosqichi bank nomoddiy aktivlar bilan muomalalarini tekshirishdan iboratdir. Bu jarayonda nomoddiy aktivlarni inventarizatsiya qilish sifati, ularni qabul qilish, nomoddiy aktivlarga eskirish hisoblash, ularni chiqib ketish tartiblari auditorlik tekshiruvidan o'tkaziladi.

Nomoddiy aktivlar – bu nomonetar, identifikatsiya qilinadigan aktivlar bo'lib, moddiy va jism shakliga ega bo'lmagan, foydali xizmat muddati bir yildan ortiq bo'lgan, hamda ulardan bank xizmatlari ko'rsatishda yoki ma'muriy maqsadlar uchun foydalanishga mo'ljallangan aktivlardir³².

Nomoddiy aktivlarga patentlar, mualliflik huquqlari, gudvill (goodwill), savdo markalari, kompyuter dasturiy ta'minotlari, litsenziyalar va shu kabilar tegishlidir.

Agar dasturiy ta'minot tegishli jihozning tarkibiy qismi bo'lsa, u moddiy aktiv sifatida qaraladi. Agar dasturiy ta'minot tegishli jihozning tarkibiy qismi bo'lmasa, u nomoddiy aktiv hisoblanadi.

Nomoddiy aktiv boshlang'ich (haqiqiy) qiymati – bu nomoddiy aktivlarni sotib olish yoki yaratish bilan bog'liq bo'lgan, to'langan soliqlar, bojxona bojlari va yig'implari, shuningdek, yetkazib berish va o'rnatish bilan bog'liq, o'rnatishga hamda aktivdan o'z maqsadi bo'yicha foydalana olish uchun uni ishchi holatiga keltirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan boshqa har qanday haqiqiy xarajatlarning summasidir. Nomoddiy aktivlarning qiymatiga to'g'ridan-to'g'ri taalluqli xarajatlar, masalan, yuridik xizmatlar uchun kasbiy

³² O'zbekiston Respublikasi banklarida nomoddiy aktivlar buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha Yo'riqnama (Markaziy bank 12.10.2003 y. N 519 (23/8) qarori, AV 14.01.2003 y. N 1199 bilan ro'yxatga olingan)

ning batlantirishlar (gonorarlarni) o'z ichiga oladi. Haqiqiy qiymatga ega bo'lish uchun barcha savdo chegirmalari va qaytarilgan mablag'lar chiqarib tashlanadi. Bankning nomoddiy aktivlari quyidagi usullarda shakllanadi:

- 1) sotib olish;
- 2) bank ichida ishlab chiqish (yaratish);
- 3) tekinga olish.

22-jadval

Nomoddiy aktivlarni baholash usullari³³

| Nomoddiy aktivlar dastlabki qiymatini shakllantirish tartibi. | Nomoddiy aktivlarning olish manbalari. | | | |
|---|--|------------------------------------|-----------------|---|
| | Pul o'tkazish yo'li bilan otib olingan | Tijorat bank da ishlab chiqarilgan | Tekinga olingan | Ustav kapitaliga ulush sifatida olingan |
| 1. Nomoddiy aktivlarni sotib olish va rejalashtirilgan maqsadlar uchun foydalanishga yaroqli holga keltirish uchun qilingan haqiqiy xarajatlar bo'yicha | x | | | |
| 2. Tayyorlash uchun qilingan haqiqiy xarajatlar bo'yicha | | X | | |
| 3. Nomoddiy aktivlarning bozor qiymati va rejalashtirilgan maqsadlar uchun foydalanishga yaroqli holga keltirishga doir haqiqiy xarajatlar bo'yicha | | | x | |
| 4. Ta'asis shartnomasiga muvofiq ta'asischilarning kelishuvi bo'yicha | | | | X |

Agar aktiv nomoddiy aktivning tarifiga javob bersa, bank tomonidan kelajakda iqtisodiy samara olish ehtimoliy mavjud bo'lsa va aktivning qiymatini ishonchli aniqlash mumkin bo'lsa, ushbu aktiv

³³ O'zbekiston Respublikasi banklarida nomoddiy aktivlar buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha Yo'riqnom (Markaziy bank 12.10.2003 y. N 519 (23/8) qarori, AV 14.01.2003 y. N 1199 bilan ro'yxatga olingan)

nomoddiy aktiv sifatida tan olinishi lozim. Ushbu talab chetdan sotib olingan nomoddiy aktivlar bilan birga bank ichida yaratilgan nomoddiy aktivlar uchun ham qo'llaniladi. Bank aktivdan unumli foydalanish muddati davomida mavjud bo'ladigan va kelajakda olinadigan iqtisodiy samara ehtimolini baholashi kerak.

Nomoddiy aktivlar auditining maqsadi buxgalteriya hisoboti "nomoddiy aktivlar" moddasining ishonchlilik darajasi to'g'risidagi fikrini shakllantirish va korxonada qo'llanilayotgan nomoddiy aktivlarni hisobga olish uslubi hamda soliqqa tortish bilan bog'liq muomalalarning O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan qonunchilikka muvofiqligini aniqlashdan iborat.

Nomoddiy aktivlar auditi jarayonida quyidagilar amalga oshiriladi:

1. Nomoddiy aktivlar mavjudligi ustidan nazorat o'rnatilishini aniqlash (mulkiy obyektlarni nomoddiy aktivlar qatoriga olib borishning to'g'riligi; mavjudligini va muomalalarni hujjatlashtirishning to'g'riligini tekshirish; nomoddiy aktivlarni baholashning to'g'riligini tekshirish; inventarizatsiya qilish; hisobot ko'rsatkichlarining sintetik va analitik hisob ma'lumotlariga mosligini aniqlash);

2. Sintetik hisobni yuritish, nomoddiy aktivlarning kirimi va chiqimiga doir muomalalarni soliqqa tortishning to'g'riligini tekshirish (nomoddiy aktivlar kirimi va chiqimiga doir muomalalarni sintetik hisob registrlarida aks ettirilishi; nomoddiy aktivlar kiringa olinishi va chiqim qilinishiga doir muomalalarni soliqqa tortish masalalari);

3. Nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblash va hisobda aks ettirish (foydali xizmat muddatini belgilashning asoslanganligi; amortizatsiya hisoblashda qo'llanilgan usullarning qonuniyligi va asoslanganligi; amortizatsiya ajratmalarining hisobda aks ettirilishi).

Auditor nomoddiy aktivlarni tekshirish chog'ida quyidagi ma'lumot manbalaridan foydalanadi:

- nomoddiy aktivlarni hisobga olishni va ular bilan bog'liq muomalalarni soliqqa tortishni tashkil etish masalalarini tartibga soluvchi asosiy me'yoriy hujjatlar;

- bankning hisob siyosati to'g'risidagi buyrug'i (farmoyishi) (nomoddiy aktivlar hisobiga taalluqli qismi);

- nomoddiy aktivlar sintetik va analitik hisobi bo'yicha bankda qo'llaniladigan hisob registrlari;

- nomoddiy aktivlarga taalluqli muomalalarni hisobga oladigan dastlabki hujjatlar;

- buxgalteriya hisobotlari.

Dastavval, auditor tijorat bank hisob siyosatining nomoddiy aktivlarini hisobga olish uslubiyoti bayon qilingan asosiy qoidalari bilan tanishib chiqadi. Bular xususan quyidagilardan iborat:

- amortizatsiya ajratmalarini hisoblash usullari (bir butunligicha yoki nomoddiy aktivlarning har bir turi bo'yicha);

- amortizatsiya hisoblanmaydigan nomoddiy aktivlar ro'yxati;

- nomoddiy aktivlarni hisobga olish uchun qo'llaniladigan namunaviy qabul qilingan va bankning o'zida tasdiqlangan dastlabki hujjatlar shakllari;

- nomoddiy aktivlarni inventarizatsiya qilish muddatlari;

- nomoddiy aktivlar hisobiga doir hujjatlar aylanishi;

- nomoddiy aktivlarga taalluqli muomalalarni hisobga olishda qo'llaniladigan hisobvaraqlar ro'yxati. Buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasida tijorat bankka mulkiy huquq asosida tegishli bo'lgan nomoddiy aktivlarning miqdori va harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirish uchun 16600 –“Nomoddiy aktivlar” hisobvaraqlari mo'ljallangan. Bu hisobvaraqlar balansga nisbatan aktiv bo'lib, ularning debet tomonida mavjud nomoddiy aktivlarning qoldig'i, kirimi va kreditida xo'jalikdan chiqishi aks ettiriladi. Buxgalteriya hisobi kompyuterlashtirilgan sharoitda quyidagi hisobvaraqlarning debet va kredit oborotlari bo'yicha mashinagrammalar tuziladi.³⁴

Amalda nomoddiy aktivlarga doir muomalalar kamdan-kam sodir bo'lganligi sababli, mulklarni nomoddiy aktivlar qatoriga olib borishning to'g'riligini yoppasiga tekshirish maqsadga muvofiq. Mulklar nomoddiy aktivlar qatoriga olib borilganligining to'g'riligini tekshirish chog'ida huquqlar va shunga o'xshash fuqarolik-huquqiy

³⁴ O'zbekiston Respublikasi banklarida nomoddiy aktivlar buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha yo'riqnomaga (Markaziy bank 12.10.2003 y. N 519 (23/8) Qarori, AV 14.01.2003 y. N 1199 bilan ro'yxatga olingan)

shartnomalar tuzilish natijasida sotib olinadi va patent to'g'risida, tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari, mualliflik huquqlari to'g'risidagi qonunlar bilan tartibga solinadi.

23-jadval

| № | Hisobvara q raqami | Hisobvara q nomi | Hisobvara q turkumi |
|----|-----------------------|---|------------------------|
| 1. | 16601 | Nomoddiy aktivlar | A |
| 2. | 16605 | Nomoddiy aktivlarning yig'ilgan eskirish summasi | KA |
| 3. | 16609 | O'rnatish va yaratish jarayonidagi nomoddiy aktivlar | A |
| 4. | 16617 | Gudvill | A |
| 5. | 16699 | O'rnatish va yaratish jarayonidagi nomoddiy aktivlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi | KA |

Nomoddiy aktivlardan keladigan kelajakdagi iqtisodiy samara, bank tomonidan aktivdan foydalanish natijasida vujudga keladigan, xizmatlarni sotishdan kelib tushgan tushum, xarajatlarni tejash hamda boshqa foydalarni o'z ichiga olishi mumkin. Agar nomoddiy aktiv, ularni nomoddiy aktiv sifatida tan olishning ta'rifiga ham mezonlariga ham javob bermasa, ushbu modda bo'yicha xarajatlar ular qaysi davrga tegishli bo'lsa, shu davr xarajatlari sifatida hisobga olinadi.

Aktivlarni nomoddiy aktiv sifatida ta'riflash imkoni bo'lmagan holda (ba'zi nomoddiy aktivlar biror predmet bilan yoki uning tarkibida bo'lishi mumkin), shu elementning muhimligidan kelib chiqib, aniqlash kerak bo'ladi (masalan, kompakt-disk-dasturiy ta'minot holatida, huquqiy hujjatlar-litsenziya yoki patent olish holatlarida).

Sotib olingan nomoddiy aktiv boshlang'ich (haqiqiy) qiymati bo'yicha baholanadi va hisobga olinadi. Nomoddiy aktivlarning boshlang'ich qiymatining o'zgarishiga ularning faqat qayta baholanishi natijasida ruxsat etilishi mumkin.

Xorijiy valyutaga sotib olingan nomoddiy aktivlar, balansda milliy valyutada Markaziy bankning xorijiy valyutaga nisbatan davlat bojxona deklaratsiyasi rasmiylashtirilgan kundagi kursi bo'yicha aks ettiriladi va xorijiy valyuta kursining o'zgarishi munosabati bilan qayta baholanmaydi.

Nomoddiy aktivlarning holatini o'rganish bo'yicha testlar

| № | Tadqiqot obyekti | Tekshirish natijasi | Belgi | Auditor xulosasi |
|-------------------------|---|--|-------|--|
| A. Ichki nazorat | | | | |
| 1 | Nomoddiy aktivlar bo'yicha barcha shartnomalar to'g'ri rasmiylashtirilgani va ular mavjudmi? | Barcha shartnomalar to'g'ri rasmiylashtirilgan va haqiqatda mavjud, ammo yurist tomonidan imzolanmagan | K3 | Nazorat qoniqarli darajada yo'lga qo'yilgan, sabablarni aniqlash lozim |
| 2 | Nomoddiy aktivlardan foydalanish va saqlanishi yuzasidan mas'ul shaxslar aniq belgilanganmi? | Rahbar buyrug'i mavjud | K4 | Buyruqlar o'rnatilgan talablarga javob berishi |
| 3 | Nomoddiy aktivlarni xavfsiz ravishda saqlash uchun shart-sharoitlar yaratilganmi? | Dasturiy ta'minotdan foydalanib borishda parollar qo'llaniladi. | K3 | Patentlar, tovar belgilari va boshqalardan foydalanish tartibi aniqlangan |
| 4 | Nomoddiy aktivlar inventarizatsiyasi o'z vaqtida va to'g'ri o'tkazilmoqdami | Rahbar buyrug'i bilan tasdiqlangan inventarizatsion komissiya tomonidan yil oxirida o'tkaziladi | K2 | Nazorat qoniqarli darajada emas. To'liq inventarizatsiya o'tkazish talab etiladi |
| 5 | Nomoddiy aktivlar harakati bilan bog'liq operatsiyalarga izn berish tartiblari qanday yo'lga qo'yilgan? | Ayrim turdagi Nomoddiy aktivlarning iznsiz chiqib ketish hollari uchrab turadi | K1 | Ichki nazorat sust darajada. Nazorat riski yuqori |
| 6 | Nomoddiy aktivlarni qabul qilish va o'z vaqtida foydalanishga topshirish bilan bog'liq operatsiyalarning to'liq hamda o'z vaqtida oshirilayotganligi tekshirilmoqdami | Doimiy ravishdagi umumiy nazorat amalga oshirib boriladi | K4 | Nazorat riski past |
| 7 | Faoliyatning turli yo'nalishlari bo'yicha | Tekshirilmaydi | K1 | Nazorat riski yuqori. Umumiy tekshiruvni amalga oshirish |

| | | | | |
|------------------------|---|----------------------------|----|--|
| | Nomoddiy aktivlardan foydalanish tekshirilmogdami | | | lozim |
| B. Hisob tizimi | | | | |
| 8 | Nomoddiy aktivlar hisobi yuzasidan yagona hisob siyosati mavjudmi? | Mavjud | K3 | Hisob siyosatining to'g'ri tuzilganligini tekshirib ko'rish lozim |
| 9 | Nomoddiy aktivlar ma'lum bir turlar bo'yicha klassifikatsiyalanadi | Ha, klassifikat siyalanadi | K3 | Klassifikatsiyalashning to'g'ri amalga oshirilganligini tekshirish kerak |
| 10 | Yangidan kelib tushgan nomoddiy aktivlar bo'yicha amortizatsiya hisoblash tartibi asoslanganligi va ular bo'yicha amortizatsiya normalari tasdiqlanganmi? | Yo'q | K1 | Amortizatsiya hisoblashning haqiqatdagi holatini tahlil qilib ko'rish |
| 11 | Nomoddiy aktivlar hisobini sxemasi ishlab chiqarilganmi? | yo'q | K2 | Schyotlar korrespondensiyasida ma'lum xatoliklar bo'lishi mumkin |
| 12 | Xo'jalik operatsiyalarini aks ettirish bo'yicha schyotlar korrespondensiyasi yuzasidan namunaviy sxemalar ishlab chiqilganmi? | Yo'q | K2 | Schyotlar korrespondentsiyasida ma'lum bir xatoliklar uchrashi mumkin |
| 13 | Nomoddiy aktivlarni baholash tartiblari aniqlab olinganmi? | Aniqlanmagan | K2 | Nomoddiy aktivlarni baholashda ma'lum xatoliklar bo'lishi mumkin |
| 14 | Nomoddiy aktivlar sintetik, analitik hamda dastlabki hujjatlardagi hisob ma'lumotlari qanday davriylik bilan solishtirib turiladi? | Faqatgina yil oxirida | K2 | Davriy hisobotlarda xatoliklar mavjudligi ehtimoldan holi emas |

Izoh. K₁- past daraja; K₂ - o'rtachadan past; K₃ - o'rtacha; K₄ – yuqori.

Nomoddiy aktivning bozor qiymatini, ushbu nomoddiy aktivning turi bo'yicha ikkilamchi aktiv bozorida narxlar asosida aniqlash mumkin. Balans hisoboti tuzilayotgan sanada balans qiymati bozordagi bahosidan keskin farq qilmasligi uchun qayta baholanishi muntazam ravishda amalga oshirilib borishi zarur.

Agar ayni paytda qayta baholangan nomoddiy aktivning ikkilamchi bozori mavjud bo'lmasa, aktivning balans qiymati sifatida

so'nggi marta qayta baholangan sanadagi qiymat qabul qilinishi lozim. Bunda nomoddiy aktivning hosil qilingan balans qiymati ushbu aktivning tiklanish qiymatidan yuqori bo'lmashligi kerak.

Qayta baholash paytida nomoddiy aktivlarning to'liq qayta tiklanish qiymati, qayta baholash sanasida shu baholanayotgan aktivlarga o'xshash yangi aktivlarning qiymatiga doir, bozor narxi bo'yicha tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan narxlar asosida to'g'ridan-to'g'ri hisoblash yo'li bilan aniqlanadi. To'g'ridan-to'g'ri qayta baholash usulini qo'llashda nomoddiy aktivlarning to'liq tiklanish qiymatini tegishli hujjatlar bilan tasdiqlash uchun bank, o'z xohishiga ko'ra quyidagilardan foydalanishi mumkin:

1) ishlab chiquvchi firmalar va ularning maxsus dilerlaridan o'xshash aktivning narxlari to'g'risida yozma ravishda olingan ma'lumotlar;

2) nomoddiy aktivlarni sotib olish va qayta baholash kunlaridagi Markaziy bank kurslariga nisbatan hisob-kitob koeffitsiyenti aniqlanadigan erkin ayriboshlanadigan valyutada sotib olingan aktivlarning qiymati (tasdiqlovchi hujjat mavjud bo'lganda) to'g'risidagi ma'lumotlar;

3) qayta baholash davrida ommaviy axborot vositalarida va maxsus adabiyotda narxlar darajasi to'g'risida e'lon qilingan ma'lumotlar va shakllar;

4) baholovchining aktiv qiymati to'g'risidagi hisoboti.

Qayta baholangandan so'ng nomoddiy aktivlarning qayta baholangan qiymati ularning balans qiymati va jamg'arilgan eskirish summasi bilan taqqoslanadi va o'rtadagi farq summasiga tegishli buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi.

1) Agar aktivning qayta baholangan qiymati uning balans qiymatidan ortiq bo'lsa, ushbu oshgan summa 31501 schyotda quyidagi buxgalteriya yozuvi orqali aks ettiriladi: a) Dt 16601 Kt 31501; b) qayta baholashgacha bo'lgan va qayta baholangandan keyingi jamg'arilgan eskirish summolari o'rtasidagi farq summasiga: Dt 31501 Kt 16605.

2) Qayta baholash natijasida nomoddiy aktivlar qiymatining o'sgan summasi shu aktiv bo'yicha ilgari qayta baholashning xarajat sifatida

hisobga olingan va qiymatini kamaytirgan summasini qoplaydigan qismigina daromad sifatida tan olinadi.

3) Agar aktivning qayta baholanganidagi qiymati uning balans qiymatidan kam bo'lsa, unda aktivning summasi kamayadi va bu kamayish quyidagi buxgalteriya yozuvi bilan rasmiylashtiriladi:

a) qayta baholashgacha bo'lgan va qayta baholanganidan keyingi jamg'arilgan eskirish o'rtasidagi farq summasiga: Dt 16605 Kt 31501.

b) qayta baholash natijasida aniqlangan aktiv qiymatining kamayish summasiga Dt 31501 Kt 16601 (ilgarigi o'sish miqdori doirasida);

4) Agar 31501 – hisobvaraqdagi kredit qoldiq (nomoddiy aktivlarning aynan shu toifasiga taalluqli qismi) yetarli bo'lmasa, unda qayta baholangan aktivning qo'shimcha kamaygan qiymati quyidagicha hisobga olinadi: Dt 55995 Kt 16601.

Nomoddiy aktivlarning foydali xizmat qilish muddati amortizatsiya normalari yordamida aniqlanadi. Amortizatsiya normalari bank tomonidan ularning boshlang'ich qiymati va foydali xizmat qilish muddatidan kelib chiqqan holda hisoblanadi. Foydali xizmat qilish muddati, obyektidan foydalanish vaqtini o'z ichiga olgan yillarda, ko'rsatilgan xizmatlar hajmida o'lchanishi mumkin. Aktivning foydali xizmat qilish muddatini aniqlashda quyidagi omillarning barchasi hisobga olinishi lozim:

1) bank tomonidan aktivdan qanchalik samarali foydalanishdan kelib chiqqan holda kutilayotgan foydalanish;

2) aktivning namunaviy hayot sikli va foydalanilayotgan shunga o'xshash aktivlarning foydali xizmat qilish muddatini baholanganligi to'g'risida ommaviy axborot olish;

3) texnik, texnologik va boshqa turdagi eskirishlar. Tez o'sib borayotgan texnik taraqqiyotni inobatga olib, kompyuter dasturiy ta'minotlari va shunga o'xshash nomoddiy aktivlarning foydali xizmat qilish muddati qisqa bo'lishi;

4) aktiv ustidan nazorat qilish davri va yuridik yoki aktivdan foydalanishning boshqa cheklashlari, jumladan, ijara shartnomalari muddatlarining tugashi;

5) aktivning foydali xizmat qilish muddatini, bankning boshqa aktivlarini foydali xizmat qilish muddatlariga bogʻliqligi va shu kabilar.

Nomoddiy aktivning foydali xizmat qilish muddatini baholashga, foydali xizmat qilish muddatining ortib borishi bilan, ishonch kamayib boradi, chunki chegara mavjud va xalqaro standartlardan kelib chiqib, baʼzi nomoddiy aktivlarning foydali xizmat qilish muddati 20 yildan oshmaydi.

Agar nomoddiy aktivdan kelajakda keladigan iqtisodiy samaralar ustidan nazorat, yuridik huquqlar (patentlar, mualliflik huquqlariga oʻxshagan) orqali amalga oshirilsa, unda bunday nomoddiy aktivlarning foydali xizmat qilish muddati yuridik huquqlarni amal qilish davridan oʻtib ketmasligi kerak. Quyidagi holatlar bundan mustasno:

- 1) yuridik huquqlar qayta yangilanadigan boʻlganda:
- 2) yangilanish (uzaytirish) haqiqatda aniq boʻlganda.

Nomoddiy aktivning foydali xizmat qilish muddatiga, mavjud boʻlgan iqtisodiy hamda huquqiy omillar taʼsir etishlari mumkin: iqtisodiy omillar iqtisodiy samara olish davrini aniqlasa, huquqiy omillar esa bankning ushbu samaralardan foydalanish davrini chegaralaydi. Bu holda foydali xizmat qilish davri ushbu davrlar ichida eng qisqasini tashkil etadi.



6-rasm. Nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblash usullari va ularning formulasi³⁵

Aktivning amortizatsiyalanadigan summasi uning balans qiymatidan aktivning likvidatsiya qiymatini ayirib tashlash orqali aniqlanadi. Quyidagilardan tashqari hollarda, nomoddiy aktivning likvidatsiya qiymati nolga tenglashtirilib qabul qilinishi lozim:

1) aktivni foydali xizmat qilish muddati oxirida ushbu aktivni sotib olishga uchinchi shaxs majburiyati borligi; yoki

2) aktiv uchun amal qilayotgan faol bozor mavjudligi va:

a) ushbu bozorga asoslanib aktivning likvidatsiya qiymatini aniqlash mumkinligi;

³⁵ Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

b) aktivning foydali xizmat qilish muddati oxirida shunday bozorining mavjud bo'lish ehtimolidan holi emasligi.

Amortizatsiya quyidagi uslublarni qo'llash yo'li bilan hisoblanadi:

1) bir tekisda (to'g'ri chiziqli) hisoblash usuli;

2) bajarilgan ishlarning hajmiga proporsional ravishda eskirishni hisoblash usuli;

3) qoldiqning kamayib borish usuli.

Aktivlarning har xil turlariga amortizatsiya hisoblashning turli usullarini qo'llash ruxsat etiladi. Bunda bir turdagi nomoddiy aktivlarga faqatgina bitta usul qo'llanilishi kerak. Eskirishni hisoblashning tanlangan usuli hisob yuritish siyosati tomonidan aniqlanishi va bir hisobot davridan keyingi hisobot davriga ketma-ket ravishda qo'llanilib borilishi hamda yil davomida o'zgarماسligi kerak.

9.3. Kam baholi va tez eskiruvchi buyumlarning auditi

Kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar (KBTEB) – bu bank faoliyatida foydalaniladigan va quyidagi mezonlardan birortasiga javob bera oladigan moddiy aktivlardir:

a) xizmat muddati bir yildan ortiq bo'lmagan;

b) xizmat muddatidan qat'iy nazar, bir donasi (komplekti) narxi O'zbekiston Respublikasida o'rnatilgan (sotib olish vaqtidagi) eng kam ish haqining ellik baravarigacha qiymatga ega bo'lgan buyumlardir.

Bank rahbari buyumlarning kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar tarkibidagi hisobini olib borish uchun hisobot yiliga buyumlar qiymatining quyi chegarasini o'rnatishi mumkin.

Xizmat qilish muddati va qiymatidan qat'iy nazar kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

a) maxsus asboblarda va moslamalarda (ayrim buyumlarni turkum va yalpi ishlab chiqarish uchun yoki yakka tartibdagi buyurtmalarni tayyorlash uchun mo'ljallangan maqsadli asboblarda va moslamalarda);

b) maxsus va sanitar kiyimlar, maxsus poyabzallar;

d) yotoq jihozlari;

e) kanselyariya jihozlari (kalkulyatorlar, stol jihozlari va boshqalar);

f) oshxona va ovqatlanish xonasi inventarlari, shuningdek, ovqatlanish xonasi choyshablari;

g) qurilish-ta'mirlash ishlari tannarxiga olib boriladigan vaqtinchalik qurilma va moslamalar (titulsiz inshootlar);

h) foydalanish muddati bir yildan kam bo'lgan almashish asbob-uskunolari va boshqa buyumlar;

Haqiqatdagi qiymat – kam baholi va tez eskiruvchi buyumlarni sotib olish, qayta ishlash va uni hozirgi joyi hamda holatiga keltirish uchun amalga oshirilgan boshqa jami xarajatlar summasidir;

Haqqoniy qiymat – o'zaro aloqador bo'lmagan va umumiy shartlarda bitimni amalga oshirishni xohlovchi boxabar tomonlar o'rtasida aktivni almashtirish yoki majburiyatni qoplash uchun kelishilgan summa;

Sof sotish qiymati – oddiy ish faoliyati davomidagi bitim tuzish va sotishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan va hisoblangan xarajatlar chegirib tashlangan sotish bahosidir. Sof sotish qiymati bank tomonidan oddiy hollarda kam baholi va tez eskiruvchi buyumlarni sotishday olishi kutilayotgan sof summani anglatadi.

Kam baholi va tez eskiruvchi buyumlarning sof sotish qiymati haqqoniy qiymatdan sotish xarajatlari ayirib tashlangan qiymatidan farq qilishi mumkin.

Masalan, "A" tijorat banki tahliliy hisob kam baholi va tez eskiruvchi predmetlar, shuningdek, boshqa qimmatliklarning turlari bo'yicha alohida shaxsiy hisobvaraqlarda olib borilmagan holda bitta 19921 – Ombordagi KBTEBlar va boshqa qimmatliklar nomli hisobvarag'ida yuritilgan.

Ombordagi tovar moddiy boyliklarni but saqlanishini nazorat qilib borish maqsadida davriy ravishda, lekin yilda kamida bir marta buxgalteriya ma'lumoti bilan ombordagi tovar moddiy boyliklarni taqqoslab borish ishlari o'tkazib borilmagan. 2017-yil 16-fevralda filial omboridan 1613,4 ming so'mlik KBTEBlar chiqim qilingan, biroq 19921-hisobvarag'ida 17-fevral kuni buxgalteriya amaliyoti bajarilgan, ya'ni ombordagi qimmatliklar hisobi bilan balans o'rtasida 1 kunga farq mavjud bo'lgan.

2017-yil 18-fevralda 700,0 ming soʻmlik asosiy vositalar (5 dona telefon apparatlari) 19921- hisobvaragʻiga kiritilgan, talabnomalarga asosan bank xarajatiga olib borilgan. Ushbu asosiy vositalar bank xarajatidan qaytarilib asosiy vositalarning tegishli hisobvaraqlariga kiritilgan hamda hisobini yuritish tavsiya etiladi.

Hisobot davrida amalga oshirilgan buxgalteriya oʻtkazmalari tanlov asosida oʻrganilganda aksariyat holatlarda bank omboriga kiritilgan KBTEBlar hamda asosiy vositalar kechiktirib balansda aks ettirilganligi maʼlum boʻldi.

Mavzu boʻyicha tayanch soʻz va atamalar

Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar, amortizatsiya, inventarizatsiya, qayta baholash qiymati, kamayib boruvchi qoldiq usuli, kumulyativ (yillar summasi) usuli, haqqoniy qiymat.

Oʻz bilimini tekshirish boʻyicha savollar

1. Asosiy vositalar va ularni hisobga olishning hisobi?
2. Asosiy vositalarni qayta baholash qanday amalga oshiriladi va uni audit qilish tartibini tushuntiring?
3. Asosiy vositalarni inventarizatsiyasi qanday tartibda tekshiriladi?
4. Kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hisobini tashkil etishning auditi qanday amalga oshiriladi?
5. Nomoddiy aktivlarga qanday eskirish hisoblanadi?
6. Oʻzbekistonda faoliyat yurituvchi xalqaro auditorlik tashkilotlari.
7. Kam baholi tez eskiruvchi buyumlar va asosiy vositalarning tarkibi.
8. Auditorlik guruhlarini tuzish tarkibi.
9. Tez eskiruvchi buyumlar va asosiy vositalar hisobining yuritilishi.
10. Kam baholi buyumlarning hisobdan chiqarilishi.
11. Nomoddiy aktivlar tushunchasi va ularni audit qilish tartibi.

10-bob. AYDITORLIK RISKLARI VA AUDITORLIK XULOSALARI

10.1. Auditorlik faoliyati bilan bog‘liq risklar

10.2. Auditorlik xulosalari va ularning turlari

10.1. Auditorlik faoliyati bilan bog‘liq risklar

Ma'lumki, respublikamizda islohotlarning chuqurlashtirilishi va iqtisodiyotning erkinlashtirilishi natijasida moliyaviy hisobot axborotlaridan foydalanuvchilarning turlari ko'paymoqda, moliyaviy hisobotning haqqoniyligini tasdiqlash esa auditorlik tashkilotlarining asosiy vazifasiga kiradi. Shu bilan birga, qator muammolar va kamchiliklar auditorlik faoliyatining yanada rivojlanishiga va korporativ boshqaruv sifatini oshirish uchun auditorlik xizmatlarining ahamiyatini oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Bu haqda batafsil O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2018-yil 19-sentyabr kuni "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3946 qarorida bayon etgan: "... auditorlik tashkilotlarini tan olish bo'yicha mavjud cheklolar va tanlovlar o'tkazish amaliyoti ko'p hollarda insofsiz, shu jumladan, narx borasida insofsiz raqobatni keltirib chiqaradi, buning oqibatida auditorlik xizmatlari sifati va auditorlik xulosalarining haqqoniyligi pasaymoqda"³⁶.

Shubhasiz, hamma vaqt moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarning xolisona va foydali auditorlik hisoboti va xulosasi bilan ta'minlanishi professional risk kategoriyasiga kiruvchi auditorlik riski bilan uzviy bog'liq. Bugungi kunda auditorlik riskini baholash muammosi amaliyotda xalqaro audit standartlarini qo'llash zaruriyati munosabati bilan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

³⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi qarori. PQ-3946, 2018-yil,19-sentyabr, www.minfin.uz

R.Do'stmuratovning fikricha, u yoki bu riskning ahamiyatligi va ko'lamini aniqlash hamda muayyan auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishda uni pasaytirish yo'llarini izlash va qo'llash, auditorlarning mijozlariga qaraganda, ularning o'zlari uchun muhimroq hisoblanadi³⁷. Audit amaliyotida, auditorlik riski ko'pincha "yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan" audit riski deb ataladi. Masalan, A.Arensning fikricha, yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan auditorlik riski – audit yakunlanganidan va standart auditorlik fikri bildirilganidan so'ng auditor tomonidan moliyaviy hisobotda katta xatolar bo'lishi mumkinligini tan olinishiga tayyorligi darajasidir.

Shuningdek, xorijiy olimlardan A.Zaytsanu, E.Xlatsius va S.Lukanlarning fikricha, kompaniya duch keladigan auditorlik risklarini baholash va identifikatsiya qilish auditorlik tekshiruvi jarayonida juda muhim qadam bo'lib hisoblanadi. Risk aslida jamiyat uchun xavf sodir bo'lishi mumkin bo'lgan spetsifik hodisa natijasidagi tahdid sifatida ta'riflanadi. Auditorlar tomonidan foydalaniladigan moliyaviy hisobot auditida risklarni identifikatsiya qilish va baholash usullari klassik bo'lsa, ular keyingi bosqichga olib chiqishlari va darajalarini oshirishlari shart³⁸. Afsuski, mavjud adabiyotlarda auditorlik riskining aniq va bir ma'nodagi ta'rifi yo'q, ko'pincha uning mohiyati umumiy holdagina tavsiflanadi. 9-AFMS "Muhimlik va auditorlik riski" nomli standartga muvofiq, auditorlik riski hisobotning ishonchsizligida ishonchliligi haqida fikr bildirishdagina emas, balki hisobot aslida ishonchli bo'lgan paytda unga ishonchsiz deb fikr bildirishda ham mavjud bo'ladi³⁹. Shunga asosan, auditorlik riski birinchi va ikkinchi turdagi riskga bo'linadi. Shunday qilib, 9-AFMS "Muhimlik va auditorlik riski" nomli standartning 11-bandiga muvofiq, auditorlik riski tijorat bankining moliyaviy hisobotida uning ishonchliligi tasdiqlangandan so'ng aniqlanmagan muhim xatolar va (yoki) o'zgarishlar bo'lishi yoki moliyaviy hisobotida bunday xatoliklar bo'lmagan holda muhim

³⁷ R.D.Dustmuratov Auditorlik faoliyati: nazariya, uslubiyot va amaliyot. T.: "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, 2007. – 85-bet.

³⁸ A.Зайцану, Е.Хлатиус, С.Лукан "Methods for Risk Identification and Assessment in Financial Auditing" volume 32, 2015 pages 595-602 <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2212567115014379>

³⁹ 9-sonli AFMS "Muhimlik va auditorlik tavakkalchiligi"- O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi, 03.09.1999y, www.minfin.uz

xatoliklar bor deb ko'rsatilishi ehtimolligini anglatadi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, standartga ko'ra auditorlik riski, bu hisobotda jiddiy xatolar (noto'g'ri dalillar) mavjudligi nuqtayi nazaridan tijorat bankining moliyaviy hisobotlari ishonchliligi bo'yicha auditorlik firmasining noto'g'ri fikr bildirishi ehtimolligidir.

Audit va moliyaga oid ayrim manbalarda "risk" atamasi turlicha tarjima qilib qo'llanilmoqda («tavakkalchilik», «xatarlilik», «xavf-xatar», «tahlika», «g'ov» va h. k). Auditorlik faoliyatiga nisbatan bunday tarjimalar "risk" atamasining asl mohiyatini to'liq ochib bermaydi. Bu borada biz professor T. S. Malikov fikriga qo'shilamiz. Umuman murakkab ilmiy atamalarni ularning mohiyatini ifodalamaydigan tarjimalar bilan almashtirmasdan, birinchi marta qo'llanilganida izohlagan holda, keyinchalik aslini qo'llash maqsadga muvofiq.

№9 - "Muhimlik va auditorlik riski" nomli AFMS ga muvofiq: *Auditorlik riski* – bu auditorlik tekshiruv natijalari bo'yicha auditorlar tomonidan subyektiv aniqlanadigan, moliyaviy hisobotda, uning ishonchliligi tasdiqlanganidan so'ng xatolar mavjudligini tan olish yoki moliyaviy hisobotda bunday kamchiliklar haqiqatan ham yo'q bo'lganda, unda kamchiliklar mavjud deb tan olinish ehtimolidir.

Faraz qilaylik, agar auditor salbiy xulosa bersa yoki xulosa berishdan voz kechsa o'zini xavf-xatar ostiga qo'ymasligi mumkin. Ammo bu noto'g'ri fikr, chunonchi, auditor uchun bu holda mijozlarini yo'qotish xavfi vujudga keladi. Bundan tashqari, auditor har qanday, hatto, mijoz-tijorat bank moliyaviy hisobotini to'liq tasdiqlaydigan xulosa berganida ham, u shartnoma majburiyatlari bilan bog'liq xavf-xatarni o'z zimmasiga oladi. Auditorlik faoliyatida uchraydigan bunday xavf-xatarlar yig'indisini keyinchalik *auditorlik risklarning maqbul to'plami* deb atash mumkin.

Ma'lumki, har qanday malakali va puxta o'tkazilgan auditorlik tekshiruv ham auditorlik riskini to'liq bartaraf eta olmaydi. Shuning uchun auditorlik amaliyotida uning (auditorlik riskining) maqbul chegarasi **5% deb qabul qilingan**. Ya'ni, auditorlik tashkiloti tomonidan berilgan 100 ta auditorlik xulosasidan 5 tasi munozarali masalalar bo'yicha noto'g'ri xulosalar bo'lishi mumkin. Bunday risk

ya'ni, 5% miqdorda noto'g'ri xulosa berish ehtimoli auditorlik tashkiloti uchun muhim hisoblanmaydi va uning raqobatbardoshligini pasaytirmaydi. Aksincha, bu ko'rsatkich (5%)ni yanada pasaytirishga urinish behuda kuch va mablag' sarflashga olib keladi hamda raqobatbardoshlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Umuman *auditorlik riskining maqbul to'plamiga* quyidagi shart-sharoitlar asosiy ta'sirini ko'rsatadi.

1. Mijoz-tijorat bank faoliyati (biznesi)ning ko'lami. Mijoz-tijorat bankda sodir bo'ladigan xo'jalik muomalalarining miqdori qanchalik ko'p bo'lsa, auditorlik riski shunchalik yuqori bo'ladi va uning moliyaviy hisobotidan shuncha kengroq hajmda foydalanish zarur bo'ladi. Auditorlik risk darajasini aniqlashda moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan foydalanuvchilarning fikrlari asos bo'lib hisoblanadi. Masalan, agar aksiyadorlik jamiyati qo'shimcha aksiya chiqarishni rejalishtirmagan bo'lsa, u holda faqat haqiqiy aksiyadorlar fikri inobatga olinadi. Agar qo'shimcha aksiya chiqariladigan bo'lsa, aksiyalarga obuna bo'luvchilar fikrlari ham inobatga olinadi. Yangi aksiyadorlarni asosan yuqori dividendlar va ijobiy auditorlik xulosasi bilan jalb qilish mumkin.

2. Mulkchilikning tashkiliy-huquqiy shakllari ham auditorlik risklarining maqbul to'plamiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy hisobotlari yopiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlarinikiga qaraganda aksiyadorlarining ishonchini ko'proq qozonganligi bois, auditorlik riskini pasaytirishi mumkin. Bu ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlarida har xil mulkdorlar mavjudligi bilan izohlanadi. Shuningdek, aksiyadorlarning manfaatlari har doim ham bir-birinikiga mos kelavermaydi va shuning uchun ham ular bir-birlarini nazorat qilib turadilar.

3. Kreditorlik qarzlarning miqdori va tavsifi. Mijoz-tashkilot kreditorlari qanchalik yirik tijorat banklardan iborat bo'lsa, demak, uning moliyaviy hisobotiga ishonch shuncha yuqori ekanligi va uni tekshirish bilan bog'liq tavakkalchilik xatari shunchalik past bo'ladi.

Auditorlik riskiga boshqa shart-sharoitlar ham ta'sir ko'rsatadi. Jumladan: mutaxassislarning buxgalteriya hisobini bilishi, auditorlik

tekshiruviga umumiy yondashuv, me'yoriy-huquqiy tizimdagi o'zgarishlar, hisobning kompyuterlashtirilganlik darajasi, mijoz-tijorat bankdagi ichki nazorat tizimining ishonchliligi, rahbarlar almashinishi va ularning shaxsiy fazilatlarini, olingan natijalarni baholash va ularning to'liqligi, mazkur tashkilot faoliyatiga xos bo'lmagan muomalalar miqdori va sh. k.

Demak, *auditorlik risklarning maqbul to'plami deganda, o'tkazilgan auditorlik tekshiruvlari natijasida yanglish mulohazaga kelish va natijada, noto'g'ri auditorlik xulosasi tuzish ehtimoli (xavfi) tushuniladi*⁴⁰.

Yuqorida bayon etilganidek, *auditorlik risklarining maqbul to'plami* bir qancha risklardan iborat.

Umumiy auditorlik amaliyotida *auditorlik risklarining maqbul to'plamiga* quyidagicha yondashuv ishlab chiqilgan va ular ingliz tilidagi abbreviaturasi (bosh harflari) bo'yicha quyidagi formula ko'rinishida ifodalangan:

$$DAR = IR * CR * DR \quad (3)$$

DAR (Desired audit risk) – ARMT (auditorlik risklarning maqbul to'plami);

IR (Internal risk) – IXR (ichki xo'jalik riski);

SR (Control risk) – NR (nazorat riski);

DR (Detection risk) – AR (aniqlanmaslik ya'ni xatolar va moliyaviy hisobotdagi kamchiliklarning aniqlanmaslik riski).

Demak, auditorlik risklarining maqbul to'plami (ARMT)ni va uni tashkil etuvchi tarkibiy qismlar (IXR; NR; AR)ni batafsil bayon qilish va mohiyatini o'rganish uchun quyidagi formula ko'rinishida ifodalaymiz hamda uning tarkibiy qismlarini alohida ko'rib chiqamiz:

$$ARMT = IXR * NR * AR \quad (4)$$

Ichki xo'jalik riski – IXR (IR-Internal risk) – bu mazkur buxgalteriya hisobvarag'ida, balans moddasida, bir turdagi xo'jalik muomalalari guruhida yaxlitlanganda, tijorat bank hisobotida muhim

⁴⁰ Handbook of international quality control, auditing, review, other assurance and related services pronouncements 2016-2017 Edition Volume 1 page 1116 www.iaasb.org

kamchiliklarning, bunday kamchiliklar ichki nazorat tizimi vositalari yordamida aniqlangunga qadar yoki ichki xo'jalik nazorati umuman yo'q bo'lganda, auditor tomonidan subyektiv tarzda aniqlanish ehtimoli tushuniladi.

10.2. Auditorlik xulosalari va ularning turlari

Audit xulosasi barcha jismoniy va yuridik shaxslar uchun, hokimiyat va sud idoralari uchun huquqiy hujjat hisoblanadi⁴¹. Bu xulosa matbuotda ham e'lon qilinishi mumkin. Auditning taftishdan asosiy farqi ham mana shunda.

Tijorat banklarida o'tkazilayotgan auditorlik tekshirishlari sifati va ta'sirchanligini oshirish, tashqi audit faoliyatini takomillashtirish, auditorlik firmalari o'rtasida erkin va sog'lom raqobat munosabatlarini kuchaytirish hamda aholi va sarmoyadorlarning bank tizimiga bo'lgan ishonchini yanada oshirish maqsadida 1996-yil 24-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank auditi tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilingan edi.

Mazkur farmon talablarini bajarilishini ta'minlash va Respublikada bank auditini mustahkamlash maqsadida o'tgan davr mobaynida Markaziy bank tomonidan bir qator ishlar amalga oshirildi.

Mamlakatimizda ishlab chiqilgan Auditorlik faoliyati milliy andozalari asosida banklarda auditorlik tekshiruvlari tashkil etiladi. Auditorlik faoliyati milliy andozasi-AFMA "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 22-sentyabrdagi "Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshiruvlari rolini oshirish to'g'risida"gi 365-son qaroriga asosan ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini me'yoriy tartibga solish elementi hisoblanadi.

Andozaning maqsadi auditorlik tashkiloti tomonidan o'tkazilgan auditorlik tekshiruvi natijalari bo'yicha auditorlik hisoboti va auditorlik

⁴¹ Asokan Anandarajan, Gary Kleinman *International Auditing Standards in the United States: Comparing and Understanding Standards for ISA and PCAOB* Business Expert Press, 2014 page 288

xulosasini tuzishning yagona tartibini joriy etish hisoblanadi.

Mazkur andoza talablari auditorlik tekshiruvini o‘tkazish va tijorat bankka auditorlik hisoboti hamda auditorlik xulosasini taqdim etish paytida barcha auditorlik tashkilotlari uchun majburiy hisoblanadi. Mazkur andozaning №70 esa auditorlik xulosalariga bag‘ishlangan⁴².

Auditorlik hisoboti – tijorat bank rahbari, mulkdori, ishtirokchilari (aksiyadorlari) umumiy yig‘ilishiga taqdim etiladigan, auditorlik tekshiruvining borishi, buxgalteriya hisobini yuritishning belgilangan tartibidan aniqlangan chetga chiqishlar, moliyaviy hisobotdagi huquq buzilishlari to‘g‘risida batafsil ma’lumotlar, shuningdek, auditorlik tekshiruvini o‘tkazish natijasida olingan va auditorlik xulosasini tuzish uchun asos hisoblanadigan boshqa axborotdan iborat bo‘lgan hujjat.

Auditorlik xulosasi – moliyaviy hisobotning haqqoniyligi va buxgalteriya hisobini yuritish tartibining qonun hujjatlari bilan belgilangan talablarga muvofiqligi to‘g‘risida auditorlik tashkilotning fikri yozma shaklda ifodalangan va tijorat bankning moliyaviy hisobotidan foydalanuvchilar uchun ochiq bo‘lgan hujjat.

Auditorlik xulosasining tuzilishi

Auditorlik hisobotida quyidagilar bo‘ladi:

a) nomi (“Auditorlik hisoboti” yoki “Auditorlik tashkilotning hisoboti”: ikkala nom bir xil kuchga ega);

b) adresatning nomi;

d) kirish qismi;

e) tahliliy qism;

f) yakuniy qism.

Auditorlik hisobotining har bir sahifasiga moliyaviy hisobotning auditorlik tekshiruvini amalga oshirgan auditor (auditorlar) imzo chekishi shart.

Auditorlik hisoboti buyurtmachining barcha zaruriy rekvizitlarini ko‘rsatish bilan auditorlik tekshiruvi buyurtmachisiga yuboriladi.

Auditorlik hisobotining kirish qismi

Auditorlik hisobotining kirish qismida auditorlik tashkiloti

⁴² 70-sonli AFMS “Moliyaviy hisobot to‘g‘risidagi auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasi” O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi №2844 2016 yil 1 dekabr www.lex.uz

rekvizitlari, shu jumladan auditorlik faoliyatini amalga oshirishga litsenziyaning raqami va sanasi, auditorlar va auditorlik tekshiruvda qatnashgan boshqa shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek, auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun asos va tijorat bank faoliyatining umumiy tavsifi keltiriladi.

Auditorlik hisobotining tahliliy qismi

Auditorlik hisobotining tahliliy qismi AFMAga havola qilishi va unda quyidagilar bo'lishi shart:

- tijorat bankda ichki nazorat holatini tekshirish natijalari (batafsil bayoni);

- buxgalteriya hisobi holati va moliyaviy hisobotni tekshirish natijalari;

- moliyaviy-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish paytida qonunchilik talablariga rioya etilishini tekshirish natijalari;

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash hamda to'lashning to'g'riligini tekshirish natijalari;

- aktivlarning butligini tekshirish natijalari.

Xo'jalik yurtiuvchi subyekt ichki nazoratining holatini tekshirish natijalari to'g'risidagi axborot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- ichki nazorat tizimining tijorat bank faoliyatining miqyoslari va xususiyatiga muvofiqligi umumiy bahosi;

- auditorlik tekshiruvi mobaynida aniqlangan ichki nazorat tizimining tijorat bank faoliyatining miqyoslari va xususiyatiga jiddiy nomuvofiqliklari bayoni.

Tijorat bankining buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisoboti holatini tekshirish natijalari to'g'risidagi axborot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishning belgilangan tartibiga rioya qilinishini baholash;

- auditorlik tekshiruvi davomida aniqlangan buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tayyorlashning belgilangan tartibini jiddiy buzishlar bayoni.

Tijorat bank tomonidan moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirish paytida qonunlarga rioya etilishini tekshirish natijalari to'g'risidagi axborot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- tijorat bank amalga oshirgan moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarining qonunchilikka muvofiqligini baholash;

- auditorlik tekshiruvi davomida aniqlangan, tijorat bank amalga oshirgan moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarning qonunchilikka jiddiy nomuvofiqliklari bayoni.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblashi va to'lashning to'g'riligini tekshirish natijalari to'g'risidagi axborot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

- tuzilgan va tegishli organlarga taqdim etilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'g'riligining bahosi;

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash va to'lashning belgilangan tartibini buzish faktlari, soliq solinadigan bazani belgilash paytidagi chetga chiqishlar bayoni;

- aktivlar butligini tekshirish natijalari aktivlarni inventarlashga asoslanishi va o'z ichiga ularning haqiqatda mavjudligi va butligi to'g'risidagi ma'lumotlarni olishi kerak.

Auditorlik hisobotining yakuniy qismi

Auditorlik hisobotining yakuniy qismi auditorlik tashkilotining aniqlangan chetga chiqishlar va huquq buzilishlarini bartaraf etishga doir tavsiyalarini, shuningdek, tijorat bankining moliyaviy-xo'jalik faoliyati samaradorligini oshirishga doir takliflari va maslahatlarini o'zi ichiga olishi kerak.

Auditorlik hisoboti uchun javobgarlik

Auditorlik tashkiloti auditorlik hisobotini tuzganlik uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi. Auditorlik hisobotida keltirilgan axborot maxfiy hisoblanadi va oshkor etilmasligi kerak. Axborotni oshkor etganlik uchun ushbu axborotdan foydalana oladigan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

Auditorlik xulosasining tuzilishi

Auditorlik xulosasi quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

a) nom ("Auditorlik xulosasi" yoki "Auditorlik tashkilotining xulosasi");

b) adresatning nomi;

d) kirish qismi;

- e) qayd etish qismi;
- f) yakuniy qism;
- g) auditorlik xulosasini berish sanasi;
- h) auditorlik tashkiloti manzili;
- j) auditorlar va auditorlik tashkiloti rahbarining imzosi.

Auditorlik xulosasi auditorlik tashkilotining muhri bilan tasdiqlanishi kerak. Auditorlik tashkiloti auditorlik xulosasi shaklining bir xilligiga rioya qilishi kerak. Auditorlik xulosalari shakllari ilovalarda keltirilgan.

Auditorlik xulosasi auditorlik tekshiruvining buyurtmachisiga yo'llanib, buyurtmachining barcha zaruriy rekvizitlari ko'rsatilishi kerak.

Auditorlik xulosasining kirish qismi

Auditorlik xulosasining kirish qismi auditorlik tashkilotining quyidagi rekvizitlarini o'z ichiga olishi kerak:

- auditorlik tashkilotining yuridik manzili va telefonlari;
- auditorlik faoliyatini amalga oshirish huquqiga litsenziya raqami, berilgan sana va litsenziya bergan organing nomi;
- auditorlik tashkiloti davlat ro'yxatiga olingani to'g'risidagi guvohnoma raqami;
- auditorlik tashkiloti hisob-kitob varag'ining raqami;
- auditorlik tekshiruvda ishtirok etgan auditor (auditorlar)ning, shuningdek, auditorlik tashkiloti rahbarining familiyasi, ismi va otasining ismi.

Kirish qismida sana va hisobot davri ko'rsatilgan holda tekshirilgan moliyaviy hisobotlar ro'yxati keltirilishi kerak.

Kirish qismida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- Tijorat banki auditorlik tekshiruvidan o'tkaziladigan moliyaviy hisobotni tayyorlash va uning haqqoniy bo'lishi uchun javobgar;
- auditorlik tashkiloti auditorlik xulosasining tijorat bankining moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalariga muvofiq bo'lishi uchun javobgar.

Auditorlik xulosasida auditorlik tekshiruv AFMAga muvofiq o'tkazilgani qayd etilishi kerak.

Qayd etuvchi qismda auditorlik tekshiruvi moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborot qonun hujjatlariga, shuningdek, moliyaviy-xo'jalik faoliyatining haqiqiy holatiga muvofiqligi va haqqoniyligini baholashga asoslanishi ko'rsatilishi kerak.

Qayd etuvchi qismda auditorlik tekshiruvi fikrni ifodalash uchun yetarlicha asoslar berishi xususida auditorlik tashkilotining tasdig'i berilishi kerak.

Auditorlik xulosasining yakuniy qismida auditorlik tashkilotining tekshirilgan moliyaviy-hisobot tijorat banki moliyaviy-xo'jalik faoliyatining haqiqiy holati to'g'risida haqqoniy tasavvur berish-bermasligi va moliyaviy hisobot qonun hujjatlariga muvofiqligi yoki muvofiq emasligi xususidagi fikri ravshan bayon etilishi kerak.

Auditor auditorlik xulosasini auditorlik tekshiruvi yakunlangan kun bilan belgilashi kerak. Auditor auditorlik xulosasini tijorat bank moliyaviy hisobotga imzo chekkan yoki uni tasdiqlagan sanadan oldin keluvchi kun bilan belgilashi kerak emas.

Auditorlik xulosasiga auditor (auditorlar), auditorlik tashkiloti rahbari imzo chekishi va u auditorlik tashkilotining muhri bilan tasdiqlanishi kerak.

Auditorlik xulosalarining quyidagi turlari mavjud⁴³:

- a) ijobiy auditorlik xulosasi;
- b) salbiy auditorlik xulosasi.

Ijobiy auditorlik xulosasi. Auditorlik tashkiloti tijorat bankining moliyaviy hisoboti uning moliyaviy ahvolini haqqoniy yoritadi va tijorat banki amalga oshirgan moliyaviy va xo'jalik operatsiyalari O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi talablariga muvofiq degan fikrga kelganda ijobiy auditorlik xulosasi tuzilishi kerak.

Salbiy auditorlik xulosasi. Auditorlik tashkiloti tijorat bankining moliyaviy hisobotida, agar tijorat banki tomonidan bartaraf etilmasa, moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarni chalg'itishi mumkin bo'lgan buzilishlar mavjud degan fikrga kelsa, salbiy auditorlik xulosasi tuzilishi kerak.

⁴³ 70-sonli AFMS "Moliyaviy hisobot to'g'risidagi auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasi" O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi №2844 2016-yil 1-dekabr www.lex.uz

Tijorat bank amalga oshirgan moliyaviy va xo‘jalik operatsiyalari moliyaviy hisobotda haqqoniy aks ettirilgan, lekin qonunchilik talablariga muvofiq kelmaydigan hollarda ham salbiy auditorlik xulosasi tuziladi.

Odatda tijorat bank rahbariyatining auditorlik tashkilotining aniqlangan buzilishlarni bartaraf etish maqsadida moliyaviy hisobotga tuzatishlar kiritish to‘g‘risidagi fikriga qo‘shilmasligi salbiy auditorlik xulosasini tuzishga sabab bo‘ladi.

Tijorat bank auditorlik tekshiruvi davomida aniqlangan buzilishlarni bartaraf etgan holda salbiy auditorlik xulosasi tuzilmaydi.

Auditorlik xulosasini tuzishdan bosh tortish. Auditorlik tekshiruvi hajmining cheklanganligi tufayli auditorlik tashkiloti moliyaviy hisobot to‘g‘risidagi fikrni ifodalash uchun yetarlicha auditorlik dalillarini olishi mumkin bo‘lmasa, auditorlik tashkiloti auditorlik xulosasini tuzishdan bosh tortishi mumkin.

Auditorlik tekshiruvi hajmini cheklash – tijorat bank vakillari yoki uchinchi shaxslarning boshlab yuborilgan auditorlik tekshiruvini auditorlik xulosasini tayyorlash uchun zarur deb hisoblagan hajmda o‘tkazishga to‘sqinlik qilishga yo‘naltirilgan ochiqdan-ochiq harakatlari yoki harakatsizliklaridir.

Auditorlik xulosasini tuzishdan bosh tortish ariza shaklida bo‘lishi va “Auditorlik tashkilotining auditorlik xulosasini tuzishdan bosh tortishi to‘g‘risidagi ariza” deb nomlanishi kerak. Arizaning shakli 3-ildovada keltirilgan.

Auditorlik xulosasi kamida uch nusxada tuziladi, shundan ikki nusxa auditorlik tekshiruvi buyurtmachisiga taqdim etiladi.

Auditorlik xulosasi moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarga tushunarli bo‘lishi, auditorning ishonchi komil emasligi va (yoki) rozi emasligi yuzaga keltirgan cheklashlarga doir ko‘rsatmalarni o‘z ichiga olishi kerak.

Auditorlik xulosasi ochiq axborot hisoblanadi, undan moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarning hammasi foydalana olsin.

Auditorlik xulosasi tegishli moliyaviy hisobotlar bilan birgalikda tijorat bank tomonidan e‘lon qilinishi mumkin.

Auditorlik xulosasi uchun javobgarlik. Auditorlik tekshiruvini o'tkazmasdan tuzilgan yoki auditorlik tekshiruvi natijalari bo'yicha tuzilgan, lekin auditorlik tekshiruvi davomida auditor (auditorlar) olgan tijorat bankining hujjatlari mazmuniga muvofiq kelmaydigan auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasi qasddan yolg'on hisobot va xulosa deb hisoblanadi.

Qasddan yolg'on auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasini tuzish qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikni keltirib chiqaradi.

Tijorat bank bilan auditorlik tashkiloti o'rtasida yuzaga kelgan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

Mavzu bo'yicha tayanch so'z va atamalar

Auditorlik xizmatlari sifati, auditorlik xulosalari, auditorlik riski, muhimlik va auditorlik riski, auditorlik risklarning maqbul to'plami, ichki xo'jalik riski, auditorlik hisoboti, ijobiy auditorlik xulosasi, salbiy auditorlik xulosasi.

O'z bilimini tekshirish bo'yicha savollar

1. Auditorlik risklari, ularning mazmuni, turlari va sug'urtalash tartibini bilasizmi?
2. Auditorlik xulosalarini belgilanish maqsadi nimalardan iborat?
3. Auditorlik xulosalarining asosiy elementlari nimalardan iborat?
4. Auditorlik xulosalarining qanday turlari bor?
5. Auditor fikriga va auditorlik xulosasiga ta'sir qiluvchi omillarni bilasizmi?
6. Maxsus maqsad uchun tayyorlanadigan xulosalar qanday rasmiylashtiriladi?
7. Auditorlik xulosasi kimga taqdim etiladi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Normativ huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1.1. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi qonuni. 1995-yil 21-dekabr.

1.2. O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni. 1996-yil 25-aprel.

1.3. O‘zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni, yangi tahrirda 2000-yil 26-may.

1.4. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonuni. 2016-yil 13-aprel.

1.5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y. 6-son. 70-modda.

1.6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 15-maydagi “Xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta‘minlash, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF 4725- sonli farmoni.

1.7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. PQ-3946. 2018-yil 19-sentyabr.

1.8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Auditorlik tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda ular ko‘rsatayotgan xizmatlar sifati uchun javobgarlikni oshirish to‘g‘risida”gi qarori. 2007-yil 4-aprel.

1.9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Auditorlik tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. 2008-yil 2-iyul.

1.10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshirishlarining ahamiyatini oshirish to‘g‘risida” qarori. 2000-yil 22-sentyabr.

1.11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 6-apreldagi “Bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va investitsiyaviy faolligini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–1317–sonli qarori.

1.12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabdagi “2011-2015 yillarda respublika bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish va yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishish bo‘yicha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 1438- sonli qarori.

1.13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 6-maydagi “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 2344- sonli qarori.

1.14. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Tijorat banklarida foizlarni hisoblash to‘g‘risida”gi 1306–sonli nizom. 2004-yil 30-yanvar.

1.15. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasi” № 773–17–son 2004-yil 13-avgust.

1.16. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining «O‘zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish tartibi to‘g‘risida»gi 1834–son yo‘riqnomasi 2008-yil 11-iyul.

1.17. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bank Boshqaruvining 2015-yil 13-iyundagi 2696-sonli “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi nizomi.

1.18. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 6-iyuldagi “Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi 2693 – sonli qarori.

1.19. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 13-avgustdagi 2709– sonli “Tijorat banklarining likvidligini boshqarishga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi nizomi.

1.20. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T., 2016.56 b.

1.21. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: O‘zbekiston, 2017.104 b.

1.22. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: O‘zbekiston, 2017. 48 b.

1.23. 9-sonli AFMS “Muhimlik va auditorlik tavakkalchiligi”. O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi, 03.09.1999.

1.24. 70-sonli AFMS “Moliyaviy hisobot to‘g‘risidagi auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasi”. O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi №2844 2016-yil 1- dekabr.

1.25. Abduvaxidov F.T., Umarov Z.A., Djurayev K.N. Banklarda buxgalteriya hisobi: O‘quv qo‘llanma. T.: TDIU, 2010. 224 b.

1.26. Abdullayev Yo., Qoraliev T., Toshmurodov Sh., Abdullayeva S. Bank ishi: O‘quv qo‘llanma. T.: IQTISOD–MOLIYA, 2009. 548 b.

1.27. Abdullayeva Sh.Z. Bank ishi: Darslik. T.: TMI, 2018.568 b.

1.28. Abdullayeva Sh.Z. Xalqaro valyuta – kredit munosabatlari: Darslik T.: IQTISOD-MOLIYA, 2007.

1.29. Адамс Р. Основы аудита. /Под ред. Я.В.Соколова. М.ЮНИТИ, 1995. С.398.

1.30. Андросов А.М. Финансовая отчетность банка: практическое руководство по организации бухгалтерского учета и отчетности. М. : Менатеп. - Информ, 2004. 459 с.

1.31. Аудит банков: Учеб. пособие / Под ред. Г.Н. Белоглазовой, Л.П. Кроливецкой, Е.А. Лебедева. М. : Финансы и статистика, 2001. 352 с.

1.32. Allegrini, M, D'Onza, G., Paape, L., Melville, R, Sarens, G., (2006), The European literature review on internal auditing, *Managerial Auditing Journal*. 21: 845-853.

1.33. Asokan Anandarajan, Gary Kleinman *International Auditing Standards in the United States: Comparing and Understanding Standards for ISA and PCAOB Business Expert Press*, 2014. P. 288.

1.34. Аренс Э.А., Лоббек Дж.К. *Аудит / Под.ред. Я.В.Соколова. М.: Финансы и статистика, 2001.С.560.*

1.35. *Банковское дело: Учебник/ Под ред. О.И. Лаврушина. М.: КНОРУС, 2008. 768 с.*

1.36. *Банковское дело: Учебник/ Под. ред. Г.Г. Коробовой. М.: Экономист, 2004. 751 с.*

1.37. Белоцерковский В.И., Федорова Е.А. *Бухгалтерский учет и аудит в коммерческом банке:Учебник. М.:Экономика, 2005.294 с.*

1.38. Бычкова С.М. *Международные стандарты аудита: Учебное пособие. М.: Проспект, 2008. 432 с.*

1.39. Герасимова Е.Б., Мельник М.В. *Основы банковского аудита:Учебное пособие. М., 2008. 221 б.*

1.40. Do'smurotov R.D. *Auditorlik faoliyati: nazariya, uslubiyot va amaliyot: monografiya. O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi; Toshkent Davlat agrar un-ti. T.: Moliya, 2007. 276 b.*

1.41. Л.С. Ефремова, Т.А. Купрюшина, И.И. Тамур, О.А. Богданкевич, Т.К. Савчук. *Банковский аудит:Учебное пособие. Минск, 2007. 389 с.*

1.42. Ibragimov A.K va boshq. *Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida banklarda buxgalteriya hisobi: O'quv qo'llanma. T.: Moliya, 2010. 272 b.*

1.43. Кеворкова Ж.А. *Международные стандарты аудита: Учебник и практикум для бакалавриата и магистратуры. М: Юрайт, 2014. 458 с.*

1.44. Куницына Н.Н., Хисамудинов В.В. *Банковский аудит: Учеб. пособие. М.: Финансы и статистика, 2014. 216 с.*

1.45. Жарилгасова Б.Т. *Международные стандарты аудита: Учебное пособие. М.: КНОРУС, 2008. 400 с.*

1.46. Mullajonov F.M. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi. T.: O‘zbekiston, 2011. 224 b.

1.47. Navruzova K.N., Karimov N.G‘., Ortiqov U.D. Banklarda buxgalteriya hisobi T.: Davr nashriyoti, 2012.

1.48. Norkobilov S, Ortikov U. Bank auditi. T., 2004. 108 b.

1.49. Федоренко И.В., Золотарева Г.И. Развитие аудита как науки // Аудит и финансовый анализ. 2010. № 2. С. 214.

1.50. Смирнова Л. Р. Банковский аудит : Учебное пособие для вузов/ Под ред. М.И.Баканов. М: Финансы и статистика, 2001. 448 с.

1.51. Шеремет А.Д., Суйц В.П. Аудит: Учебник. М.: ИНФРА-М, 2006. 448 с.

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar

2.1. Зайцану А., Хлациус Е., Лукан С. Methods for Risk Identification and Assessment in Financial Auditing. volume 32, 2015. P. 595-602.

<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2212567115014379>

2.2. Azizov Sh. Auditorlik tashkilotlari reytingini aniqlash metodikasini yaratish masalalari// Bozor, pul va kredit. T., 2008. № 12.

2.3. Vaxabov A.V., Ibragimov A.K., Rizayev N.K. Tijorat banklari tashqi auditida xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini joriy etish metodikasi: Monografiya. T.: Moliya, 2011. 188 b.

2.4. Дьяконова И А. Американский аудит в годы «великого кризиса» // Бизнес и банки. 1999. Ноябрь. №44.

2.5. Karimov N.F. Tijorat banklarida ichki audit: Monografiya. O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi.T.: Fan, 2006. 262 b.

2.6. Karimov N. Tijorat banklari ichki auditi faoliyatida muhimlik ko‘rsatkichi // Bozor, pul va kredit. T., 2006. № 6.

2.7. Karimov N. Tijorat banklarda ichki auditni tashkil qilish masalalari // Bozor, pul va kredit. 2010. 10-son.

2.8. Qurbonboev J., Ruziyev N. Tijorat banklarida auditni rivojlantirish// Bozor, pul va kredit. T., 2007. № 6.

2.9. Qurbonov.R.B Tijorat banklarida ichki auditni tashkil qilish masalalari risklarini baholashni takomillashtirish. “Moliya va bank tizimini modernizatsiyalash masalalari” Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. T., 2015 . 463 b.

2.10. Handbook of international quality control, auditing, review, other assurance and related services pronouncements 2016-2017 Edition Volume I page 1116 www.iaasb.org.

III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

Internet saytlari

- <http://www.cbu.uz> - (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki).
- <http://www.gov.uz> - (O‘zbekiston Respublikasi hukumati portali).
- <http://www.stat.uz> - (O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi).
- <http://www.lex.uz> - (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi).
- <http://www.iaasb.org>

TESTLAR

1. Audit soʻzining maʼnosi qanday?

- a) audit «eshitaman» degan maʼnoni bildiradi;
- b) audit – bu iqtisodiy tahlil yakunidir;
- d) audit – bu moliyaviy tahlil yakunidir;
- c) audit bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonaning barqarorligini bildiradigan foyda.

2. Tijorat banklarini audit qilishning huquqiy asoslari toʻliqroq keltirilgan variantni toping?

- a) “Markaziy bank toʻgʻrisida”gi, “Banklar va bank faoliyati toʻgʻrisida”gi, “Auditorlik faoliyati toʻgʻrisida”gi, “Buxgalteriya hisobi toʻgʻrisida”gi qonunlari, bank va auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi qonun va meʼyoriy hujjatlar;
- b) Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Markaziy bank toʻgʻrisidagi qonun, “Banklar va bank faoliyati toʻgʻrisida”gi qonun, “Auditorlik faoliyati toʻgʻrisida”gi qonun;
- d) Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Auditorlik faoliyati toʻgʻrisida”gi qonuni;
- e) Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Buxgalteriya toʻgʻrisida”gi qonuni.

3. Auditor tekshiruvlariga zarurat qachon paydo boʻladi?

- a) bozor iqtisodiyotiga oʻtish, mulkchilik shaklining oʻzgarishi bilan oʻz moliyaviy holati toʻgʻrisidagi ishonchli auditorlik xulosasiga zarurat tugʻilganda;
- b) mustaqillik tufayli xususiy tadbirkorlarning rivojlanishi va raqobatni oshirishda;
- d) xususiy banklarni rivojlantirish maqsadida bank risklarini shakllantirishda;
- e) 1999 -yil 2-oktyabr PF-2010 sonli Prezident farmoniga muvofiq.

4. “Auditor” kim?

- a) tashkilotlarda tekshiruv ishlarini olib boruvchi va kamchiliklarni bartaraf qiluvchi shaxs;

- b) auditor malaka sertifikatiga ega bo'lgan jismoniy shaxs;
- d) jismoniy shaxs;
- e) taftishchi.

5. Auditorlik tashkilotiga qaysi javobda to'g'ri ta'rif berilgan?

- a) auditorlik faoliyatini amalga oshirish litsenziyasiga ega bo'lgan yuridik shaxsdir;
- b) auditorlik faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxsdir;
- d) auditorlik faoliyatini amalga oshirish malaka sertifikatiga ega bo'lgan yuridik shaxsdir;
- e) auditorlik faoliyatini amalga oshirish patentiga ega bo'lgan yuridik shaxsdir.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank auditi tizimini rivojlantirish to'g'risida"gi Farmoni qachon qabul qilingan?

- a) 1996-yil 24-iyul;
- b) 1994-yil 20-iyul;
- d) 1992-yil 24-avgust;
- e) 1996-yil 20-iyul.

7. Bank auditini tashkil qilish metodlari qaysi javobda to'liq ko'rsatilgan?

- a) tanlab tekshirish, yoppasiga tekshirish, kombinatsiyalashgan, hujjatli;
- b) tashqi va ichki audit;
- d) savol- javob usuli;
- e) tanlanma usuli.

8. Auditorlik tekshiruvi o'tkazish uchun shartnoma tuzishdan oldin auditorlik tashkiloti tijorat bankiga ko'rsatishi lozim bo'lgan hujjat bu:

- a) Markaziy bank tomonidan berilgan sertifikat;
- b) Adliya vazirligining auditorlik ruxsatnomasi;

- d) audit o‘tkazish to‘g‘risidagi buyruq;
- e) hisobot.

9. Banklarda auditorlik tekshiruvlari

- a) har yili yillik hisobot bo‘yicha o‘tkaziladi;
- b) har 2 yilda bir marta o‘tkaziladi;
- d) har 3 yilda bir marta o‘tkaziladi;
- e) har 6 oyda bir marta o‘tkaziladi.

10. Audit guruhi va uning rahbari kim tomonidan tayinlanadi?

- a) ichki audit departamenti ustidan rahbarlik qiluvchi Markaziy bank raisining o‘rinbosari tomonidan;
- b) kuzatuv kengashi tomonidan;
- d) ta‘sischilar tomonidan;
- e) Moliya vazirligi tomonidan.

11. Bank auditini o‘tkazish huquqini beruvchi sertifikatni bekor qilinishi haqidagi qaror...

- a) Markaziy bank auditni o‘tkazish huquqi uchun sertifikat beruvchi va auditorlar malakasini attestatsiyadan o‘tkazish komissiyasi tomonidan qabul qilinadi;
- b) Markaziy bank boshqaruvi tomonidan qabul qilinadi;
- d) Tijorat bank auditini o‘tkazish huquqi uchun sertifikat beruvchi va auditorlar malakasini attestatsiyadan o‘tkazish komissiyasi tomonidan qabul qilinadi;
- e) Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilinadi.

12. Quyidagilardan qaysi birida har yili majburiy auditorlik tekshiruvini o‘tkazishi shart emas?

- a) mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar;
- b) aksionerlik jamiyatlari;
- d) banklar va boshqa kredit tashkilotlari;
- e) sug‘urta tashkilotlari.

13. Majburiy auditorlik tekshiruvining o‘tkazish muddati qanday?

- a) hisobot yilidan keyingi yilning 1-mayigacha;
- b) hisobot yilidan keyingi yilning 1-fevraligacha;

- d) hisobot yilidan keyingi yilning 1-apreligacha;
- e) hisobot yilidan keyingi yilning 1-martigacha.

14. Tekshiruvni amalga oshirish davriga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?

- a) dastlabki va kelishilgan;
- b) majburiy va ixtiyoriy;
- d) tashqi va ichki audit;
- e) dastlabki va birinchi.

15. Rivojlanish evolyutsiyasiga ko'ra auditning qanday turlari mavjud?

- a) ichki va tashqi audit;
- b) majburiy va ixtiyoriy;
- d) ichki va dastlabki audit;
- e) birinchi va dastlabki.

16. Maqsadli sistemali auditning asosiy mohiyati nimada namoyon bo'ladi?

- a) muomala (operatsiya)larini nazorat qilish sistemasini kuzatish imkoniyati yaratiladi;
- b) hisob registrlari va hujjatlar tekshiriladi;
- d) sistemani nazorat qiluvchi shaxslar tomonidan qabul qilingan boshqaruv qarorlariga baho beriladi;
- e) yuqoridagilarning barchasi.

17. Tavakkalchilikka asoslangan auditda asosiy e'tibor nimaga qaratiladi?

- a) sistemani nazorat qiluvchi shaxslar tomonidan qabul qilingan boshqaruv qarorlariga baho beriladi;
- b) hisob registrlari va hujjatlar tekshiriladi;
- d) muomala (operatsiya)larni nazorat qilish sistemasini kuzatish imkoniyati yaratiladi;
- e) yuqoridagilarning barchasi.

18. Quyida keltirilgan javoblardan qaysi biri audit rahbari huquqlariga kirmaydi

- a) audit qilinayotgan tashkilotdan ayrim shaxslarning xizmat vazifalarini bajarishdan chetlashtirish;

- b) audit qilinayotgan tashkilotdan ayrim shaxslarning xizmat vazifalariga tayinlash;
- d) tartibbuzarliklar aniqlangan hollarda bu hujjatlarni belgilangan tartibda olib qo'yish;
- e) tekshirilayotgan muassasalarning mas'ul xodimlaridan tushuntirish xati talab qilish.

19. Qonunga muvofiq auditorlik tashkiloti kapitalining qancha qismi bir yoki bir necha auditorlarga tegishli bo'lishi lozim?

- a) 51 % dan ko'p qismi;
- b) 25 % dan ko'p qismi;
- d) 50 % dan ko'p qismi;
- e) 67 % dan ko'p qismi.

20. Auditorlik tekshiruvni rejalashtirish qaysi jarayondan boshlanadi?

- a) tekshiriladigan tijorat bankining faoliyatini batafsil o'rganishdan;
- b) moddiylik darajasini aniqlashdan;
- d) tijorat bank hisob siyosatini o'rganishdan;
- e) tavakkalchilik darajasini aniqlashdan.

21. Banklarni audit qilish huquqi qanday auditorlik tashkilotlariga yuklatilgan?

- a) Markaziy bank tomonidan banklarda audit tekshiruvini o'tkazish huquqini beruvchi sertifikatga ega bo'lgan auditorlik tashkilotlari;
- b) Moliya vazirligidan berilgan auditorlik sertifikatiga ega bo'lgan auditorlik tashkilotlari;
- d) xalqaro auditorlik tashkilotlari;
- e) milliy auditorlik tashkilotlari.

22. Kassa 15-yanvarda audit qilinayotgan bo'lsa inkasso qilingan tushum qanchalik to'liq ko'rsatilgani qaysi kundagi buxgalteriya hisobotiga qarab tekshiriladi?

- a) 16-yanvardagi buxgalteriya hisobotiga qarab tekshiriladi;
- b) 15-yanvardagi inkasso qilingan tushum 14-yanvardagi buxgalteriya hisobotiga qarab tekshiriladi;

d) oy oxiridagi buxgalteriya hisobotiga qarab tekshiriladi;

e) 14-yanvardagi buxgalteriya hisobotiga qarab tekshiriladi.

23. Bakning qaysi bo'limi ishlarini tekshirishda odatda tanlanma usulidan foydalaniladi?

a) kassa bo'limi operatsiyalari;

b) kredit bo'limi operatsiyalari;

d) valyuta bo'limi;

e) buxgalteriya bo'limi operatsiyalari.

24. Quyidagilardan qaysi biri auditorlik tavakkalchiligi tarkibiga kiradi?

a) moliyaviy hisobotdagi xatolar va buzilishlarni topmaslik tavakkalchiligi;

b) bilib bilmaslik tavakkalchiligi;

d) ajratib bo'lmaydigan tavakkalchilik;

e) nazorat tavakkalchiligi.

25. "Ko'zda tutilmagan holatlar" hisobvarag'i bo'yicha kirim-chiqim operatsiyalari asosiligi qaysi hujjat asosida tekshiriladi?

a) balansdan tashqari orderlar, ishonchnomalar, pochta kvitansiyalari;

b) balans hisobvarag'i va boyliklar ro'yxati bo'yicha;

d) balansdan tashqari orderlar, kvitansiyalar;

e) balans hisobvarag'i bo'yicha.

26. Kassa va kassa operatsiyalarini audit qilishda kimlar ishtirok etishi kerak?

a) bank boshqaruvchisi, bosh buxgalter va kassa bo'limi mudiri;

b) kassa bo'limi mudiri va bosh buxgalter;

d) kassa bo'limi mudiri va auditor;

e) kassa bo'limi mudiri.

27. Tijorat banklari qaysi soliqlarni to'lamaydi?

a) aksiz solig'i;

- b) daromad solig'i;
- d) mol-mulk solig'i;
- e) yer solig'i.

28. Bank kredit operatsiyalarini tekshirganda auditor nimalarga e'tibor beradi?

- a) kredit siyosatiga, kredit portfeliga, kredit hujjatlar yig'majildiga;
- b) bank jalb qilgan kreditlarga;
- d) bank resurslariga;
- e) bank kapitaliga.

29. Bank olgan kreditlarni tekshirganda auditor nimalarga e'tibor beradi?

- a) olingan kreditlar bo'yicha shartnoma shartlari bajarilishini;
- b) bank tomonidan berilayotgan kredit;
- d) qaytmayotgan kreditlar;
- e) boshqa banklarga berilgan kreditlar.

30. Muammoli kreditlarni audit qilish qaysi javobda to'liq berilgan?

- a) substandart, qoniqarsiz, shubhali va umidsiz kreditlarni tekshirish;
- b) bank aktivlarini tekshirish;
- d) qaytmagan kreditlarni tekshirib, ularni oldini olish;
- e) kredit paketini rasmiylashtirishni tekshirish.

31. To'lov topshiriqnomasi bo'yicha operatsiyalar necha kungacha haqiqiy hisoblanadi?

- a) o'sha kunning o'zida;
- b) 3 kungacha;
- d) 10 kungacha;
- e) 5 kungacha.

32. Tijorat banklarida audit tekshiruvlari o'tkazish uchun ishlab chiqilgan texnik vazifalar MB boshqaruvida qachon tasdiqlangan?

- a) 1997-yil 10-mayda;
- b) 1997-yil 15-dekabrda;
- d) 1998-yil 12-avgustda;
- e) 1998-yil 10-may.

33. Quyida keltirilgan javoblardan qaysi biri audit rahbari huquqlariga kirmaydi?

- a) audit qilinayotgan tashkilotdan ayrim shaxslarning xizmat vazifalarini bajarishdan chetlashtirish;
- b) tekshirilayotgan muassasalarning mas'ul xodimlaridan tushuntirish xati talab qilish;
- d) ish sohalarini audit qilish to'g'risida qaror qabul qilish;
- e) tartibbuzarliklar aniqlangan hollarda bu hujjatlarni belgilangan tartibda olib qo'yish.

34. Banklarda ichki audit xizmati bevosita kimga bo'ysunadi?

- a) bank boshqaruvchisiga;
- b) aksionerlar umumiy yig'ilishiga;
- d) bank Kengashi yoki uning auditorlik qo'mitasiga;
- e) Markaziy bankka.

35. Tashqi bank audit o'tkazishning aniq muddatlari ko'rsatilgan ish rejalari kim tomonidan tasdiqlanadi?

- a) belgilangan tartibda Markaziy bank boshqaruvi majlisida tasdiqlanadi;
- b) Markaziy bankning viloyatdagi hududiy bo'limlari boshqaruvchilari tomonidan;
- d) Adliya vazirligi tomonidan;
- e) Moliya vazirligi tomonidan.

37. Bank xarajatlarini auditdan o'tkazishda ular qanday turlarga ajratiladi?

- a) foizli, foizsiz va operatsion xarajatlarga ajratiladi;
- b) foizli va foizsiz xarajatlarga ajratiladi;
- d) foizsiz va operatsion xarajatlarga ajratiladi;
- e) foizli va operatsion xarajatlarga ajratiladi.

38. "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonun nechta modddan iborat?

- a) 29;
- b) 35;
- d) 20;
- e) 21.

39. Bank Kengashida ichki audit xizmati rahbarining hisobotini inglashi amaliyotga qachon qabul qilindi?

- a) 1998-yil 2-oktyabr PF-2084 sonli Prezident Farmoniga muvofiq;
- b) 1998-yil 10-dekabr PF-2084 sonli Prezident Farmoniga muvofiq;
- d) 1998-yil 10-dekabr PF-2014 sonli Prezident Farmoniga muvofiq;
- e) 1999-yil 2-oktyabr PF-2010 sonli Prezident Farmoniga muvofiq.

40. O'zbekiston Respublikasi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonun qachon qabul qilingan?

- a) 2000 y. 26-may;
- b) 1992 y. 9-dekabr;
- d) 2000 y. 10-dekabr;
- e) 2002 y. 10-dekabr.

41. Auditorlik dasturini ishlab chiqish va bajarish uchun kim javobgar?

- a) bosh auditor;
- b) auditorlik qo'mitasi;
- d) bank raisi;
- e) bank Kengashi.

42. Auditorlik faoliyati deganda nimani tushunasiz?

- a) auditorlik faoliyati – auditorlik tashkilotlarining auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish va professional xizmatlar ko'rsatish borasidagi tadbirkorlik faoliyati;
- b) auditorlik faoliyati – bankda reviziya o'tkazib uning balansiga tegishli xulosa berishdir;
- d) auditorlik faoliyati – bankda buxgalteriya hisobi yuritilishini tekshirish va unga moliyaviy xulosa berishdir;
- e) auditorlik faoliyati – bankni buyurtmasiga ko'ra uni xo'jalik faoliyatini o'rganib unga yuridik xulosa berishdir.

43. Auditorlik tekshiruvi rejasini ishlab chiqish uchun kim javobgar?

- a) bosh auditor;

- b) auditorlik qo‘mitasi;
- d) bank raisi;
- e) bank Kengashi.

44. Auditor – bu:

- a) auditor malaka sertifikatiga ega bo‘lgan jismoniy shaxsdir;
- b) o‘ta malakali revizordir;
- d) tajribali iqtisodchidir;
- e) Markaziy bankning ishonchli vakilidir.

45. Bir auditorlik tashkiloti tomonidan bank faoliyati ketma-ket necha marta audit qilinishi mumkin?

- a) 3 marta;
- b) 1 marta;
- d) 2 marta;
- e) 4 marta.

46. “Tijorat banklarining ichki auditiga Markaziy bank tomonidan qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi 992-3 sonli NIZOM (Yangi tahriri) qachon qabul qilingan?

- a) 20. 04. 2004 y;
- b) 27.04.2011 y;
- d) 20. 03. 2005 y;
- e) 20. 04. 2006 y.

47. Auditorlik tekshiruvi shakllari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- a) majburiy va tashabbus;
- b) ixtiyoriy va rejali;
- d) erkin va tizimli;
- e) tanlash va guruhli.

48. Auditorlik dalillari deganda nimani tushinasiz?

- a) auditorlik tashkiloti tomonidan auditorlik tekshiruvi vaqtida yig‘ilgan va auditorlik xulosasini asoslovchi ma’lumot (axborot) lardir;
- b) auditorlik tashkilotiga bildirilgan e’tiroz;
- d) auditorlik tashkilotini aniqlamagan faktlari;
- e) sud jarayonida aniqlangan dalillar.

49. Audit xizmati xodimlarining javobgarligiga qaysi holat kirmaydi?

- a) audit natijalarini prokuraturaga taqdim qilish;
- b) tekshirish natijalarini to'g'ri ko'rsatish;
- d) qonun hujjatlariga muvofiq bank sirini tashkil etuvchi har qanday ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashlik;
- e) bankning tegishli bo'limlaridan olingan hujjatlar butunligini ta'minlamaslik va qaytarmaslik.

50. Audit xizmati xodimlari (auditorlar) qaysi quyidagi talabga javob berishi shart emas:

- a) majburiy harbiy xizmatda bo'lgan bo'lishi;
- b) bankning pul muomalasi, kredit, valyuta, depozit operatsiyalari yoki buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limlarida kamida bir -yil ish stajiga ega bo'lishlari kerak;
- d) bank qonunchiligi sohasida bilimlarga ega bo'lishlari, shu jumladan Markaziy bankning me'yoriy hujjatlarini bilishlari;
- e) respublikada belgilangan buxgalteriya hisobi hamda umumqabul qilingan buxgalteriya hisobi va audit xalqaro standartlari qoidalarini qo'llash bo'yicha bilimlarga ega bo'lishlari, shuningdek, xalqaro standartlardagi o'zgarishlarga muvofiq maxsus kurslarda muntazam o'qishni o'tkazishlari.

51. Kredit operatsiyalari auditining maqsadi?

- a) bank kreditlash faoliyatini va ichki nazorat tizimini ishonchligini to'g'ri va xolis baholash;
- b) muammoli kreditlar bilan ishlashni tekshirish;
- d) kreditlar bo'yicha daromadlarni tekshirish;
- e) kredit foizlarni tekshirish.

52. Kredit operatsiyalari auditining vazifalari

- a) kredit operatsiyalari bo'limi va kredit qo'mitasi faoliyatini tekshirish kredit papkalari va kredit portfelini tekshirish va kredit faoliyati tekshiruvlari bo'yicha auditorlik xulosalarini shakllantirish;
- b) daromadlarni umumiy tahlilini amalga oshirish;

- d) kredit foizlarini hisoblash va ular bo'yicha qaydnomalarni tekshirish;
- e) kredit monitoringini tekshirish.

53. Kredit operatsiyalari auditi uchun zarur axborot manbalarini ko'rsating

- a) bank balansi va kredit portfeli;
- b) kredit papkalari va ssuda hisobvaraqlari;
- d) kredit foizlarini hisoblash va ular bo'yicha qaydnomalar;
- e) kredit papkalari.

54 Kredit portfeli bo'yicha quyidagilar audit qilinadi:

- a) kredit olish uchun berilgan buyurtmalarning maxsus kitobda ro'yxatdan o'tkazilishi;
- b) kredit turlari bo'yicha analitik hisoblarning yuritilish tartibi, arxivga topshirilishi;
- d) muddati o'tgan kreditlarning o'z vaqtida buxgalteriya hisobvaraqlarida aks ettirilishi tartibi;
- e) muddati o'tgan kreditlarni tekshirish.

55. Kredit operatsiyalarini auditida qanday metodlardan foydalaniladi?

- a) tanlanma metod;
- b) analitik va sinchiklab o'rganish, so'rovnoma va og'zaki ma'lumot yig'ish;
- d) so'rovnoma;
- e) so'rovnoma, anketa.

56. Tijorat banklarining kredit portfelini auditdan o'tkazish borasidagi muammolarni to'g'risini belgilang

- a) ichki audit xizmatini tashkil etishdagi muammolar;
- b) tijorat banklari kredit faoliyatini auditdan o'tkazishdagi muammolar;
- d) tijorat banklarida kredit paketini to'g'ri rasmiylashtirilganligini;
- e) bank faoliyatini tekshirishdagi muammolar.

57. Ssuda boyish hisoblangan foizlar tekshirilganda qaysi bo'limlar tekshiriladi?

- a) buxgalteriya, kredit, kassa;

- b) kassa;
- d) buxgalteriya;
- e) barcha bo'limlar.

58. Valyuta hisob operatsiyalari bo'yicha auditda quyidagilar tekshiriladi

- a) valyuta hisobvarag'ining to'g'ri ochilganligi, operatsiyalarning o'z vaqtida to'liq rasmiylashtirilganligi, eksport va import operatsiyalari bo'yicha hisoblarning to'g'ri olib borilishi;
- b) valyuta hisobvarag'ining to'g'ri ochilganligi, operatsiyalarning o'z vaqtida to'liq rasmiylashtirilganligi;
- d) pul o'tkazmalari o'tkazish tartibiga rioya qilinishi;
- e) eksport va import operatsiyalari bo'yicha hisoblarning to'g'ri olib borilishi.

61. Naqd chet el valyutasida amalga oshirilgan operatsiyalar tekshirilganda quyidagilarga e'tibor qaratiladi

- a) valyuta saqlanishi qoidalariga rioya etilishi. Valyutaviy imtiyozga amal qilinishi va daromad va xarajatlarning hisobini to'g'ri olib borilishi;
- b) muddatli valyuta bitimlariga;
- d) valyuta bo'yicha daromadlariga;
- e) muddatli valyuta bitimlariga.

62. Bank kunlik buxgalteriya balansi nechta bo'limdan tashkil topadi?

- a) 6;
- b) 3;
- d) 4;
- e) 5.

63. Mijozlarning depozitlari bo'yicha foizlar to'lab berilganda qaysi buxgalteriya o'tkazmalari bo'yicha tekshiriladi?

- a) DT 22400-"To'lanishi lozim bo'lgan hisoblangan foizlar" (Tegishli hisobvarag'i), KT 10101-"Amaliyot kassasidagi naqd pullar" yoki mijoz hisobvarag'i yoki vakillik hisobvarag'i;

- b) DT: 29822-To‘lanishi lozim bo‘lgan dividendlar, KT: 30315-Chiqarilgan aksiyadorlik kapital-Imtiyozli (yoki 30318-Oddiy);
- d) DT 31203-«Taqsimlanmagan foyda (aktiv-passiv)» (yillik dividendlarni hisoblashda) yoki 31206-«yillik sof foyda (zararlar) (aktiv-passiv)» (oraliq dividendlarni hisoblashda), KT 29822 - «To‘lanishi lozim bo‘lgan dividendlar»;
- e) D-t 29822 -«To‘lanishi lozim bo‘lgan dividendlar», K-t 10101-«Aylanma kassadagi naqd pullar» yoki mijozning asosiy depozit hisobvarag‘i.

64. Qayta sanash vaqtida kassada mijoz naqd pullaridan ortiqcha mablag‘ aniqlanganda qanday buxgalteriya o‘tkazmasi amalga oshiriladi?

- a) DT 29816-“Ortiqcha naqd pullar”, KT Mijoz hisobvarag‘i;
- b) DT 10101-«Inkasso qilingan pul tushumlari va cheklar» yoki (10101-«Aylanma kassadagi naqd pullar»), KT 29816-“Ortiqcha naqd pullar”;
- d) DT 22400- “To‘lanishi lozim bo‘lgan hisoblangan foizlar” (Tegishli hisobvarag‘i),KT 10101-“Amaliyot kassasidagi naqd pullar” yoki mijoz hisobvarag‘i yoki vakillik hisobvarag‘i;
- e) DT 29816-“Ortiqcha naqd pullar”, KT 29804-“Boshqa bank mijozlarining inkasso qilingan pul tushumlari va cheklari” h/r.

65. Banklarda majburiy auditorlik tekshiruvlari...

- a) har yili yillik hisobot bo‘yicha o‘tkaziladi;
- b) har 2 yilda bir marta o‘tkaziladi;
- d) har besh yilda o‘tkaziladi;
- e) har 6 oyda bir marta o‘tkaziladi.

66. Qaysi muddat ichida auditor tekshiruvidan o‘tgan yillik bank balansi, foyda va zarar to‘g‘risidagi hisoboti matbuotda chop etilishi darkor?

- a) joriy yilni 6 oyi ichida;
- b) 10 kundan keyin;
- d) 30 kundan keyin;
- e) 60 kundan keyin.

67. Bank auditini o'tkazish huquqini beruvchi sertifikatni kim bekor qilishi mumkin?

- a) Markaziy bank auditini o'tkazish huquqi uchun sertifikat beruvchi va auditorlar malakasini attestatsiyadan o'tkazish komissiyasi tomonidan qabul qilinadi;
- b) Markaziy bank boshqaruvi tomonidan qabul qilinadi;
- d) Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilinadi;
- e) Moliya vazirligi tomonidan qabul qilinadi.

68. Bank passiv operatsiyalari auditini tashkil qilish qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) bank majburiyatlarini audit rejasiga muvofiq holda amalga oshiriladi;
- b) yoppasiga tekshiriladi;
- d) ichki audit tanlab tekshiradi;
- e) buxgalteriya bo'limi yoppasiga tekshiriladi.

69. Auditorlik xulosasi necha qismdan iborat?

- a) 3;
- b) 4;
- d) 5;
- e) 6.

70. Auditordan beriladigan xulosalar turlari nechta?

- a) 3;
- b) 4;
- d) 5;
- e) 6.

71. Tijorat banklari uchun o'rnatilgan joriy likvidlik koeffitsiyenti qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) 30%;
- b) 35%;
- d) 15%;
- e) 20%.

72. Tijorat banklarida kassa va pul muomalasi ishlari qaysi yo'riqnomaga asosan yuritiladi?

- a) №3028 yo'riqnomaga;

- b) № 1834 yo'riqnoma;
- d) № 2465 yo'riqnoma;
- e) № 1122 yo'riqnoma.

73. Banklarda o'tkaziladigan ichki auditning mohiyati qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) bank filiallari faoliyatini tekshirish, bank faoliyatida risklarni kamaytirish va daromadni oshirish;
- b) bank faoliyatida risklarni kamaytirish va daromadni oshirish;
- d) bank bo'limlari faoliyatini tekshirish;
- e) risklarni kamaytirish.

74. Qaysi operatsiyalarning hujjatlari amaliyotida odatda tanlama yo'l bilan tekshiriladi?

- a) kassa;
- b) ssuda;
- d) kredit;
- e) valyuta.

75. Banklarda ichki audit tekshiruvlari bir yilda necha marta tashkil qilinadi?

- a) har yili kamida bir marta o'tkaziladi;
- b) har 2 yilda bir marta o'tkaziladi;
- d) har besh yilda o'tkaziladi;
- e) har 6 oyda bir marta o'tkaziladi.

76. Kredit operatsiyalari auditida quyidagi bo'limlar tekshiriladi

- a) kredit, buxgalteriya, kassa;
- b) kredit, valyuta;
- d) kredit;
- e) pul muomalalari.

77. Muammoli kreditlarni audit qilishning mazmuni qaysi javobda berilgan?

- a) muddatida qaytmagan kreditlarni tekshirib, ularni oldini olish;
- b) bank passivlarini tekshirish;
- d) bank aktivlarini tekshirish;
- e) standart kreditlarni.

78. Quyida keltirilgan javoblardan qaysi biri audit rahbari huquqlariga kirmaydi?

- a) audit qilinayotgan tashkilotdan ayrim shaxslarning xizmat vazifalarini bajarishdan chetlashtirish;
- b) ish sohalarini audit etish to'g'risida qaror qabul qilish;
- d) tekshirilayotgan muassasalarning mas'ul xodimlaridan tushuntirish xati talab qilish;
- e) tartibbuzarliklar aniqlangan hollarda bu hujjatlarni belgilangan tartibda olib qo'yish.

79. Audit o'tkazishni aniq muddatlari ko'rsatilgan ish rejalari kim tomonidan tasdiqlanadi?

- a) belgilangan tartibda Markaziy bank Boshqaruvi majlisida tasdiqlanadi;
- b) Markaziy bankning viloyatdagi hududiy bo'limlari boshqaruvchilari tomonidan;
- d) Adliya vazirligi tomonidan;
- e) Moliya vazirligi tomonidan.

80. Audit xulosasini berish tartibi qanday?

- a) ikki nusxada tuziladi, ikkita nusxasi buyurtmachiga beriladi;
- b) ikki nusxada, bir nusxasi Moliya vazirligiga beriladi;
- d) ikki nusxada, bir nusxasi Adliya vazirligiga beriladi;
- e) bir nusxada tuziladi va MB taqdim etiladi.

81. Auditorlik tekshiruvi o'tkazish uchun shartnoma tuzishdan oldin auditorlik tashkiloti tijorat bankiga nimani ko'rsatishi shart?

- a) Markaziy bank tomonidan berilgan sertifikat;
- b) audit o'tkazish to'g'risidagi buyruq;
- d) Adliya vazirligining auditorlik ruxsatnomasi;
- e) Moliya vazirligi tomonidan berilgan sertifikat.

82. Bank xarajatlari auditida ular qanday turlarga ajratiladi?

- a) foizli, foizsiz va operatsion xarajatlarga ajratiladi;
- b) foizli va foizsiz xarajatlarga ajratiladi;
- d) foizsiz va operatsion xarajatlarga ajratiladi;
- e) foizli va operatsion xarajatlarga ajratiladi.

83. Tijorat banklarida qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarning hisobini yuritish qaysi me'yoriy hujjatlarga asosan o'tkaziladi?

- a) "Tijorat banklarida qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarning buxgalteriya hisobi to'g'risida" yo'riqnoma 2008-yil 13-dekabr;
- b) "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonun.2007-yil 17-dekabr;
- d) "Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi" qonun.1996-yil 30-avgust;
- e) "Buxgalteriya hisoboti to'g'risidagi" qonun.1996-yil 30-avgust.

84. Masofadan turib bank nazoratining afzallik tomonini ko'rsating?

- a) kam xarajatliligi;
- b) aniqlilik yuqoriligi;
- d) tezkorligi;
- e) xavfsizligi.

85. Qanday hollarda auditorlik tashkilotlari va auditorlarning bank faoliyati tekshiruvi to'g'risidagi hisoboti haqiqiy hisoblanadi?

- a) auditorlik tashkiloti yoki auditor bank bilan aloqador shaxs bo'lsa, auditorlik tashkiloti yoki auditorning bankdan pul qarzi bo'lsa, auditorlik hisoboti auditor yoki auditorlik tashkilotining hisobotini shu auditorlik tekshiruvini o'tkazgan hamda bank faoliyatini auditorlik tekshiruidan o'tkazish uchun sertifikatini bor auditor imzolamagan bo'lsa;
- b) auditorlik hisoboti auditor yoki auditorlik tashkilotining hisobotini shu auditorlik tekshiruvini o'tkazgan hamda bank faoliyatini auditorlik tekshiruidan o'tkazish uchun sertifikatini bor auditor imzolamagan bo'lsa;
- d) auditorlik tashkiloti yoki auditor bank bilan aloqador shaxs bo'lsa;
- e) auditorlik tashkiloti yoki auditorning bankdan pul qarzi bo'lsa.

86. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining 405-sonli "tijorat banklarining ichki auditiga qo'yiladigan talablari to'g'risida"gi nizom qachon qabul qilindi?

- a) 2000-yil 25-noyabr;
- b) 1998-yil 10-iyul;

- d) 1999-yil 10-may;
- e) 1999-yil 6-dekabr.

87. Bank Kengashida ichki audit xizmati rahbarining hisoboti qanday muddatlarda tinglanadi?

- a) auditorlik tashkiloti yoki auditor bank bilan aloqador shaxs bo'lsa, auditorlik tashkiloti yoki auditorning bankdan pul qarzi bo'lsa, auditorlik sertifikatini bor auditor imzolamagan bo'lsa;
- b) auditorlik tashkiloti yoki auditor bank bilan aloqador shaxs bo'lsa;
- d) auditorlik tashkiloti yoki auditorning bankdan pul qarzi bo'lsa;
- e) auditorlik hisoboti auditor yoki auditorlik tashkilotining hisobotini shu auditorlik tekshiruvini o'tkazgan hamda bank faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish uchun sertifikatini bor auditor imzolamagan bo'lsa.

88. Auditorlik tashkilotlari va auditorlar qanday hollarda bankda audit o'tkazish huquqiga ega emaslar?

- a) auditorlik tashkilotlari va auditorlardan o'zlari bank faoliyati, buxgalteriya hisobotlarini rasmiylashtirish, shuningdek, ichki auditini tashkil etish va amalga oshirish yuzasidan konsalting xizmatlar ko'rsatsalar;
- b) auditorlik tashkiloti rahbari bank rahbari bilan aloqador bo'lganda;
- d) auditorlik tashkiloti va bank binosi bir-biriga aniq joylashgan bo'lsa;
- e) auditorlik tashkiloti va bank binosi bir-biriga aniq joylashgan bo'lmasa.

89. Bankda to'lov talabnomalari bilan hisob-kitoblar qanday tekshiriladi?

- a) "O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida"gi nizom;
- b) "O'zbekiston Respublikasida naqd pullik hisob-kitoblar to'g'risida"gi nizom;
- d) "O'zbekiston Respublikasida to'lovlar to'g'risida"gi nizom;
- e) O'zbekiston Respublikasida to'lov intizomi to'g'risida"gi nizom.

90. Yalpi audit o'tkazish muddati odatda necha kundan oshmasligi kerak?

- a) 30 kun;
- b) 5 kun;
- d) 45 kun;
- e) 60 kun.

91. Bank auditi turlarini ko'rsating

- a) tashqi va ichki audit;
- b) tashqi, ichki va xalqaro audit;
- d) faqat ichki audit mavjud;
- e) bank va tashkilotlar auditi.

92. Audit o'tkazishning aniq muddatlari ko'rsatilgan ish rejalari kim tomonidan tasdiqlanadi?

- a) belgilangan tartibda Markaziy bank Boshqaruvi majlisida tasdiqlanadi;
- b) Markaziy bankning viloyatdagi hududiy bo'limlari boshqaruvchilari tomonidan;
- d) Adliya vazirligi tomonidan;
- e) Moliya vazirligi tomonidan.

93. Audit guruhi va uning rahbari kim tomonidan tayinlanadi?

- a) ichki audit departamenti ustidan rahbarlik qiluvchi Markaziy bank raisining o'rinbosari tomonidan;
- b) kuzatuv Kengashi tomonidan;
- d) ta'rischilar tomonidan;
- e) Moliya vazirligi tomonidan.

94. Auditorlik tekshiruvi o'tkazish uchun

- a) Markaziy bank tomonidan berilgan;
- b) Adliya vazirligining;
- d) audit o'tkazish to'g'risidagi;
- e) hisobot.

95. Shartnoma tuzishdan oldin auditorlik tashkiloti tijorat bankiga nimani ko'rsatishi shart?

- a) sertifikat;

- b) auditorlik ruxsatnomasi;
- d) buyruq;
- e) xabar.

96. Markaziy bank bank auditi o'tkazilayotganda ishtirok etadimi?

- a) xa, ishtirok etadi, me'yoriy hujjatlarga , tartib va metodologiyaga rioya etilishini nazorat qiladi;
- b) yo'q, ishtirok etmaydi;
- d) ha, ishtirok etadi ba'zi hollarda;
- e) ha, auditorlar Mbga o'tkazilgan auditorlik tekshiruvdan hisobotni taqdim etadilar.

97. Qachon auditorlik tashkilotlari va auditorlarning bank faoliyati tekshiruvi to'g'risidagi hisoboti haqiqiy hisoblanmaydi? noto'g'ri javobni toping)

- a) auditor yordamchilariga topshirganda yoki boshqa auditorlar tayyorlagan materiallardan foydalanganda;
- b) auditorlik tashkiloti va auditor banki bilan aloqador shaxs bo'lsa;
- d) auditorlik tashkiloti yoki auditorning bankdan pul qarzi bo'lsa;
- e) auditorlik hisoboti auditor yoki auditorlik tashkilotining hisobotini shu auditorlik tekshiruvini o'tkazgan hamda bank faoliyatini auditorlik tekshiruvdan o'tkazish huquqi uchun sertifikatini bor auditor imzolanmagan.

98. Bank kengashi tijorat banki auditorlik hisobotini olgan vaqtdan boshlab qancha muddatda Markaziy bankka hisobot berilishi lozim?

- a) 30 kun;
- b) 60 kun;
- d) 45 kun;
- e) 10 kun.

99. Auditorlik tekshiruvlari yakunlangandan so'ng necha kun muddat ichida auditorlik hisobotini Markaziy bankka taqdim etish tijorat banklarining majburiyatiga kiradi?

- a) 10 kun;
- b) 30 kun;

d) 60 kun;

e) 15 kun.

100. Markaziy bank tomonidan auditorlarga sertifikat berish, auditorlarni malaka attestatsiyasidan o'tkazish komissiyasi a'zolari necha kishidan iborat bo'ladi?

a) 7 kishi;

b) 3 kishi;

d) 5 kishi;

e) 10 kishi.

101. Komissiya ko'rib chiqishi uchun tayyorlangan hujjatlar majlisga kamida necha kun qolganda komissiya raisiga topshirilishi kerak?

a) 3 kun;

b) 2 kun;

d) 5 kun;

e) 7 kun.

102. Bank auditi huquqini o'tkazish uchun malaka sertifikati auditorga qanday muddatga beriladi?

a) 3 yil;

b) 1 yil;

d) 5 yil;

e) 2 yil.

103. Markaziy bankning bank auditi o'tkazish huquqi uchun sertifikat bermaslik yoki uni bekor qilish to'g'risidagi qarorlari xususida qayerga shikoyat qilishlari mumkin?

a) O'zbekiston Respublikasi sudlariga;

b) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga;

d) Markaziy bank raisiga;

e) Moliya vazirligi.

104. Bank auditi o'tkazish huquqini beruvchi sertifikat Markaziy bank tomonidan tarkibida bank auditi o'tkazish huquqini beruvchi malaka sertifikatiga ega qancha auditor bo'lgan auditorlik tashkilotiga beriladi?

a) 2 ta;

- b) 1 ta;
- d) 3 ta;
- e) bermaydi.

105. Banklarda jamlanma (sintetik) hisob dastlab qanday audit qilinadi?

- a) Bosh kitoblardan;
- b) yordamchi kitoblardan;
- d) shaxsiy hisobvaraqlardan;
- e) kartochkalardan.

106. Balans hisoboti qaysi qismlari audit qilinadi:

- a) majburiyatlar, aktivlar, kapital;
- b) aktiv va passivlar;
- d) passivlar;
- e) majburiyatlar.

107. O‘zbekiston Respublikasining «Markaziy bankning tijorat banklarining ichki auditi qo‘yadigan talablari to‘g‘risi» dagi nizom «O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida»gi Qonunning qaysi moddasiga asoslanib ishlab chiqilgan?

- a) 51 modda;
- b) 38 modda;
- d) 43 modda;
- e) 49 modda.

108. Markaziy bankning tijorat banklarini ichki auditiga qo‘yadigan talablari to‘g‘risidagi Nizomga ko‘ra respublika banki hamda uning bo‘lim va tashkiliy bo‘linmalarida auditorlik tekshiruvini kim yuritadi?

- a) ichki audit xizmati;
- b) tashqi audit xizmati;
- d) auditorlik qo‘mitasi;
- e) bank Kengashi.

109. Ichki audit xizmati bankning bevosita qaysi bo‘g‘iniga bo‘ysunadi?

- a) bank Kengashi va auditorlik Qo‘mitasi;
- b) bank Kengashi;

d) auditorlik Qo‘mitasi;

e) Markaziy bankka.

110. Audit xizmati xodimlarining javobgarligiga qaysi holat kirmaydi?

a) Audit natijalarini prokuraturaga taqdim qilish;

b) Tekshirish natijalarini buzib ko‘rsatish;

d) qonun hujjatlariga muvofiq bank sirini tashkil etuvchi har qanday ma‘lumotlarning maxfiyligini ta‘minlashlik;

e) bankning tegishli bo‘limlaridan olingan hujjatlar butunligini ta‘minlamaslik va qaytarmaslik.

111. Dastlabki nazorat qachon amalga oshiriladi?

a) operatsiya boshlanishidan avval;

b) litsenziya berishdan avval;

d) hafta boshida amalga oshiriladi;

e) oy boshida amalga oshiriladi.

112. Bosh bankda filiallararo hisob-kitoblarda qaysi buxgalteriya yozuvlari orqali tekshiriladi?

a) Debet 22204 “A filial” Kredit 22204 “V filial”;

b) Debet 20210 Kredit 20208;

d) Debet 20210 Kredit 16103;

e) Debet 16103 Kredit 20208.

113. Bank tomonidan xarid qilingan qimmatli qog‘ozlar quyidagi buxgalteriya yozuvi orqali tekshiriladi:

a) Debet 10700 Kredit 10101, 10301 yoki 20200;

b) Debet 20208 Kredit 23602;

d) Debet 54200 Kredit 22414;

e) Debet 22414 Kredit 54200.

114. Xususiy korxonada tomonidan olingan kredit bo‘yicha asosiy qarz summasining qaytarishi bo‘yicha quyidagicha buxgalteriya provodkasi orqali tekshiriladi

a) Debet 20208 Kredit 13101;

b) Debet 20210 Kredit 12701;

d) Debet 13105 Kredit 13101;

e) Debet 16309 Kredit 42601.

115. Berilgan kreditlar ssuda hisobvarag'ining qaysi qismida aks ettiriladi?

- a) debetida;
- b) kreditida;
- d) bir vaqtning o'zida ham debetida ham kreditida;
- e) majburiyatlar qismida.

116. Quyidagi hisobvaraqlardan qaysi biri jismoniy shaxslarga berilgan muddati o'tgan kreditlarni hisobga oluvchi hisobvaraqa ekanligini aniqlang?

- a) 12505;
- b) 12501;
- d) 12509;
- e) 12599.

117. Kassa kirim operatsiyalarini rasmiylashtirishda qanday hujjatlar orqali tekshiriladi?

- a) e'lonnoma, kassa kirim orderi;
- b) e'lonnoma, akkreditiv;
- d) kassa kirim jurnali, chek;
- e) kassa kirim jurnali, to'lov topshiriqnomasi.

118. Jismoniy shaxslarning pul mablag'lari naqd shaklda muddatli depozitga qabul qilinganda qaysi buxgalteriya o'tkazmasi beriladi?

- a) Debet 10101 Kredit 20606;
- b) Debet 20206 Kredit 20606;
- d) Debet 20206 Kredit 10101;
- e) Debet 22406 Kredit 10101.

119. Tijorat banklarida ichki auditni tashkil etish...

- a) O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklari ichki auditiga qo'yiladigan talablariga javob berishi shart;
- b) O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risidagi qonunga javob berishi shart;
- d) «Bank va bank faoliyati to'g'risida»gi qonun talablariga javob berishi lozim;

e) «Markaziy bank to'g'risida»gi qonun talablariga javob berishi lozim.

120. Banklar yillik hisobotni auditorlik xulosasi bilan birga Markaziy bankka topshirgach quyidagi talabni ham amalga oshirishlari lozim.

a) kamida 2 ta matbuotda o'z moliyaviy natijalarini e'lon qilishlari lozim;

b) hisobot natijalarini soliq idoralariga topshirishlari lozim;

d) moliyaviy hisobotlarni e'lon qilib borishlari shart;

e) har 6 oyda bir marta matbuotda moliyaviy natijalarini berib borishlari lozim.

121. Auditorlik tekshiruvlari yakunlangandan so'ng qancha muddat ichida auditorlik hisoboti Markaziy bankka taqdim etiladi?

a) 30 kun;

b) 5 kun;

d) 10 kun;

e) 15 kun.

122. Quyidagi hollarda bank auditini o'tkazish huquqini beruvchi sertifikatni bekor qilinishi haqidagi qaror qabul qilinadi

a) Markaziy bank auditini o'tkazish huquqi uchun sertifikat beruvchi va auditorlar malakasini attestatsiyadan o'tkazish komissiyasi tomonidan qabul qilinadi;

b) Markaziy bank boshqaruvi tomonidan qabul qilinadi;

d) Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilinadi;

e) Moliya vazirligi tomonidan qabul qilinadi.

123. Bank audit tekshiruvini o'tkazish vakolatiga ega bo'lgan auditorlik firmasi yoki jismoniy shaxs qaysi davlat organidan litsenziya oladi?

a) Markaziy bankdan;

b) Buxgalterlar uyushmasidan;

d) Moliya vazirligidan;

e) Adliya vazirligidan.

124. Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashning yillik me'yorlari qaysi hujjatda to'liq ko'rsatilgan?

- a) Soliq Kodeksining 177 –moddasida;
- b) Soliq Kodeksining 15-moddasida;
- d) “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasida;
- e) Asosiy vositalar to‘g‘risidagi yo‘riqnomada.

125. Bank to'lovni mebellar kirim qilingandan keyin omborga kirim qilishda qaysi buxgalteriya yozuvi orqali tekshiriladi?

- a) Debet 16561 Kredit 29802;
- b) Debet 16561 Kredit 19909;
- c) Debet 16531 Kredit 16561;
- d) Debet 29802 Kredit 16103.

126. Bank xodimlariga hisoblangan ish haqi qaysi buxgalteriya yozuvlarida bajarilgan bo‘lishi kerak?

- a) Debet 56102 “Ish haqi” Kredit 29803 “Xodimlar bilan hisob-kitoblar”;
- b) Debet 29803 “Xodimlar bilan hisob-kitoblar” Kredit 56102 “Ish haqi”;
- d) Debet 56406 Kredit 19921;
- e) Debet 19921 Kredit 16500;

127. Banklarda joriy yilning foydasi yoki zarari qaysi balans hisobvarag‘ida hisobga olinadi?

- a) 31206;
- b) 31203;
- d) 30318;
- e) 30603.

128. Banklarda taqsimlanmagan foyda qaysi balans hisobvarag‘ida hisobga olinadi?

- a) 31203;
- b) 31206;
- d) 30318;
- e) 30603.

129. Bankning asosiy vositalarini aks ettiruvchi hisobvaraqlar hisobvaraqlar rejasining qaysi bo‘limlarida joylashtirilgan?

- a) “Aktivlar” bo‘limida;
- b) “Majburiyatlar” bo‘limida;
- d) “Xarajatlar” bo‘limida;
- e) “Daromadlar” bo‘limida.

130. Depozitlar bo‘yicha foizli xarajatlar qaysi hisobvaraqlarda yuritilmaydi?

- a) 41000;
- b) 50100;
- d) 50600;
- e) 51100.

131. Jismoniy shaxslarning jamg‘arma depozitlari bo‘yicha foizlar hisoblanganda qanday buxgalteriya yozuvi beriladi?

- a) Debet – 56606 Kredit – 22403;
- b) Debet – 22403 Kredit – 20206;
- d) Debet – 51106 Kredit – 22405;
- e) Debet – 22405 Kredit – 10101.

132. Quyida bank auditini tashkil qilish metodlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni belgilang

- a) kombinatsiyalangan, hujjatli;
- b) yoppasiga tekshirish, tashqi audit;
- d) tanlab-tanlab tekshirish, ichki audit;
- e) yoppasiga tekshirish.

133. Qanday holatlar natijasida asosiy vositalar bank balansiga kiritiladi?

- a) sotib olinganda, rekonstruksiya qilishda, tekinga olganda, subsidiya, lizing bo‘yicha;
- b) haq evaziga sotib olinganda;
- d) tekinga olinganda;
- e) ortiqcha (hisobga olinmagan) asosiy vositalar aniqlanganda.

134. Bank xodimlariga safar xarajatlari uchun bo‘nak sifatida naqd pul mablag‘lari berilganligi qanday kassa hujjati bilan tekshiriladi?

- a) chiqim kassa orderi;
- b) kirim kassa orderi;
- d) pul cheki;
- e) e‘lonnoma.

135. Jismoniy shaxslardan ularning hisobvaraqlariga kirim qilish uchun naqd pul mablag‘lari qabul qilinishi qanday kassa hujjati bilan rasmiylashtiriladi?

- a) kirim kassa orderi;
- b) pul cheki;
- d) chiqim kassa orderi;
- e) e‘lonnoma.

136. Qayta sanalgan inkassatsiya tushumi bank kassasiga qanday kirim qilinadi.

- | | |
|----------------|---------------|
| a) Debet 19903 | Kredit 10101; |
| b) Debet 19903 | Kredit 202xx; |
| d) Debet 19935 | Kredit 19903; |
| e) Debet 202xx | Kredit 19935. |

137. Chiqim kassa hujjatlari summalari chiqim kassa jurnalida kim tomonidan qayd etiladi?

- a) nazoratchi-buxgalter;
- b) mas‘ul ijrochi;
- d) kassir;
- e) bosh buxgalter.

138. Bank binosi va boshqa imoratlar bo‘yicha yillik eskirish me‘yori necha foiz miqdorida belgilangan?

- a) 5%;
- b) 10%;
- d) 20%;
- e) 15%.

139. Bank asosiy vositalari boshqa bankka oldindan to'lov asosida sotilmoqda. Xaridordan pul mablag'lari kelib tushganda qanday buxgalteriya yozuvi beriladi?

- a) Debet 16103 Kredit 29802;
- b) Debet 29802 Kredit 16529;
- d) Debet 16535 Kredit 19909;
- e) Debet 19909 Kredit 16103.

140. Mijoz olingan mikrokredit ta'minoti uchun bankka qimmatli qog'ozlar garovini taqdim etdi.

- a) Debet 94501 Kredit 96381
- b) Debet 90317 Kredit 96397
- d) Debet 91901 Kredit 96345
- e) Debet 96381 Kredit 94501

141. Banklarda 2-kartoteka qaysi balans hisobvaraqa yuritiladi?

- a) 90963;
- b) 90961;
- d) 96319;
- e) 20200.

142. Chet el valyutasidagi aktivlarni qayta baholashdagi salbiy kurs farqi buxgalteriya hisobida qanday rasmiylashtiriladi?

- a) Debet 55302 Kredit 17101;
- b) Debet 16309 Kredit 17101 Debet 17101 Kredit 44601;
- d) Debet 17101 Kredit 45401;
- e) Debet 17101 Kredit 22402 Debet 50606 Kredit 17101.

143. Bank aksiyalari aksiyadorlarga nominal qiymat bo'yicha sotilganda qaysi buxgalteriya yozuvida tekshiriladi?

- a) Debet 10301 Kredit 30318
- b) Debet 20200 Kredit 10301
- d) Debet 10101 Kredit 20200
- e) Debet 30303 Kredit 30309

144. Quyidagi qaysi tavakkalchilik auditorlik tavakkalchiligi tarkibiga kirmaydi?

- a) ajratib bo'lmaydigan tavakkalchilik;
- b) nazorat tavakkalchiligi;
- d) moliyaviy hisobotdagi xatolar va buzilishlarni topmaslik tavakkalchiligi;
- e) ko'rib ko'rmaslikka olish tavakkalchiligi.

145. Tijorat banklarida audit natijalari kimga taqdim etiladi?

- a) bank Kergashi;
- b) banklar assotsiatsiyasi;
- d) Vazirlar Mahkamasi;
- e) soliq idorasi.

146. Aktiv kredit operatsiyalarini tekshirayotgan auditor nimalarga e'tibor beradi?

- a) bank berayotgan kreditlarga;
- b) bank jalb qilgan kreditlarga;
- d) bank resurslariga;
- e) bank kapitaliga.

147. Bank faoliyatida tashqi audit tekshiruvi o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad nima?

- a) tashqi auditning maqsadi banklarning xalqaro buxgalteriya hisobi andozalariga hamda qonunchilikka mos ravishda tuzilgan moliyaviy hisobotlarining haqqoniyligiga nisbatan mustaqil auditorlarning xolisona fikrini bildirishdir;
- b) korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik;
- d) davlat xavfsizligini ishonchli ta'minlash;
- e) xorijga kapital oqimini to'xtatish.

148. Bankda audit guruhi va uning rahbari kim tomonidan tayinlanadi?

- a) bank boshqaruvchisi tavsiyasiga ko'ra bank kengashi tomonidan;
- b) ta'assischilar tomonidan;
- d) kuzatuv kengashi tomonidan;
- e) Moliya Vazirligi tomonidan.

149. Bankning daromadlari auditida bankning qaysi bo‘limi audit tekshiruvidan o‘tkaziladi?

- a) buxgalteriya, kassa, pul muomalalari, valyuta;
- b) kassa, buxgalteriya;
- d) bank hisobotlari tekshiriladi;
- e) kredit va kassa bo‘limi.

150. Bank tomonidan auditorlar qancha muddatga tayinlanadi

- a) 1 yil;
- b) 6 oy;
- d) 1 oy;
- e) muddatsiz.

151. Tashabbus va majburiy audit tekshiruvlarini o‘tkazuvchi auditorlik kompaniya shtatida nechta xalqaro sertifikatga ega bo‘lgan auditor bo‘lishi kerak

- a) 1 ta;
- b) 2 ta;
- d) 3 ta;
- e) 4 ta.

152. Audit xizmati xodimlari (auditorlar) qaysi quyidagi talabga javob berishi shart:

- a) bank qonunchiligi sohasida bilimlarga ega bo‘lishlari, shu jumladan Markaziy bankning me‘yoriy hujjatlarini bilishlari;
- b) majburiy harbiy xizmatda bo‘lgan va bakalavr darajasiga ega bo‘lishlari;
- d) bankning pul muomalasi, kredit, valyuta, depozit operatsiyalari yoki buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limlarida kamida bir yil ish stajiga ega bo‘lishlari kerak;
- e) respublikada belgilangan buxgalteriya hisobi hamda umumqabul qilingan buxgalteriya hisobi va audit xalqaro standartlari qoidalarini qo‘llash bo‘yicha bilimlarga ega bo‘lishlari, shuningdek, xalqaro standartlardagi o‘zgarishlarga muvofiq maxsus kurslarda muntazam o‘qishni o‘tkazishlari.

153. Auditorlik tashkilotlari va auditorlar qanday hollarda bankda audit o'tkazish huquqiga ega emaslar?

- a) auditorlik tashkilotlari va auditorlardan o'zleri bank faoliyati, buxgalteriya hisobotlarini rasmiylashtirish, shuningdek, ichki auditni tashkil etish va amalga oshirish yuzasidan konsalting xizmatlari ko'rsatsalar;
- b) auditorlik tashkiloti rahbari bank rahbari bilan aloqador bo'lganda;
- d) auditorlik tashkiloti va bank binosi bir-biriga aniq joylashgan bo'lsa;
- e) auditorlik tashkiloti va bank binosi bir-biriga aniq joylashgan bo'lmasa.

154. Chet el valyutalari operatsiyalari auditi quyidagi hisobvaraqlar orqali amalga oshiriladi

- a) 29802-balans hisobvaraqlarida;
- b) 16100-balans hisobvaraqlar orqali;
- d) 16400 va 29400-balans hisobvaraqlar orqali;
- e) 16300-balans hisobvaraqlar orqali.

155. Audit o'tkazishning aniq muddatlari ko'rsatilgan ish rejalari kim tomonidan tasdiqlanadi?

- a) belgilangan tartibda Markaziy bank Boshqaruvi majlisida tasdiqlanadi;
- b) Markaziy bankning viloyatdagi hududiy bo'limlari boshqaruvchilari tomonidan;
- d) Adliya Vazirligi tomonidan;
- e) Moliya Vazirligi tomonidan.

156. Tijorat banklarda naqd chet valyutasidagi auditorlik tekshiruvlari...

- a) "Naqd chet el valyutalari" nomli balansdagi 10511-hisobvaraqlar tekshiriladi;
- b) chet el valyutalari nomli balansning 10200-hisobvaraqlari orqali tekshiriladi;
- d) chet el valyutalarida hisob-kitoblar yuritilishi tekshilidi;

e) har 6 oyda bir marta o'tkaziladi.

157. Banklarning mustaqil auditorlik kompaniyalari tomonidan tekshirilishi bu-

- a) tashqi audit deyiladi;
- b) xalqaro audit deyiladi;
- d) ichki audit deyiladi;
- e) bank auditi deyiladi.

158. Agar qayta baholanishi lozim bo'lgan aktivlar miqdori shunday passivlar miqdoriga teng bo'lmasa u holda foiz stavkasidagi o'zgarishlarni sezuvchi aktivlar va passivlar o'rtasida:

- a) dis balans (tengsizlik) yuzaga keladi;
- b) dis balans (tengsizlik) yuzaga kelmaydi;
- d) tenglik yuzaga keladi;
- e) barobar emas.

ILOVALAR

O'zbekiston Respublikasi Auditorlik faoliyatining milliy standarti (70-son AFMS) «Moliyaviy hisobot to'g'risidagi auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasi»ga

NAMUNA

Ijobiy fikr bildirilgan AUDITORLIK XULOSASI

(adresat)

Men (biz),

(70-son AFMSning 44-bandiga muvofiq auditorlik tashkilotining nomi
va uning rekvizitlari)

auditorlik tashkilotining auditori
(auditorlari)

(auditorlar va auditorlik tashkiloti rahbarining familiyasi, ismi,
otasining ismi, auditor malaka sertifikatining berilgan sanasi va
raqami)

tomonidan tijorat

bank _____ ning
(auditorlik tekshiruvi o'tkazilgan tijorat bankning nomi)

iborat

(moliyaviy hisobot shakllarining ro'yxati)

_____ yil (sana va hisobot davri ko'rsatilgan holda)
holatidagi moliyaviy hisobotining ishonchligini majburiy (tashabbus
tarzidagi) auditorlik tekshiruvidan o'tkazdik.

«A» tijorat bank rahbariyatining javobgarligi

«A» tijorat bank rahbariyati buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq moliyaviy hisobotning tayyorlanishi va haqqoniyligi, hamda ichki nazorat tizimi uchun javobgardir.

Auditorlik tashkilotining javobgarligi

Auditorlik tashkilotining javobgarligi o'tkazilgan auditorlik tekshiruviga asosan ushbu moliyaviy hisobot yuzasidan fikr bildirishdan iborat. Biz «A» tijorat bankining ilova qilingan moliyaviy hisobotini auditorlik tekshiruvidan o'tkazdik. Auditorlik tekshiruvi moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborotlar barcha muhimlik jihatlarini bo'yicha buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiqligi va haqqoniyligini baholashdan iborat. Biz auditorlik tekshiruvini Auditorlik faoliyatining milliy standartlariga muvofiq o'tkazdik. Ushbu standartlar moliyaviy hisobot jiddiy buzib ko'rsatishlarga ega emasligiga yetarli darajadagi ishonchga ega bo'lishni ta'minlovchi auditorlik tekshiruvini rejalashtirishni va o'tkazishni taqozo etadi. Auditorlik tekshiruvi auditorlik dalillarini olishga yo'naltirilgan auditorlik amallarini o'tkazishni o'z ichiga oladi. Auditorlik amallarini tanlash bizning mulohazamizning predmeti hisoblanadi.

Auditorlik tekshiruvi davomida olingan auditorlik dalillari moliyaviy hisobot ishonchligi to'g'risida fikr bildirish uchun yetarlicha asoslar beradi deb hisoblaymiz.

Ijobiy fikr

Bizning fikrimizcha tijorat

bank _____ ning

(tijorat bankning nomi)

20XX yil 31-dekabr holatidagi moliyaviy hisoboti barcha muhimlik jihatlarini bo'yicha uning moliyaviy holatini va moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalarini haqqoniy aks ettiradi va buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq keladi.

Auditorlik tashkiloti

rahbari _____

(familiyasi, imzo)

Auditor

(auditorlar) _____

(familiyasi, imzo)

Xulosa tuzilgan sana M.O'. (muhr mavjud bo'lgan taqdirda)

O'zbekiston Respublikasi Auditorlik faoliyatining milliy standarti (70-son AFMS) «Moliyaviy hisobot to'g'risidagi auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasi»ga

NAMUNA

**Salbiy fikr bildirilgan
AUDITORLIK XULOSASI**

(adresat)

Men (biz),

(70-son AFMSning 44-bandiga muvofiq auditorlik tashkilotining nomi va uning rekvizitlari)

auditorlik tashkilotining auditori
(auditorlari) _____

(auditorlar va auditorlik tashkiloti rahbarining familiyasi, ismi, otasining ismi, auditor malaka sertifikatining berilgan sanasi va raqami)

tomonidan tijorat

bank _____ ning
(auditorlik tekshiruvi o'tkazilgan tijorat bankning nomi)

iborat

(moliyaviy hisobot shakllarining ro'yxati)

_____ yil (sana va hisobot davri ko'rsatilgan holda)
holatidagi moliyaviy hisobotning ishonchligini majburiy (tashabbus tarzidagi) auditorlik tekshiruidan o'tkazdik.

«A» tijorat bank rahbariyatining javobgarligi

«A» tijorat bank rahbariyati buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq moliyaviy hisobotning tayyorlanishi va haqqoniyligi, hamda ichki nazorat tizimi uchun javobgardir.

Auditorlik tashkilotining javobgarligi

Auditorlik tashkilotining javobgarligi o'tkazilgan auditorlik tekshiruviga asosan ushbu moliyaviy hisobot yuzasidan fikr bildirishdan iborat. Biz «A» tijorat bankining ilova qilingan moliyaviy hisobotini auditorlik tekshiruvidan o'tkazdik. Auditorlik tekshiruvi moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborotlar barcha muhimlik jihatlariga bo'yicha buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiqligi va haqqoniyligini baholashdan iborat. Biz auditorlik tekshiruvini Auditorlik faoliyatining milliy standartlariga muvofiq o'tkazdik. Ushbu standartlar moliyaviy hisobot jiddiy buzib ko'rsatishlarga ega emasligiga yetarli darajadagi ishonchga ega bo'lishni ta'minlovchi auditorlik tekshiruvini rejalashtirishni va o'tkazishni taqozo etadi. Auditorlik tekshiruvi auditorlik dalillarini olishga yo'naltirilgan auditorlik amallarini o'tkazishni o'z ichiga oladi. Auditorlik amallarini tanlash bizning mulohazamizning predmeti hisoblanadi. Auditorlik tekshiruvi davomida olingan auditorlik dalillari moliyaviy hisobotning ishonchliligi to'g'risida fikr bildirish uchun yetarlicha asos bo'ladi. Bizning fikrimizcha, maxsus qismda qayd etilgan salbiy fikr bildirish uchun asos bo'ladigan vaziyatlar natijasida, bizda auditorlik tashkiloti fikrini ifodalash uchun asoslarni ta'minlovchi yetarlicha auditorlik dalillari mavjud.

Salbiy fikr bildirish uchun asos

«A» tijorat bank tomonidan XXX mln so'm noto'g'ri ravishda xarajatlarga o'tkazilgan, bu esa buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish hisoblanadi va moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini ahamiyatli darajada buzib ko'rsatilishiga olib keladi.

Salbiy fikr

Bizning fikrimizcha salbiy fikr bildirish uchun asos bo'ladigan qayd etilgan vaziyatlarning muhimligi natijasida «A» tijorat bankining 20XX yil _____ holatidagi moliyaviy hisoboti barcha muhimlik jihatlari bo'yicha uning moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalarini va moliyaviy holatini haqqoniy aks ettirmaydi.

Auditorlik tashkiloti rahbari

(familiyasi, imzo)

Auditor
(auditorlar)

(familiyasi, imzo)

Xulosa tuzilgan sana M.O'. (muhr mavjud bo'lgan taqdirda)

O'zbekiston Respublikasi Auditorlik faoliyatining milliy standarti (70-son AFMS) «Moliyaviy hisobot to'g'risidagi auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasi»ga

NAMUNA

Izohlar bilan fikr bildirilgan

AUDITORLIK XULOSASI

(agar auditorlik tashkiloti zarur darajadagi auditorlik dalillarini olib, aniqlangan buzibko'rsatishlarning alohida yoxud birgalikdagita 'sirimuhi mhisoblanishi bilan birga, moliyaviy hisobotning aksariyata hamiyatli elementlarigata 'sir qilmay did egan xulosaga kelgan hollarda)

(adresat)

Men (biz),

(70-son AFMSning 44-bandiga muvofiq auditorlik tashkilotining nomi va uning rekvizitlari)

auditorlik tashkilotining auditori

(auditorlari) _____

(auditorlar va auditorlik tashkiloti rahbarining familiyasi, ismi, otasining ismi, auditor malaka sertifikatining berilgan sanasi va raqami)

tomonidan tijorat

bank _____ ning

(auditorlik tekshiruvi o'tkazilgan tijorat bankning nomi)

_____ iborat

(moliyaviy hisobot shakllarining ro'yxati)

_____ yil (sana va hisobot davri ko'rsatilgan holda) holatidagi moliyaviy hisobotning ishonchligini majburiy (tashabbus tarzidagi) auditorlik tekshiruvidan o'tkazdik.

«A» tijorat bank rahbariyatining javobgarligi

«A» tijorat bank rahbariyati buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq moliyaviy hisobotning tayyorlanishi va haqqoniyligi, hamda ichki nazorat tizimi uchun javobgardir.

Auditorlik tashkilotining javobgarligi

Auditorlik tashkilotining javobgarligi o'tkazilgan auditorlik tekshiruviga asosan ushbu moliyaviy hisobot yuzasidan fikr bildirishdan iborat. Biz «A» tijorat bankining ilova qilingan moliyaviy hisobotini auditorlik tekshiruvidan o'tkazdik. Auditorlik tekshiruvi moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborotlar barcha muhimlik jihatlari bo'yicha buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiqligi va haqqoniyligini baholashdan iborat. Biz auditorlik tekshiruvini Auditorlik faoliyatining milliy standartlariga muvofiq o'tkazdik. Ushbu standartlar moliyaviy hisobot jiddiy buzib ko'rsatishlarga ega emasligiga yetarli darajadagi ishonchga ega bo'lishni ta'minlovchi auditorlik tekshiruvini rejalashtirishni va o'tkazishni taqozo etadi. Auditorlik tekshiruvi auditorlik dalillarini olishga yo'naltirilgan auditorlik amallarini o'tkazishni o'z ichiga oladi. Auditorlik amallarini tanlash bizning mulohazamizning predmeti hisoblanadi. Auditorlik tekshiruvi davomida olingan auditorlik dalillar moliyaviy hisobotning ishonchliligi to'g'risida fikr bildirish uchun yetarlicha asos bo'ladi. Bizning fikrimizcha, maxsus qismda qayd etilgan izohlar bilan fikr bildirish uchun asos bo'ladigan vaziyatlar natijasida, bizda auditorlik tashkiloti fikrini ifodalash uchun asoslarni ta'minlovchi yetarlicha auditorlik dalillari mavjud.

Izohlar bilan fikr bildirish uchun asos

20XX yil 31 dekabr holatiga ko'ra miqdori XXX ming so'm bo'lgan bank uskunasi qiyamati buxgalteriya balansining «Asosiy vositalar» moddasi bo'yicha aks ettirilmagan. Buning oqibatida, mos ravishda 20XX yil 31 dekabr holatiga ko'ra, mol yetkazib beruvchi oldidagi XXX ming so'mlik kreditorlik qarzi buxgalteriya balansining «tegishli» moddasida aks ettirilmagan. Umuman olganda, ushbu summa

moliyaviy hisobotdagi buzib ko'rsatishlarning ta'sirini baholash uchun o'rnatilgan muhimlik darajasidan oshmaydi.

Izohlar bilan fikr bildirish

Bizning fikrimizcha, izohlar bilan fikr bildirish uchun asos bo'ladigan bayon etilgan vaziyatlarning moliyaviy hisobotga ta'siridan tashqari, «A» tijorat bankining 20XX yil 31 dekabr holatidagi moliyaviy hisoboti buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq barcha muhimlik jihatlari bo'yicha uning moliyaviy-xo'jalik faoliyati natijalarini va moliyaviy holatini haqqoniy aks ettiradi.

Auditorlik tashkiloti rahbari

(familiyasi, imzo)

Auditor

(auditorlar)

(familiyasi, imzo)

Xulosa

tuzilgan

sana

M.O'. (muhr mavjud bo'lgan taqdirda)

O'zbekiston Respublikasi Auditorlik faoliyatining milliy standarti (70-son AFMS) «Moliyaviy hisobot to'g'risidagi auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasi»ga

Izohlar bilan fikr bildirilgan AUDITORLIK XULOSASI

(agar auditorlik tashkiloti zarur darajadagi auditorlik dalillarini olib, aniqlangan buzib ko'rsatishlarning alohida yoxud birgalikdagi ta'siri muhim hisoblanishi bilan birga, moliyaviy hisobotning aksariyat ahamiyatli elementlariga ta'sir qilmaydi degan xulosaga kelgan hollarda)

(adresat)

Men (biz),

(70-son AFMSning 44-bandiga muvofiq auditorlik tashkilotining nomi va uning rekvizitlari)

auditorlik tashkilotining

auditori(auditorlari) _____

(auditorlar va auditorlik tashkiloti rahbarining familiyasi, ismi, otasining ismi, auditor malaka sertifikatining berilgan sanasi va raqami)

tomonidan tijorat

bank _____

_____ning

(auditorlik tekshiruvi o'tkazilgan tijorat bankning nomi)

iborat

(moliyaviy hisobot shakllarining ro'yxati)

_____yil (sana va hisobot davri ko'rsatilgan holda) holatidagi moliyaviy hisobotining ishonchliligini majburiy (tashabbus tarzidagi) auditorlik tekshiruvdan o'tkazdik.

«A» tijorat bank rahbariyatining javobgarligi

«A» tijorat bank rahbariyati buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun

hujjatlariga muvofiq moliyaviy hisobotning tayyorlanishi va haqqoniyligi, hamda ichki nazorat tizimi uchun javobgardir.

Auditorlik tashkilotining javobgarligi

Auditorlik tashkilotining javobgarligi o'tkazilgan auditorlik tekshiruviga asosan ushbu moliyaviy hisobot yuzasidan fikr bildirishdan iborat. Biz «A» tijorat bankining ilova qilingan moliyaviy hisobotni auditorlik tekshiruvidan o'tkazdik. Auditorlik tekshiruvi moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborotlar barcha muhimlik jihatlar bo'yicha buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiqligi va haqqoniyligini baholashdan iborat. Biz auditorlik tekshiruvini Auditorlik faoliyatining milliy standartlariga muvofiq o'tkazdik. Ushbu standartlar moliyaviy hisobot jiddiy buzib ko'rsatishlarga ega emasligiga yetarli darajadagi ishonchga ega bo'lishni ta'minlovchi auditorlik tekshiruvini rejalashtirishni va o'tkazishni taqozo etadi. Auditorlik tekshiruvi auditorlik dalillarini olishga yo'naltirilgan auditorlik amallarini o'tkazishni o'z ichiga oladi. Auditorlik amallarini tanlash bizning mulohazamizning predmeti hisoblanadi. Auditorlik tekshiruvi davomida olingan auditorlik dalillari moliyaviy hisobotning ishonchliligi to'g'risida fikr bildirish uchun yetarlicha asos bo'ladi. Bizning fikrimizcha, maxsus qismda qayd etilgan izohlar bilan fikr bildirish uchun asos bo'ladigan vaziyatlar natijasida, bizda auditorlik tashkiloti fikrini ifodalash uchun asoslarni ta'minlovchi yetarlicha auditorlik dalillari mavjud.

Izohlar bilan fikr bildirish uchun asos

«A» tijorat bankining «ZZZ» chet el qaram korxonasiga qo'yilmalari, buxgalteriya balansida 20XX yil 31 dekabr holati bo'yicha XXX so'm miqdorida ulushli ishtirok etish usuli bilan hisobga olinib ko'rsatilgan, hamda «A» tijorat bank ining «ZZZ»korxonasi sof foydasidagi ulushi XXX so'm miqdorida shu sanada yakunlanadigan yil bo'yicha «UUU»ning foydasiga kiritilgan. Biz 20XX 31 dekabr holatiga ko'ra «UUU» ning «ZZZ» chet el qaram korxonasidagi qo'yilmalarining balans qiymati va «A» tijorat bankning «ZZZ» qaram korxonasining sof foydasidagi ulushi yuzasidan yetarlicha zarur

darajadagi auditorlik dalillarini ololmadik, chunki bizga moliyaviy axborotlardan foydalanishga ruxsat berilmadi. Buning oqibatida, bizda ushbu summalarga qandaydir tuzatishlar kiritish kerakligi yoki kerak emasligini aniqlash imkoniyati bo‘lmadi.

Izohlar bilan fikr bildirish

Bizning fikrimizcha, izohlar bilan fikr bildirish uchun asos bo‘ladigan bayon etilgan vaziyatlarning moliyaviy hisobotga ta’siridan tashqari, «A» tijorat bankining 20XX yil 31 dekabr holatidagi moliyaviy hisoboti buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq barcha muhimlik jihatlari bo‘yicha uning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati natijalarini va moliyaviy holatini haqqoniy aks ettiradi.

Auditorlik tashkiloti rahbari

(familiyasi, imzo)

Auditor
(auditorlar)

(familiyasi, imzo)

Xulosa
tuzilgan
sana

M.O‘. (muhr mavjud bo‘lgan taqdirda)

O'zbekiston Respublikasi Auditorlik faoliyatining milliy standarti (70-son AFMS) «Moliyaviy hisobot to'g'risidagi auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasi»ga

NAMUNA

**Fikr bildirish rad etilgan
AUDITORLIK XULOSASI**

(adresat)

Men (biz),

(70-son AFMSning 44-bandiga muvofiq auditorlik tashkilotining nomi va uning rekvizitlari)

auditorlik tashkilotining
auditori(auditorlari)

(auditorlar va auditorlik tashkiloti rahbarining familiyasi, ismi, otasining ismi, auditor malaka sertifikatining berilgan sanasi va raqami)

tomonidan tijorat

bank _____ ning
(auditorlik tekshiruvi o'tkazilgan tijorat bankning nomi)

_____ iborat

(moliyaviy hisobot shakllarining ro'yxati)

_____ yil (sana va hisobot davri ko'rsatilgan holda) holatidagi moliyaviy hisobotining ishonchliligini majburiy (tashabbus tarzidagi) auditorlik tekshiruidan o'tkazdik.

«A» tijorat bank rahbariyatining javobgarligi

«A» tijorat bank rahbariyati buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun

hujjatlariga muvofiq moliyaviy hisobotning tayyorlanishi va haqqoniyligi, hamda ichki nazorat tizimi uchun javobgardir.

Auditorlik tashkilotining javobgarligi

Auditorlik tashkilotining javobgarligi o'tkazilgan auditorlik tekshiruviga asosan ushbu moliyaviy hisobot yuzasidan fikr bildirishdan iborat. Biz «A» tijorat bankining ilova qilingan moliyaviy hisobotini auditorlik tekshiruvidan o'tkazdik. Auditorlik tekshiruvi moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborotlar barcha muhimlik jihatlarini bo'yicha buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiqligi va haqqoniylikini baholashdan iborat. Biz auditorlik tekshiruvini Auditorlik faoliyatining milliy standartlariga muvofiq o'tkazdik. Ushbu standartlar moliyaviy hisobot jiddiy buzib ko'rsatishlarga ega emasligiga yetarli darajadagi ishonchga ega bo'lishni ta'minlovchi auditorlik tekshiruvini rejalashtirishni va o'tkazishni taqozo etadi. Auditorlik tekshiruvi auditorlik dalillarini olishga yo'naltirilgan auditorlik amallarini o'tkazishni o'z ichiga oladi. Auditorlik amallarini tanlash bizning mulohazamizning predmeti hisoblanadi. Fikr bildirishni rad etish uchun asos bo'ladigan, maxsus qismda qayd etilgan vaziyatlar natijasida, bizda auditorlik tashkiloti fikrini ifodalash uchun asoslarni ta'minlovchi yetarli darajadagi auditorlik dalillarini olish imkoniyati bo'lmadi.

Fikr bildirishni rad etish uchun asos

«A» tijorat bank «XXX»ning birgalikdagi faoliyatga ulushi 20XX yil 31-dekabr holati bo'yicha buxgalteriya balansining «tegishli» moddasida XXX ming so'm miqdorida aks ettirilgan va bu 20XX yil 31-dekabr holatiga ko'ra sof aktivlar qiymatining 90 % ni tashkil etadi. Biroq, moliyaviy investitsiyalar, shuningdek, ular bilan bog'liq pul oqimlari yuzasidan tashqi dalillarni olish uchun «A» tijorat bank rahbariyati tomonidan cheklovlar va to'siqlar o'rnatildi.

Fikr bildirishni rad etish

Fikr bildirishni rad etish uchun asos bo'lgan holatlar ko'rsatilgan qismda qayd etilgan vaziyatlar muhim ekanligi sababli, bizda fikr bildirish uchun asoslarni ta'minlovchi yetarli darajadagi auditorlik dalillarini olish imkoniyati bo'lmadi, va shundan kelib chiqib, biz «A» tijorat bank «XXX»ning moliyaviy hisoboti ishonchliligiga fikr bildirishni rad etamiz.

Auditorlik tashkiloti rahbari

(familiyasi, imzo)

Auditor
(auditorlar)

(familiyasi, imzo)

Xulosa
tuzilgan
sana

M.O'. (muhr mavjud bo'lgan taqdirda)

O'zbekiston Respublikasi Auditorlik faoliyatining milliy standarti (70-son AFMS) «Moliyaviy hisobot to'g'risidagi auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasi»ga

NAMUNA

**Tushuntirish qismi kiritilgan izohlar bilan fikr bildirilgan
AUDITORLIK XULOSASI**

(adresat)

Men (biz),

(70-son AFMSning 44-bandiga muvofiq auditorlik tashkilotining nomi
va uning rekvizitlari)

auditorlik tashkilotining auditori
(auditorlari)

(auditorlar va auditorlik tashkiloti rahbarining familiyasi, ismi,
otasining ismi, auditor malaka sertifikatining berilgan sanasi va
raqami)

tomonidan tijorat

bank _____ ning
(auditorlik tekshiruvi o'tkazilgan tijorat bankning nomi)

iborat

(moliyaviy hisobot shakllarining ro'yxati)

_____ yil (sana va hisobot davri ko'rsatilgan holda)
holatidagi moliyaviy hisobotining ishonchliligini majburiy (tashabbus
tarzidagi) auditorlik tekshiruidan o'tkazdik.

«A» tijorat bank rahbariyatining javobgarligi

«A» tijorat bank rahbariyati buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun
hujjatlariga muvofiq moliyaviy hisobotning tayyorlanishi va
haqqoniyligi, hamda ichki nazorat tizimi uchun javobgardir.

Auditorlik tashkilotining javobgarligi

Auditorlik tashkilotining javobgarligi o'tkazilgan auditorlik tekshiruviga asosan ushbu moliyaviy hisobot yuzasidan fikr bildirishdan iborat. Biz «A» tijorat bankining ilova qilingan moliyaviy hisobotini auditorlik tekshiruvidan o'tkazdik. Auditorlik tekshiruvi moliyaviy hisobot va boshqa moliyaviy axborotlar barcha muhimlik jihatlariga bo'yicha buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiqligi va haqqoniyligini baholashdan iborat. Biz auditorlik tekshiruvini Auditorlik faoliyatining milliy standartlariga muvofiq o'tkazdik. Ushbu standartlar moliyaviy hisobot jiddiy buzib ko'rsatishlarga ega emasligiga yetarli darajadagi ishonchga ega bo'lishni ta'minlovchi auditorlik tekshiruvini rejalashtirishni va o'tkazishni taqozo etadi. Auditorlik tekshiruvi auditorlik dalillarini olishga yo'naltirilgan auditorlik amallarini o'tkazishni o'z ichiga oladi. Auditorlik amallarini tanlash bizning mulohazamizning predmeti hisoblanadi. Auditorlik tekshiruvi davomida olingan auditorlik dalillari moliyaviy hisobotning ishonchliligi to'g'risida fikr bildirish uchun yetarli asos bo'ladi. Bizning fikrimizcha, maxsus qismda qayd etilgan izohlar bilan fikr bildirish uchun asos bo'ladigan vaziyatlar natijasida, bizda auditorlik tashkiloti fikrini ifodalash uchun asoslarni ta'minlovchi yetarlicha auditorlik dalillari mavjud.

Izohlar bilan fikr bildirish uchun asos

20XX yil 31-dekabr holati bo'yicha buxgalteriya balansining «Asosiy vositalar» moddasida miqdori XXX ming so'm bo'lgan ishlab chiqarish uskunasi qiyamati aks ettirilmagan. Shu sababli buxgalteriya balansining "tegishli" moddasida 20XX yil 31-dekabr holatiga ko'ra yetkazib beruvchi oldidagi XXX ming so'mlik kreditorlik qarzi aks ettirilmagan.

Izohlar bilan fikr bildirish

Bizning fikrimizcha, izohlar bilan fikr bildirish uchun asos bo'ladigan bayon etilgan vaziyatlarning moliyaviy hisobotga ta'siridan tashqari, «A» tijorat bankining 20XX yil 31-dekabr holatidagi moliyaviy hisoboti buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq barcha muhimlik jihatlariga bo'yicha uning moliyaviy-xo'jalik faoliyati

natijalarini va moliyaviy holatini haqqoniy aks ettiradi.

Tushuntirish qismi

Moliyaviy hisobotning ishonchliligi to'g'risidagi fikrimizni o'zgartirmagan holda, biz moliyaviy hisobotning tushuntirish xatida bayon etilgan quyidagi axborotga diqqatni jalb etamiz: "A" tijorat banki tomonidan «XXX» tijorat bankga nisbatan kiritilgan da'vosi bo'yicha ish shu kunga qadar sudda ko'rib chiqilishi yakunlanmagan.

Auditorlik tashkiloti rahbari

(familiyasi, imzo)

Auditor

(auditorlar)

(familiyasi, imzo)

Xulosa tuzilgan sana M.O'. (muhr mavjud bo'lgan taqdirda)

**“A” bank Toshkent shahar mintaqaviy filiali boshlig‘i
Z.Aliyevga**

“A” bankning Ichki audit departamenti tomonidan Toshkent shahar mintaqaviy filiali huzuridagi Amaliyot bo‘limida va begim filialida 2019-yil 1-yanvar holatiga navbatdagi audit tekshiruvlari o‘tkazilgan.

Audit tekshiruvlarida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish hamda xodimlar mas‘uliyatini oshirish maqsadida, Toshkent shahar mintaqaviy filiali huzuridagi Amaliyot bo‘limi va begim filiali auditorlik hisobotlari muhokamasi mintaqaviy va quyi filialning tegishli mas‘ul xodimlari ishtirokida tashkil qilinsin.

Ko‘rsatilgan kamchiliklarni bartaraf qilish va kelgusida takrorlanishini oldini olish maqsadida tegishli tartibda chora-tadbirlar ishlab chiqib, qilingan ishlar va ko‘rilgan choralar to‘g‘risida joriy yilning 1-martiga qadar Ichki audit departamentiga yozma ma‘lumot taqdim qilishingizni so‘raymiz.

Bankning Audit Qo‘mitasi va Boshqaruv Raisiga taqdim etilgan hisobotlar nusxasi ilova qilinadi.

Ilova 16 varaqda.

**Boshqaruv Raisi
o‘rinbosari**



M.Shermatov

Audit Qo‘mitasi Raisi

A. Abdurahimovga

“A” bank Boshqaruvi Raisi

A Ganiyevga

A bankning Toshkent shahar mintaqaviy filiali huzuridagi Amaliyot bo‘limida o‘tkazilgan audit tekshiruvi natijalari bo‘yicha

HISOBOT

Audit tekshiruvi 01.01.2018-yildan 31.12.2018- yilgacha bo‘lgan bo‘lgan davrni qamrab olgan bo‘lib, shahar mintaqaviy filiali huzuridagi Amaliyot bo‘limiga ushbu davrda B. Normatov rahbarlik qilgan.

I. MOLIYAVIY HOLATI TAHLILI

01.01.2019-yil holatiga Toshkent shahar mintaqaviy filiali huzuridagi Amaliyot bo‘limi aktivlari 213030,6 mln. so‘mni, ular tarkibida daromad keltiruvchi aktivlar 170736,6 mln. so‘mni yoki 80 foizni tashkil etgan. 01.01.2019-yil holatiga nisbatan bank filiali aktivlari 163876,1 mln. so‘mga ortgan. Bu asosan Bosh bankdan olinishi lozim boshqa mablag‘lar (152600,0 mln.so‘m) xissasiga to‘g‘ri keladi va daromad keltiruvchi aktivlarning asosiy qismini tashkil etgan.

01.01.2019-yil holatiga kredit qo‘yilmalari 18028,4 mln. so‘m, likvid mablag‘lar 28845,3 mln. so‘mni tashkil qilgan. Daromad keltirmaydigan aktivlar 42294,0 mln. so‘mni tashkil etib, ularning asosiy qismi naqd pullar (2028,1 mln. so‘m), asosiy vositalar (2536,6 mln. so‘m), hukumat hisobvaraqlari (17500) 10636,0 mln. so‘m va vakillik hisobvarag‘idagi mablag‘lar (17.410,2 mln. so‘m) hissasiga to‘g‘ri keladi.

Filial majburiyatlari 210260,1 mln. so‘mni tashkil etib, ularning asosiy qismi talab qilib olinguncha depozitlar (126565,5 mln. so‘m), mijozlarning muddatli, jamg‘arma va boshqa depozitlari ((20400, 20600, 22600) 70726,5 mln. so‘m) hisobiga to‘g‘ri keladi. Talab qilib olinguncha depozitlarning jami majburiyatdagi ulushi 59 foizni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 112119,2 mln. so‘mga ortgan.

01.01.2019-yil holatiga muddati uzaytirilgan aktivlari 175,7 mln. so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 261,2 mln.

so'mga kamaygan. Ushbu muddati uzaytirilgan aktiv muddati uzaytirilgan kredit hisoblanadi.

2018-yil davomida bank filiali tomonidan 13140,9 mln. so'm daromad olingan va 10957,7 mln. so'mlik xarajatlar amalga oshirilgan.

2018-yilni 2183,2 mln. so'm real sof foyda bilan yakunlagan. Rentabellik ko'rsatkichi 16,6 foizni tashkil etib, o'tgan yilning shu sanasiga nisbatan 15,2 foizga ko'paygan.

Bank daromadlarini undirilishi tahlili:

Tekshirish davri oralig'ida jami 1242,3 ming so'm bank daromadi (kredit, amaliyotlari bo'yicha 8,3 ming so'm, buxgalteriya amaliyotlari bo'yicha 957,4 ming so'm, plastik kartochkalar amaliyotlari bo'yicha 274,2 ming so'm, jamg'arma amaliyotlari bo'yicha 2,4 ming so'm) undirilmaganligi aniqlandi va tekshirish jarayonida to'liq bank daromadiga kirim qilindi.

II. BUXGALTERIYA AMALIYOTLARI TAHLILI

- filialning "Buxgalteriya hisobi va hisoboti" bo'limiga 14 ta shtat birligi ajratilgan bo'lib, barcha lavozimlar butlangan. Bo'limning ish faoliyati o'rganilganda, quyidagilar ma'lum bo'ldi:

- 20.06.2018-yilda A Bosh ofisidan olib kelingan 38584,4 ming so'mlik antivirus programma litsenziyasi "O'rnatish va yaratish jarayonidagi nomoddiy aktivlar" hisobvarag'iga kirim qilinmasdan, "Ombordagi asosiy vositalar" hisobvarag'iga kirim qilingan.

- 2 ta holatda nosoz holatga keltirilgan elektron kalitlar uchun mijozlardan ming so'mga ortiqcha mablag' undirilgan va nosoz holatga keltirilgan elektron kalitlar bo'yicha dalolatnoma rasmiylashtirilmagan.

- omonatlarni kafolatlash fondiga o'tkazilgan mablag' hisobidan qaytgan ming so'm mablag' tegishli hisobvaraqa o'tkazilmasdan 29896 hisobvaraqa 6 oy muddatga qoldiq sifatida saqlangan va ushbu mablag' hisobidan keyingi davrlar uchun kafolatlash fondiga a'zolik badali sifatida o'tkazilgan.

- 2 ta holatda yoqilg'i mahsulotlarini sotib olishda sarflangan

mablag‘ga nisbatan 2018-yil iyul oyida 43,05 ming so‘mga kam va avgust oyida 15,8 ming so‘mga ortiqcha mablag‘ bank xarajatiga olib borilgan.

- Akkreditiv shartnoma shartlari bajarilgandan so‘ng, akkreditiv bo‘yicha filialga taqdim etilgan asosiy hujjatlar (*shartnoma, hisob faktura va ishonchnoma*) kunlik hujjatlar yig‘majildiga ilova qilinmasdan, alohida yig‘majildda saqlab kelingan.

- “IABS” dasturida akkreditivlar bo‘yicha hisob-kitob qilish muddati “bank ish kuni”ga nisbatan hisoblanganligi hisobiga, hisob-kitoblar shartnomada belgilangan muddatdan keyin amalga oshirish holatini keltirib chiqarganligi sababli akkreditiv shartnomada yuklab jo‘natilgan mahsulotlar bo‘yicha hisob-kitob qilish muddati 30 kun deb belgilangan bo‘lsada, mijoz tomonidan filialga belgilangan vaqt ichida asos hujjatlar taqdim etilmagan.

- Kunlik hujjatlar yig‘majildiga 2018-yil va 2019-yil yanvar oylari “Bank- mijoz” dasturiy majmuasi orqali o‘tkazilgan to‘lov hujjatlarining ro‘yxati o‘rniga elektron shaklidagi to‘lov topshiriqnomalar ilova qilingan.

- Mijoz “Desen Pak” MChJga hisoblangan 36177,50 so‘m bank daromadi uchun naqd pulda 37000,00 so‘m mablag‘ topshirilgan va hisoblangan bank daromadi topshirilgan naqd pul hisobidan so‘ndirilgan. Qolgan 822,5 so‘m mablag‘ boshqa mijozning bank daromadini so‘ndirish uchun o‘tkazilgan.

- Ko‘p yillik xizmatlari uchun qo‘shimcha ish haqi 6,5 ming so‘m ortiqcha, 47,3 ming so‘m umuman hisoblanmaganligi aniqlandi va tekshirish jarayonida qayta hisob-kitob qilinish, ish haqi hisoblash dasturiga kiritilindi.

- Mijozlarga naqd pul berishda naqd pul cheki bilan ish haqi ajratmalarini o‘tkazish bo‘yicha xo‘jalik subyekti rahbari hamda buxgalteri tomonidan imzolangan va dumaloq muhri bilan tasdiqlangan reestri olinmagan;

- Hisobvaraqlarni mas‘ul ijrochi va mas‘ul buxgalterlar o‘rtasida taqsimlash va qayta taqsimlashni qayd etish maxsus daftari va elektron dasturi yuritilmagan;

- 1 ta holatda bank hisobvaraқ shartnomasiga sana qo'yilmaganligi aniqlandi va *tekshirish jarayonida to'g'rilandi*;

- 1 ta holatda bank hisobvaraқ shartnomasi yurist tomonidan imzolanmagan;

- Filialda tuzatish memorial orderlari kitobchasi belgilangan tartibda rasmiylashtirilmagan;

2342 (615)-sonli yo'riqnoma talablariga rioya qilinmagan jumladan:

- 1 ta holatda asossiz ravishda Sud ijrochilar tomonidan qo'yilgan jami 212,1 mln. so'mlik inkasso topshiriqnomasini chiqim qilib, mijozning 500,0 ming so'mlik to'lov topshiriqnomasi bojxona xizmatlariga o'tkazilgan.

Transh mablag'lari bo'yicha:

- 2 ta holatda "Kuchlik Neft Bazasi" QKning transh hisobvarag'iga noto'g'ri kelib tushgan jami 2,3 mln. so'm mablag' belgilangan tartibda qaytarilmaganligi aniqlandi va tekshirish jarayonida to'g'rilandi;

- 31.12.2011 yilda ikkita mijozning ("*Maywand*" korxonasi 100,0 mln. so'm, "*O'zneftmahsulot*" korxonasi 300,0 mln. so'm) joriy hisobvarag'idan ko'rsatilmagan bank xizmatlari uchun memorial order orqali asossiz ravishda 400,0 mln. so'm bank daromadiga kirim qilingan va bank daromadi sun'iy ravishda oshirilgan. Ushbu bank daromadiga ortiqcha kirim qilingan mablag' 11.01.2019-yilda 2018-yil taqsimlanmagan foyda 31203 hisobvarag'idan qaytarilgan. (mas'ul xodimlar: B.Normatov, I.Saidnazarov)

III. KREDIT AMALIYOTLARI TAHLILI

- 01.12.2018-yil holatiga filial jami kredit portfeli - 19203,3 mln. so'mni tashkil qiladi. Kredit portfelning 37 foizi ya'ni 7024,0 mln. so'mi "O'zavtosanoat-Leasing"ra, 32 foizi ya'ni 6.160,0 mln. so'mi "Rubicon Wireless Communication" MCHJ XKga, 13 foizi ya'ni 2.500,0 mln. so'mi "O'zelektrtarmoq" unitar korxonasiga ajratilgan yirik kreditlar hisobiga to'g'ri keladi.

- 2 ta holatda sotilishi yoki boshqa xo'jalik subyekt balansiga

o'tkazilishiga ta'qiq solib bo'lmaydigan, 1 ta holatda monitoring qilish murakkablashadigan mulk garovga olingan (*garov mulklari boshqa viloyatlarda*); ("*Rubicon Wireless Communication*" MCHJ XK- 8,8 mlrd. so'm, "*Geo Star Plus*" MChJ -316,0 mln. so'm)

- 1 ta holatda kredit ajratilgandan so'ng har chorakda garov mulki ustidan monitoring o'tkazilmagan. ("*Rubicon Wireless Communication*" MCHJ XK 8,8 mlrd. so'm).

- 1 ta holatda garovga olingan to'quv uskunalarining pasportlari olinmagan; ("*Geo Star Plus*" MChJ 316,0 mln. so'm.)

- 1 ta holatda oraliq muddati o'tgan kredit bo'yicha kredit shartnomasiga muvofiq 8284,9 so'm yuqori foiz hisoblanmaganligi aniqlandi va tekshirish jarayonida undirildi. ("*Fira Trade Plus*" MChJ).

- 1 ta holatda kafillik shartnomasiga filial muhri qo'yilmaganligi, 1 ta holatda asl nusxasi qimmatliklar saqlash omborida saqlanmaganligi aniqlandi va tekshirish jarayonida tuzatildi. (*M.Saidov 1,54 mln. so'm, S. Samigov 28,0 mln. so'm*)

- Kredit shartnomalarni imzolashdan oldin bank kreditini jalb qilish hamda mulklarni garovga qo'yish bo'yicha ta'sischilarning roziligi olinishi tavsiya qilinadi.

(*mas'ul xodimlar: B.Normatov, B.Sherbayev*).

IV. PUL MUOMALASI AMALIYOTLARI TAHLILI

- Tekshirish davri davomida kassa buyurtmanomalari to'liq talab qilib olinmagan.

- 371 ta holatda jami 24,35 mlrd. so'm naqd pullarni kirim qilinishida va 1 ta holatda 1,0 mln. so'm naqd pulni chiqim qilinishida noto'g'ri ramzlardan foydalanilgan.

- XT A.A.Podosinnikovning hisobvarag'iga 148 ta holatda jami 142,12 mln. so'm turli xil mahsulotlarni sotib olish uchun pul o'tkazish yo'li bilan kirim qilingan, hisobvarag'idan 10 ta holatda jami 124,0 mln. so'm mijozning omonat hisobvarag'iga, 31 ta holatda 67,56 mln. so'm internet va telefon kartalari uchun o'tkazilgan.

- 6 ta holatda buyurtma hisob-kitoblarda mijozlarga o'rnatilgan kassa limiti qatori bo'sh qoldirilgan. *Tekshirish jarayonida tuzatildi.*

- 7 ta holatda buyurtma hisob-kitoblarda mijozlarning naqd pul tushumini inkassatsiyaga topshirish vaqti qayd qilinmagan bo'lishiga qaramasdan kassa limiti o'rnatilgan. *Tekshirish jarayonida tuzatildi.* (mas'ul xodimlar: N.Rahimov, A.Shafikov, B.Yarashev)

V. KASSA AMALIYOTLARI TAHLILI

- zaxiradagi naqd pullar qoldig'idagi pullardan 39900000,0 so'mi nazorat uchun qayta sanalganda begim filiali kassiri G.Karimova tomonidan o'rab bog'langan puldan 200 so'm kamomad aniqlandi. *Tekshirish jarayonida mas'ul xodimdan undirildi.*

- chiqim kassasida mavjud mablag'lar nazorat uchun qayta sanalganda chiqim kassasida saqlanayotgan shaxsiy sumkada 3000 so'm mavjud ekanligi *aniqlandi.* Tekshirish jarayonida chiqim kassasida kassir N.Xudoynazarova tomonidan shaxsiy sumkada saqlanayotgan 3000 so'm mablag' bank daromadiga kirim qilindi.

- 8 ta holatda mijozlarning inkassatsiya orqali bankka topshirilgan savdo tushumlari ilova qaydnomasi, ushbu qoplarni ochib qayta sanagan qayta sanash kassasi nazoratchisi va kassiri tomonidan imzolanmagan. *Tekshirish jarayonida to'g'rilandi.*

- 19.05.2018-yilda Toshkent shahar mintaqaviy filialining 120-I-sonli buyrug'iga asosan to'satdan taftish o'tkazilgan bo'lib, taftishda qayta sanash uchun olingan mablag'lar 123-sonli kitobga yozilmagan. (mas'ul xodimlar: N.Xudoynazarova, M.Shomurotova)

VI. VALYUTA AMALIYOTLARI TAHLILI

- 1 ta holatda filialda ro'yxatga olingan eksport shartnomasiga kiritilgan o'zgartirish eksport shartnomalari ma'lumotlari bazasiga va eksport shartnomalari bo'yicha hisobotga kiritilmagan. *Tekshirish jarayonida tuzatildi.*

- 1 ta holatda filialda ro'yxatga olingan import shartnomasi bo'yicha 1281 yo'riqnoma talablari asosida DSIGa ma'lumot taqdim qilinmagan. *Tekshirish jarayonida DSIGa ma'lumot taqdim qilindi.* (mas'ul xodim: X. Zakirov)

VII. JAMG'ARMA AMALIYOTLARI TAHLILI

01.12.2018-yil holatiga omonatlar qoldig'i 15405,6 mln. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2932,4 mln. so'mga (12473,2 mln. so'm) ko'paygan. Omonatlar tarkibida muddatli omonatlar 14066,9 mln.so'm (91 %), jamg'arma omonatlar 1066,4 mln. so'm (7%) va talab qilib olinguncha omonatlar mln.so'mdan (2 %) iborat.

Filial tomonidan omonatchilarning hisobvaraqlaridagi mablag'larni ularning omonat daftarchalaridagi ma'lumotlar bilan mos kelishini inventarizatsiya qilish bo'yicha tuzilgan ishchi guruh tomonidan quyidagi ishlar amalga oshirilgan:

- 01.07.2018-yil holatiga mavjud bo'lgan 6934 ta omonat hisobvarag'idan ikkinchi chorak davomida omonat dasturi orqali harakat bo'lgan 1833 ta omonat hisobvarag'i inventarizatsiya qilingan. Ishchi guruh tomonidan omonat dasturi orqali 4726 ta hisobvaraqdan kirim-chiqim amallari bajarilmaganligi uchun harakatsiz nomi berilgan va 90 ta omonat hisobvarag'i naqd pulsiz shaklda ochilgan va 25 ta omonatchining yashash manzillari noma'lum bo'lganligi sababli inventarizatsiya ishlari o'tkazilmagan.

- 01.04.2018-yil holatiga mavjud bo'lgan 6891 ta omonat hisobvarag'idan birinchi chorak davomida omonat dasturi orqali harakat bo'lgan 1886 ta omonat hisobvarag'i inventarizatsiya qilingan. Ishchi guruh tomonidan omonat dasturi orqali 4688 ta hisobvaraqdan kirim-chiqim amallari bajarilmaganligi uchun harakatsiz nomi berilgan va 84 ta omonat hisobvarag'i naqd pulsiz shaklda ochilgan va 28 ta omonatchining yashash manzillari noma'lum bo'lganligi sababli inventarizatsiya ishlari o'tkazilmagan. *Tekshiruv davrining boshqa choraklarida foiz ham yuqoridagi tartibda o'tkazilgan.*

Jamg'arma operatsiyalari va mini banklar bilan ishlash bo'limning 1-va 2-toifali mutaxassislarining lavozim yo'riqnomalari xodimlarning vazifa va majburiyatlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilmagan. Lavozim yo'riqnomasida so'nggi nazorat vazifalari to'liq ko'rsatib o'tilmagan. *Tekshiruv jarayonida qaytadan ishlab chiqildi.*

• Bo‘lim tomonidan “Naqd pulsiz shaklda qabul qilinadigan omonatlar bo‘yicha tuziladigan shartnomalarni ro‘yxatga olish” daftariga shartnomalar qayd qilib borilmagan. *Tekshiruv jarayonida ro‘yxatga olindi.*

• 3 ta holatda bo‘lim xodimlari tomonidan kassalarda o‘tkazilgan rejali tekshirishlar natijasida tuzilgan dalolatnomalar nazoratchi kassirlar tomonidan imzolanmagan. *Tekshiruv jarayonida to‘g‘riland.*

• 1 ta holatda mijoz va bank o‘rtasida imzolangan naqdsiz o‘tkazmalar to‘g‘risidagi shartnomaga tarifga kiritilgan o‘zgartirishlar kiritilmagan.

• 2 ta holatda buxgalteriya o‘tkazmasini chetlab o‘tilgan holda ARM - omonat tizimidan 193,8 mln. so‘mlik mablag‘ga kirim - chiqim amallari bajarilgan.

• 1 ta holatda mijozlarning arizalariga asosan 2756,0 ming so‘m mablag‘ bank daromadidan qaytarilmasdan, boshqa mijozdan undirilishi kerak bo‘lgan bank daromadi hisobidan 2 ta omonatchining hisobvarag‘iga kirim qilingan.

• 1 ta holatda kelib tushgan 21,5 mln. so‘m dividend mablag‘i omonatchining hisob raqamiga 8 ish kuni kechiktirilib kirim qilingan.

• 3 ta omonatchi bilan naqdsiz o‘tkazmalar to‘g‘risida shartnoma imzolanmasdan omonat hisobvaraqlariga 3,5 mln. so‘m mablag‘ kirim qilingan.

• Omonat dasturiga 193 ta mijozning pasport ma’lumotlari kiritilmasdan omonat hisobvarag‘i ochilgan.

• 2 ta holatda harakatsiz omonat hisobvarag‘idan 114,0 ming so‘m mablag‘ naqd pulda to‘lab berilgan bo‘lib omonatchilarning arizalari filial bosh buxgalteri tomonidan imzolanmagan. *Tekshiruv jarayonida imzolandi.*

• Ko‘p hollarda omonat hisobvaraqlariga dastlabki kirim qilingan mablag‘lar omonat daftarchalariga so‘z bilan yozilgan.

• 1 ta holatda omonat mablag‘i muddatidan oldin chiqim qilinib, omonat sharti buzilgan bo‘lsada, 20445,23 so‘m ortiqcha foiz daromadi hisoblangan. *Ortiqcha hisoblangan foiz tekshirish jarayonida qaytarildi.*

• Omonat dasturiga omonatchilarning pasport ma’lumotlari kiritilmasdan 6 ta muddatli va 21 ta talab qilib olinguncha omonat hisobvaraqlari yopilgan.

- 1 ta holatda vorislik guvohnomasidan nusxa olinmasdan 707000 so‘m mablag‘ naqdsiz shaklda chiqim qilinib, boshqa omonatchining hisobvarag‘iga o‘tkazilgan.

- 1 ta holatda vafot etgan mijozning 1321483,08 so‘m omonat mablag‘i muddatidan oldin, ya‘ni 6 oy o‘tmasdan vorislik to‘g‘risidagi guvohnomasi olinmasdan o‘g‘liga naqd pulda to‘lab berilgan.

- 2 ta holatda 1-shakl ma‘lumotnomasiga omonat daftarchasi yo‘qotilganligi va ishonchnoma asosida yopilganligi to‘g‘risida ma‘lumot kiriti‘magan.

- 2 ta holatda naqd pulda chiqim qilingan 2153,0 so‘m mablag‘ning chiqim orderidagi imzosi dastlabki hujjatlaridagi imzolari bilan mos emas.

- 2 ta holatda 5 - sonli jamg‘arma kassada ochilgan omonat hisobvarag‘i uchun markaziy omonat kassaning muhri tushirilgan omonat daftarchasi berilgan.

- Kassaga naqd pulda kirim qilingan omonat daftarchasi tannarxi mablag‘larining kirim orderlari kunlik hujjatlar yig‘majildiga ilova qilinmagan. *2013-yil 23-yanvardan yo‘lga qo‘yildi.*

- Jamg‘arma kassaga plastik kartochka emissiyasi uchun topshirilgan bank daromadlarining kirim orderlari nazoratchi kassir tomonidan imzolanmagan. *Tekshiruv jarayonida barcha orderlar imzolandi.*

- Yollanma nazoratchi kassirlardan qabul qilingan to‘lov pattalarining reestrlari jamg‘arma kassa muhri bilan tasdiqlanmagan. *Tekshiruv jarayonida to‘g‘rilandi.*

- Ba‘zi kunlarda yollanma nazoratchi kassirlar tomonidan rasmiylashtirilgan «TX-1sh» pattalarining reestrlarida jamg‘arma kassa xodimining ismi-sharifi ko‘rsatilmagan va imzolanmagan. *Tekshiruv jarayonida to‘g‘rilandi.*

- Bosh Bankning 15.06.2018-yildagi 15-01-24/4837 - sonli xatiga asosan yollanma nazoratchi kassirlarga 7963456,36 so‘m tarifga nisbatan ortiqcha ish haqi hisoblangan.

(mas‘ul xodimlar: O. Mengliyev, A. Ashirbayeva, T. Irdjigitov)

VIII. PLASTIK KARTOCHKA AMALIYOTLARI BO'YICHA

Filialda 174 dona to'lov terminallari mavjud bo'lib, shundan 103 dona terminal savdo shoxobchalariga o'rnatilgan, 20 dona terminal filial kassalariga o'rnatilgan, 17 dona terminal bank omborida saqlanmoqda, 8 ta terminal qayta dasturlanmoqda, 10 ta terminal Bekobod filialiga taqdim qilingan va Bosh bankka ta'mirlash uchun berilgan jami 16 ta terminal hozirgi kungacha ta'mirlanmagan:

- 2 ta holatda terminal ijarasi bo'yicha bank daromadi o'z vaqtida undirilmagan.

- 28.12.2018-yilga qadar bank tarifida chet el valyutasidagi plastik kartochkalar qoldig'iga yillik 2 foiz daromad hisoblanishi ko'zda tutilgan bo'lib, 02.01.2019-yil sanasiga 22402840-202 hisobvarag'ida 2097,38 AQSh dollari miqdorida qoldiq mavjud bo'lgan. Ushbu qoldiq hisoblangan foizlarning mijozlar plastik kartochkalariga o'z vaqtida kirim qilinmaganligi natijasida yuzaga kelgan. 01.12.2018-yil sanasiga qadar jami 115,82 AQSh dollari yopilayotgan plastik kartochkalarga avtomatik ravishda o'tkazilgan. Bu borada filial tomonidan Bosh bankning tegishli bo'linmasiga murojaat qilingan bo'lib, hozirgi kunga qadar dasturga o'zgartirish kiritilmagan. *Hisobvaraqda qolgan 1981,56 AQSh dollariga aniqlik kiritib, natijasi bo'yicha Ichki audit departamentiga ma'lumot berilishi tavsiya etildi.*

- 3 ta fuqaro plastik kartochkasiga kirim qilingan dividend summasidan undirilishi lozim bo'lgan bank daromadi 1 ta fuqaro plastik kartochkasidan undirilgan. *Tekshiruv jarayonida rozilik xati olindi;*

- 2 ta fuqaro plastik kartochkasiga kirim qilingan dividend summasidan jami 147,8 ming so'm bank daromadi undirilmaganligi aniqlandi va *tekshiruv jarayonida undirildi;*

- mijozlar plastik kartochkalarini yopish hamda kartochkadan kartochkaga pul mablag'larini ko'chirish uchun kartochka egalari tomonidan taqdim qilingan arizalar tartibli tikib borilmagan;

- mijozlar plastik kartochkalarini ularning arizalariga asosan yopishda 5 ta holatda arizalar to'liq rasmiylashtirilmaganligi aniqlandi va *tekshiruv jarayonida to'g'rilandi;*

- ish haqi loyihasi bo'yicha tashkilotlar bilan imzolangan shartnomalarda shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan 3 ta ilova:

1. Kartochka egalari to'lovni o'tkazib berishni tashkillashtirish yo'riqnomasi;

2. Tashkilotning mas'ul shaxslari ro'yxati;

3. Elektron ro'yxat shakli mavjud emas. Ish haqi loyihasi bo'yicha shartnomaning ikkinchi ilovasi mavjud emasligi ish haqi to'lov qaydnomalaridagi imzolar va muhrning haqiqiylikini tekshirish imkoniyatini cheklaydi. *Kamchilik tekshiruv jarayonida qisman bartaraf qilindi, qolgan qismining bartaraf qilinishi nazoratga olinishi lozim;*

- tekshirishga taqdim qilingan bir varaqdan ortiq bo'lgan to'lov qaydnomalarining deyarli barchasining har bir varag'i tashkilot mas'ul shaxslari tomonidan imzolanmagan va muhrlanmagan. To'lov qaydnomaning faqat oxirgi varag'i mijoz mas'ul shaxslari tomonidan imzolangan va muhrlangan;

- plastik kartochkalardan plastik kartochkalar ishtirokisiz chiqim qilinayotgan o'tkazmalar uchun mijozlar tomonidan taqdim qilingan arizalar filial devonxonasida ro'yxatdan o'tkazilmagan va jurnal yuritilib qayd qilib borilmaganligi aniqlanib, *tekshiruv jarayonida jurnal yuritildi;*

- tekshiruv davri oralig'ida 23100 hisobvarag'ida jami 40448,6 mln. so'm aylanma amalga oshirilgan bo'lib, shundan tanlov asosida Toshkent shahar IIBB qoshidagi qo'riqlash boshqarmasining (23110000400447995106) 01.01.2018-yildan 15.06.2018-yilgacha bo'lgan davr oralig'idagi ish haqi qaydnomalari bo'yicha jami 3090,98 mln. so'mlik to'lovlarning plastik kartochkalarga to'g'ri kirim qilinishi tekshirildi. Filial tomonidan ishchi guruh tuzib, qolgan 37357,62 mln. so'mlik aylanmalarining to'g'ri amalga oshirilganligini, ish haqi va boshqa maqsadlar bilan kelib tushgan mablag'larni tegishli plastik kartochkalarga to'g'ri kirim qilinganligini inventarizatsiya qilib, qilingan ishlar bo'yicha 2019-yil 1-avgustgacha Ichki audit departamentiga hisobot berilishi tavsiya qilinadi.

Toshkent shahar IIBB qoshidagi qo'riqlash boshqarmasining ish haqi qaydnomalariga asosan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarning

plastik kartochkalarga to'g'ri kirim qilinishi tekshirilganda quyidagi kamchiliklar aniqlandi:

- ish haqi qaydnomalarini rasmiylashtirishda 10 ta holatda kamchilik *aniqlanib*, tekshirish jarayonida bartaraf qilindi;

- 5 ta holatda ish haqi qaydnomalariga asosan tashkilot xodimlariga to'lanishi lozim bo'lgan jami 517,5 ming so'm mablag' tashkilotning boshqa xodimlariga kirim qilinganligi aniqlandi va *tekshiruv jarayonida kamchilik bartaraf qilindi*;

- ish haqi qaydnomaga asosan tashkilot xodimiga kirim qilinishi lozim bo'lgan jami 900,0 ming so'm ish haqi summasi boshqa shaxs (ukasi)ning plastik kartochkasiga kirim qilingan. *Rozilik xati olindi*.

OST fayli IABS tizim osti dasturida tashkilotlar ish haqlarini plastik kartochkalarga avtomatik ravishda (OST fayl bilan) kirim qilinganda to'lov qaydnomasining raqami va sanasi, shuningdek, qaysi oy ish haqi kirim qilinganligi buxgalteriya o'tkazmasining to'lov maqsadida ko'rsatilmasdan qoladi. Bu borada IABS dasturiga qo'shimcha kiritish tavsiya etiladi. Shuningdek, ijro etilgan qog'oz shaklida tasdiqlangan qaydnomaga to'lovlarni amalga oshirgan xodim ismi sharifi, ijro etilgan sana va OST fayl nomini qayd etish tavsiya etiladi.

Boshqa filiallarda ochilgan plastik kartochkalarga INPS fayl bilan to'lab berilgan to'lovlar bo'yicha IABS dasturida hisobot shakllantirish imkoniyati mavjud emas. Ushbu holat INPS fayllar bilan o'tkazilgan to'lovlarni nazorat qilish va tekshirish imkoniyatini cheklashi sababli IABS dasturiga tegishli hisobot shaklini kiritish tavsiya etiladi.

(mas'ul xodimlar: X.Sharipov, G.Hamrayev, Sh.Mirzayev).

Bank filialida Pul qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf qilish, kelgusida takrorlanishini oldini olishda xodimlar mas'uliyatini oshirish maqsadida tegishli chora-tadbirlar ko'rish uchun "A" bankning Toshkent shahar mintaqaviy filialiga yozma ko'rsatma berishni maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

Ichki audit departament direktori v.v.b

X.Mamataliyev

MUNDARIJA

| | |
|---|----------|
| KIRISH..... | 3 |
| 1 BOB. BANK AUDITINING MAZMUNI, MAQSADI VA VAZIFALARI | |
| 1.1. Bank auditining mohiyati va mazmuni..... | 5 |
| 1.2. O‘zbekiston Respublikasida bank auditi, uning shakllanishi, maqsad va vazifalari..... | 10 |
| 1.3. O‘zbekitonda bank auditining huquqiy-iqtisodiy asoslari va rivojlanishi..... | 17 |
| 2 BOB. BANK AUDITINING TASHKIL QILINISHI VA TURLARI | |
| 2.1. Bank auditining metodi va turlari..... | 22 |
| 2.2. Ichki audit tekshiruvlarinio‘tkazish tartibi..... | 26 |
| 2.3. Tashqi audit tekshiruvlarini tashkil qilish..... | 40 |
| 2.4. Auditorlik tashkilotlari va auditorlarning huquq va majburiyatlari..... | 53 |
| 3 BOB. NAQD PUL VA KASSA OPERATSIYALARINING AUDITI | |
| 3.1. Naqd pul va boyliklarni audit qilish tartibi..... | 57 |
| 3.2. Naqd pul va boyliklarni saqlash binolari va ularni qo‘riqlanish auditi..... | 73 |
| 3.3. Kassa va kassa operatsiyalarini auditi..... | 77 |
| 4 BOB. HISOB-KITOB OPERATSIYALARI AUDITI | |
| 4.1. Tijorat banklarida buxgalteriya hisobi auditi..... | 82 |
| 4.2. Ayrim hisob-kitob operatsiyalarini auditi..... | 87 |
| 4.3. Pul muomalalariga doir ishlar auditi..... | 100 |

| | | |
|---------------|---|-----|
| 5 BOB. | KREDIT OPERATSIYALARINI RASMIYLASH- TIRISH VA HISOBGA OLISH AUDITI (MUAMMOLI KREDITLARNING AUDITI) | |
| 5.1. | Tijorat banklarining kredit faoliyatini auditdan o‘tkazish tartibi va jarayonlari..... | 106 |
| 5.2. | Tijorat banklari kredit faoliyati auditini rejalashtirish..... | 112 |
| 5.3. | Tijorat banklari kredit siyosati va uning auditi..... | 118 |
| 5.4. | Tijorat banklari kredit portfeli va auditi..... | 124 |
| 5.5. | Tijorat banklari kredit operatsiyalari hisobi auditi..... | 128 |
| 6 BOB. | TIJORAT BANKLARI DAROMADLARI, XARAJATLARI VA FOYDASI AUDITI | |
| 6.1. | Tijorat banklarda daromadlarni shakllantirilishini audit qilish..... | 140 |
| 6.2. | Tijorat banklari xarajatlarini tekshiruvidan o‘tkazish..... | 148 |
| 6.3. | Tijorat banklari daromadlari va xarajatlari auditi bo‘yicha tuziladigan auditor hisobotini tuzilishi..... | 158 |
| 7 BOB. | DEBITORLAR, KREDITORLAR VA QIMMATLI QOG‘OZLAR AUDITI | |
| 7.1. | Bankning debitor va kreditorlar holatini audit qilish tartibi..... | 166 |
| 7.2. | Tijorat banklari qimmatli qog‘ozlar auditi o‘tkazish..... | 170 |
| 7.3. | Bank ustav kapitalini auditdan o‘tkazish tartibi..... | 173 |
| 8 BOB. | VALYUTA OPERATSIYALARI AUDITI | |
| 8.1. | Banklarda valyuta operatsiyalarining turlari va auditi..... | 183 |
| 8.2. | Chet el valyutasidagi bank operatsiyalarini audit qilish tartibi..... | 192 |
| 8.3. | Bankning ichki valyuta bozorida konversion operatsiyalarini tekshirish..... | 200 |
| 8.4. | Ayirboshlash shahobchalarini audit qilish tartibi..... | 208 |

**9 BOB. TIJORAT BANKLARIDA ASOSIY VOSITALAR VA
KAM BAHOLI, TEZ ESKIRUVCHI
BUYUMLARNING AUDITI**

| | |
|---|-----|
| 9.1. Bankning asosiy vositalar auditini tashkil qilish va rejalashtirish..... | 212 |
| 9.2. Nomoddiy aktivlar auditi ahamiyati..... | 218 |
| 9.3. Kam baholi va tez eskiruvchi buyumlarning auditi..... | 229 |

**10 BOB. AUDITORLIK RISKLARI VA AUDITORLIK
XULOSALALARI**

| | |
|---|-----|
| 10.1. Auditorlik faoliyati bilan bog'liq risklar..... | 232 |
| 10.2. Auditorlik xulosalari va ularning turlari..... | 237 |

| | |
|--|------------|
| FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI..... | 245 |
| TESTLAR..... | 251 |
| ILOVALAR..... | 285 |

Malika Lutpillayevna Yadgarova
Rufat Baxtiyorovich Qurbonov

BANK AUDITI

Darslik

Muharrir **Sh. Bazarova**
Badiiy muharrir **K.Boyxo‘jaye**
Kompyuterda sahifalovchi **K.Boyxo‘jaye**

Nashr lits. AI¹ 305. Bosishga ruxsat etildi 16.10.2019.
Qog‘oz bichimi 60x84 1/16. Shartli bosma tabog‘i 18,4.
Hisob-nashr tabog‘i 19,2. Adadi 100.
49-buyurtma.

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi.
100000, Toshkent, Amir Temur ko‘chasi, 60^a.

«DAVR MATBUOT SAVDO»
bosmaxonasida ofset usulida chop etildi.
100198, Toshkent, Qo‘yliq, 4-mavze, 46.

ISBN 978-9943-13-849-0



9 789943 138490